

# PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

2/2024

**Bosh muharrir:**

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich  
(bosh muharrir o'rinbosari)

**Tahrir hay'ati:**

Djurayev Risbay  
Abdullayeva Shaxzoda  
Ibraimov Xolboy  
Djurayev Dusmurod  
Kamilova Nodira  
Quronov Muxammadjon  
Madjidova Dildora  
Mardonov Shukrullo  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Safarova Roxat  
Tojiboyeva Xitolaxon  
Xaydarov Mamat  
Xakimova Muxabbat  
Xodjayev Begzod

**Muassis** – Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

---

# PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND  
METHODICAL JOURNAL

**2/2024**

---

**CHIEF EDITOR**

Kirgizbaev Abdugaffor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich  
(deputy editor-in-chief)

**EDITORIAL BOARD:**

Djurayev Risbay  
Abdullayeva Shaxzoda  
Ibraimov Xolboy  
Djurayev Dusmurod  
Kamilova Nodira  
Quronov Muxammadjon  
Madjidova Dildora  
Mardonov Shukrullo  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Safarova Roxat  
Tojiboyeva Xilolaxon  
Xaydarov Mamat  
Xakimova Muxabbat  
Xodjayev Begzod

The founder: Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

## PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA

**MDH MAMLAKATLARINING YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHGA OID DAVLAT SIYOSATI**

**Tolipov O'tkir Qarshiyevich**, TDPU «Professional ta'lim metodikasi» kafedrasini mudiri, p.f.d., professor,  
**Pirniyazova Malika Kenesbayevna**, TDPU o'qituvchisi

**Annotatsiya.** MDH mamlakatlarining iqtisodiyotida yoshlar tadbirkorligi alohida o'rin tutadi. Mazkur mamlakatlarda aholining faol va mobil qatlami bo'lgan yoshlar tomonidan ilgari suriladigan tadbirkorlikka oid tashabbuslar jamiyatni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli Rossiya Federativ, Belarus hamda Qozog'iston Respublikalarida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning biznes faolligini oshirishga yo'naltirilgan davlat dasturlari va loyihalar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ularning ta'sirida ko'p sonli yoshlar o'zlarining boshlang'ich startaplarini yo'lga qo'ydi. Maqolada ana shu xususida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** MDH davlatlari, yoshlar, yoshlar tadbirkorligi, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish strategiyalari.

**ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО РАЗВИТИЮ МОЛОДЕЖНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА СТРАН СНГ**

**Толипов Уткир Каршиевич**, заведующий кафедрой  
«Методика профессионального образования» ТГПУ, д.п.н., профессор,  
**Пирниязова княгиня Кенесбаевна**, преподаватель ТГПУ

**Аннотация.** Особое место в экономике стран СНГ занимает молодежное предпринимательство. Предпринимательские инициативы молодежи, которая в этих странах является активной и мобильной частью населения, служат дальнейшему развитию общества. Поэтому в Российской Федерации, Беларуси и Казахстане реализуются государственные программы и проекты, направленные на развитие молодежного предпринимательства и повышение их деловой активности. Под их влиянием большое количество молодых людей запустили собственные стартапы. В статье речь идет об этом.

**Ключевые слова:** страны СНГ, молодежь, молодежное предпринимательство, развитие молодежного предпринимательства, стратегии развития молодежного предпринимательства.

**PUBLIC POLICY ON THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP OF THE CIS COUNTRIES**

**Tolipov Utkir Karshievich**, head of the department of «Methodology of professional education» of the TSPU, DSc, professor,  
**Pirniyazova Princess Kenesbaevna**, teacher of TSPU

**Abstract.** Youth entrepreneurship occupies a special place in the economy of the CIS countries. Entrepreneurial initiatives of young people, who in these countries are an active and mobile part of the population, serve the further development of society. Therefore, in the Russian Federation, Belarus and Kazakhstan, state programs and projects are being implemented aimed at developing youth entrepreneurship and increasing their business activity. Under their influence, a large number of young people have launched their own startups. The article talks about it.

**Key words:** CIS countries, youth, youth entrepreneurship, youth entrepreneurship development, youth entrepreneurship development strategies.

**Kirish.** So'nggi chorak asr mobaynida ijtimoiy-siyosiy tuzilmaning o'zgarishi, bozor munosabatlariga o'tish oqibatida Rossiya FRda ham aholi, shu jumladan, talaba-yoshlarni ham tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga amaliy harakatlar olib borilmoqda. Ana shu maqsadda 2006-2010 yillarga mo'ljallangan «Rossiya yoshlari» maqsadli dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturda ko'rsatilgan muhim yo'nalishlaridan biri – yoshlarning ijtimoiy, xususan, tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning o'z-o'zini boshqarish va mustaqil faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish berishdan iborat etib belgilandi.

**Asosiy qism.** Chorak asrdan ko'proq vaqt ichida RFda Rossiya biznes-ta'lim asotsiatsiyasi (RABO) tomonidan soha faoliyatiga qo'yilgan talablarga javob bera oladigan biznes-ta'lim tizimi shakllandi [14]. V.A.Vandishevning ko'rsatishicha, Rossiya FRda kichik tadbirkorlik subyektlari uchun kadrlarni tayyorlash tizimi ta'lim faoliyatini olib boruvchi muassasalar hamda ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarining turlarini o'zi ichiga qamrab oluvchi infratuzilmaga ega. Infratuzilma negizida ta'limiy xizmat turlari bo'yicha quyidagi muassasalar [15, 37-b.] faoliyat olib boradi (1-jadval):

1-jadval. Tadbirkorlik subyektlari uchun kadrlarni tayyorlash infratuzilmasi (Rossiya FR)

№	Xarakterli jihati	Muassasalar va ta'limiy xizmat turlari
1	Ta'lim faoliyatini olib boruvchi muassasalar	Davlat/nodavlat ta'lim muassasalari; jamoatchilik nazoratiga asoslangan biznes-assotsiatsiyalar ijtimoiy-ishbilarmonlik markazlari; o'quv-ishbilarmonlik markazlari innovatsion-texnologik markazlar; biznes-inkubatorlar; biznes-maktablar; biznes-markazlar; texnoparklar
2	Ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarining turlari	Tadbirkorlar va kichik tadbirkorlik bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakalarini oshirish tizimi; ta'lim xizmatlarini axborot bilan ta'minlash; konsalting xizmatlari; professional ta'limni o'quv-metodik qo'llab-quvvatlash; professional ta'limning marketing tizimi; professional ta'lim tashkilotchilarini tayyorlash

V.V.Klimuk, V.Degil [6, 214-b.] tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda Belarus Respublikasida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishga jalb etishda muayyan muammolarning mavjudligi aniqlangan. Mualliflar tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiylik xarakteriga ega komparativ (lot. «comparatio» – o'zaro bog'lash, yunon. «analysis» – ajratish, bo'lish [7]; demografik vaziyatning oddiy yoritilishidan mintaqadaning demografik rivojlanishiga oid mavjud holatni ifodalovchi dalillar ham qonuniylikni yoritish orqali o'xshash jihatlar va farqlarni, sabab va oqibatlarni, qayta o'zgarishlarning dinamikasi va tabiatini o'rganish) [2, 680-b.] metodni qo'llash natijasiga ko'ra, belarus yoshlarini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilish yo'lidagi asosiy to'siq va muammolar qatorida quyidalarni ko'rsatib o'tadi: yoshlar tadbirkorlik faoliyatining sust moliyalashtirilayotgani (2022 yilda - 45,4%, 2021 yilda - 23,3%), o'ziga xoslik tamoyiliga ega mualliflik (shaxsiy) g'oyalarning mavjud emasligi (2022 yilda - 14,9%, 2021 yilda - 14%), muvaffaqiyatsizlik va omadsizlik ro'y berishini taxmin qilgan holda tavakkal qila olmaslik (2022 yilda - 15,6%, 2021 yilda - 25,6%), puxta asoslangan g'oyaga, tadbirkorlik kompetensiyasiga, kuchli jamoaga, moliyaviy zahira kabilar negiziga quriladigan o'z kuchiga ishonch hissining yo'qligi.

Tadqiqotchilar, shuningdek, belarus yoshlarining tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ijobiy munosabatlarida quyidagi jihatlarning ustuvorligini ham aniqlashgan: shaxsiy biznesni yo'lga qo'yish istagining kuchliligi (2021 yilda 86,7%, 2022 yilda 86,9%), axborot texnologiyalari biznesini yuritishga qiziqishning yuqoriligi (2021 yilda 32,1%, 2022 yilda 32,5%), 2022 yilda muayyan sohalar bo'yicha biznes faoliyatining samarali

yo'lga qo'yilganligi (aholiga xizmat ko'rsatish - 27,4%, madaniyat - 21,8%, ta'lim - 19,7%), sifatli ta'limiy dasturlarning taqdim etilishiga nisbatan ehtiyojning o'sganligi (2021 yilda 85,1%, 2022 yilda 86,5%). Belarus yoshlarini ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatining tashkil qilishga undovchi rag'batlantiruvchi omillar sirasida quyidagilar yaqqol ko'zga tashlanadi: moddiy ahvolni yaxshilash (2022 yilda - 45% respondentov, 2021 yilga nisbatan 14,8% ga yuqori); jamiyatga foyda keltirish (2022 yilda - 30,7%, 2021 yilga nisbatan 9,8% ga yuqori); o'z-o'zini anglashga qaratilgan shaxsiy innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish (2022 yilda - 26,9%, 2021 yilga nisbatan 14% ga ko'p) [6, 212-213-b.].

«Belarus Respublikasida 2030 yilgacha yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish strategiyasi»da [12] mamlakat aholisining asosiy qatlamini ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish masalasi tahlil etilar ekan, dastlab mazkur jarayonning umumiy mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar – yoshlar tashabbusi, yoshlar tadbirkorligi kabilarning izohi yoritiladi. Hujjatda keltirilishicha, yoshlar tashabbusi – yoshlar vakillariga tegishli bo'lgan hamda ular tomonidan mahalliy, milliy va xalqaro miqyoslarda amalga oshiriladigan ijtimoiy ahamiyatli faollik, yoshlar tadbirkorligi – yoshlar tomonidan individual yoki tijorat tashkilotlari ta'sisчилari tarkibida, shu jumladan, startaplarda amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati ekaniga urg'u beriladi. Hujjatda tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi subyektlar sifatida 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan yoshlar e'tirof qilinadi. «Belarus Respublikasida 2030 yilgacha yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish strategiyasi»da [12] mamlakat aholisining faol qatlami bo'lgan yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish muammolari xususida ham so'z yuritiladi. Bu boradagi asosiy muammolardan biri – yosh fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati hamda ijtimoiy tadbirkorlikni tashkil qilishga bo'lgan qiziqishlarining pastligi ularning sohaga oid bilim va kompetensiyalarga yetarli darajada ega emasliklari bilan belgilanishi ko'rsatiladi. Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatining yoshlarni qiziqitira olishini ta'minlovchi shart-sharoitlar to'g'risida ham ma'lumotlar beriladi. Xususan, jamiyatda erkin iqtisodiyotning qaror toptirilishiga erishilsa, yoshlar tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil qilish yuzasidan mustaqil qaror qabul qila olishsa, xo'jalik faolligining istalgan shakli va sohasini mustaqil tanlay olsagina aholi faol qatlamida tadbirkorlik faoliyatini yuritishga bo'lgan qiziqish va motivatsiya kuchayadi. Mazkur mamlakatda ijtimoiy amaliyotga tatbiq qilingan yana bir muhim hujjat – «Belarus Respublikasida kichik va o'rta tadbirkorlik» davlat dasturi g'oyalarining to'laqonli ro'yobini ta'minlashga fuqarolar, shu jumladan, yoshlarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish orqali erishiladi. Bugungi kunda ana shu maqsadga erishish yo'lida amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga qaratilgan startap-tadbirlar o'tkazilgan bo'lib, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasida tegishli faoliyatni samarali yo'lga qo'yishga oid axborot materiallari chop etilgan va tarqatilgan; yoshlardan iborat kichik va o'rta biznes vakillarini zarur axborotlar bilan ta'minlanish maqsadida maxsus veb-portallar tashkil etilgan bo'lib, ular orqali xususiy biznesni tashkil qilish va olib borishga oid to'liq ma'lumotlar taqdim qilinadi. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish yo'lida Belarus Respublikasida MDH mamlakatlari yoshlar o'rtasida soha bo'yicha hamkorlikka erishish borasida ham salmoqli natijalarga erishilmoqda. Bu borada 2018-2020 yillarga mo'ljallangan tadbirlar rejasi doirasida amalga oshirilgan quyidagi ishlar e'tiborga loyiq sanaladi: «MDH mamlakatlari yoshlarining startap maydonlari»ni tashkil qilinishi; yoshlar ishtirokida biznes-stimulyatsiya bo'yicha o'yinlarning uyushtirilishi; "MDH mamlakatlari uchun 100 ta g'oya» xalqaro yoshlar loyihasining [8] amalga oshirilishi; «Yoshlar va tadbirkorlik» Xalqaro chempionati [16] hamda «Yosh tadbirkor» Respublika tanlovi [11] kabilarning o'tkazilishi. Shuningdek, mamlakatda 2012 yildan buyon «Qishloq yoshlarining tadbirkorlik faoliyati bo'yicha Xalqaro Forumi», «MDH ishtirokchi davlatlari yosh tadbirkorlarining Forumi» [4] izchil o'tkazib kelinmoqda.

S.P.Katsuboning [5] qayd etishicha, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish mexanizmini takomillashtirish orqali maxsus Internet-portalida yagona axborot

maydonining tashkil qilinganligi, tadbirkorlar ijobiy obrazlarining yaratilganligi, yosh tadbirkor-liderlarning tengdoshlariga tanishtirilganligi, o'z ish tajribalarini yoshlar bilan o'rtoqlashishga tayyor tajribali tadbirkorlarni jalb etgan holda maxsus ta'lim dasturlarining ishga tushirilganligi hamda ular bilan yoshlar o'rtasida o'zaro hamkorlikning qaror toptirilganligi, biznes-loyihalarni amalga oshirish uchun ishchan jamoalarning shakllantirilganligi kabi holatlar belarus yoshlari o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani kuchayishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Har qanday mustaqil davlatlar kabi Qozog'iston Respublikasi ham jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan samarali rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratmoqda. Yoshlarning intellektual potensialidan maqsadli foydalanish, ularni malakali kadrlar etib tayyorlash ana shunday e'tiborning ko'rinishlaridan biri sanaladi. Yoshlar – bir qadar tezkor va ta'sirchan ijtimoiy guruh sanalib, mamlakatning yaqin istiqboldagi rivojlanish vektori bevosita aholining ushbu qatlamiga bog'liqligi sababli ular har qanday davlat va jamiyatning yaxlit rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega [3, 72-b.].

Qozog'istonliklar – yetarli darajada yosh va dinamik o'sib borayotgan millat sanaladi. Binobarin, mamlakatning har ikkinchi fuqarosining yoshi 30 yoshdan past (3765,4 ming kishi, yoshlar hissasi mamlakat aholisi sonining 20,2% ini tashkil qiladi [1]. Shu bois mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatining mazmunini ifodalovchi strategiya ishlab chiqilgan. Qozog'iston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatida ularni tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilish, istiqbolli startaplardagi ishtiroklarini ta'minlash muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bugunga qadar ushbu yo'nalishda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Respublikada 2017-2021 yillarga mo'ljallangan «Yenbek» («Mehnat») davlat dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, bu dastur bevosita yoshlarni samarali ravishda ish bilan ta'minlash va ular orasida tadbirkorlikni keng targ'ib qilishga yo'naltirilgan. Hozirda davlat dasturi doirasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga oid tashabbuslarini qo'llashga qaratilgan «Bastau Biznes» («Biznesni boshlash»), «Jaskesipker» («Yosh tadbirkor»), «Biznes yo'l xaritasi: 2020» [10] kabi loyiha va dasturlar amalga oshirilmoqda. «Bastau Biznes» («Biznesni boshlash») loyihasi [13] Biznes-kommunikatsiyalarni rivojlantirish departamentining Tadbirkorlar milliy palatasi (TMP) «Atameken» («Otamakon» – «Ota yurt», «Vatan»; direktor – Baurjan Orazgaliyev) tomonidan amalga oshiriladi. Loyiha yosh tadbirkorlarga biznes faoliyatini boshlash uchun yordam ko'rsatadi. Loyiha doirasida yosh tadbirkorlar biznes asoslarini o'rganish hamda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun boshlang'ich kapitalga ega bo'ladi. Bu jarayonga davlat tomonidan har yili milliard tengge (milliy pul birligi) hajmida pul mablag'i ajratiladi. 2021 yil holatiga ko'ra Qozog'iston Respublikasida «Yenbek» («Mehnat») dasturida 172 ming fuqarolar ishtirok etgan bo'lib, ularning 33% ini yoshlar tashkil etgan. Dastur doirasida yoshlarni ijtimoiy ish o'rinlari bilan ta'minlashga ham ahamiyat berib, hozirga qadar «Yoshlar amaliyoti» dasturi bo'yicha 20 ming, boshqa ijtimoiy ish turlari bo'yicha 15 ming yoshlar ish o'rinlari bilan ta'minlangan. «Bastau biznes» («Biznesni boshlash») loyihasi doirasida esa, 5 mingdan ortiq yoshlar tadbirkorlik asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan ta'lim kurslarini yakunlagan bo'lsa, 900 nafar yoshlar o'zlarining biznes faoliyatini samarali yo'lga qo'yilishiga erisha oldi. 4,6 ming nafar yoshlar esa, o'z biznes-g'oyalarini amaliyotga tatbiq qilish uchun kichik grantlarni qo'lga kiritdi. Shuningdek, 3,4 mingdan ortiq yoshlar qisqa muddatli o'quv kurslarida tadbirkorlik asoslarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ldi [1]. Ayni vaqtda mamlakatda «Qozog'iston Respublikasining 2023-2027 yillarga mo'ljallangan yoshlarga oid davlat siyosati Konsepsiyasi» [9] asosida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish bo'yicha avval erishilgan yutuqlarni boyitish yo'lida amaliy ishlar olib borilmoqda.

**Xulosa.** Shunday qilib, MDH mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyati jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tizimining muhim tarkibiy elementi sanaladi. Shu bois ta'lim muassasalarida yoshlarni aholini ish bilan ta'minlash, fuqarolarning o'z-o'zini band qilishda alohida

ahamiyatli bo'lgan tadbirkorlik faoliyati asoslari bilan tanishtirish ta'lim dasturiga kiritilgan. Xorijiy mamlakatlarning tadbirkorlik ta'limi borasidagi tajribasi yoshlarning ko'p bosqichli jarayonda tizimli ravishda tadbirkorlik asoslarini puxta o'zlashtirishi ular tomonidan zamonaviy munosabatlarga tezkor, samarali moslashish, ijtimoiy faollikka erishish, iqtisodiy ehtiyojlarni mustaqil qondirish kompetensiyalarini o'zlashtirishda samarali ekanidan dalolat beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Аналитический отчет Бюро национальной статистики Агентства по стратегическому планированию и реформам Республики Казахстан «Молодежь Республики Казахстан». - Нур-Султан: Наука, 2020.

2. Шеломенцев А.Г., Козлова О.А., Бедрина Е.Б., Терентьева Т.В. Вопросы применения компаративного анализа в исследованиях демографического развития северных территорий // Фундаментальные исследования. - М., 2015. - № 5-3. - С. 680.

3. Джакупова Д.Е. Экономическая оценка реализации молодежной политики в Казахстане // Л.Н.Гумилев атындағы ЕҮУ хабаршысынын экономика сериясы. - Астана, 2021. - № 4. - С. 72.

4. Информация об итогах заседания Совета по делам молодежи государств - участников Содружества Независимых Государств (29-30 апреля 2021 года): <https://e-cis.info/cooperation/3131/92026>.

5. Кацубо С.П. О поддержке предпринимательских инициатив в молодежной среде: <https://core.ac.uk/download/pdf/275701114.pdf>.

6. Климук В.В., Дегиль В. Молодёжное предпринимательство в Республике Беларусь: анализ и направления развития // Социальное предпринимательство и корпоративная социальная ответственность. - М., 2022. - Т. 3. - № 4. - С. 212-214.

7. Компаративный анализ: <https://terme.ru/termin/komparativnyi-analiz.html>.

8. Международный молодежный проект государств - участников СНГ «100 идей для СНГ»: <https://cis.minsk.by/pro/100ideas>.

9. Об утверждении «Концепции государственной молодежной политики Республики Казахстан на 2023-2029 годы»: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/P2300000247>.

10. Об утверждении Программы "Дорожная карта бизнеса 2020": <https://adilet.zan.kz/rus/docs/P100000301>.

11. О Национальном конкурсе «Предприниматель года»: [https://economy.gov.by/ru/new\\_url\\_191887823-ru](https://economy.gov.by/ru/new_url_191887823-ru).

12. О Стратегии развития государственной молодежной политики Республики Беларусь до 2030 года: <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=C22100349>.

13. Проект "Бастау-бизнес": [https://inbusiness.kz/ru/tv\\_programs/atameken/proekt-bastau-biznes](https://inbusiness.kz/ru/tv_programs/atameken/proekt-bastau-biznes).

14. Чепуренко А.Ю. Предпринимательство как сфера социальных исследований: Россия и международный опыт: [https://www.researchgate.net/publication/282847838\\_Predprinimatelstvo\\_kak\\_sfera\\_socialnyh\\_issledovaniy\\_rossia\\_i\\_mezhdunarodnyj\\_opyt](https://www.researchgate.net/publication/282847838_Predprinimatelstvo_kak_sfera_socialnyh_issledovaniy_rossia_i_mezhdunarodnyj_opyt).

15. Шайхутдинова Г.Ф., Охотникова Л.В. Зарубежный опыт подготовки предпринимателей // Вестник Иркутского государственного технического университета. - И., 2014. - № 1. - С. 37.

16. XII Международный чемпионат startup-проектов «Молодёжь и предпринимательство» - 2022: <https://mspu.by/index.php/home/11493-news-30-05-2022-01>.

---

## YANGI O‘ZBEKISTON ISTIQBOLIDA INTEGRATSIYA VA INNOVATSIYALAR

*Bulatov Saidaxbor Sobitovich, TDPU professori, pedagogika fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada innovatsiya, integratsiya va yangi O‘zbekiston istiqbolini Samarqanddagi Registon majmuasidagi yodgorliklardan biri Sherdor madrasasining epigrafik yozuvlarining tarjima va tasniflari, buyuk madaniy merosimizni mohiyatini o‘rganish va uni zamonaviy binolarda foydalanishning targ‘ib etishda muhim o‘mi haqida bayon etilgan.

**Tayanch so‘zlar:** mohiyati, nahl, sura, Sherdor madrasa, hattotlik, epigrafika, xat turlari, peshtoq, arab yozuvi, suls, kufiy, toqi, guldasta, arxitektura, g‘oya, rabot, ramz, timsol, naqsh, xona, ilohiy, moviy rang, mantiq, geometrik, bezak.

## ИНТЕГРАЦИЯ И ИННОВАЦИИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

*Булатов Саидахбор Собитович, профессор ТГПУ,  
доктор педагогических наук*

**Аннотация.** В данной статье описан перевод и классификация эпиграфических надписей медресе Шердар, одного из памятников комплекса Регистан в Самарканде, как важное место в логическом изучении нашего великого культурного наследия и его популяризации.

**Ключевые слова:** нахль, сура, медресе Шердар, хаттолик, эпиграфика, типы букв, пешток, арабская вязь, сульс, куфик, токи, букет, архитектура, идея, рабат, символ, эмблема, узор, комната, божественный, синий цвет, логика, геометрический, украшение.

## INTEGRATION AND INNOVATION IN THE NEW UZBEKISTAN

*Bulatov Saidakhbor Sobitovich, professor of TSPU,  
doctor of pedagogical sciences*

**Abstract.** In this article, the translation and classification of the epigraphic inscriptions of the Sherdar madrasa, one of the monuments in the Registan complex in Samarkand, is described as an important place in the logical study of our great cultural heritage and its promotion.

**Key words:** nahl, sura, Sherdar madrasa, hattotlik, epigraphy, types of letters, peshtoq, Arabic script, suls, Kufic, toqi, bouquet, architecture, idea, rabat, symbol, emblem, pattern, room, divine, blue color, logic, geometric, decoration.

Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma‘rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma‘naviy mulki bo‘lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir [1].

*Shavkat Mirziyoyev*

**Kirish.** Samarqand necha asrlardan bo‘yon tengsiz tarixiy obidalari go‘zal me‘moriy yodgorliklari bilan dovuq qozonib kelmoqda. Bu ko‘xna shaharga kelayotgan turfa sayyohlarni yodgorliklarning mahobatiyu rangin naqshlari bilan birga ularning peshtoqlarga bitilgan yozuvlar ham qiziqtirishi tabiiy. Bu yozuvlarda nimalar ifoda etilganligini bilish yurtdoshlarimiz uchun ham, sayyohlar uchun ham nihoyatda qiziqarlidir.

**Asosiy qism.** Chilining mashxur shoiri Pablo Neruda shunday deb yozgan edi: «Meni, ayniqsa, Registon maftun etdi. Bu me‘moriy majmua butun musulmon Sharqida

ko'rgan obidalarimning hammasidan ko'ra ham go'zalroq. U O'rta Osiyo xalqlarining yuksak madaniyatidan dalolat beradi» [2]. O'zbekistonda hukmronlik qilgan sulolalarning har biri o'z davrida me'moriy qiyofasini shakllantirishga o'z hissasini qo'shgan. Tarixiy yodgorliklarning katta qismi saqlanib qolmagan yoki butunlay qayta qurilgan [3, 17-b.]. Masalan, Samarqand va Buxoro me'moriy obidalarining (shu jumladan, ulardagi noyob bitiklar) dastlabki tadqiqotchilardan biri – yosh islohotchi Muso Saidjonov 1929 yildayoq shunday yozgan ediki: «Samarqand va Buxoro yodgorliklaridagi yozuvlar – hali o'qilmagan kitob, ularda turli davrlarning ko'pdan-ko'p tarixiy ma'lumotlari bayon etilgan va bunday noyob qoidalarni boshqa, jumladan, qo'lyozma manbalardan topib bo'lmaydi» [4, 3-b.]. O'zbekistonda o'rta asrlar me'moriy bezaklarida me'moriy yodgorliklar, nafaqat san'at durdonalari, ayniqsa, epigrafika deb atalmish hattotlikning hayratomuz namunalarida yorqin namoyon bo'lgan o'zligimiz, ildizlarimiz, o'tmishimiz, ajdodlarimiz ma'naviy tarixini anglashning yana bir imkoniyati hisoblanadi [5, 9-b.].

Arxitekturada «epigrafika» (yunoncha – bitik)ning qo'llanilishi tegishli hudud yoki millatning diniy e'tiqodi va qarashlaridan kelib chiqib amalga oshirilgan. Epigrafika (yunoncha – yozuv) qattiq jismlar tosh, metall, sopol va boshqalardagi yozuvlar (bitiklar). Epigrafika yozuvlarini hattot ustalar bajarganlar. Hattotlik – arab husnixat yozuvi, kalligrafiya – yozuv (xat) san'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobalarini yaratish kasbi hisoblanadi. Yozuvning paydo bo'lishi natijasida yuzaga kelgan [6, 84-b.]. Tarixda uch mashhur hukmdor – Amir Temur, Ulug'bek Mirzo va Amir Yalangto'sh Bahodir o'zlari qurdirgan me'morchilik obidalari bilan Samarqandni «Yer yuzining sayqali»ga aylantirishgan. Amir Temur Samarqandni poytaxtga aylantirib, naqshinkor binolar silsilasini qurishni boshlab bergan bo'lsa, shaharning yuragi hisoblangan Registon maydoni Ulug'bek Mirzo davrida vujudga kelgandir (u vaqtda bu maydon «Sardavonak» deb atalib, taxminan «Sari jo'yi davonak» – «Tez oqar ariq boshi» ma'nosidadir). Ulug'bek bu maydonda madrasa, xonaqoh va karvonsaroy kabi uch binodan iborat o'ziga xos obidalar guldastasini yaratadi [7, 39-b.].

Chilining mashhur shoiri Pablo Neruda shunday deb yozgan edi: «Meni, ayniqsa, Registon maftun etdi. Bu me'moriy majmua butun musulmon Sharqida ko'rgan obidalarimning hammasidan ko'ra ham go'zalroq. U O'rta Osiyo xalqlarining yuksak madaniyatidan dalolat beradi» [2]. O'z davrida, Yalangto'sh Bahodir ham Ulug'bekning qurdirgan bu binokorlik majmuasining tuzilishini buzmaganda holda, vayronaga aylangan xonaqoh va karvonsaroy o'rnida Sherdor va Tillakori madrasalarini qurdiradi. Kezi kelganda shuni ham aytish joizkim Tillakor madrasasining masjidi ichkarisiga sarflangan oltinning o'ziga bir katta obida qurish mumkin bo'lgan (shuning uchun ham madrasa Tillakori deb, ya'ni «Tilladan ishlov berilgan» deb atalgan) [7, 39-b.].

Sherdor va Tillakori madrasalarini qurdirgan Yalangto'shbiy Bahodir bundan ham ulug'vor obidalar bunyod etishga qurbi yetar edi. Bu so'zni shuning uchun ham keltirayotirmizki, ba'zi xorijiy va mahalliy obidashunoslarning fikrlaricha, Yalangto'sh Bahodir Ulug'bek Mirzoning obidalaridan faqatgina ko'chirma olib, go'yo boshqacha tusdagi obidalaridan faqatgina ko'chirma olib, go'yo boshqacha tusdagi obidalar yaratishga uning davridagi ustalar qodir emas ekanlar. Vaholanki, Sherdor bilan Tillakori madrasalari Samarqand shahriga zeb berib turgan eng ko'rkam obidalarandir. O'zining «Olchin» urug'ini temuriylarning «Barlos» urug'idan kam ko'rmaydigan Yalangto'shbiy Bahodir kamtarlik qilib, temuriylarga hurmat yuzasidan, o'zining obidalariga Ulug'bek madrasa-sining tuzilishini nusxa qilib oladi. Boshqacha qilib aytganda, u Registon maydonida har xil obidalar

guldastasini barpo etishni xohlar edi [8]. Samarqand hokimi Bahodir Yalangto'shbiy ushbu binoni qurishda Ulug'bek madrasasidan o'zib ketishini maqsad qilib qo'ymagan. Aksincha, u sulton Ulug'bekka cheksiz hurmat-e'tibor ramzi sifatida uning ezgu ishlarini davom ettirgan. Sherdor madrasasi bosh peshtoqida ilohiy kalimalar, Alloh va uning rasuli Muhammad payg'ambarning ulug'lanishi haqidagi oyat va hadislar bor. Ularga shu darajada jozibali va maftunkor ishlov berilganki, yozuvlarni go'zal naqshlardan ajratib o'qish nihoyatda qiyin. Xattotlik san'ati zeb-ziynatlar bilan naqshlangan bu yozuvlarni noyob san'at asariga ayantirgan. Sherdor madrasasidagi bitiklardan anglashildiki, ushbu madrasa Hovon Imomquli Muhammadxon roziligi bilan Amir Yalangto'shbiy Bahodir tomonidan bino etilgan. U xijriy 1042 (melodiy 1619) yilda qurib bitkazilgan. Qur'oni Karimdagi «Nahl» surasining oyatlari madrasani bunyod etishga asos qilib olingan [7, 39-b.]. Masalan, Peshtoqda baxshida bitik mavjud. Tarjima qilinganda quyidagi mazmunn beradi: «Bu oliy ilm madrasasi yalovbardor podshoh buyuk xoqon zamonida bunyod etildi». Alloh taolo ulug' Kitobida: «Albatta, Alloh adolatga, ezgu ishlarga va qarindoshga yaxshilik qilishga buyurur» (Quroni karimning «Nahl» surasi, 90-oyat), – deydi. Alloh taolo to'g'ri aytdi. Va u (xoqon) Imomquli Muhammadjon (bu binoni qurishga) harakat qildi va bu binoning quruvchisi buyuk amir Yalangto'sh Bahodir yaxshilik maskanlari (yani ushbu ilm dargohlari)ga asos solishga qiziqishi bo'lgani uchun sa'y va tashabbus qildi. Binoning qurilishi va ziynatlanishining tugallanishi 1042 (1632) sanaga muvofiq keladi [5, 47-b.].

Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalaridagi bitiklar kufiy, suls, nasta'liq xat usularida yozilgan bo'lib, o'sha davrining usta hattotlari bor mahorat va istedodlarini namoyish etganlar. Yozuvlar, asosan, Qur'oni karim oyatlari, hadislardan iborat bo'lsa-da, bosh peshtoq o'rtasidagi ichki ravoq devorida madrasa tarixiga taalluqli yozuvlar ham asl holatida saqlanib qolgan [9]. Samarqanddagi Sherdor madrasasi bezaklarini bezashda Yalangto'shbiy Baxodimning piri bo'lmish avliyo Xoji Xoshimiy Daxbediy epigrafik naqshlarni mantig'iy yechimini va tizimini juda to'g'ri tanlab asosiy konseptual asosini Qur'oni Karimdagi «Nahl surasi»ni tanlab oladi. Sherdor madrasasini bezashda Qur'oni Karimdagi «Nahl» surasining oyatlarini konseptual asos qilib olinishining buyuk xikmati va ibрати nimada ekan? degan savol tug'iladi. Hozirgacha bu savolga javob topilmagan edi. Biz shu savolga javob berishga harakat qilib ko'ramiz.

Hayotda – yon-atrofimizda shunday oqil insonlar yashab o'tganligi ularning sa'i-harakati bilan dunyo go'zallashib borganni mantiqan anglab, inson hayratga tushadi. Darhaqiqat, olamni va olamdagi barcha narsalar mukammal yaratilganligi va ularga Alloh tomonidan bajaradigan vazifalar yuklatilgan. Yer sharida tog', pashsha, asalari va boshqalar bo'lmaganda nima bo'lardi? Masalan, asalarilar dunyoda 10 yil bo'lmasa hayot bo'lmasligini dunyo olimlari o'z isbotini topdilar. Yuqoridagi savolga javobni Qur'oni karimning «Nahl» suradagi oyatlardan topdik. Muqaddas kitobimiz «Quroni Karim»ning Nahl surasi [10] 128 ta oyatdan iborat bo'lib, uning 68 va 69 oyatlarida asalarilar haqida shunday deyiladi: «(Ey, Muhammad!) Rabbingiz asalarilarga vahiy (buyruq) qildi: Tog'larga, daraxtlarga va (odamlar) quradigan narsalarga in quringiz» [11]. «So'ngra turli mevalardan yeb, Parvardigoringiz (siz uchun) qulay qilib qo'ygan yo'llardan yuringiz! Ularni qorinlardan odamlar uchun shifo bo'lgan turli rangdagi sharbat (asal) chiqur. Albatta, bunda fikr yuritadigan qavm uchun alomat bordir» [11]. Asalarini har tomondan tahlil qilib ko'radigan bo'lsak. Alloh tomonidan asalarilarni bekorga yartiilmaganligi va ularni shakllari oltin kesim asosida yaratilganligini hamda Alloh tomonidan vazifalar yuklatilganligini ko'rish mumkun. Asalarilarni bir vaqtda turli joylaridan in yasashni boshlab, bir hilda tugatishadi. Juda

katta aniqlikda in qurishiga arxitektorlar qoyil qolmoqdalar. Avvalom bor, «Nahl» surasini ko'rib chiqadigan bo'lsak Nahl asalarilar degan ma'noni anglatadi. «Surada asalarning namunalari hayot tarzi haqida oyatlar mavjudligi uchun unga shu nom berilgan. Surada qiyomatni takror-takror eslatib, o'sha kunga puxta tayyorgarlik ko'rishga da'vat etiladi. Unda boshqa suralardagi kabi shirk, kufr, noshukurlik kabi illatlar qoralanib, imon, etiqod, shukr solih amallarga tashviqot etiladi» [11]. Ushbu berilgan ikki oyatni majoziy ma'nolarini ko'rib chiqamiz. «Alloh taoloning hayvonotlarga, jumladan, asalariga vahiy qilishi unga ilhom berishi hisoblanadi. Alloh taolo asalarini yaratganda unga bir his-tuyg'u hamda ilhomni qo'shib bergani uchun, u ko'pgina aqlli insonlar qila olmaydigan aniqlik bilan o'ziga topshirilgan ishini bajaradi. Jumladan, tog'lardan, daraxtlardan va odamlar ko'tarib qo'ygan so'ritok kabi narsalardan o'ziga uy tutadi» [12, 345-346-b.]. Asalari dunyoda mukammal holda yuborilganidek, u tinim bilmasdan bol yig'adi, yaxshilik urug'ini ekadi. Dunyoda shunday insonlar borki, ular ham asalaridek tinim nimaligini bilmaydi, o'qiydi, o'rganadi va o'rganganlarini boshqalarga o'rgatadi, yana izlanishda davom etadi.

Naqshbandiya tariqatining vakili Yalangto'shbiy Bahodirning piri Hazrati Hoshimxoijai Daxbediy maslahati bilan «Nahl» surasi orqali Yalangto'shbiy Bahodirning ramziy ma'noda asalariga qiyoslanganligi aniqlandi. U Yalangto'shbiy Baxodirni asalariga o'xshatish orqali insonlarga uqtiradiki bu dunyo o'tkinchiligini har bir inson o'zidan faqat yaxshi ibratli narsalarni o'rganib, o'zidan faqat yaxshi amallar qoldirish kerakligini chaqiradi. Qur'oni Karimdagi «Nahl» surasini 68-69 oyatlaridan keyin 70 oyatda bekorga insonlarga bag'ishlanmagan. Endi insollarni Alloh nima uchun yaratilganligi va ularga nima vazifalar yuklatilganligi va ular fonyi dunyo abadiy emasligi banda, albatta, oxiratda javob berishi shuning uchun o'zligini anglab ezgulik yo'lida yurishlikka chaqiriladi. Qur'oni Karimdagi «Nahl» surasini 70-oyatida shunday deyiladi: «Alloh sizlarni yaratgandir. So'ngra sizlarni vafot ettiradir. Ichingizda bilimli bo'lgandan so'ng, hech narsa bilmasligi uchun, umrning eng zaifligiga qaytariladiganlar bor. Albatta, Alloh bilguvchi va qodirdir» [12, 347-b.]. Endi ushbu nahl surasining 70-oyatni tavsifini ko'rib chiqamiz. Odamlarni yaratgan zot Allohdir. Shuning uchun ham inson Yaratguvchisiga shukrda, iymonda va ibodatda bo'lmog'i lozimdir. Lekin ko'pchilik bunday qilmaydi. Noshukr, kofir va osiy bo'ladi. Hamma bilib qo'yishi lozim. Tabiiyki, vafot ettirgan Zot hisob-kitob ham qiladi. O'limdan oldin bunga ham tayyor bo'lishi kerak. Buni ham o'ylab qo'yish lozim. Agar ishlar insonning istagicha bo'lsa, odamzod o'limni xohlamagandek, qarib, aql-xushi ketib, hech narsaga yaramaydigan bo'lib qolishni ham hech istamasligi aniq. Ammo o'lim ham, qarilik ham undan so'ramay keladi. Insonlar o'limdan va'z-nasihat olgandek, qarilikdan ham o'zlariga pand-nasihat olishlari lozim. U Zot hamma narsani bilib qiladi. U Zotning hamma narsaga qudrati yetadi [12, 347-b.]. Sherdor madrasasining yozuvlari xalqni hidoyat va ma'rifot yo'lga boshlash bilan birga, XVII asr hattotlik san'atining nodir namunalaridan hisoblanadi. Registon majmuasidagi yodgorliklar – Ulug'bek madrasasi, Sherdor va Tillakori madrasalari yozuvlarining tarjima va tasniflari buyuk madaniy merosimizni mantiqan o'rganish va uni targ'ib etishda muhim o'rin tutadi. So'ngi yillarda yurtboshimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan izlanishlar natijasida, ko'plab obidalar, me'moriy yodgorliklar va amaliy san'at namunalardagi xat bezaklari qayta tiklandi. Lekin, hali O'zbekistonda o'z ma'nosini oshkor etmagan hamda o'rganilmagan naqshni va noma'lum uslubli yozuvlar bisyor. Ularni atroflicha, mantiqiy, ilmiy asoslangan holda chuqur tadqiq etish olimlarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

**Xulosa.** O'zbekistonning tarixiy, madaniy hayotida katta ijobiy rol o'ynagan Samarqandning Yalangto'shbiy Bohodirbek asl farzandi vatanparvar o'z tarixini, qadriyatini tiklanishini Dahbeddagi qabrda tinchgina kutib yotibdi.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги йиғилишидаги Ўзбекистонда ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида номли // Маърифат. - Т., 2017. - 24-июн. - 50 (9011)-сон.

2. Неруда. Пожелтевшие страницы. 52-6. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар: Самарқанд. Регистон / Ф.Абдухоликов, Э.Ртвеладзе, А. Хақимов, Б.Абдуҳдлимов, Б. Бобожонов, А. Мансуров, А. Маннонов, Н. Мухамедов, А.Раззоков, К.Рахимов, Б.Маъруфий. - Т.: Uzbekistan Today, 2015. - 368 б.

3. Ўзбекистон обидалари битиклар. Бухоро. 1-қисм. - Т.: Uzbekistoh today, 2016.

4. Саиджонов М. Бухоронинг тарихий обидалари // Регистон - Маориф ва ўқитувчи. - 1929. - 1-2-сон.

5. Ўзбекистон обидалардаги дурдона битиклар // Ўзбекистон маданияти ва санъати форуми. - Т., 2011.

6. Саипова М.С. Рамзшунослик: Дарслик. - Т.: Фан ва технологиялар, 2021.

7. Булатов С.С., Пфлатова М. ГФзалликдаги коинот фалсафаси: Монография. - Т.: Иқтисод-молия, 2013.

8. Каттаев К. Маҳдуми Аъзам ва Даҳбед. - С.: Сугдиёна, 1994. - Б. 49-53.

9. Ҳасанов қ., Маъруфий Б. Регистон обидалари ёхуд битиклар тилга кирганда // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - Т., 2008. - 19 декабрь.

10. Нақл - асарлар // Қуръони Карим / Таржима ва изоҳлар муаллифи А.Мансур. - Т.: Шарқ, 2000.

11. Қуръони Карим / Таржима ва изоҳлар муаллифи А.Мансур. - Т.: Шарқ, 2000.

12. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 3-туз. ва тўлд. қайта нашр. - Т.: Ҳилол-Нашр, 2018.

**PEDAGOGIK YONDASHUVLAR BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIVAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ASOSI SIFATIDA**

**Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna**, *TDPU professori, pedagogika fanlari doktori*, **Dadaxodjaeva Ma'noxon Nasirovna**, *TDPU tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda pedagogik yondashuvlarning nazariy jihatlari muhokama qilingan.

**Tayanch so'zlar:** yondashuv, tarbiya, tizim, kompetentsiya, imkoniyat, faoliyat.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ КАК ОСНОВА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**Вохидова Норпошшахан Хабибуллаевна**, *профессор ТГПУ, доктор педагогических наук*, **Дадаходжаева М.Н.**, *исследователь ТГПУ*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены теоретические аспекты педагогических подходов в подготовке будущих учителей к воспитательной деятельности.

**Ключевые слова:** *подход, образование, система, компетентность, возможность, деятельность.*

**PEDAGOGICAL APPROACHES AS THE BASIS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR EDUCATIONAL ACTIVITIES**

**Vokhidova Norposhshaxon Xabibullayevna**, *professor of TSPU, doctor of pedagogical sciences*, **Dadakhodjaeva M.N.**, *researcher of TSPU*

**Abstract.** This article examines the theoretical aspects of pedagogical approaches in preparing future teachers for educational activities.

**Key words:** *approach, education, system, competence, opportunity, activity.*

**Kirish.** Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yanada takomillashtirish ta'limning sifatli natijadorligiga qo'yilgan talablarni hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishni mazmun jihatdan boyitishni talab qilmoqda. Bugun zamon bo'lajak o'qituvchilardan o'z kasbining mohir bilimdoni bo'lishni, egallayotgan sohasining sir-asrorlarini puxta o'zlashtirgan, o'zini o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z bilimi va iqtidorini to'laqonli ravishda jarayonga joriy eta oladigan mutaxassisga bo'lgan talabni qo'yimoqda.

**Asosiy qism.** Oliy ta'lim muassasalari ta'limini sifat jihatidan takomillashtirishga qo'yilayotgan talablar sirasiga: pedagogik jarayonlarda bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo muloqotga tayyorlash, subyekt-subyekt munosabatlariga kirishish; tarbiyaviy faoliyatga kompetensiyaviy yondashuv; tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga innovatsion yondashuv, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatda texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga oid bilimlar bilan qurollantirish; ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish; tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga oid zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirishlari uchun maqbul imkoniyatlarni yaratish hamda tarbiyaviy faoliyatni muntazam takomillashtirish metodlarini o'zlashtirishlari kabilarni kiritish mumkin. Keltirilgan vazifalarning amaliy jihatdagi ijrosi ta'lim-tarbiya muassasalarida tashkil etiladigan tarbiyaviy faoliyat jarayonidagi muammolarni bartaraf etish bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishlariga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil

31-dekabrda 1059-son «Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi» Qarori [1]

hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi [2] farmonida shaxs kamoloti va tarbiya masalalarining maqsad va vazifalari belgilanib, uni amalga oshirishda oila va uzluksiz ta'lim munosabatlarini muvofiqlashtirish belgilab qo'yilgan. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da tayyorgarlik tushunchasining quyidagi ikki xil ta'rifi keltiriladi: funksional (subyektiv) – shaxsning o'zini faoliyatni amalga oshirishga qodir deb biladigan, uni bajarishga intiladigan holati hamda mazmuniy (obyektiv) – subyektida faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xossalari, sifatlar, bilimlar va malakalarning shakllantirilganligi [3]. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy maqsadi mustaqil ijodiy tafakkurga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashdir. Bunda, albatta, faqatgina maxsus bilimlarga ega bo'lgan mutaxassisni tayyorlash uchun yetarli emas, shaxsning intellektual kompetentlikka ega bo'lishi, ijodiy salohiyatiga egalik darajasini hisobga olish kerak.

Kasbiy tayyorgarlik – dinamik hodisa bo'lib, ko'pgina ichki va tashqi omillar bilan determinatsiya qilingan. Shuning uchun ham uning mohiyati va ko'rsatkichlarini aniqlashda ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelamiz.

Tizimli-tuzilmaviy tahlil va faoliyatli yondashuv kasbiy tayyorgarlikni quyidagi bosqichlar orqali tavsiflab berish imkonini beradi: 1) kasbga moslashish; 2) talabning bilish-kasbiy faoliyatida o'z-o'zini dolzarblashtirish; 3) talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatning shakllantirishi bilish-faoliyatli yondashuvda yuz berishi (bu bosqichni biz malakaviy amaliyotga tenglashtiramiz); 4) ijodiy pedagogik faoliyatning barcha qadamlarini bajarish zarurligini his qilishni ko'zda tutuvchi pedagogik tadqiqotni bajarishdagi shaxsiy sifatning shakllanishi, ijodiy ruhlanish [4].

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz: bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligiga zamonaviy talablar va o'qituvchining professional malakasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini, shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir kompetentligini oshirishga qaratilgan aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayonlarni tashkil etish; zamonaviy sharoitda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishdagi ilg'or qarashlar, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari kengayib borayotganligi va bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tashkil etishga to'g'ri yo'naltirish kabi vazifalarni hal etish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga qaratilgan quyidagi yondashuvlar ishlab chiqildi.

1. Shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv – bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlayotgan yo'nalishlar xususiyati hisobga olinib, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning mavjud va shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida o'zini to'liq namoyon etish imkoniyatini yaratish, tafakkurini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish nazarda tutildi. Mazkur yondashuvning afzallik jihati, bo'lajak o'qituvchilar shaxsini hurmat qilishga asoslanib, imkon qadar uni o'z-o'zini rivojlantirishi uchun qulay shart-sharoitni yaratishni nazarda tutadi. Bu turdagi yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda kreativlik, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu yondashuv pedagogdan har bir bo'lajak o'qituvchi shaxsiga individual yondashishni, uning individualligini tan olishga asoslanish, uni qo'llab-quvvatlashni talab etadi.

2. Texnologik yondashuv – maqsadlarga erishishni kafolatlab beruvchi jarayon bo'lib, tarbiyaviy faoliyat mazmunini to'liq o'zlashtirish, texnologiyalarga asoslangan tashkil etish jarayonini nazarda tutadi. Texnologik yondashuv bo'lajak o'qituvchilar tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir egallashlari kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarni qisqa fursatlarda o'zlashtirishlariga hamda o'z faoliyatining kompetentli mutaxassisi bo'lish

imkonini beradi. Shu bilan bir vaqtning o'zida, texnologik yondashuv tarbiyaviy faoliyat jarayonidagi turli nostandart vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa olish, zaruriyat tug'ilganda faoliyat mazmuniga turli o'zgartirishlar kiritish, tarbiyaviy faoliyat jarayoni samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishlaridagi to'laqonli faolliklarini nazarda tutadi.

3. Motivatsion-maqsadli yondashuv – turli xil tarbiyaviy yangiliklarning yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, ilg'or xorijiy tarbiyaviy yangiliklar va ularni o'zlashtirish, milliy va umummadaniy qadriyatlar va an'analarni inobatga olib pedagogik faoliyatlarda ulardan samarali va to'laqonli foydalana olish kompetensiyalarini takomillashtirish, mavjud shart-sharoitlarning mahalliyligi, istiqbolda o'z pedagogik faoliyatlarida ta'limga oid eng so'ngi yangiliklar va innovatsiyalardan unumli foydalanishga doir tajribalarini takomillashtirishga qaratilishini nazarda tutadi. Motivatsion yondashuv samarali bo'lib, u nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Nazariy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning psixologik mexanizmlarini o'rgatga – amaliy ahamiyati – nazariy bilimlarga asoslangan holda o'quvchilarga ijobiy motivlarni shakllantirishi bilan izohlanadi.

4. Qadriyatga asoslangan yondashuvda jamiyatning ma'naviy yuksalishi va takomillashuvida, yoshlarning zamonamizning ilg'or kishilari sifatida kamolga yetishlarida milliy-madaniy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish nazarda tutiladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan tarbiyaviy faoliyat mazmuni bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy qiyofasini ma'rifatga qaratib o'zgartiradi, ularda milliy qadriyatlarimizdan tom ma'noda faxrlanish asosida jamiyatimiz uchun savobli va foydali ishlarni qilishga rag'bat uyg'otadi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilar tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

5. Kompetensiyaviy yondashuv – bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda kompetentli yondashuvga tayanish asosli ekanligi ko'rindi: kompetentli yondashuv qo'llanilganda, mutaxassis tomonidan nafaqat tarbiyaviy faoliyatga oid bilimlarni o'zlashtiriladi, balki bu jarayon mazmuni, uni tashkil etish yo'llari, shakllari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish bilan bir birga mazkur faoliyatni tashkil etish vazifalarini hal eta olish ko'nikmalarini ham o'zlashtirishini nazarda tutadi, bu esa, notanish vaziyatlarda ham maqsadli harakat qilish deganidir. Zero, kompetensiyaga asoslangan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat bo'lajak o'qituvchilarda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim ekanligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, tadqiqot ishida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash kompetensiyalarining quyidagi jihatlari aniqlandi: o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka, mahsuldor faoliyat sifati va natijalarining ijtimoiy-shaxsiy ahamiyatligi; shaxsiy kasbiy takomillashuvning bo'lajak o'qituvchi xulq-atvorida ifodalanishi; kasbiy kompetensiyaning milliy madaniyatning ifodasi sifatida aniq egallanganishi; tarbiyaviy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo'lgan pedagogik qo'llab-quvvatlashning o'z vaqtida ko'rsatilishi; tarbiyaviy faoliyatda natijaga erishish imkonini beradigan dasturlarning tanlanishi.

6. Innovatsion yondashuv – bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish madaniyatini rivojlantirish (ularda tarbiyaviy faoliyat maqsadi, mazmuni, mohiyati va ularning o'zaro bog'liqligi haqida adekvat tasavvurlarni shakllantirish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha asosli mulohazalar yuritish, ma'lum bir tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat jarayonidagi vaziyatlarni tahlil etish malakasini rivojlantirish, amaliy tajribasini orttirish); yangi O'zbekistonni quruvchilarini mamlakatimizda bo'layotgan strategik o'zgarishlarga ijtimoiy moslashuvi va unda to'g'ri yo'l tanlash, qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish, ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga oid bilim; ma'lum bir hayotiy vaziyatlarda to'g'ri tanlovni amalga oshirish, qaror chiqara olish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish; o'z-o'zini tarbiyalash,

tashabbuskorlik va faol hayot tarziga o'rgatish asosida yondashuvdir [5].

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, tarbiyani samarali tashkil etishga tizimli yondoshuv ta'lim tizimidagi ko'pgina muammolarni hal etishga ham imkoniyat yaratadi. Tarbiya ishlarini tashkil etishga qiziqishning ortishi esa, ta'lim va tarbiya jarayonlarini birgalikda olib borishning ta'lim muassasalaridagi o'rni va ahamiyati, statusini oshirib borishi bilan ham izohlanadi. Shu sababli, bo'lajak pedagoglarda qisqa muddatda tahliliy materiallar asosida kelajakni o'ylab qabul qilinadigan qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini shakllantirish; ta'lim oluvchilar, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, xususiy kompaniyalar vakillari bilan samarali muloqot usullariga, jumladan, o'z imidjiga ega bo'lish kabi qobiliyat kabilarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Tadqiqot natijasida quyidagi ishlar amalga oshirildi: 1. «Tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik» tushunchasi mohiyati va strukturasini aniqlandi, mazkur tushunchaning o'qituvchiga nisbatan mazmunini aniqlashtirildi. 2. Oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga mavjud yondashuvlar tahlili keltirildi. 3. Bo'lajak o'qituvchilarning asosiy va maxsus kompetentligini rivojlantirish komponentlarini ajratib ko'rsatildi. 4. Bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikka doir kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv kursi strukturasi va mazmunini ishlab chiqildi. 5. Ishlab chiqilgan o'quv kursi bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash o'quv jarayoniga joriy etildi va talabalarda ularning nazariy va amaliy bilim olishlarida qadriyatli munosabatlarni shakllantirish, bo'lajak kasbiy-mutaxassislik faoliyati uchun ularning ahamiyatini shaxsan anglash sharoitlarini yaratildi. 6. Ishlab chiqilgan kurs vositasida bo'lajak o'qituvchilarni eksperimental tayyorlash (nazariy tayyorlash doirasida) va ularni amaliy faoliyatga kiritish jarayonida maxsus kompetentsiyalarini rivojlanganlik o'sish dinamikasini tahlil qilindi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son «Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi» qarori.
2. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.
3. Begmatov E., Madvaliev A. va boshq. O'zbek tilining izohli lug'ati. - II jild. - T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 606 b.
4. Ходжабоев А.Р. Учебно-методический комплекс подготовки учителей трудового обучения: Методические рекомендации. - Т.: УзНИИПИ, 2009. - 93 с.
5. Voxidova N.X. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish: Ped. fanl. d-ri (DSc) ... Dis. - T., 2023. - 238-b.

---

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KASBGA QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHLTLARI**

*Djamilova Nargiza Nuritdinovna, TDPU professori, p.f.d. (DSc)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirishning pedagogik jihatlari yoritilib berilgan.

**Tayanch soʻzlar:** bola, katta maktabgacha yosh, qiziqish, shakllanish, rivojlanish, maktabgacha yosh, taʼlim, tarbiya.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ИНТЕРЕСА К ПРОФЕССИИ**

*Джамилова Наргиза Нуритдиновна, профессор ТГПУ, доктор педагогических наук (DSc)*

**Аннотация.** В данной статье раскрыты педагогические аспекты формирования интереса у детей старшего дошкольного возраста к профессии.

**Ключевые слова:** ребёнок, старший дошкольный возраст, интерес, формирование, развитие, дошкольный возраст, образование, воспитание.

**PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF INTEREST IN THE PROFESSION IN OLDER PRESCHOOL CHILDREN**

*Djamilova Nargiza Nuritdinovna, professor of TDPU, doctor of pedagogical sciences (DS)*

**Abstract.** This article reveals the pedagogical aspects of the formation of interest in the profession among older preschool children.

**Key words:** child, senior preschool age, interest, formation, development, preschool age, education, upbringing.

**Kirish.** «Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida»gi qonunda [1] har bir bolaning taʼlim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi, har bir bolaning isteʼdodi nishonlarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit teng boʻlishi taʼkidlangan. Bola shaxsini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan shaxsiy yondashuv asosida taʼlim-tarbiya jarayonini olib borish, ularni har tomonlama rivojlantirish maqsadida innovatsion axborot va kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etishni talab etadi. Kasb – bu insonning mehnat faoliyati; doimiy mashgʻulot turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan, bilim, mahorat, tajribani talab etadi [2]. Kasb – inson zarur boʻlgan, boʻsh vaqtda shugʻullanadigan, Vatani uchun xizmat qiladigan ishdir. Hayotda kasblar shunchalik koʻpki, olimlarning taʼkidlashicha, dunyoda 40 mingdan ortiq kasblar mavjud.

**Asosiy qism.** Inson hamma biror kasbni egallashi uchun oʻqishi va taʼlim olishi lozim. Kasbga qiziqishni biz eng avvalo yoshlikdan bolalarda ayniqsa, maktabgacha boʻlgan davrda shakllantirishimiz lozim. Buning uchun biz bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim. Bu borada yurtimizda yoshlarni kasbga yoʻnaltirish, ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ishlari doirasida bir qator huquqiy-meʼyoriy asoslar ishlab chiqildi. Shunga koʻra, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim.

Yosh avlodni mehnatsevarlikka, kasb-hunarga oʻrgatish borasida sharq mutafakkirlari, olimlari oʻz asarlarida, qarashlarida oʻz ifodasini topgan. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr

Farobiy kasb-hunar to'g'risidagi ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta'lim – so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish – harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan.

Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda podshohlar ham o'zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo'lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat ulug' tug'ma fazilat va ulug' (kasb-hunar) fazilati odat – malaka bo'lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo'ladi, bunday odamlar cheksiz, juda kuchli tabiat va irodaga egadirlar [3].

Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri – Abu Ali Ibn Sinodir. Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo'lib, bolaning fe'l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g'oyalar qo'llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma'qulligini ko'rsatgan. Mutafakkirning «Donishnoma», «Risoi ishq», «Uy xo'jaligi», «Tib qonunlari» asarlari mamlakatimiz xalklari odob-axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o'rin tutadi [4]. Mutafakkirning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi.

Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlargagina egadir, unga o'xshagan insonlar kamdan-kam bo'ladi. Abu Ali Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim, deb hisoblaydi. O'spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o'spirinlardan sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini tahlil qilgan. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo'lib voyaga yetishi ajdodi va kelib chiqishiga, hayotda shug'ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog'liqligini aytib: «Kimning nasli otadan boshlab toza bo'lsa, undan elga yaxshilik, ko'p manfaatlar keladi», – deb hisoblaydi [5].

Abu Rayhon Beruniy (978-1048) ham mamlakatning obodonchiligi, kishilarning baxt-saodati va kamolati uning halol mehnat qilishida va kasb-hunar o'rganishida deb biladi. U kasb-hunar, ixtirolashga, turli asboblarni yasashga bag'ishlab 9 ta asar yozgan. Asarlarida o'zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb-hunarga oid qimmatli mahlumotlar berilgan. U mamlakatning obodonchiligi, kishilarning baxt-saodati va kamolati uning halol mehnat qilishida va kasb-hunar o'rganishida deb biladi. U kasb-hunar, ixtirolashga, turli asboblarni yasashga bag'ishlab 9 ta asar yozgan. Asarlarida o'zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb-hunarga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan [6].

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'z zamonasida zargarlar, kulollar, tikuvchilar kabi turli tuman hunar sohiblarining hammasiga zo'r hafsala, qunt, ehtibor bilan maslahatlar berib, husniga rag'bat ko'rsatib hamda ularga homiylik qilganlar hamda o'z asarlarida yosh

avlodni kasb-hunarga o'rgatish borasida ham o'z fikrlarini bayon etganlar. Alisher Navoiyning fikricha «Inson bo'lib dunyoga keldingmi? Biron-bir kasbni egalla, hunar o'rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o'tmaysan», – deydilar [6].

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida shunday deyiladi: «Farzandlarga odob-hunar o'rgatmak merosdur. Sen odob, hunar va donishini o'zingdan meros qilgin, toki uning haqqini bajo kelturmish bo'lgaysan. Chunki xos kishilarning farzandiga odob va hunardan yaxshiroq meros yo'qdir. Oliy xaloyiqning farzandlariga xirfa (savdo hunari) pasha (kasb) din yaxshiroq meros yo'qdir. Agar xos odamlarning farzandlari yuz hunar bilsa va lekin hech kasbni bilmasa ayb emasdur. Hunar esa, bir kun ishga yaragusidir. Demak, albatta, hunar o'rganmoq zarurdir. Ushbu asar juda qimmatli asar bo'lib, unda kasb-hunar egalalsh zarurligi masalalari keltirib o'tilgan» [7]. O'zining ta'lim-tarbiya, ahloq nafosatga doir fikr mulohazalari bilan XIX asrda shuhrat qozongan Ahmad Donish o'qituvchilik kasbi haqida bir qancha fikr mulohazalarni bildiradi.

Ahmad Donish kasb tanlash, kasb yo'naltirish kasb egalari xususidagi fikrlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning o'qituvchilik kasbi xususidagi qarashlarida axloq masalasiga katta e'tibor berganligini ko'ramiz. U o'qituvchini talabalarga kuchli ta'sir etuvchi deb biladi. Uning ta'kidlashicha, o'qituvchilik kasbini tanlaganlarning nopoklik niyatida bo'lishi g'oyatda zararlidir, chunki ular o'zlaridagi axloqiy buzuqlikni yosh avlod o'rtasida tarqatadilar. Demak, Ahmad Donish o'qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e'tibor beradi. U o'qituvchidan yosh avlod manfaatini birinchi o'ringa qo'yishni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchi va talabalarga ko'p bilim berish o'z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o'z ustilarida ko'p ishlashlari lozimligini aytadi. Bundan ko'rinadiki, Ahmad Donish o'qituvchi kasbga nisbatan jiddiy talab qo'yadi. U go'zal axloqlilik va chuqur bilimdonlikni o'qituvchining go'zal sifati deb biladi [7]. XX asming yetuk ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913-yilda yozilgan «Turkiy Guliston yohud axloq» asarida bola tarbiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati falsafiy-pedagogik jihatdan tushuntirib berilgan. Olim ta'lim va tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o'rni ularning o'zaro hamkorligini ulug'laydi. Uning talqiniga qaraganda, barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimlarga ega bo'lishi, yaxshi bir kasb-korning sirlarini egallashi ko'p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg'unligiga bog'liqligini ta'kidlaydi [7]. Mutafakkir olimlar tomonidan o'z asarlarida, bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha o'z qarashlari bayon etilgan. Yoshlarni kasb hunarga o'rgatishda unda asosiy e'tibor kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali bolalarda kasbga hurmat, mehnatni qadrlash, mehnat tarbiyasiga urg'u berilgan.

**Xulosa.** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasb hunarga yo'naltirishda muttafakirlarimizning ilmiy pedagogik merosidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni kasbga yo'naltirish masalasini malakali hal qilishning muhim sharti – bu butun jamiyatning iqtisodiy, milliy va iqtisodiy rivojlanishi ehtiyojlarini va o'ziga xos mahalliy sharoitlarni hisobga olish zaruratidir.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисидаги» Қонуни. - Т., 2019.
2. www.qomus.info.uz
3. Форобий А.Н. Рисолалар. - Т.: Фан, 1995.
4. Абу Али ибн Сино. Хикматлар. - Т.: Ўзбекистон, 1980.
5. Хасанбоева О., Хасанбоев Ж., Хошимов Х. Педагогик тарихи. - Т.: Фофур Фулом, 2004.
6. Зуннунов А. Педагогика тарихи. - Т.: Шарк, 2004.
7. Юсуф Хос Хожиб. Кутадгу билиг. - Т.: Юлдузча, 1990.

---

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KASBGA ERKIN QIZIQTIRISHDA  
BOLA ONGINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY BOSQICHLARI**

***Kasimov Ibraxim Irkinovich***, texnika fanlari doktori, professor,  
***Kasimov Irkin***, texnika fanlari doktori, professor

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'limga oid me'yoriy hujjatlardagi takomillashtirish va rivojlanish jarayonlari hamda bolalarni kasbga yo'naltirishning maqsadi – bolalarda kasblarga hissiy munosabatni shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zlarining kuchli tomonlarini mavjud faoliyatda ishlatish imkoniyatini berish haqida so'z yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** ong, sezgi, idrok, qiziqish, erkin kasbga yo'naltirish.

**ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДЕТСКОГО СОЗНАНИЯ  
ПРИ СВОБОДНОЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННОСТИ  
ДОШКОЛЬНИКОВ К ПРОФЕССИИ**

***Касимов Ибрагим Иркинович***, доктор технических наук, профессор,  
***Касимов Иркин***, доктор технических наук, профессор

**Аннотация.** В данной статье говорится о процессах совершенствования и развития нормативных документов, касающихся дошкольного образования, и цели ориентации детей на профессии – формировать у детей эмоциональное отношение к профессиям, дать дошкольникам возможность использовать свои сильные стороны в существующие виды деятельности.

**Ключевые слова:** сознание, интуиция, восприятие, интерес, ориентация на свободную профессию.

**THE MAIN STAGES OF FORMING A CHILD'S CONSCIOUSNESS IN THE FREE  
INTEREST OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE PROFESSION**

***Kasimov Ibrahim Irkinovich***, doctor of technical sciences, professor,  
***Kasimov Irkin***, doctor of technical sciences, professor

**Abstract.** This article talks about the processes of improvement and development in the regulatory documents related to preschool education and the goal of directing children to professions – to form an emotional attitude to professions in children, to give preschool children the opportunity to use their strengths in existing activities.

**Key words:** consciousness, intuition, perception, interest, orientation to free profession.

**Kirish.** Dunyoning rivojlangan davlatlari singari yurtimizda ham ta'lim-tarbiya va yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda intellektual salohiyatli kadrlarni tayyorlash asosiy bosh vazifamiz hisoblanadi.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni 1-ilovasida maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligini ko'nikmalarini shakllantirish maqsad qilib olindi. «Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Bu masala O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun

ishlab chiqilgan «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr)da ham o'z aksini topgan.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'limdir deb ta'kidlangan, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar deb belgilab berildi: maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish; maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish; bolalarni sifatlilik maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarni ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish; maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish; maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishlarini shakllantirishimiz ularda kattalar mehnatiga bo'lgan xurmatni hamda mehnat tarbiyasini oshiradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bolalarni kasbga yo'naltirishning maqsadi – bolalarda kasblarga hissiy munosabatni shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zlarining kuchli tomonlarini mavjud faoliyatda ishlatish imkoniyatini berishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga qiziqitirishda ularni ongiga ta'sir ko'rsatish muhimdir. Ong – bu aql poydevori. Bolada nima birinchi shakllanishi boshlanadi: ongmi yoki aqlmi? Bu doim savol bo'lib kelgan. Bolada birinchi aslida sezgi, keyin qiziqish, undan keyin tanlash boshlanadi. Bola sezgi organlarini rivojlanishi ona qornida embrionda paydo bo'la boshlaydi. Nerv tolalari asab tolalari shakllanishi boshlanadi. Bolani uch oylikdan boshlab sezgi organlarining mazmunan sezish davri boshlanadi. Nerv tolalari rivojlanadi, onani kayfiyati holatini sezadi. Uch oydan keyin ona kayfiyati bola nerv shakllanishi, o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Ona bolani ongi shakllanganini qachon seza boshladi. Aslida besh oylikdan boshlab sezadi. Shu jarayondan boshlab bolaning asabiylashishi, ruhiy holati bolaning nerv tolasini, rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bola tug'ilguncha biz unga tarbiya berishimiz kerak. Tarbiya ona qornidan boshlanadi. To'g'ri tarbiya oiladagi muhitga, xotirjamlikka bog'liq. Ertaklarda e'tibor bersak, katta o'g'il sipo, kamtar, ikkinchisi sho'x, uchinchi juda sho'x va o'yingaroq boladi. Chunki birinchi farzand oilada eng kutilgan va eng ko'p mehr-muhabbat berilgan farzand boladi, tug'ilguncha onaga yuqori e'tibor beriladi, e'zozlanadi va ruhiy holati barqaror bo'ladi. Bu esa, bolada nerv tolalari bir tekisda sezgi organlarini shakllanishiga sabab bo'ladi. Ikkinchi farzandda esa, kelinga e'tibor nisbatan boshqacha bo'ladi. U oilaga moslashgan. Bazida janjal tortishuvlar bo'lib turishi mumkin. Ikkinchi bolada nerv tolalari nisbatan yaxshiroq shakllangan boladi. Chunki janjal asab buzilishi bola nerviga ta'sir ko'rsatib, uni rivojlanishi tezlashtirgan. Uchunchi farzandda esa, jarayon bu tez kechadi. Bolani to'g'ri shakllanishi oiladagi muhitga, psixologiyaga bog'liq. Barcha farzandlar bir me'yorda o'sishi shakllanishi kerak. Bolaga 8-kunlikda Azon o'qilish sababi nimada? 8-kunlikda unda sezgi organi ishlay boshlaydi. Lekin unda hali ong yo'q. 8-kundan so'ng unda qiziqish boshlanadi, ovozni seza boshlaydi, yorug' qorong'uni ko'ra boshlaydi, issiq-sovuqni sezadi, ona sutiga intiladi. Sezgi organlari orqali ong shakllanishi boshlanadi.

Ongni biz bola tug'ilgach shakllantirishni boshlashimiz kerak. Fanda «bilish» degan so'z deb emas, qiziqyapti deyish to'g'ri bo'ladi. Chunki bola issiqni hali bilmaydi, faqat uni sezadi, shunchaki qiziqadi. U hali issiq-sovuqni anglab yetmagan bo'ladi, u faqat qiziqadi. Bola qiziqish orqali sezadi, so'ngra keyinchalik biladi. Sezish orqali qiziqishga o'tish jarayoni desak boladi. Bolada 1 yoshdan 2 yoshga o'tish davrida qiziqish jarayoni ketadi. Yapon olimi Masari Ibukani «3 yoshdan keyin kech» kitobida aytadi: 60-65 foiz ong shakllangandan so'ng, ishlashni foydasi yoq. 4 yoshga borganda bola ongini shakllanganini 75 foizga chiqarishimiz kerak. Bolani ongini shakllanganini biz nima orqali bilishimiz mumkin: didaktik

materiallar, o'yinlar, mashg'ulotlar. Aql bilan ongni farqi nimada Mashina boltini burab uni qattiq qilib o'rnatish bu aql. Shunday o'rnatib qo'yish bu ong. Agar qattiq bog'lanmasa u chiqib ketadi. Uni qattiq burab o'rnatish bu aqlidir. Bola ongini shakllanishida oddiylikdan murakkabgacha bo'lgan ishlarni olib borish kerak. Masalan, o'yinchoqlarni oddiydan berib yosh ulg'aygani sari uni xilma xil ravishda murakkablashtirib borishi kerak. Ota-onalarni farzand tarbiyasidagi ma'suliyatini oshirish uchun, oila qurayotgan yoshlarni 1 oylik kurslarga o'qitish lozim. Bolani ongini shakllantirish bu ota-onani qo'lida. Bola ongi shakllanganini aniqlaydigan kompleks dastur yaratish lozim.

Bolani kasbga qiziqtirish, kasbga yo'naltirishga asosiy e'tibor bizda qanday Kasbga qiziqtirish tarbiya fanida bizda kam e'tibor beriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida turli burchaklar mavjud. Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida xonalar tashkil etilsa, masalan: texnika xonasi, tabiat xonasi, san'at xonasi, kompyuter xonasilar. Tarbiyalanuvchi maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelganda o'zi xohlagan xonada faoliyat olib borishi kerak. Har bir xonaga tarbiyachi birlashtiriladi. Bola hamma xonaga kirib chiqadi. Haftalik, oylikda bola kuzatiladi va qaysi xonada ko'proq o'tirdi, barchasi kompyuter orqali kuzatilib boriladi. Bolani qaysi kasbga qiziqishi kompyuterda yozib olinadi. Bir-ikki yil ichida kompyuterda maxsus ilova orqali bolaning qaysi kasbga qiziqishi namoyon bo'ladi. Ota-ona ham farzandining qaysi kasbga qiziqishi borligini bilib boradi. Bolalarni kasbga yo'naltirish, avvalo, bog'chadan boshlash kerak. Bog'chadan qiziqish orqali bolada kasbga qiziqishtirishni boshlash kerak. Ko'pincha bolada kasbga qiziqish DNK va muhit ham ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni bola ota-ona kasbiga qiziqish boshlanadi. Ba'zi hollarda bolalar ota-ona kasbiga emas, boshqa kasblarga qiziqish paydo bo'ladi. Ko'pincha ota-ona farzandiga biror kasbni egallashga majbur qiladi, ammo bola boshqa kasbga qiziqadi. Bu vaziyatda ota-ona bola qiziqishlarini hisobga olishi va unga qarshi bo'lmasligi kerak. Bola ozi qiziqmagan kasbni egallab kelajakda hech nimaga erisholmagan nomukammal mutaxassis bolib yetishadi.

Bola kasbni qachon tanlaydi? Bola bog'chadan maktabga biror bir kasbga qiziqish bilan keladi. bola aql doirasida kasbni tanlaydi. Bola bog'chada texnikaga qiziqdi. Maktab davrida texnikani turli yo'nalishlarni o'rgandi, institutda shu soha bo'yicha o'qidi va nihoyat mukammal yetuk mutaxasss bo'lib yetishdi.

**Xulosa.** Maktabda kasbni amaliy jihatdan bolaga o'rgatish kerak, institutda esa, unga nazariy bilimlarni berish lozim. Shunda u ham amaliy, ham nazariy jihatdan innovatsion g'oyaga ega kasb egasiga aylanadi. Bola sezdi, qiziqdi, keyin ongli ravishda tanlashni boshladi bu jarayon ketma ketlikda davom etadi. Masaru lbuka aytganidek, 60-70 foiz ongni shakllantirib olish kerak, keyin aqlni shakllantirish ketadi. Ong – aql poydevori. Bog'chada bolaga kasbni qiziqtirish ishlariga 1-2 soat ajratish kerak. Bola xohlagan kasb xonasida o'tirishiga qarshilik qilmaslik kerak.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilgi parlamentga yo'llagan Murojaatnomasidan. - T., 2022.
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
3. O'RQ 595-son «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonuni. 16.12.2019 yil.
4. 2020-yil 20-dekabrda 802-sonli «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti» Vazirlar Mahkamasining qarori.
5. 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi».
6. «Ilk qadam» takomillashtirilgan davlat o'quv dasturi. - T., 2022.
7. [www.qomus.info.uz](http://www.qomus.info.uz)
8. <https://uz.wikipedia.org> Ochiq ensiklopediya

## MILLIY MAKTABLARDA «ALPOMISH» DOSTONINI QIYOSIY O'RGANISH

*Abduvalitov Yergash Buranevich, TDPU, pedagogika fanlari doktori, professor*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o'rganishda har bir qardosh xalqning o'ziga xos xususiyatlari ochiqroq tasvirlangan. Ayniqsa, «Alpomish» dostonining o'zbek versiyasidagi qozoq va qoraqalpoq versiyalaridan farq qiladigan jihatlarni teranroq anglashga yordam beradi.

**Tayanch so'zlar:** qardosh xalqlar adabiyoti, badiiy adabiyot, doston, Alpomish dostoni, qiyosiy o'rganish, folklor, versiya, adabiy qahramon.

## СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЭПОСА «АЛПОМИШ» В НАЦИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*Абдувалитов Ергаш Бураневи́ч, ТГПУ, доктор педагогических наук, профессор*

**Аннотация.** В данной статье описаны специфические особенности каждого братского народа при описательном изучении литературы братских народов. В частности, это помогает глубже понять те аспекты узбекской версии эпоса "Алпомиш", которые отличаются от казахской и каракалпакской версий.

**Ключевые слова:** литература братских народов, художественная литература, эпос, эпос Алпомиш, сравнительное исследование, фольклор, версия, литературный герой.

## COMPARATIVE STUDY OF THE EPIC «ALPOMYSH» IN NATIONAL SCHOOLS

*Abduvalitov Ergash Buranevich, TSPU, doctor of pedagogic sciences, professor*

**Abstract.** This article describes the specific characteristics of each brotherly people in a descriptive study of the literature of the brotherly peoples. Especially, it helps to understand more deeply the aspects of the Uzbek version of the "Alpomish" epic that differ from the Kazakh and Karakalpak versions.

**Key words:** literature of fraternal peoples, fiction, epic, epic Alpomish, comparative study, folklore, version, literary hero.

**Kirish.** Adabiyot nima uchun o'rganiladi? Qardoshlar adabiyoti-chi? Alohida odamni bilish shaxsga nima beradi-yu, jamiyatga qanday foyda keltiradi? Dunyoda adabiyot o'quv fani mutlaqo o'rganilmaydigan ta'lim tizimlari ham bor-ku? Bu savollarga jo'yali javob topmay turib, umuman, adabiyotni, xususan, qardosh xalqlar adabiyotini o'qitish borasida mavjud bo'lgan muammolarni to'g'ri hal qilish mumkin emas. Ma'lumki, badiiy adabiyot odamga o'zga bir odamni tuyish va tushunishni o'rgatadi. Iste'dodli yozuvchilar kitobxonga mutlaqo aloqasi bo'lmagan begona bir kishining hayotini shunday ta'sirli tasvirlaydiki, odam beixtiyor uning taqdiriga, his-tuyg'ulariga sherik bo'lib qoladi. Kitobda tasvirlangan bizga notanish qahramonni tushunish atrofimizdagi odamlarni ham tuyish va tushunish jarayonini boshlab beradi. Metodist-olim, professor Q. Yo'ldoshev yuqorida tilga olingan maqolasida: «...o'zini bilmoqchi bo'lgan inson oldin o'zgani bilish, tushunish va tuyishga odatlanishi zarur. Har bir barkamol shaxsning o'z ko'ngliga yetish sari bosib o'tadigan yo'li o'zgani bilish bosqichidan boshlanishi insoniyat tarixidan yaxshi ma'lumdir»

[1], – deb yozganda badiiy adabiyotning odamni odamga yaqinlashtirish xususiyatini ko'zda tutgan bo'lsa ne ajab. Qardosh xalqlar adabiyoti qardoshlarni tuyish va tushunish, ularning ham o'zimizga o'xshash odamlar ekanini bilish vositasi ekani yuqoridagi fikrlardan oydinlashadi. Shuning uchun ham qo'shnilarini bilmoqchi bo'lgan odam oldin ularning adabiyotlari bilan tanish bo'lishi kerak. Chunki milliy adabiyotlarda milliy ruhiyatlar namoyon bo'ladi. Qo'shnilarini yaxshi bilmay turib, yaxshi yashab bo'lmaydi. Turkiy xalqlar juda eski zamonlardan buyon: «Olisdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaxshi», degan naqlga amal qilib kelishgan. Ayni shu jihatlar mamlakat umumta'lim maktablarida qardosh xalqlar adabiyotlarini qiyosiy o'qitish o'ta dolzarb va o'quvchilarning ham aqli, ham ma'naviy o'sishlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega didaktik tadbir ekanini ko'rsatadi.

Aytilganlardan qardosh xalqlar adabiyoti biror millat o'quvchilarini qardoshlarining adabiyotidan shunchaki xabardor qilish maqsadidagina emas, balki, birinchi navbatda, ana shu qardosh xalqning ruhiyatini anglatish orqali ularni bir-biriga yaqinlashtirish maqsadida o'qitilishi kerakligi ma'lum bo'ladi. Ko'rinadiki, qardosh xalqlar adabiyotlarini o'qitish jarayonini tashkil etishda ushbu nuqta nazarga tayanish, undan chalg'ib ketmaslik o'ta muhimdir.

**Asosiy qism.** «Ta'lim-tarbiya ishlari davlat tilidan boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda», – deb yozgan edi metodist-olim Q.Husanboeva, – o'zbek adabiyotini o'qitishning maqsadini ma'naviy dunyosi boy, o'z xalqining axloqiy qadriyatlarini biladigan, shu bois o'zbeklarni chuqurroq anglaydigan, qalbi uyg'oq o'zbekistonlik komil insonni shakllantirish deb belgilash mumkin [2, 21-b.], – mana shu fikrlarni qardosh xalqlar adabiyotining namunalarini o'qitishga tatbiqan ham qo'llash mumkin. Adabiyot o'qituvchisi biror qardosh xalqning adabiyotidagi biror asar bilan o'quvchilarni tanishtirar ekan, birinchi navbatda, o'sha asar mansub bo'lgan millatning ruhiyati, psixologiyasi qanchalik aks etganligiga e'tibor qaratishi kerak. Bu jihatdan folklor asarlari juda katta imkoniyatga ega. Negaki, zamonaviy asarlarda millat psixologiyasi alohida shaxslar ruhiyatini tasvirlash asnosida ko'rsatilsa, og'zaki ijod namunalarida ulus psixologiyasi ommaviy ko'rinishda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Bir qator qardosh xalqlarning umumiy badiiy-estetik mulki bo'lmish xalq dostonlarini qiyosiy o'rgatish har bir qardosh xalqning o'ziga xos jihatlarini anglash borasida tengsiz imkoniyatga egadir. Chunonchi, «Alpomish» dostonining o'zbek versiyasidagi qozoq va qoraqalpoq versiyalaridan farq qiladigan jihatlar aks etgan o'rinlarga urg'u berish o'quvchilarga o'zbek xalqining ruhiyatini teranroq anglash imkonini bergan bo'lardi. Dostonning Fozil Yo'ldosh variantida Alpomishning xizmatkori Qultoyga aytgan shunday so'zlari bor:

...Sen eshitgin menday o'g'ling so'zini,

Ajratib kelayin biyning qizini.

Sachratib borsam minib bir tulpor,

O'zima yor, bobo, senga xizmatkor... [3, 78-b.].

E'tibor qilinsa, shu to'rtlikda o'zbek millatiga xos betakror bir ma'naviy fazilat yorqin aks etgan. Bu haqda professor Q.Yo'ldoshev shunday yozadi: «Quliga qarata: «O'zimga yor, bobo, senga xizmatkor» keltiraman deyish faqat o'zbekning o'yiga kelishi mumkin. Chunki bizda katta, ulug' yoshli odam – har narsadan-da, katta va ulug'. Uni e'zozlash, hurmatlash lozimligi kunning yorug'ligi singari tabiiy hol» [4, 41-b.]. Hatto o'zbekning malikasi ham yoshi katta bo'lgani va kuyovi ma'qul ko'rgani uchun quliga ham xizmat qilishi mumkinligini bilish qardosh o'quvchilarda bu xalqqa nisbatan ijobiy fikrlar uyg'otishi tabiiy.

«Alpomish»ning qoraqalpoq versiyasidagi «...Кунлерден бир куни екеуи малға шығып кетип баратырса, алдынан бир мегежин шошқа жортыптыда оте берипти. Анда Байбери бай Байсары байға қарап:

- Эй, Байсары бай жора, сен мына жортып баратырған доңызды атармысан? - деди.

Онда турып Байсары бай Байбери байға қарап: – Эй, Байберы бай жора, сен узин атармысан? – депти.

Анда Байберы бай Байсарыға қарап:

– Мен оны атар едимаў, бирақ та бул мегежинди буФаз ба деп ойлап турман? – депти.

Анда Байберы бай Байсарығ'а қарап:

– Мен оны атар yedimao', biraq ta bul megejindi buo'az ba dep oylap turman..., – dedi [5, 87-b.]. Dostondan olingan parchadan ko'rinib turibdiki, Boybo'ri ham, Boysari ham bo'g'oz jonliqni otishni, tug'ilmagani bolani juvonmarg qilishni istashmaydi. Qoraqalpoq xalqiga xos mana shu xislat dostonda qanday aks ettirilgani o'zbek yoxud qozoq o'quvchilariga yetkazilsa, qoraqalpoqlar ma'naviy olamidagi go'zal fazilatlardan xabardor bo'lgan yoshlarda bu etnosga nisbatan ayricha muhabbat uyg'onishi, bu fazilatlarni o'zigada singdirishga urinishi tabiiydir.

Qizig'i shundaki, yuqoridagi tasvirga juda o'xshab ketadigan holat «Alpomish»ning o'zbekcha versiyasida ham aks etgan. Zindonda yotgan Alpomishdan yaqinlariga xat olib ketayotgan g'ozni otaman degan merganga qarata onasi aytgan:

Jonim qo'zim, bilmaganim bildirma,  
Do'st yig'latib, dushmanimni kuldirma.  
Qaldirg'ochga xat ko'tarib boradi,  
Qanday bo'lsa, yolg'iz g'ozni o'ldirma.  
Musulmonsan bunday ishni qilmagin...  
Yaxshiliq qil, yomonlikni qilmagin,

Qo'yingin, qo'zim, yolg'iz g'ozga bormagin, – tarzidagi iltijoda turkiy xalqlarga xos go'zal bir odat yolg'iz jonliqni ovlamaslik udumi aks etgan. Bobolarimiz, hatto, parrandayu jonliqlarning ham butun oilasi bilan to'lig'icha qirilib ketishini istamaganlar. Ona ulusning azaliy udumlariga amal qiladigan ezgu qalb egasi sifatida yolg'iz uchgan parrandani otish mumkin emasligini astoydil ta'kidlaydi. Shuning uchun ham o'g'lini yolg'iz g'ozni otishdan qaytarishga urinadi. Ayni shunga o'xshash holat «Kuntug'mish» dostonida yanada ochiqroq tasvirlangan:

Jallodlar, aytayin senga bir so'zni,  
Meni deb tark etdi kecha-kunduzni,  
Esiz, yorim yolg'iz ekan onadan,  
Merganlar irim qib otmas yolg'izni [6, 461-b.].

O'quvchilarning e'tibori qardosh xalqlarning udumlaridagi o'xshashlikka va ularning dostonlaridagi badiiy ifodasining jozibasiga qaratilsa, bolalar eposning matni bilangina tanishib qolmay, ularda aks etgan etnoslarning psixologiyasidagi ezgu jihatlarni ham tuyadilar va tushunadilar.

**Xulosa.** Agar o'quvchilarga «Alpomish» eposining qozoq versiyasidagi qozoq xalqiga xos jihat yorqin aks etgan o'rinlar ko'rsatilsa va bu tasvirlar o'zbek va qoraqalpoq versiyalari bilan qiyoslansa, bu asarlarni o'rgatish samaradorligi bir necha marta oshadi. Masalan, dostonning qozoq versiyasida shunday tasvir bor: «...жылқыны Алпамыстын устінен тоғытып айдайды. Алпамыс жылқыныу беріне қарап жатыр, жылқылар

Алпамыстын устқнен етіп жатыр. Озінін атасы Байборі байдын коп жылқысынын ішінен толып жатқан бедеудін біреуін де конілі жаратпады. Жылқынын қара корінім соныңда бір шубар ат корінді, жалы кулағынан асқан, торт аяғын тен басқан, қуйрығы бір қолтық сексеуілдің шырпысындай, жалы, кекілі жібектей. Алпамыс жатқан ақ тастын устінен жортып оте берді. Алпамыс коре салып білегіне кушін жиды; секіріп орнынан турды. Алпамыс султан нақ он торт жасында аттын қуйрығына жолбарыстай қол салды. Алпамыс деген алып еді, жануар Байшубар нар сияқты тізесін букті; қайшылап кулағын тікті, уш мәртебе зор салды. Алпамыс жібермеді» [7, 96-б.]. O'zbek va qoraqalpoq versiyalarida bo'lmagan bu tasvirda bir umr yilqilar orasida o'sgan va otni tanib, u bilan muomala qilishgina emas, balki uni o'ziga bo'ysundira olish ham har bir yigit uchun o'ta muhim sanalgan yilqichi qozoq xalqining ruhiyatiga xos xususiyat yaqqol aks etgan. Bunday jihatlarni qiyoslab o'rgatish qardosh xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Chunki o'quvchi adabiy qahramonni tuyadi, uni harakatga keltirgan ichki energiyaning manbaini anglab yetadi.

#### Adabiyotlar:

1. Йулдошев Қ. Бир-бирини билиш учун бир-бирини ўқиш керак // Маърифат. - Т., 2008. - 6 сентябрь.
2. Хусанбоева Қ. Ўзбек адабиётини таълим давлат тилидан бошқа тилларда олиб бориладиган мактабларда ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фанл. номз. ... Дис. - Т., 1997.
3. Алпомиш. - Т.: Шарқ НМК, 1998.
4. Йулдошев Қ. «Алпомиш» талқинлари. - Т.: Маънавият, 2002.
5. Қорақалпоқ фольклори. - Нокис: Қорақалпоқстон, 2007.
6. Ўзбек халқ достонлари. ғ т. -Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1956. - 461 б.
7. Қозоқ адабиёти (8-синф учун хрестоматия). - Алматы: Мектеп, 1975.

---

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СТРАТЕГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У КУРСАНТОВ ПОСРЕДСТВОМ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

**Медетова Раушан Мамадияровна**, заведующая отделом УзНИИПН,  
доктор педагогических наук, старший научный сотрудник,  
**Хайдаров Козимбек Абдихакимович**, начальник Учебного центра  
военной подготовки Национального университета Узбекистана,  
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

**Аннотация.** В данной статье раскрыта педагогическая стратегия развития профессиональных ценностей у курсантов на основе аксиологического подхода.

**Ключевые слова:** аксиологический подход, ценность, курсант, преподаватель, педагогика, стратегия, профессионализм, совершенствование.

## AKSIOLOGIK YONDASHUV ORQALI KURSANTLARING FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI

**Medetova Raushan Mamadiyarovna**, O'zPFITI bo'lim boshlig'i,  
pedagogika fanlari doktori, katta ilmiy xodim,  
**Haydarov Kozimbek Abdixakimovich**, O'zbekiston Milliy universiteti  
Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi boshligi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Аннотация.** Mazkur maqola aksiologik yondashuvga asoslangan kursantlarda kasbiy qadriyatlarini rivojlantirishning pedagogik strategiyasini ochib beradi.

**Tayanch so'zlar:** aksiologik yondashuv, qadriyat, kursant, o'qituvchi, pedagogika, strategiya, professionallik, takomillashtirish.

## PEDAGOGICAL STRATEGY FOR IMPROVING CIVIL COMPETENCY IN CADETS THROUGH AN AXIOLOGICAL APPROACH

**Medetova Raushan Mamadiyarovna**, head of department of UzSRIPS,  
doctor of pedagogical sciences, senior researcher,  
**Khaidarov Kozimbek Abdikhakimovich**, head of the Training center  
military training of the National university of Uzbekistan,  
doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), associate professor

**Abstract.** This article reveals the pedagogical strategy for the development of professional values among cadets based on the axiological approach.

**Key words:** axiological approach, value, cadet, teacher, pedagogy, strategy, professionalism, improvement.

**Введение.** Вопросы формирования и совершенствования ценностных ориентаций у курсантов актуальны на каждом этапе развития общества. Поскольку сформированность ценностей связана с развитием нравственности каждой личности.

**Основная часть.** В современных высших военных образовательных учреждениях созданы благоприятные условия для оптимизации совершенствования ценностных ориентаций и воспитательная работа в данном направлении может быть вектором динамики личностного и духовно-нравственного развития курсантов.

В статье 7 «Обязанности педагога» Закона Республики Узбекистан № ЗРУ-901 «О статусе педагога», принятого 1 февраля 2024 года, отмечается: «При осуществлении своей профессиональной деятельности педагог обязан: уважать честь, достоинство и деловую репутацию участников образовательно-воспитательного про-

цесса; качественно проводить учебные занятия в соответствии с учебными программами и государственными образовательными стандартами; принимать необходимые меры для повышения уровня знаний обучающихся во время учебных занятий» [1, с. 5].

В нашем случае, это совершенствование гражданской компетенции у курсантов посредством аксиологического подхода. Данная проблема весьма актуальна и своевременна, поскольку процесс совершенствования знаний курсантов длительный и должен быть насыщен глубоким содержанием.

Безусловно, существуют общие проблемы, принадлежащие одновременно разным историческим эпохам, разным культурам – инвариантные проблемы, которые, по выражению Б.Л. Пастернака, «каждая эпоха получает от прошлого и переадресовывает будущему» [2]. Это, прежде всего, проблемы духовности, нравственности, ценности личности, ее свободы и ответственности.

По данному поводу философ современности Э. Ильенков пишет: «Ведь Гегель именно поэтому и жив до сих пор, что живы (т.е. остаются неразрешимыми) те проблемы, которые он смог поставить» [3].

В условиях интенсивного развития Республики Узбекистан во всех сферах экономики, культуры, образования, спорта, медицины и других сфер деятельности человека проблема ценностей приобретает всё большую значимость.

Исторический опыт свидетельствует о том, что проблема ценностей всегда актуализировалась, ее постановка приобретала широкое социальное и нравственное значение в различные эпохи, когда культурные традиции обесценивались, а прежние идеологические и этические устои общества подвергались дискриминации, начиналась поспешная их замена новыми идеалами и целями. Подчеркивая историчность и взаимную обусловленность общечеловеческих аксиологических ориентиров, актуальных для системы образования, отметим, что они всегда принадлежат конкретной эпохе, но обладают способностью на новом витке исторического движения обретать новый смысл, вступать в контакт с ценностями последующего периода. Поскольку ценностные ориентации обуславливают избирательную активность индивида именно как субъектную, а не биологическую или тематическую. Каждый выбор человека – это «внутреннее ценностное строительство».

Э. Фромм считал, что наиболее прекрасные и самые безобразные склонности личности представляют собой не компоненты фиксированной и биологически заданной человеческой природы, а результат социального процесса, который творит людей [4].

Убеждения и ценности не даны личности в готовом виде, не приняты ею от общества пассивно, они являются результатом усилий и интеллектуальных достижений в процессе бесконечного жизненного экспериментирования. Именно поэтому необходимо «возвращение» таких ценностей, при наличии которых человек мог бы отказаться от социальной маски и обнажить свои подлинные потребности и ценности, которые будут способствовать его развитию. Это особенно важно учитывать в системе высшего военного образования, результаты деятельности которой будут определять будущее всей нашей страны и каждой личности в отдельности. Поскольку реальная действенная сила ценностных ориентаций исторически возрастает и здесь весьма жизненно важно понимать выработку оптимальной стратегии развития курсанта и для реорганизации в соответствии с ней всей профессиональной деятельности.

Для смыслового развития курсанта нужны ценности, которые сегодня рассматриваются с точки зрения различных подходов. К примеру, ценности – это потребности и интересы, которые служат источником для развития личности и понимаются как надындивидуальная реальность; ценности – это обособившиеся интересы в духовно-нравственной сфере.

В научных источниках, посвященных развитию профессиональных ценностей у курсантов, они представлены в двух понятиях: ценностные ориентации личности и личностные ценности.

Отсюда логично следует, что личностные ценности отражаются в сознании индивида в виде ценностных ориентаций, которые включают и духовно-нравственные ценности.

Ценностные ориентации – это основа для оценки субъектом окружающей действительности, возможность ориентироваться в ней и выбирать необходимый способ для дифференциации окружающих объектов по их значимости.

Содержательные компоненты ценностных ориентаций обладают функциональной структурой и выстроены в определенной иерархии, на вершине которой находятся те ценности, которые более значимы для подготовки педагогических кадров.

При сформированности ценностных ориентаций формируются убеждения личности, которые и будут составлять её духовную культуру. Поэтому ценностные ориентации отражают саму сущность индивида и проявляются в деятельности самоутверждения и самореализации личности. Этот процесс длительный и особенно важный в юношеском возрасте, когда происходит усвоение норм и правил, ценностей, убеждений, установок, то есть в сознании курсанта фильтруется все то, что сложилось ценного в обществе на данном этапе развития. Вот почему юношеский возраст считается сенситивным периодом для совершенствования ценностных ориентаций у курсантов.

Определяя сущность педагогической стратегии совершенствования гражданской компетенции у курсантов, обратимся к её основным теоретическим положениям, а именно: осознание стратегического назначения развития у курсантов высших военных образовательных учреждений такого качества как конкурентоспособность – как выхода из ситуации, сложившейся в сфере профессиональной деятельности; стратегическая цель совершенствования гражданской компетенции у курсантов заключается в приобретении ими уникальных конкурентных преимуществ, которые позволяют обеспечить устойчивое функционирование и развитие будущего офицера в конкурентной среде; тактические задачи педагогической стратегии совершенствования гражданской компетенции у курсантов заключаются в последовательном развитии возможностей и создании условий педагогического сопровождения каждой из компонентов совершенствования гражданской компетенции у курсантов, которые включают инновационные технологии и педагогические условия совершенствования гражданской компетенции у курсантов, а также механизмы и педагогический инструментарий их реализации.

Педагогическая стратегия совершенствования профессиональных ценностей у курсантов на основе аксиологического подхода доказывает, что перечень ценностей, наиболее важных для курсанта, имеет разное значение.

Ранжирование ценностей по личной значимости позволило каждому курсанту выбрать для себя самую важную и менее значимую ценность.

При анализе результатов исследования выделялись несколько значимых блоков ценностей.

В первый блок по значимости вошли ценности: «счастливая семья», «успехи близких людей» и «крепкое здоровье».

Во второй блок вошли следующие ценности: «учёба как познание нового», «хорошее образование» и «любимая работа и карьера».

В третий блок – «уверенность в себе и самоуважение», «дружба и наличие верных друзей».

Отрадно отметить то, что материальные ценности не занимают высокую позицию у большинства курсантов. Возможно, что изначальный ориентир на профессию офицера не является материальной мотивацией в получении специальности. Это ещё раз доказывает, что в шкале ценностей курсантов выражена иерархия духовно-нравственных ценностей, которые определены нами на основе ценностей первого блока: «счастливая семья», «успехи близких людей» и «крепкое здоровье».

Нас, учёных-педагогов, радует то, что на курсантов оказывает влияние внешняя и внутренняя мотивация получения высшего военного образования и они понимают сложность профессии офицера, который сталкивается с различными трудностями в процессе обучения и воспитания курсантов.

Профессионально сформированные гражданские, ценностно-смысловые, общекультурные, коммуникативные, личностного самосовершенствования и социально-профессиональные компетенции курсантов будут способствовать совершенствованию ценностных ориентиров у курсантов. Только уверенный, профессионально и лично зрелый офицер способен в будущем обучать, развивать и воспитывать новое поколение обучающихся. Вот почему огромная роль в формировании гражданских, профессиональных и личностных компетенций принадлежит преподавателям высших военных образовательных учреждений. А значит, в воспитательной работе педагогам надо приложить усилия, чтобы помочь курсантам осознать значимость своей будущей профессии в социуме и для того, чтобы реализовать свои планы и цели, умело формировать жизненно важные ценностные ориентиры, брать ответственность за свои поступки. Педагогу надо быть носителем нравственных и идейных убеждений, быть образцом для подражания и на собственном примере показывать возможности и положительные стороны такой жизненной позиции.

На протяжении многих столетий к важнейшим ценностям относились: уважение к старшим, почтение к младшим, любовь к земле, забота о природе, трудолюбие, обучение и воспитание подрастающего поколения и другие. Удивительно то, что в каждой эпохе наряду с перечисленными ценностями были и другие ценности, касающиеся конкретно каждой личности. К примеру, если у мальчиков ценилось мужественность, а у девочек нежность и ласковость, то со временем приобретались другие важные качества личности: предприимчивость, деловые качества личности, коммуникабельность, оперативность. Эти и другие качества личности характерны для обоих полов.

В настоящее время можно говорить о возвращении и актуализации многих ценностей, которые были присущи различным историческим периодам. К примеру, умение быстро накрыть стол, приготовить горячее блюдо, заботиться о старших и младших членах семьи, помогать им не только материально, но и духовно. Сегодня развитая молодёжь умеет накапливать сбережения и дарить путёвки своим родным для посещения исторических и религиозных мест. Это отрадно, поскольку дети, становясь взрослыми, начинают осмысленно относиться к своим сбережениям.

Социально-экономическое развитие нашего общества и кардинальные изменения в системе образования, на наш взгляд, способствует тому, что и родители, и их взрослые дети сегодня могут оказывать друг другу знаки внимания в виде подарков и материальных ценностей. Вот почему сегодня можно отметить своеобразный взрыв исследовательского интереса к проблеме ценностей, к углубленному и целостному рассмотрению данной проблемы. И это стало жизненной необходимостью и требованием времени.

Анализ точек зрения учёных позволяет обосновать нам траекторию совершенствования курсантов, у которых имеются свои важнейшие и наиболее значимые ценности. К ним относятся: создание счастливой семьи, счастье близких людей и любовь.

Абсолютное большинство курсантов мечтает о хорошей работе, карьере в будущем и счастливой семейной жизни, обладании крепким здоровьем, любимой работой, поэтому образование нужно им как средство для достижения этих целей. Такой правильный выбор курсантов несет в себе рациональные пути самоопределения, самовыражения и самореализации. Большинство курсантов хотят добиться успехов собственными силами. Уверенность в собственных силах присутствует у большинства опрошенных курсантов, также, как и необходимость в самоуважении, что говорит о достигнутой личностной зрелости и гражданской позиции у большинства курсантов.

Интересен тот факт, что внутри каждой возрастной группы есть различия в ценности «свобода как независимость в поступках и действиях». У курсантов 1 и 2 курса она выше по значимости, чем у курсантов старших курсов. Эти курсанты желают быть услышанными, иметь возможность высказывать свою точку зрения, чтобы с ними общались как с будущими офицерами и защитниками Родины. Даже внешне в их поведении это ярко выражено и здесь можно сделать вывод о том, что новое поколение курсантов весьма настойчиво в своих взглядах и убеждениях.

В современной практике высшего военного образования наблюдается весьма широкое многообразие педагогических стратегий. В их числе: рефлексия индивидуальной воспитательной работы, стратегия рефлексивного обучения, стратегия организации досуга личного состава, стратегия поддержки нравственной солидарности курсантов. Все эти ключевые направления методологии педагогической науки находят отражение в новой категории «стратегия образования», которая позволяет переосмыслить стратегические цели обучения. Как известно, они должны иметь системный характер, а значит, важно соблюсти их иерархию. На самом верху находятся перспективные цели как главные мотивы, идеальные цели, а также те, что простирается в вечность, т.е. цели – векторы самого общего характера, рассчитанные на весь период обучения. Именно они направлены на достижение ценностей образования. Такие цели мы называем стратегическими. К их достижению надо стремиться и это вполне могут быть цели, типа «сформировать гармонически развитую личность», «развить гражданскую позицию». Значит, стратегия образования – это план коллективных педагогических действий, обеспечивающих единство самоорганизации и самоуправления [5] для формирования разнообразной духовно насыщенной образовательной среды, способствующей развитию курсанта. Содержание выбранной для практической реализации педагогической стратегии зависит от цели и адекватных ей форм, методов и средств достижения желаемого результата.

**Вывод.** Педагогическая стратегия совершенствования гражданской компетенции у курсантов посредством аксиологического подхода считается многогранной и всеобъемлющей, поскольку представляет собой обобщенную характеристику деятельности преподавателя и курсантов, имеющую педагогическую направленность, и ориентированную на решение масштабных образовательных, воспитательных и профессиональных задач, осуществляемых в целях достижения заданного стратегического ориентира педагогического процесса.

#### Литература:

1. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-901 «О статусе педагога» от 1 февраля 2024 года: lex.uz
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
3. <https://www.academia.yedu>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/yerih-fromm-o-chelovecheskoy-agressivnosti-i-destruktivnosti-opyt-filosofsko-antropologicheskogo-analiza>
5. Виханский О.С. Стратегическое управление: Учебник. - 2-изд., перераб. и доп. - М.: Экономист, 2008. - 296 с.

---

## PEDAGOGNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHIDA KREATIV FIKRLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Jumaniyozova Muhayo Tojiyevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), O'zDJTU*

**Annotatsiya.** Maqola o'qituvchining kreativlik sifatleri, uning o'ziga xos xususiyatlari, unga ta'sit etuvchi omillar, kreativ kompetentlik, ta'limda kreativ o'quv muhitini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari haqida bayon etilgan.

**Таянч so'zlar:** kreativlik, kreativ kompetentlik, kreativ o'quv muhiti, uzluksiz kasbiy rivojlantirish.

## ОСОБЕННОСТИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В НЕПРЕРЫВНОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ ПЕДАГОГА

*Жуманиезова Мухайе Тожиевна, доктор педагогических наук, УзГУМя*

**Аннотация.** В статье рассказано о качествах креативности педагога, ее особенностях, факторах, влияющих на нее, креативной компетентности, особенностях создания креативной учебной среды в образовании.

**Ключевые слова:** креативность, креативная компетентность, Креативная среда обучения, непрерывное профессиональное развитие.

## FEATURES OF CREATIVE THINKING IN THE CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF AN EDUCATOR

*Jumaniyozova Mukhayo Tajiyevna, doctor of Pedagogical Sciences, UzSWLU*

**Abstract.** The article describes the qualities of a teacher's creativity, its features, the factors influencing it, creative competence, and the features of creating a creative learning environment in education.

**Key words:** creativity, creative competence, Creative learning environment, continuous professional development.

**Kirish.** O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida davlat va jamiyatni rivojlantirish uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash; dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish; pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; malaka oshirish tizimini «hayot davomida o'qish» tamoyili asosida takomillashtirib borish; ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan. Oliy ta'limning sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy metodik tayyorgarligi va kompetentligini takomillashtirish ta'lim siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal qilishni ta'minlaydigan tizimli o'zgarishlarning umumi asosidir. Bunda pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi muhim bo'lib, u shaxs kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o'sishi jarayoni sifatida ta'riflanadi. Uzluksiz malaka oshirishning maqsadi esa, pedagog xodimlarning egallab turgan lavozimlari, mutaxassisligi va dars beradigan fanlari bo'yicha kasbiy-pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishni, ularning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, ta'limning interaktiv usullari bo'yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalarini muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlash hamda ularni davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va sohaga oid qonunchilik bilan muntazam tanishtirib borishdan iborat.

**Asosiy qism.** Kreativ kompetentlik pedagogning o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini rivojlantirishi, o'z-o'zini mukammallashtirishi asosida takomillashadi va o'ziga xos tizim sifatida analitik tahlil jarayoni; konsentratsiya jarayoni; g'oyalar inkubatsiyasi jarayoni; g'oyalar qidirish yo'lidagi past-balandliklar, to'liqinli taraqqiyot jarayoni; analiz va sintez jarayonini o'zida qamrab oladi va motivatsion-hissiy, taqlid qilish, ta'sirlar (bog'lanishlar)ni uzatish, kasbiy transformatsiya, kreativlikni uyg'unlashtirish bosqichlarida rivojlanib boradi. Bu jarayonga pedagog xodimning ichki, tashqi va vositali motivatsiyasi; ilg'or tajribalarni o'rganish uchun shart-sharoit mavjudligi; raqamli texnologiyalar sharoitida gumanitar fanlarni o'qitish malakasiga egaligi kabi ko'plab omillar ta'sir etadi.

Kreativlikni o'rganish masalalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarni quyidagi yo'nalishlarda guruhlashtirish mumkin: birinchi yo'nalish kreativlikni yaratilgan mahsulotlar bo'yicha o'rganadi, bunda ijodiy mahsulotning asosiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi: miqdori, sifati va ahamiyati (E.P.Torrens, A.V.Brushlinskiy, K.Shefer, T.Amabayl, M.Ferson, K.Taylor, D.Taylor va boshqalar)ga asosiy e'tibor qaratiladi; ikkinchi yo'nalishda kreativlik jarayon sifatida o'rganiladi (V.I.Andreyev, P.Drepau, Ye.Ye.Tunik, A.V.Moroz, Barisheva, I.S.Bekeshova, A.R.Aripjanova, M.M.Kashapov, G.A.Sukerman). Har qanday jarayon, shu jumladan, kreativ jarayon ham boshlanishi, davomiyligi, o'zgarishi va shunga mos ravishda qandaydir yakuniga ega bo'ladi. Bunday holda obyektiv yoki ideal kreativ mahsulot yaratilishi emas, kreativ fikrlash jarayonining turli bosqichlari, darajalari va turlari aniqlanadi hamda tahlil etiladi; uchinchi yo'nalishda kreativlik qobiliyat sifatida tahlil etiladi (D.Simpson, E.P.Torrens, J.A.Maslou, Gildford, A.V.Brushlinskiy, E.P.Ilin, E.L.Grigorenko), turli yosh davrlari, har xil kasb egalari kreativ qobiliyatlarini rivojlanish mazmuni va dinamikasiga ko'proq ahamiyat qaratilgan; to'rtinchi yo'nalishda kreativlik jarayoni shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi, o'zini o'zi rivojlantirishi bilan bog'lanadi va o'zini o'zi faollashtirgan shaxsning kreativligiga e'tibor qaratiladi (R.J.Hallman, K.Rodjers, N.V.Vishnyakova, D.B.Bogoyavlenskaya, I.Ye.Bryakova, A.V.Morozov, V.N.Drujinin).

Ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar ta'siri ostida dunyoning tez o'zgaruvchan modeli va unga mos ijtimoiy munosabatlar, ta'lim paradigmalari pedagoglardan bunday o'zgaruvchan sharoitlarda faoliyat olib borishga moslashish uchun tez moslashish ko'nikmalarini talab qiladi. Bu ko'nikmalarni shakllantirish uzluksiz kasbiy rivojlanishni, shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasini aniqlash, rivojlantirishni talab etadi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish pedagoglarning doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta'lim muhitini yaratish; mustaqil fikrlash malakalari va pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish orqali o'z ustida mustaqil ishlash; pedagoglarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi asosida kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini rivojlantirish; ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish; ta'lim sifatini oshirishning asosiy manbai sifatida pedagoglarning kasbiy rivojlanishini, tashabbuskorligini, ilmiy tadqiqotlarga intilishini va ijodiy mahoratini rag'batlantirishni nazarda tutadi.

Hayot davomida o'qishning asosiy xususiyatlari: cheksiz o'rganish, tezkorlik, eng yangi texnologiyalar, o'z-o'zini boshqarish, kechiktirmasdan amalda qo'llash, keng qamrovlilik, dinamiklik, ma'lumotlarni ulashish, tezkor ishlash va ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kabi talablarni bajarilishida muhim hisoblanadi.

Kreativlik faqat erishilgan natija bilan emas, balki shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi, yangiliklarga ochiqqligi, kreativ maqsadlarni o'z oldiga qo'yishi, o'zini o'zi rivojlantirishi uchun kam kuch va vaqt sarflashi bilan ajralib turadi. Muallif kreativ muhit, kreativ jarayon, kreativ shaxs, kreativ mahsulot kabi aspektlarni ajratib ko'rsatadi. Psixolog olim D.Veksler o'z tadqiqotlarida kreativ fikrlashni bir muammo yoki masala yuzasidan bir vaqtda bir nechta yechimlarni ishlab chiqish jarayoni sifatida tushuntirib, kreativ fikrlashni stereotip, shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, voqea, hodisa va jarayonlar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam berishini ta'kidlaydi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun shaxs tarbiyasida bolaligidan boshlab uning fikri muhim ahamiyat kasb etishini va jamoada o'z o'rniga ega ekanligini his qildirib borish; jamiyatda shakllangan dogmatik qarashlardan voz kechish; boshqaruv jaryonida avtokratik usullardan ko'ra demokratik usullarni ko'proq qo'llashga ahamiyat qaratish lozimligi ta'kidlanadi.

Kreativ jarayonda tafakkur shakllari tushuncha, hukm, xulosalardan iborat bo'lib, u ikkita vazifani – tushunish va tushuntirishni bajaradi. Kreativ tafakkurning xususiyati shaxsning muammo, undan kelib chiqadigan masalalar va savollarni qo'yish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Kreativlik muammoni qo'yish va hal qilish bilan bog'langan bo'lib, muammoning vujudga kelishi, uning xususiyatlari (dolzarbligi, yangiligi, keng qamrovligi, chuqurligi va x.k.) oldingi bilimlar, odamlardagi ijtimoiy va gnoseologik (bilish) ehtiyojlar bilan belgilanadi. Ya'ni fikr va muammoni aniq, ravshan ifodalash; huqm va mulohazalarning chin bo'lishi; tatbiq qilinayotgan vositalar va usullarning masalaning maqsadi va natijasiga mos kelishi; muammoni masala va vazifalarga aylantirishda izchillik talabi qondirilishi lozim; natijani tekshirib ko'rishning ishonchli usuli mavjud bo'lishi talab etiladi.

Kreativ tafakkurning yana bir muhim xususiyati nostandart g'oyalar yaratish, ilgari surish hisoblanadi. Falsafiy nuqtayi nazardan g'oya intuitiv (nogahon) ravishda hosil bo'ladigan, aqlan anglaniladigan, ilmiy faraz va nazariyalarning asosini tashkil qiladigan bilish shakli bo'lib, u masalani qo'yish, tajribaviy ma'lumotlarni umumlashtirish, murakkab muammoli vaziyatni tushunish imkoniyatini beradi. G'oyaning asosiy vazifasi o'rganilayotgan obyekt, hodisa yoki jarayonning xossalarni tushuntirish, tushunishga yordam berish bo'lib, u inson ruhiyatida yangi fikr tarzida tug'iladi. Paydo bo'lish jihatdan g'oya kreativ tafakkurni hosilasidir. Har qanday yangi fikr, faraz, muammoni qo'yilishi va yechimi kreativ g'oya shaklida vujudga keladi. Kreativlik tafakkurni odatdagi fikrlash yo'lidan ancha qiziqarli bo'lgan noan'anaviy usullarga olib ketadi, shu bois inson tafakkurida original qarorlar vujudga keladi. Original va noana'anaviy qarorlar esa zamonaviy jamiyatlarida ilg'orlik, taraqqiyot, iqtisodiy takomil sari yetaklovchi kuch hisoblanadi. Kreativ tafakkur mehnat va faoliyat jarayoniga erkinlik, ozodlik, ilhom va ijodkorlik kabi xususiyatlarni baxsh etadi. Demak, intellekt – insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik – mana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlatish qobiliyati hisoblanadi. Ya'ni, intellektuallik – pedagoglarda kasbiy salohiyatni shakllantirish, ularni zamonaviy jamiyatda ishlashga tayyorlashning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi, kreativ tafakkur esa, aqliy salohiyat orqali mavjud muammolarning yangicha yechimlarini topish hisoblanadi.

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining kreativ tafakkuri maqsadga yo'naltirilgan, shu vaqtgacha ma'lum bo'lmagan yoki an'anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan batamom yangi usul, yo'l, vositalarni tanlashni va ishlab chiqishni anglatadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda odatda katta biznes strukturalarini tahlil qilish, o'nlab, yuzlab kreativ tafakkurga ega bo'lgan odamlarning fikrlari, qarashlarining tahlillarini o'tkazish, umumlashtirish, rejalashtirish, o'rganish va umumiy yechimga keltirish talab etiladi. Shu sababli, ijtimoiy-gumanitar fanlarda kreativ tafakkur tushunchasining o'zi korporativ manfaatlar tafakkuri sifatida targ'ib qilinganligi va katta biznes strukturalari faoliyatining vujudga kelishiga turtki bo'lganligi ta'kidlanadi. Kreativ tafakkur jamiyatlar taraqqiyotining industrial va postindustrial, ilmiy-texnik inqiloblar va keskin o'sish davrida shakllangan hamda zamonaviy texnik taraqqiyotning yangi bosqichlarini inson zahiralari bilan boyitish uchun xizmat qiladigan shaxsning noan'anaviy fikrlash qobiliyati va tafakkuri hisoblanadi. Kreativ tafakkur faqat ba'zi bir insonlarga xos alohida in'om etilgan g'ayri oddiy tafakkur, o'zini tutish qobiliyati emas.

Kreativ tafakkur – aqlning peshqadamligi, ish vazifasi va sohasiga sodiqlik, tafakkurning egiluvchanligi, noan'anaviyligi, tezlikda qarorlar qabul qilish, nostandart yechimlar qabul qilishdan cho'chimaslik, ong, tafakkur va aqlni barcha yo'nalishlarida istiqbolni ko'rish va anglashga o'rgatish, prognoz qila olish kabi xususiyatlarning maqsadli tarbiyalanishi va shakllantirishiga bog'liq pedagogik jarayondir.

**Xulosa.** Uzluksiz malaka oshirish ta'limi mazmunini jamiyat, fan, madaniyat va shaxsga muvofiqligi; o'qitishning muayyan protsessual jihatlarining yaxlitligi; turli sathlardagi ta'lim mazmuni tuzilmasining yagonaligi; ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish; ta'lim mazmunining asoslanganligi; ta'lim mazmuni asosiy komponentlarining shaxs ichki (tayanch) madaniyati tuzilmasiga muvofiqligi; ta'limni shaxsning o'z-o'zini kasbiy va shaxsiy rivojlantirishga yo'naltirish, ijodiy rivojlanib boruvchi ta'lim konsepsiyaga asoslanganlik kabi andragogik tamoyillarga asoslanishi lozim. Malaka oshirishning rasmiy (bevosita), norasmiy (muqobil) va informal (mustaqil ta'lim) shakllari uzluksizligi va ularning didaktik tizimi xususiyatlariga mos ravishda, ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini uzluksiz kasbiy rivojlantirish (continuous professional development), o'zini-o'zi rivojlantirish (self-development), bajarish orqali o'rganish (learning by doing) muhitini yaratish asosida amalga oshirish lozim. Uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini rivojlantirishda psixofiziologik omillar, ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etish uchun zarur darajada tashkiliy, mazmun bilan bog'liq, texnologik, refleksif shart-sharoitlarni ta'minlash lozim. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish shaxs kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o'sishi jarayoni sifatida shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasini aniqlash, rivojlantirish, doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta'lim muhitini yaratish; kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi muhim hisoblanadi. Rasmiy, norasmiy va informal ta'lim muhitida adekvatlik, aniqlik, universallik talablari asosida ishlab chiqilgan «Uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirishning pedagogik modeli» o'qituvchining shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasi va axborot maydonini loyihalash, uzluksiz malaka oshirishning bevosita va kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir-birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta'minlaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son «Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4623-son Qarori. 2020-yil 27-fevral. <https://lex.uz/docs/4749364>.
4. Брякова И.Е. Готовность студентов к развитию творческих способностей учеников как аспект формирования креативной компетентности будущих учителей-словесников. // - Оренбург: Изд-во ОГПУ, 2008. - 188 с.
5. Бугайчук Т.В., Янбых С.Л. Характеристика креативной компетентности преподавателя высшей школы [Электронный ресурс]. // ФГБОУ ВПО «Ярославский государственный педагогический университет им. К.Д.Ушинского». URL: [yspu.org/images/d/d1/](https://yspu.org/images/d/d1/).
6. Вишнякова Н.В. Психологические основы развития креативности в профессиональной акмеологии. // 19.00.01—Дисс. доктор психол. наук. М.: 1996.- 295 с.
7. Gordon W. I. I. Synectics: the development of creative imagination. -New-York, Harper and Row, 2001.- 180 pg.
8. Garnett, F. Heutagogy, Emergent, Ambient. November 18, 2010. <https://blog.bitobe.ru/article/khyutagogika-evtagogika/>

---

## TALABALARNING LOYIHAVIY FAOLIYATIDA CHIZIQSIZ TA'LIM TRAEKTORIYASINI QURISH METODIKASI

**Mamarajabov Shavkat Ergashevich**, TDIU professori v.b.,  
pedagogika fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Talabalarning o'quv loyihaviy faoliyatini chiziqsiz ta'lim trayektoriyasi asosida tashkil etish vositasida bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarning umumkasbiy tayyorligini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.

**Tayanch so'zlar:** o'quv loyihaviy faoliyat, chiziqsiz ta'lim traektoriyasi, kasbiy kompetensiya, umumkasbiy tayyorlik, faol shakl, interfaol shakl.

## МЕТОДИКА ПОСТРОЕНИЯ НЕЛИНЕЙНЫХ ТРАЕКТОРИЙ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

**Мамаражабов Шавкат Эргашевич**, и.о. профессор ТГЭУ,  
кандидат педагогических наук

**Аннотация.** Исследованы вопросы формирования общепрофессиональной готовности будущих педагогов-экономистов посредством организации учебно-проектной деятельности студентов на основе нелинейной образовательной траектории.

**Ключевые слова:** учебно-проектная деятельность, нелинейная образовательная траектория, профессиональная компетентность, общепрофессиональный готовность, активный вид, интерактивный вид.

## METHODOLOGY FOR CONSTRUCTING NONLINEAR TRAJECTORIES OF STUDENTS' PROJECT ACTIVITY

**Mamarajabov Shavkat Ergashevich**, acting professor at TSUE,  
candidate of pedagogical sciences

**Abstract.** The issues of formation of general professional readiness of future economists-teachers through the organization of educational and project activities of students on the basis of a nonlinear educational trajectory have been studied.

**Key words:** educational and project activities, nonlinear educational trajectory, professional competence, general professional readiness, active view, interactive view.

**Kirish.** Bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonini rivojlantirish muammosi – kasbga yo'llash, kasbga layoqatlarini saralash, kasbga innovatsion tayyorlash ana shu umumiy vazifaga qaratilishi lozim. Bu juda murakkab va serqirra jarayon bo'lib, u pedagogdan aniqlikni, ta'lim jarayonini mohirona boshqarishni va uni obyektiv nazoratini talab etadi. Ya'ni kasbga yo'llash, shu sohaga layoqatlarini saralash va kasbga innovatsion tayyorlash borasida olib borilayotgan barcha ishlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilsa va shu tadbirlarning har biri bosqichma-bosqich bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarni tayyorlashda ta'lim jarayonini mohirona yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etishga tayyorlasagina u bir butun tizim sifatida aniq maqsadga erishiladi, uning ta'sirchanligi talabga javob beradi va uni obyektiv nazorat qilish oson kechadi.

**Asosiy qism.** Talabalarning o'quv loyihaviy faoliyatini chiziqsiz ta'lim trayektoriyasi asosida tashkil etish vositasida bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarning umumkasbiy tayyorligini shakllantirish jarayoniga yaxlit tizim sifatida yondashish uning har bir elementi, ya'ni kasbga yo'llash, layoqatlarini saralash va innovatsion tayyorlash kabi bo'g'inlar o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida ularning bir bo'g'inidan ikkinchisiga, ya'ni kasbga yo'llashdan, layoqatlarini saralash va kasbga innovatsion tayyorlashga

o'tish mantiqan izchillik asosida bir-biriga bog'liq holda amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, o'quv loyihaviy faoliyatda chiziqsiz ta'lim trayektoriyasini qurish metodikasining modelini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Oliy o'quv yurtida pedagogika fanlari pedagoglik faoliyati sirlarini, loyihalash asoslarini ham nazariy, ham amaliy tomondan mukammal o'rgatishni davom ettirishi va bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarning shu sohadagi amaliy ko'nikma va malakalarining shakllanishiga imkoniyat yaratishi zarur.

Bizning fikrimizcha, iqtisodchi-pedagog kadrlarni tayyorlashda shunday yondashuv uning samarali natijasini ta'minlaydi.

Talabalarning o'quv loyihaviy faoliyatini chiziqsiz ta'lim trayektoriyasi asosida tashkil etish vositasida bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarning umumkasbiy tayyorligini shakllantirishda kasbiy yaroqlilik identifikasion kartasini yaratish muhim.

Bunday o'qitishning mazmuni quyidagicha bo'lishi mumkin: har qanday fanni o'qitishda mutaxassislik xususiyatini e'tiborga olish; ijtimoiy fanlarni o'qitishni mutaxassislikka yaqin fanlar bilan aloqadorligini ta'minlash; imkoniyat darajasida o'qitishda ilg'or va ijodkor o'qituvchilar tajribasidan o'rinni foydalanish; amaliy mashg'ulot darslarida darsliklar va fan dasturini o'rganib borish; bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarni mutaxassislik fanlarini o'qitishga alohida e'tibor; bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarni mustaqil ishlarni bajarishga o'rgatish.

OTM talabalarining o'quv loyihaviy faoliyatda chiziqsiz ta'lim trayektoriyasini qurish metodikasining modeli bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarda quyidagi kompetensiyalar orqali umumkasbiy tayyorligini shakllantirishni nazarda tutadi: pedagogik bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash qobiliyati, ta'lim jarayonini loyihalashtirishda turli metodlar, nazariy tadqiqotlarni qo'llash; kasbiy faoliyatda pedagogik jarayonni tashkil etishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash qobiliyati, ularni mazkur muammolarni hal etishga jalb etish; turli manbalar va axborotlar bazasidan ma'lumotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish qobiliyati, ularni talab darajasida taqdim eta olish.

O'quv loyihaviy faoliyatni talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda individual (faol) shaklda, shuningdek, kichik guruhlarda (interfaol shaklda) ham tashkil etish mumkin. Bunda quyidagi jadvalda keltirib o'tilgan umummadaniy kompetensiyalar shakllanadi:

1-jadval

O'quv loyihaviy faoliyatda shakllanadigan umummadaniy kompetensiyalar

Faol shaklda	Interfaol shaklda
mustaqil tashkil etish va mustaqil bilim olish qobiliyati	shaxslararo o'zaro ta'sirni amalga oshirish uchun og'zaki va yozma shakldagi kommunikatsiyani qo'llash qobiliyati
shaxslararo o'zaro ta'sirni amalga oshirish uchun yozma shakldagi kommunikatsiyani qo'llash qobiliyati	jamoada ishlash, madaniy farqlarni tolerantlik bilan qabul qilish qobiliyati

O'quv loyihalari, asosan, kichik guruhlarda (3-4 kishidan iborat) bajariladi va unda ularning har biri ma'lum bir vazifani bajaradi. O'quv loyihasi natijasiga ko'ra, guruhning barcha a'zolari bir xilda baholanadi. Shuning uchun uning har bir a'zosi loyihani yuqori darajada bajarilishidan manfaatdor.


Agar ayrim talabalar ba'zi holatlarda individual o'quv loyihagini (u yoki bu sabablarga ko'ra) yaratish istagini bildirsalar, bunday imkoniyatlar ularga beriladi. Bunda ham ishni baholash mezonlari o'zgarishsiz qoladi.

Eng yaxshi o'quv loyihalari talabalarning ilmiy konferensiyalarida ma'ruza shaklida taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar yaxshi chiqish qilsalar, bu ma'ruza to'plamida nashr etilishi ham mumkin. Shunday qilib, o'quv loyihalarining yaratilishi talabalar individualligini namoyish etishning eng yorqin namunasi bo'lib, ushbu faoliyat turida o'quv jarayonini chiziqsizligini amalga oshirish aniq ko'rinadi. Mazkur modelni sxematik ko'rinishda quyidagicha tasvirlash mumkin.

Sxemani tahlil etish shuni ko'rsatadiki, o'quv loyahasini bajarishda chiziqsiz ta'lim trayektoriyasi yaxlitligicha amalga oshiriladi: faoliyat shaklini mustaqil tanlash (individual yoki jamoaviy)dan loyihani bajarish murakkabligi darajasigacha.

Boshqacha qilib aytganda, bunday turdagi o'quv faoliyatiga ega bo'lgan talabalar uchun bifurkatsiya nuqtalari doimiy ravishda yaratiladi va mustaqil ravishda qilingan tanlovlar ta'lim jarayonining chiziqsizligini amalga oshirishga imkon beradi.

Yuqoridagi sxemani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'quv loyahasini bajarishda chiziqsiz ta'lim trayektoriyasi yaxlitligicha: faoliyat shaklini mustaqil tanlash (individual yoki jamoaviy)dan loyihani bajarish murakkabligi darajasigacha amalga oshirilishi 1-jadvalda tasvirlangan.




1-rasm. O'quv loyihaviy faoliyatda chiziqsiz ta'lim trayektoriyasini qurish metodikasining modeli

2-jadval

Ichki differentsiatsiya asosida chiziqsizlik belgilari

BILISH FAOLIYATI TURLARI	CHIZIQSIZLIK Mustaqil tanlov
Ma'ruzalar	Bilish faoliyatining SHAKLI
Amaliy mashg'ulotlar	Topshiriqlarni bajarishning MURAKKABLIK DARAJASI
Laboratoriya ishlari	Topshiriqni bajarishning MURAKKABLIK DARAJASI
O'quv loyihaviy faoliyat	Bilish faoliyatining SHAKLI, MAZMUNI

Barcha ishlab chiqilgan metodikalar yagona tuzilishga ega bo'lib, u quyidagi sxemada aks ettirilgan. Biroq ularning mazmuni turlichadir, xususan, turli bilish faoliyatida turli umumkasbiy kompetensiyalar shakllanadi; o'quv mashg'ulotlarining faol yoki interfaol shaklda o'tkazilishi ham turli umummadaniy kompetensiyalarni shakllanishiga olib keladi; bilish faoliyati ham individual, ham kichik guruhlarda, o'quv materialining turli murakkablik darajalarida amalga oshirilishi mumkin. Bularning barchasi yakuniy nazorat jarayonida aniqlanadi, bu esa, talabalarning umumkasbiy va umummadaniy kompetensiyalarining rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi.



2-rasm. Bilish faoliyatining har xil shakllari uchun chiziqsiz ta'lim traektoriyalarini qurish usullari modellarining yagona tuzilishi

**Xulosa.** Yuqoridagi sxemani tahlil etish shuni ko'rsatadiki, differensiallashgan ta'limning uslubiy tizimini joriy etishning yetakchi sharti o'quv-bilish faoliyatining har xil turlarida chiziqsiz ta'lim trayektoriyalarini qurish usullaridan birgalikda foydalanish hisoblanadi.

**Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni.
2. Павлуцкая Н.М. Дифференциация обучения физике бакалавров технических направлений подготовки как условие формирования их общекультурных и общепрофессиональных компетенций: Дис. ... д-ра пед. наук. - М., 2016. - 311 с.
3. Mamarajabov Sh.E. Kredit ta'lim sharoitida talabalarni umumkasbiy tayyorligini differensial yondashuv asosida shakllantirish metodikasini takomillashtirish: Monografiya. - T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023. - 192 b.
4. Mamarajabov Sh.E. Ta'lim jarayonida talabalarning chiziqsiz ta'lim trayektoriyasini qurishga sinergetik yondashuv // O'zMU xabarleri. - T., 2023. - 1/12/2son. - B. 125-127.

---

### OLIV TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI KASBIY FAOLIYATINI TALABALARNING QONIQISHI KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMLARI

*Urakov Sherzod Raxmanovich, SamDU Kattaqo'rg'on filiali direktori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarini sifatini oshirish, xususan, professor-o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirishda faoliyatning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tizimini takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Shu asosda OTM professor-o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini talabalarning qoniqishi ko'rsatkichlari asosida baholash texnologiyasi taklif etilgan. Professor-o'qituvchilar kasbiy faoliyatini baholashning latent omillari va ularga oid ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** OTM ta'lim muhiti, talaba qoniqishi, ta'lim oluvchilar, OTM obro'si, pedagogik bilim va madaniyat, pedagogik mahorat, talabalarni qo'llab-quvvatlash, talabalar bilimni baholash.

### МЕХАНИЗМЫ ОЦЕНКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ НА ОСНОВЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СТУДЕНТОВ

*Urakov Sherzod Raxmanovich, директор Каттакурганского филиала СамГУ, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)*

**Аннотация.** В данной статье проанализированы пути повышения качества образовательных услуг в высших учебных заведениях, в частности, совершенствование системы важнейших показателей эффективности (KPI) в деятельности профессорско-преподавательского состава. На этой основе предложена технология оценки профессиональной деятельности преподавателей вузов на основе показателей удовлетворенности студентов. Разработаны латентные факторы оценки профессиональной деятельности профессорских и преподавателей.

**Ключевые слова:** образовательная среда вуза, удовлетворенность студентов, учащиеся, репутация вуза, педагогические знания и культура, педагогические навыки, поддержка студентов, оценка знаний студентов.

### MECHANISMS FOR EVALUATING THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF TEACHERS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON INDICATORS OF STUDENT SATISFACTION

*Urakov Sherzod Rakhmanovich, director of SamSU Kattakorgan branch, doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences*

**Abstract.** This article analyzes ways to improve the quality of educational services in higher educational institutions, in particular, improving the system of critical performance indicators (KPI) in improving the activities of teaching staff. On this basis, a technology for assessing the professional activities of university teachers based on student satisfaction indicators is proposed. Latent factors for assessing the professional activities of professors and teachers have been developed.

**Key words:** educational environment of the university, student satisfaction, students, university reputation, pedagogical knowledge and culture, teaching skills, student support, assessment of student knowledge.

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim sifati jamiyat taraqqiyotining, xususan, aholining ijtimoiy farovonligi, mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik hamda inson kapitalining darajasini belgilovchi omilga aylanib bormoqda. Ayniqsa, inson kapitali darajasi oliy ta'limdagi ta'lim

xizmatlari sifatining darajasiga, shuningdek, ta'lim xizmatlari sifatini belgilovchi professor-o'qituvchilarning bilim saviyasi va madaniyati, pedagogik mahoratiga bog'liqdir. «Singapur mo'jizasini» yaratgan Li Kuan Yuning fikricha, davlatdagi «mo'jiza»larni qilgan insonlar o'qituvchilardir [1].

**Asosiy qism.** Professor-o'qituvchilar faoliyatini baholab borish har qandan oliy ta'lim muassasasi uchun ta'lim xizmatlari sifatini takomillashtirish yo'nalishlaridan biridir. Bunda esa, ta'lim xizmatlarining bevosita iste'molchisi bo'lgan talabalarning fikri, ularning qoniqish ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ta'lim muhitidan qoniqishini monitoring qilib borish, ta'lim sifatini oshirish hamda professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishning muhim nuqtalarini aniqlash imkonini beradi.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida, xususan, AQSh [2-3], Singapur [4], Angliya [5], Italiya [6] va Irlandiyada [7] professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini «talabalar qoniqishi» va «Talabalarning OTMga sadoqati» mezonlari orqali baholash, ushbu mezonlarni ilmiy asoslash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, Z.Allam va M.Iacovidoularning tadqiqotlarida professor-o'qituvchilarning bilim saviyasi va madaniyati bilan ta'lim sifati va talabalarning OTMdan qoniqishi o'rtasidagi bog'liqlik borligini aniqlagan [8-9].

MDH olimlaridan I.A.Dagayeva, V.V.Baxotskiy, L.I.Strikunovalarning tadqiqotlarida talabalarning ta'lim muhitidan qoniqishini tashxislash orqali OTM jozibadorligini oshirish yo'nalishlari o'rganilgan. Ularning fikricha, talabalarning qoniqishiga nafaqat OTMdagi ta'lim muhiti, o'qitish usullari, shuningdek, talaba shaxsiga munosabat, professor-o'qituvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar (ilmiy salohiyat, erishgan yutuqlari, tadqiqot yo'nalishlari) ham ta'sirga ega [10].

Mamlakatimizda professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash, eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) aniqlash bo'yicha tadqiqotlar OTMlar boshqaruvini takomillashtirish nuqtai nazaridan amalga oshirilmoqda. Xususan, tadqiqotlarda KPI tizimi bir xil standartlarga emasligi, OTMlar, hududlar, mamlakatlarning xususiyatlariga asoslangan holda amalga oshirish samaraliroq hisoblanishi qayd etilgan, professor-o'qituvchilarni baholash jarayonlari amaliyotida qo'llanilayotgan yondashuvlar shaffof hisob-kitoblarga qurilmaganligi, texnologik jarayonlar yetarli asoslantirilmaganligi, ko'p hollarda axborotlar va bajarilgan ish natijalariga beriladigan baho subyektiv va tushunarsiz xususiyatga ega bo'lishi aniqlangan [11]. Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar kasbiy faoliyatini baholashda talaba qoniqishi darajasiga oid mezonlardan foydalanish KPI tizimida aniqlab bo'lmaydigan latent omillarni ro'yobga chiqarishga sharoit yaratadi. Xususan, amaldagi KPI tizimlarida professor-o'qituvchining bilimi va madaniyati, pedagogik mahorati, talabalarning bilim darajasini baholashdagi munosabatlari, talabalarning ta'lim olish ehtiyojlari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi kabi muhim komponentlarni baholashga imkon bermaydi. Shu o'rinda bugun mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi ayrim omillar va xususiyatlarni e'tirof etish maqsadga muvofiq.

OTMlarga qabul qilingan 1-kurslar bilan o'tkazilgan suhbatlarga ko'ra, ularning ko'pchiligida asosiy maqsad oliy ta'lim muassasalariga kirish bo'lgan. Mazkur maqsadga erishish uchun umumta'lim maktablaridan ta'lim olish bilan birgalikda o'quv markazlari va xususiy repetitorlik kurslariga qatnagan. Kuzatishlarga ko'ra, talabalikka qabul qilingandan (maqsadga erishgandan) so'ng ular ma'lum muddat ta'lim olishga nisbatan relaksasiya jarayonlari yuz berishi, natijada, propedevtik bosqich hisoblangan 1-kursda ta'lim natijalari yetarli darajada kuzatilmaydi.

Oliy ta'limda sifatni ta'minlash bo'yicha xorijiy OTMlarning tajribalari tahliliga ko'ra, ta'lim sifatini takomillashtirishning asosiy komponentlari e'tirof etilgan. Shu asosda biz ta'lim sifatini takomillashtirishning quyidagi komponentlarini keltiramiz:

1. Ta'lim oluvchilar. Ta'lim oluvchilarning ta'lim olish maqsadi va ehtiyoji ta'lim sifatini ta'minlashning eng muhim komponentidir.

2. OTMning obro'si. Ta'lim yo'nalishlari, bitiruvchilarga mehnat bozorining talabi darajasi, OTMning moddiy-texnik bazasi, joylashgan hududning infratuzilmasi yuqori bilim va tayyorgarlikka ega bo'lgan ta'lim oluvchilarni jalb qilish omili hisoblanadi.

3. OTMdagi ta'lim jarayoni. Dars beruvchi professor-o'qituvchilarning sifat tarkibi va ta'lim jarayonlarini tashkil etilishi, talabalar bilimini baholash usullari va yondashuvlari, OTM rahbariyatining ta'lim sifatini ta'minlashga nisbatan munosabati.

4. OTM ta'lim muhitidan talabalarning qoniqishi. Talabalarning ta'limdan qoniqishi OTMning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omil bo'lib, bu bevosita professor-o'qituvchining bilim darajasi, madaniyatini hamda pedagogik mahoratini takomillashtirish vositasidir.

Demak, OTMlarning missiyasi va strategik rivojlanish yo'nalishlari talabalarning ta'lim muhitidan qoniqishini ta'minlashga yo'naltirilgan komponentlarning tizimli aloqadorligiga asoslanishi lozim. Talabaning oliy ta'lim muassasasiga qabul qilinishi o'z kuch va qobiliyatiga ishonch, to'laqonli yorqin hayotga umid hissini uyg'otadi. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasasida birinchi kursdagi ta'lim jarayoni eng murakkab hisoblanadi. Chunki talabaning o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimi jarayonidagi tashkiliy jihatdan farq qiluvchi oliy ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rioya qilishiga to'g'ri keladi. Bunda o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimidagi hamda oliy ta'lim tizimi talablari o'rtasidagi moslashuv jarayoni masalasi yuzaga keladi. Ayni paytda talabalarning ta'lim olishga ongli munosabatlarini ta'minlash samaradorligi zamonaviy moddiy-texnik vositalar bilan jihozlanganlikdan ko'ra, undagi mavjud qulay pedagogik muhit, ta'lim jarayonining ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga asoslanganligi professor-o'qituvchilar va kursdoshlar bilan o'zaro munosabatlar kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizdagi ilmiy tadqiqotlar tahlili talabalarning OTM ta'lim muhiti, shuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatidan qoniqishiga ta'sir qiluvchi: talabalarda turli ta'lim dargohlaridan keyin oliy ta'limdagi yangi talablarga ijtimoiy moslashishning sustligi hamda talab qilinayotgan darajada o'qish uchun vaqtning yetishmasligi kabi omillar bilan bog'liqligini; yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish jarayonidagi qiyinchiliklar, professor-o'qituvchilarning dars jarayonlarida zaruriy pedagogik bilim va mahoratga, ayniqsa, pedagogik taktga ega emasligi, talabalarning bilim darajasini baholashda obyektiv yondashuvning yetarli emasligi, ta'lim mazmuni va auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar talabalarning ehtiyojlariga yo'naltirilmaganligi, ya'ni talabalarning tashabbuslari va fikr mulohazalari inobatga olinmasligi kabi holatlarni ko'rsatish imkonini berdi. Talabalarning aksariyati ta'lim muhitidan yetarlicha qoniqmasliklarini ko'rsatib, bu, o'z navbatida, o'rganilgan indikatorlar ta'sirida talabalarning ta'lim motivasiyasining susayishi, o'z-o'zini baholashi, o'zini namoyon qilishi, o'qish jarayonida xavotirlanish, stressli holatlarining paydo bo'lishi ehtimolini oshirishi mumkin.

Biz tadqiqotimizda professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashda talabalarning qoniqishi ko'rsatkichlari asosida baholash mexanizmini ishlab chiqdik va tadqiqot obyekti sifatida belgilangan OTMlarda tajriba-sinovdan o'tkazdik.

Professor-o'qituvchilar kasbiy faoliyatini talabalarning qoniqish ko'rsatkichlari asosida baholashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: 1. Talabalarning asosiy ta'lim motivlarini va talabalarning qoniqishini belgilovchi indikatorlarni aniqlash. 2. Talabalarning ta'lim olishga nisbatan ongli munosabatlarini hamda auditoriyaga talabini shakllantirish orqali professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish. 3. Talabalarning qoniqish ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali ta'lim jarayonining kuchli va zaif tomonlarini hamda ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, shuningdek, o'quv jarayonining zaif tomonlari hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash. 4. OTMda professor-o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotimiz doirasida dastlab talabalarning OTMdagi ta'lim jarayoniga nisbatan fikrlari tahlil qilindi. So'rov o'tkazilgan talabalarning 13,2% talabalarga qo'yiladigan topshiriqlar hajmining yuqoriligini e'tirof etgan bo'lsa, 21,3% talabalar topshiriqlar hajmining yetarli emasligini ta'kidlagan, 9,3% talaba mustaqil ta'lim topshiriqlarining hajmi ko'pligini bildirishgan bo'lsa, 17,3% talaba mustaqil ta'lim topshiriqlarining hajmi va mazmunini yetarli deb hisoblashgan, 11,1% talaba ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning nomutanosibligini, 16,6% talabalar topshiriqlarning berilishi semestr davomida notekis taqsimlanganligini e'tirof etishgan. Shuningdek, respondentlarning fikrini aks ettiruvchi quyidagi muhim tendensiyalar aniqlandi: amaliyotga yo'naltirilgan darslar sonining yetarli emasligi (31,6%), mutaxassislik uchun ahamiyati kam bo'lgan fanlar salmog'i yuqori (10,6%), yakuniy nazoratlarda ko'plab notanish va dasturdan tashqari savollar uchrashi (23,8%). Professor-o'qituvchilar faoliyatini talabalar qoniqishi ko'rsatkichlari asosida baholashda biz dastlab ta'lim sifatini takomillashtirishning muhim komponenti hisoblangan ta'lim oluvchining ta'lim olish ehtiyojini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi talabalarning ta'lim muhitidan qoniqishini o'rganib chiqdik.

So'rovnomada quyidagi savollardan foydalanildi: 1. Siz o'zingiz ta'lim olayotgan muassasada professor-o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlardan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz? 2. O'zingiz ta'lim olayotgan muassasada kursdoshlaringiz bilan o'zaro munosabatlardan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz? 3. O'zingiz ta'lim olayotgan muassasada tashabbuslaringizga diqqatlilik, ularning e'tiborga olinishidan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz? 4. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning o'z qadr-qimmatini saqlay bilish uchun (rektorat, fakultet, kafedralar rahbariyati va ustozlari tomonidan) mavjud ijtimoiy, pedagogik-psixologik muhitdan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz? 5. Siz ta'lim olayotgan muassasangizdagi muhitning talabalar uchun qulaylik darajasidan qoniqishingizni qanday baholagan bo'lardingiz? 6. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning o'ziga nisbatan hurmatda bo'lish (dekanat va professor-o'qituvchilar tomonidan) muhitdan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz? 7. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning yordam olishga bo'lgan (rektorat, fakultet, kafedralar rahbariyati va ustozlar, kursdoshlar tomonidan) imkoniyatdan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz? 8. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning ta'lim olish tashkiliy va metodik masalalarida o'z nuqtai nazarini bayon qilish imkoniyatdan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz? 9. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning tashabbus, faollik ko'rsatish imkoniyatidan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz? 10. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning shaxsiy muammo va qiyinchiliklarini hisobga olishidan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz? 11. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning o'z qarorini tanlashga yordamlashish muhiti qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz?

Har bir savolga talabalarning quyidagi javoblari inobatga olindi: juda ham qoniqaman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish imkoniyati to'liq mavjud); asosan, qoniqaman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish imkoniyati asosan mavjud); o'rtacha darajada qoniqaman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish imkoniyati har doim bo'lmasada, ko'pchilik hollarda mavjud); qisman qoniqaman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish qisman mavjud, lekin zarur paytda murojaat qilish qiyin bo'ladi); qoniqmayman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish imkoniyati mavjud emas desa ham bo'ladi); umuman qoniqmayman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish imkoniyati umuman mavjud emas). Olingan natijalarga asoslanib, OTMda o'quv jarayonlarining tashkil etilishi, professor-o'qituvchilarning bilim saviyasi va madaniyati, pedagogik mahorati, talabalarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi hamda talabalar bilimni baholashga bo'lgan yondashuvlarining talabalar qoniqishiga ta'siri o'rganildi. Natijalar tahliliga ko'ra, professor-o'qituvchilar kasbiy faoliyatini ta'lim iste'molchisi hisoblangan talabalarning qoniqishi asosida

tezkor, bosqichma-bosqich va davriy baholab borilishi, talabalarning OTM ta'lim muhitidan qoniqishi ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qilgan. Ya'ni dastlabki, o'tkazilgan so'rovdan 52,8-66,3% talabalar juda ham qoniqaman deb e'tirof etishgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda bu ko'rsatkich 63,3-73,1%ga ko'tarilgan. Shuningdek, umuman qoniqmaslikni ko'rsatgan talabalar salmog'i 1.6% dan 0-0,3% gacha kamaygan.

**Xulosa** qilib aytganda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish ta'lim oluvchilarning ehtiyojiga bog'liqligini e'tirof etgan holda, ularning ta'lim muhitidan qoniqishi ko'rsatkichlari muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Talabalarning OTM ta'lim muhitidan qoniqishini, avvalo, OTMning reputatsiyasi, shuning bilan birgalikda professor-o'qituvchilarning bilim saviyasi va madaniyati, pedagogik mahorati, talabalarning bilim olishini qo'llab-quvvatlash, talabalar bilimni baholash yondashuvlari orqali ta'minlash mumkin. Talabalarning ta'limdan qoniqishi esa, OTMning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omil bo'lib, jamiyat ijtimoiy buyurtmasini bajarishda muhim vosita hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Rahmatov M.A., Zaripov B.Z. Iste'dodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir / Li Kuan Yu hikmatlari. - T.: Zamin Nashr, 2019.
2. Dehghan A., Dugger J., Dobrzykowski D., Balazs A. The antecedents of student loyalty in online programs. *Int. J. Educ. Manag.* Vol. 28, no. 1. P. 15-35, 2014.
3. Hoverstad R., Sylvester R., Voss K.E. Key factors influencing student satisfaction related to recruitment and retention, November 2014. P. 37-41.
4. Khoo H., Susie, Gregor S.T. Service quality and student/customer satisfaction in the private tertiary education sector in Singapore. *Int. J. Educ. Manag.* Vol. 31, no. 4. P. 430-444, 2017.
5. Lesley L., Kalafatis S. The idiosyncratic behavior of service quality, value, satisfaction, and intention to recommend in higher education: an empirical examination // *Journal of marketing management* Vol. 27, Nos. 11-12, October, 2011.
6. Masserini L., Bini M., Pratesi M. Do Quality of services and institutional image impact students' satisfaction and loyalty in higher education? *Soc. Indie. Res.*, vol. 146, no. 1-2, pp. 91-115, 2019.
7. Chapman V., Doris A. Modelling higher education financing reform for Ireland. *Econ. Educ. Rev.* Vol. 71. P. 109-119, 2019.
8. Allam Z. Demystifying the aspect of quality in higher education: insights from Saudi Arabia". *SAGE Open*, vol. 10, no. 1, 2020.
9. Iacovidou M., Gibbs P., Zopiatis A. An exploratory use of the stakeholder approach to defining and measuring quality: the case of a cypriot higher education institution". *Qual. High. Educ.* Vol. 15, no. 2. P. 147-165, 2009.
10. Дагаева И.А., Бахотский В.В., Стрикунова Л.И. Диагностика удовлетворенности студентов образовательной средой вуза в целях повышения его привлекательности для абитуриентов // *Вестник Сургутского государственного университета*. - С., 2022. - № 2 (36). - С. 42-50.
11. Аскарлов А.Д. Олий таълим муассасалари сифат менежментини такомиллаштириш: Монография. - Т.: ТерДУ, 2022. - 156 б.

---

## ЭРГОНОМИКА ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ГЕНДЕРНЫХ АСПЕКТАХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

*Абдуллаева Наргиза Абдуллаевна, PhD, свободный соискатель ТГПУ*

**Аннотация.** В статье приводятся данные о гендерных неравенствах в образовании, об отношении гендеров к современным технологиям, лежащие в основе педагогической эргономики; пути коррекции гендерных неравенств в образовании.

**Ключевые слова:** образование, гендеры, неравенства, технологизация, информатизация, эргономизация.

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING KOGNITIV VA KASBIY KOMPETENTLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH GENDER ASPEKTLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ERGONOMIKASI

*Abdullaeva Nargiza Abdullaevna, PhD, TDPU erkin tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada ta’limdagi gender tengsizliklari, pedagogik ergonomikaning asosini tashkil etuvchi genderning zamonaviy texnologiyalarga munosabati to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan; ta’limdagi gender tengsizliklarini tuzatish yo’llari.

**Tayanch so’zlar:** ta’lim, gender, tengsizliklar, texnologiyalashtirish, axborotlashtirish, ergonomika.

## ERGONOMICS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY IN GENDER ASPECTS OF IMPROVING COGNITIVE AND PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS

*Abdullaeva Nargiza Abdullaevna, PhD, free applicant of TSPU*

**Abstract.** The article provides data on gender inequalities in education, on the attitude of gender to modern technologies, which underlie pedagogical ergonomics; ways to correct gender inequalities in education.

**Key words:** education, gender, inequalities, technologization, informatization, ergonomics.

**Введение.** Гендерные аспекты в образовании и методы обучения юношей и девушек исторически связаны с развитием общества. Так, в античную эпоху было принято раздельное обучение мальчиков и девочек.

**Основная часть.** В патриархальном обществе ведущую роль играли мужчины, как защитники и добытчики семьи, в связи с чем у них формировались социально-культурные способности или стереотипы. В средние века и в период исламской культуры обучение мужчин было отдельное, им прививалось быть храбрым, сильным защитником Родины. Женщинам и девочкам прививались материнские чувства, предупредительные отношения: она была носительница ума и сознательности. Обучение девочек было домашним и раздельно от мальчиков. Им прививались уроки каллиграфии, письма, поэзии, истории, литературы. Однако, их права были ограничены, а среди бедного населения царила неграмотность.

Конституцией [1] в Узбекистане закреплены равные права женщины с мужчинами, обеспечивающие участие женщины в образовании,

в общественных и государственных сферах, созданы женские организации, занимающиеся вопросами быта, семьи, работы, общественной занятостью, правами и защитой интересов женщин во всех сферах общества, а в последнее время рассмотрены вопросы домашнего насилия над женщинами мужем и другими членами семьи и защита женщин. Кроме того, по республике организованы центр поддержки женщины – «Ayol hunari-oila ravnaqi» в Бухарской области; комитет женщин Узбекистана ИНО в городе Ташкенте. Отдельная организация «Тадбикор аёл» – «Ассоциация деловых женщин Узбекистана» с успехом функционирует во всех областях республики, поддерживающие предпринимательскую деятельность женщин. Создан «Ташкентский городской центр реабилитации и адаптации женщин», занимающийся защитой женщин, пострадавших от насилия, а также профилактикой суицида и множество образовательных учреждений, обеспечивающих познания, специализацию и профессионализм. Все эти организации возникли уже в независимой республике и служат развитию социально-общественных трудовых, семейных, правовых, реабилитационных, адаптивных компетенций женщин, развитию у них самосознания, самопонимания и её необходимости демократическому обществу.

В настоящее время в странах ЕС, США, Канады организовано множество женских организаций в области искусства, науки, техники, бизнеса, литературы, журналистике, юриспруденции. Это организации: BRIDCE (Великобритания), занимающаяся вопросами политики, теории и практики путём предоставления гендерной информатики; Cybergirl.com.voice of women (США). Гендерные статистические исследования в демографии, здравоохранении, на производстве и в целом по странам проводятся компанией Всемирного банка Database of gender statistics. Die Media (ФРГ) "Онлайн" представляет для женщин «Интернет-семинары», «Информацию по СМИ»; «Интернет презентации» и др. Сеть гендерных исследований и тренингов-Great Network (Англия), Gender Mattes (США) изучают гендерные вопросы по международному развитию, Globe women.com помогает объединить женщин и укрепить их место в международном рынке. Расширить международную связь помогает Womenspace (Канада), которая изучает женское равенство по компаниям и творчеству.

Технологизация образования или методы обучения в гендерных аспектах рассматриваются в эргономических подходах гендеров к техническим средствам обучения (компьютерных технологий), а также к информатизации, эргономизации процессов обучения.

Понятие «гендер» (gender — с английского означает пол) — означает половое различие и определяет категорию пола человека. Кроме того, это понятие применяется в целях разграничения биологических, социальных особенностей. Если биологические особенности определяют половое различие, то социальные определяют ролевые функции мужчин и женщин в обществе и их поведение, чувства, эмоции, взаимоотношения.

Свойства гендерной характеристики мужчин и женщин подразделены на три группы: 1) биологическая принадлежность; 2) ролевые стереотипы согласно пола; 3) ролевые стереотипы поведения, взаимоотношений согласно требованиям общества.

Гендерные стереотипы поведения личностей развиваются с детства и формируются социальными отношениями в обществе. Здесь имеют значение культурные, межличностные, общественные и национальные традиции, а также окружаю-

чая среда. Определяются социальные ролевые навыки, например, в одежде, в требованиях родителей, игрушках, школе, в устных и литературных, письменных примерах, радио, телевидения, кино, в мировоззрениях сверстников, одноклассников, социально-информационных сетевых связей. Гендерные роли выражаются и характеризуются маскулинной и фемининной теориями. Так, согласно маскулинной теории мужчинам свойственно высокая целеустремлённость и мотивация культурных, карьерных достижений. По фемининной теории женщина стремится к улучшению и выполнению семейно-бытовых ролей и равноправию с мужчинами. Мужественность – это атрибут национальной культуры, что выражает степень социальных, культурных достояний. А женственность – это часть национальной культуры и выражает степень внимания и отношения к другим. В обществе, где социальные роли мужчин и женщин различные, мужчины играют ведущую роль.

В обществе, где гендерные социальные роли равноправные, женщинам также предоставляются ведущие роли, улучшающие качество жизни, развиваются положительные взаимоотношения и смысла-поведенческие, интеллектуальные направления, укрепляются семейные ценности. В образовании, наряду с равными правами на обучение воспитываются, развиваются, укрепляются и формируются соответствующие гендерные культурно-социальные качества.

Говоря об эргономике гендерных аспектов образования, следует сказать, что знания эргономики гендерных соответствий в учебном процессе не только дает возможность их исследования и влияния на процесс обучения, но и является очередным фактором совершенствования гендерных компетенций, а именно гендерной культуры у будущих учителей начального образования. Успешность юношей и девушек в обучении зависит от их гендерных способностей. Гендерный подход в образовании требует индивидуального отношения в проявлении обучающимися своих способностей и позволяет им в полной мере реализовать свои возможности в приобретении, совершенствовании познавательных-профессиональных компетенций, для чего необходимы различные учебно-образовательные ресурсы, «скрытые» планы преподавания, имеющие гендерный характер.

Гендерные неравенства в образовании зависят от психофизиологических, нейробиотических различий юношей и девушек. Например, зрительное восприятие информации, вследствие анатомо-физиологических особенностей мужчин и женщин, воспринимается ими по разному. У мужчин воспринимающие рецепторы мозга и глазного дна расположены более компактно и в центре, поэтому у них более развито центральное зрение и они быстро и в целом воспринимают информацию, понимают суть и анализируют быстрее. Кроме того, задания мужчины выполняют быстрее. У женщин воспринимающие рецепторы мозга и глазного дна расположены в отдельных участках. Поэтому у них более развито периферическое зрение. А это обеспечивает восприятие информации частями, для анализа которых требуется время, т.е. это происходит более медленно. Соответственно решение аналитического процесса также замедленно. Однако, при адаптации к компьютеру и освоения компьютерных операций по поиску, приёму, сохранения и передачи информации женщины могут догонять и даже опережать в решении задач мужчин. Центральное зрение мужчин способствует быстрому восприятию электронного текста, периферийное зрение женщин больше приспособлено к восприятию книжного текста. Слуховое восприятие также различно: мужчины больше слышат правым

ухом, женщины – одинаково обеими ушами. Поэтому женщины более внимательны к устной речи, чем мужчины [2].

Эргономизация информации касается её иллюстрированности чертежами, графиками, таблицами, которые обеспечивают наглядность, что воспринимается женщинами лучше. Мужчины безразличны к иллюстрациям, их интересует больше текстовая часть информации. В тоже время и мужчины и женщины имеют центральное и периферическое зрение, которое в познавательном процессе дополняют друг друга. Отношение к технике у гендеров также различное [3]. Так, в работе с компьютерами мужчины заинтересованы в этом, неисправности стараются сами исправить, при зависании сайта переключаются на другой. Женщины меньше интересуются техникой и компьютерами, для исправления технических неурядиц пользуются услугами оператора; при зависании сайта ждут, не переходя к другому. Это по видимому прививается с детства, так как считается, что техника удел мальчиков и что это в будущем у них развивает технические компетенции. Девочек учат бытовым вопросам. В детстве им покупают игрушки нетехнического характера (куклы и др.), что в будущем у них развивает больше чувство материнства и хранительницы семейного очага. Однако, в современном образовании, характеризующемся технологизацией, девушки и женщины в равной степени осваивают электронные коммуникативные компетенции. Электронное общение, т.е. коммуникации между мужчинами и женщинами также имеют характерные черты: мужчины без эмоций, раскованы, расчётливо, любят анонимность, что позволяет им быть неискренними, передавать ложную информацию. Женщины при электронном общении эмоциональные, но сдержанные, анонимность обеспечивает половой интерес. В отношении речи и её электронного восприятия мужчины больше ошибаются, чем женщины. Девушки при компьютером более внимательные. Таковы гендерные различия в отношении восприятия информации, её эргономизации и технологизации, что естественно влияет на познавательно-профессиональный процесс. А именно общение в интернете, восприятие информации способствует личностному развитию и расширению коммуникативного опыта, а также развитию информационной, в частности, гендерной культуры.

Следует сказать, что кроме восприятия информации гендерные особенности такие, как психоневрологического, антропометрического, гемодинамического характера и других систем организма имеют значение для приобретения познавательно-профессиональных компетенций. Гендерные подходы в образовании [4] и в совершенствовании познавательно-профессиональных компетенций в Узбекистане не обеспечиваются всеми образовательными учреждениями (школы, средние специальные, вузы, учреждения послевузовского образования), различными видами обучения, согласно Закона «Об образовании». Однако, гендерные вопросы, касающиеся гендерных особенностей и различий в образовании и их влияний на приобретение знаний и профессий, в связи с этим, вопросы создания и разработки учебно-образовательных программ и других ресурсов в Узбекистане, да и в странах СНГ недостаточны изучены.

С учётом вышесказанного, авторы (Окулова, Алибеков) предлагают ввести в технологию обучения гендеров методы эргономизации информативно-образовательных материалов, а также технологии деловых игр, графики, чертежи, таблицы, анимации, что лучше, быстрее и эффективнее воспринимаются девушками и что спо-

способствует выравниванию их в обучении, по сравнению с юношами. Мы, в свою очередь, на основе наших исследований предлагаем индивидуальное отношение к гендерам, введение дополнительных занятий по компьютерной технологии для развития информационной культуры или компетентности, выражающейся в совершенствовании знаний, умений, навыков в поиске анализа, хранении информации педагогом или товарищами.

**Вывод.** Таким образом, гендерные неравенства юношей и девушек в образовании зависят от психофизиологических, нейробиотических особенностей организма. Для улучшения и эффективности восприятия учебной информации рекомендуется более индивидуальное отношение девушек и юношей, учет технологических приемов для эргономизации информации, а также дополнительные занятия по компьютерной технологии.

#### Литература:

1. Конституция Республики Узбекистан от 1 мая 2023 года. - Ст. 46: constitution uz vn (pages) gender.
2. Алибеков Д.И. Педагогические возможности использования игр в развитии гендерной культуры учащихся подросткового возраста // Педагогика. Т., 2022. - № 6. - С. 212-215.
3. Окулова Л.П. Формирование эргономической образовательной среды в системе «школа-вуз»: Монография. - Ижевск: Удмуртский университет, 2019.
4. Тожибоева Х.М. Гендер ёндашув асосида ўсмир ёшдаги ўқувчиларда «оммавий» маданиятга қарши иммунитетни шакллантиришининг педагогик стратегиялари: Пед. фанл. д-ри ... Дис. - Т., 2022.

---

## HARBIY TA'LIM FAKULTETI TALABALARINING IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

**Uzoqov Akram Avazovich**, *TDPU Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Annotatsiya.** Maqolada harbiy ta'lim fakulteti talabalarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish va yosh-avlod tarbiyasida uning mas'uliyatligi milliy qadriyatlarga sodiqligi, vatan taqdiri uchun qayg'urishi, millatning boy tarixiy urf-odat va an'analariga tayangan holda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bo'yicha fikr va mulhazalar tahlil etilgan.

**Tayanch so'zlar:** *an'ana, pedagogika, didaktika, insonparvarlik, demokratiya, urf-odat, yosh-avlod, ta'lim, tarbiya, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy.*

## ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТОВ ВОЕННОГО ОБУЧЕНИЯ

**Узоков Акрам Авазович**, *начальник факультета Военного образования ТГПУ, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент*

**Аннотация.** В статье проанализированы мнения и комментарии в процессе образования по вопросам развития социальной ответственности у студентов факультетов военного обучения, их ответственности в воспитании в духе преданности национальным ценностям, заботе о судьбе Родины на основе богатых исторических традиций и национальных обычаев.

**Ключевые слова:** *традиция, педагогика, дидактика, гуманизм, демократия, традиция, молодежное поколение, образование, воспитание, нравственно-воспитательное, социально-политическое.*

## FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL RESPONSIBILITY OF STUDENTS OF THE FACULTY OF MILITARY EDUCATION

**Uzokov Akram Avazovich**, *head of the faculty of Military education TSPU, pedagogical sciences doctor of philosophy (PhD), associate professor*

**Abstract.** The article analyzes ideas and mulhas on the development of social responsibility of students of the Faculty of military education and its responsiveness in the upbringing of the younger generation, commitment to national values, concern for the fate of the motherland, education of young people, relying on the rich historical traditions and traditions of the nation.

**Key words:** *tradition, pedagogy, didactics, humanism, democracy, tradition, age-generation, education, moral-educational, socio-political.*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida yosh avlod tarbiyasi va ularning ijtimoiy mas'uliyatligi masalasiga to'xtalar ekan: «Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz qo'lam va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz» [1], – deya ta'kidlaganlari ham bejiz emas. Shu sababli, ta'lim-tarbiya jarayoni eng murakkab jarayon bo'lib, yoshlar ijtimoiy mas'uliyati insonparvarligi demokratik ta'lim tamoyillari, talabalar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish, ularning ma'naviy kamolotida asosiy omil sifatida muhim o'rin tutadi.

**Asosiy qism.** Chaqiriqqacha harbiy ta'lim talabalari ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda ta'lim fan tarmog'ining ijtimoiy gumanitar sohasi orqali singdirib borish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, talabalar o'quv-tarbiya jarayonida egallagan bilim va ko'nikmasi ijtimoiy fan sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar tahlili ham mas'uliyatli – talabalar shaxsining barcha qarashlarida ijtimoiy hodisa ekanligi va shu sababli uni fanlararo rivojlanish darajasida o'rganish zarur ekanligi haqida xulosa chiqarishga imkon tug'diradi.

Mamlakatimiz olimlarining tarixiy-ilmiy maktablar merosini o'rganish va undan ta'lim-tarbiya jarayonlarida foydalanish kelajakda oliy ta'lim muassasalarida ilm olishlik ham mas'uliyat ekanligini yangidan-yangi imkoniyatlarni tug'dirmoqda. Masalan, o'rta asrlarda ta'lim-tarbiya va ilmiy maktablarning rivojlanishida Al-Farg'oni, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Shayx Najmiddin Kubro, Ahmad Yugnakiy kabi ulug' allomalarimizning pedagogik va didaktik qarashlarida ham shaxsning mas'uliyatli bo'lib voyaga yetishi masalalari alohida e'tiborga loyiq. Al-Farobiy (870-950) o'zining Fozil odamlar shahri asarida sharq mamlakatlari siyosiy-huquqiy va ijtimoiy fikrlar tarixida siyosat davlat va hokimiyat fuqarolik jamiyati qaror topgan mamlakat haqidagi qarashlarning nazariy asoslariga to'xtalgan. Farobiyning fikricha, adolatli davlatni mas'uliyatli ma'naviyatli adolatli hamda ma'rifatli hukmdor boshqaradi uning ma'naviyati bamiol quyosh bo'lib porlab turishi kerak deb ifodalaydi [2]. Abu Ali Ibn Sino (980-1037) jamiyatda ijtimoiy munosabatlarga kishilar o'rtasida tafovut va tengsizlik natijasidir, – deb to'xtalib o'tadi. Mutafakkir shunday dedi: «iqtisodiy va ijtimoiy hamda shaxsiy xususiyatlarga ko'ra tengsizlik – inson ijtimoiy mas'uliyatining asosiy sababi» dir. Mutafakkir olim farovon jamiyat barpo etilgan davlat aholisining mas'uliyatligi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liqdir deb izohlab ham o'tadi [3]. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari mazmun-mohiyatida, asosan, davlat uni boshqarish sana'ti, qonun va qoidalari, siyosiy-axloqiy munosabatlar, jamiyatda aholining mas'uliyatligi kabi ijtimoiy muammolar yuzasidan o'z fikrlarini keltirib o'tadi. Mutafakkir alloma «podshohlikka da'vogarlar onadan ajib bir iste'dod bilan tug'iladi va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish qudratiga ega bo'ladi, bundaylarga xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko'ngil ato etadi, qolaversa, o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashish layoqati, yaxshi ish yuritishi uquv bilan ham siylaydi» [4], – deb ta'kidlagan. Nizomulmulkning o'z asarlarida shamsiyatdagi barqarorlikka asosiy omil shundan iboratki deydi, «amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash adolat va insofni oyoq osti qiladigan kishilarni davlat ishlariga aralashmaslikni davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatleri to'g'risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir» degan fikrlarni ilgari suradi [5]. Amir Temur hozirgi zamon bilan hamnafas davlat arbobi, – deb ta'riflasak ham adashmagan bo'lamiz, chunki, davlat arbobi barcha ishlarda o'z mas'uliyatini ko'rsatib yo'l boshchilik qilgan deb ta'kidlashimizga asos bo'ladi. Masalan, davlat arbobi sarkarda Amir Temur «Tajriba – deb yozadi u, menga shuni ko'rsatdiki, din va qonunga tayanmagan hukumat, o'zining buyuk qudratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo'lgan na tomi, na eshigi, na panjaralari bor uyga o'xshatish mumkin. Shuning uchun men o'z saltanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o'zim qat'iy amal qiluvchi qonunlar asosida qurdim». Sohibqiron Amur Temur davlat boshqaruvida eng muhim qonuniyat – qonun ustuvorligi. «Qat'iy tartib va qonunlarga amal qilishim baxt-saodatim kaliti bo'ldi». Bosh qonunlar sifatida diniy ahkomlarni va ular asosida yozilgan fikrlarni bilgan. Buning barchasi buyuk Temur adolatli hamda mas'uliyat bilan boshqarishda fozil jamiyat qurishga alohida e'tibor qaratgan [6]. Alisher Navoiy o'z asarlarida «Saddi Iskandariy», «Mahbub ul qulub», «Payg'ambarlar va donolar tarixi» asarlarida jamiyatda adolatli dono hukmdor o'z ishlarida mas'uliyat bilan yondashish orqali qonun ustuvorligi bo'lgan mamlakatda amalga oshishi mumkin. Alisher Navoiy adolat ustuvorligi, ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarida ham mamlakatda o'z bilimi va

tashabbuskorligi bilan ajralib turgan. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishning asosiy omillariga to'xtalib o'tishda axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy bilimlarning ham o'rni beqiyosdir [6].

Shuning uchun, ajdodlarimiz qoldirgan meroslar fan va shaxsning taraqqiyoti, intellektual salohiyatni rivojlantirish imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlarga nihoyatda boydir. Bu merosdan zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish yo'llarini izlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda yosh-avlod tarbiyasida uning mas'uliyatligi milliy qadriyatlarga sodiqligi, Vatan taqdiri uchun qayg'urishi, millatning boy tarixiy urf-odat va an'analarga tayangan holda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, kasb tanlashga to'g'ri yo'naltirish, yuksak insoniy fazilatlarini qaror toptirish hamda «Ustozshogird» an'analar asosida ilmiy maktablarning o'rni va ahamiyatini tushuntirish, ajdodlarimizning ilmiy intellektual salohiyati bilan faxrlanish hissini uyg'otish va mas'uliyatli bo'lish alohida ahamiyatga ega ekanligi muhimdir. Buning uchun oliy ta'lim muassalarida har bir talaba yuqorida keltirilgan ajdodlarimizning benazir va boy tarixiy meroslaridan xabardor bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda so'ng yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda asosiy vazifa - talaba-yoshlar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish orqali mas'uliyatli kadrlarni tayyorlash muammo sifatida qaralmoqda. Pedagogik ilmiy tadqiqotlar doirasida A.Begmatov [7] talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlarini rivojlantirish, M.Quronov [8] umumta'lim tizimida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslariga, O.Musurmonova [9] yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish, Q.Quronboev [10] talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari muammolariga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Harbiy ta'lim fakulteti talabalarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida quyidagi jihatlarni rivojlantirish: oliy ta'lim muassasalari talabalar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda shaxsning ichki ruhiyatiga ta'sir etuvchi motivlar orqali talaba o'z menini shakllantirish; oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiluvchi ta'sir doiralarga yaqin atrofdagi guruhlar jamoasi, hamkasblari, do'stlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonida mas'uliyatli bo'lishini rivojlantirish; talabalar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish, ta'lim jarayonida pedagoglar faoliyat jarayoni bo'yicha guruh komandiri, soha mutaxassisi hamda ijtimoiy harakatlar jarayoniga pedagogik ta'sir etishning ta'lim vositalari bilan rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlanganlik jihatlari quyidagi omillarda o'z aksini topadi: talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissi uzoq vaqt davomida shakllanib borish orqali harakatga keltirishda intellektual qobiliyatini rivojlantirishi; talaba o'z faoliyatini, balki boshqalarning ijtimoiy xatti-harakatlari doirasida, balki ijtimoiy mas'uliyat hissini qaror toptirish malakasining rivojlanganligi; harbiy ta'lim fanlarida talabalarga berilgan vakolatlar doirasida o'z guruhini boshqarishda ijtimoiy mas'uliyat bilan yondashishni; guruhdoshlari hamda o'z muammolarini jamiyatda o'rab turgan odamlarning ijtimoiy munosabatlarga kirishidan foydalangan holda mustaqil mas'uliyat bilan bartaraf etishga kirishish malakasi; harbiy ta'lim yo'nalishi talabalar ijtimoiy muammolarini hal qilishda o'z tasavvuri hamda ijtimoiy videoroliklar-tasviriy targ'ibot materiallarida foydalangan holda jamoadoshlari orasida ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish jihatlari muhim o'rin tutdi. Demak, jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatli kelajak avlod kadrlarini tayyorlashda ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda jamiyat va davlat o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatuvchi subyektning o'z xulq-atvorini va uning ijtimoiy ahamiyatini anglashini, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan va boshqaradigan ijtimoiy me'yor talablari doirasida amal qilish majburiyatini anglashi va tafakkuri dunyoqarashini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir deb ta'kidlashimiz mumkin.

Rivojlanib borayotgan dunyo hamjamiyatida ta'limning o'zgarish sharoitida talabani ijtimoiy mas'uliyati amaliy faoliyatda ham yangilangan pedagogik tafakkurga asoslangan ta'limning maqsad, vazifalariga mos ravishda yondashish imkonini tug'diradi. Jamiyat ijtimoiy hayotida samarali faoliyat ko'rsata oladigan zarur kasbiy sifatlarga ega yoshlarni tarbiyalash va o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashish ishini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun pedagogik ta'lim tizimida muhim o'zgarishlarni amalga oshirish lozimdir. Yoshlar egallashi zarur bo'lgan kasbiy sifatlari va kasbiga sadoqat bilan mas'uliyatli yondashish haqida turli qarashlar mavjuddir. Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda ham talaba-yoshlar faoliyatining muhim qirralari talqin qilinmoqda. Talabalarda shakllantirish zarur bo'lgan kasbiy faoliyat ko'nikmalari mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishda asosiy maydonga chiqadi. Masalan, ijtimoiy yetuklik va uning – ijtimoiy mas'uliyatlilikning tarkibiy qismi sifatida faqat tegishli amaliy faoliyatda shakllanib boradilar. Chunki, ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish talaba shaxsida mustaqil qarorlar qabul qilishda erkinlik berish bilan bevosita aloqalarni o'rnatadi. Demak, oliy ta'lim muassasalari talabalari ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish – har bir individning betakrorligi va o'ziga xosligidan chiqib keladigan javobgarlik, mas'uliyatlilik sifatlari qaror toptirish muhim o'rin egallaydi. Mas'ul shaxs amaliy xatti-harakat qilishga, faqat o'zining yagonaligini va betakrorligini anglagan odamgina qodir. Bundanda muhimroq aynan hayot oldidagi mas'uliyat insonning mavjudligini, hayotining mohiyatining o'zida mujassam etadi. Shuning uchun, kelajak avlod kadrlarini yetuk shaxs sifatida tarbiyalash nafaqat borliqning mohiyati, uning muvaffaqiyatliliigi va o'z imkoniyat, qobiliyat va salohiyatlarini ro'yobga chiqarish usullari ham mas'uliyat bilan bog'liq.

**Xulosa.** Jamiyat hayotida insonni aynan nima sodir bo'lganligi qiziqirishi bilan birgalikda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy hodisalarga mas'uliyatli munosabatga kirishish masalasi ham muhim o'rin egallaydi. Jumladan, jamiyatda shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi uchun voqea-hodisaning yakuniy natijasi sifatida kim mas'ul, kim javob beradi, nazdida o'z-o'zini rivojlantirib borish sifatlari ham alohida o'rin egallaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий Мажлисга Мушоахатнома» // Халқ сўзи. - Т., 2020. - 25-январь. - 19-сон.
2. Абу Носир Форобий. Фозил одамлар шахри. - Т.: А.Қодирий нашриёти, 1993.
3. Барабанщиков А.В., Муцинов С.С. Педагогическая культура офицера. - М., 1985. - 159 с.
4. Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. - Т.: Фан, 1999.
5. Низомулмулк. Сиёсатнома. - Т.: Адолат, 1997.
6. Баркамол авлод орзуи / Тузувчилар: Ш.Э.Қурбонов, Ҳ.Саидов, Р.Аҳлиддинов. - Т., 2000.
7. Бегматов А. Маънавий фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. - Т.: Шарқ, 2000.
8. Қуранов М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий педагогик асослари: Пед. фанл. д-ри ... Дис. - Т., 1998.
9. Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. - Т.: Ўқитувчи, 1996. - 192 б.
10. Қуронбоев Қ. Талабаларнинг маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари (ёшлар ташкилотлари мисолида): Пед. фанл. номз. ... Дис. - Т.: ЎзПФТИ, 2000.

---

## MUHANDISLIK QO'SHINLARI HARBIIY XIZMATCHILARINING TA'LIM SIFATINI RIVOJLANTIRISHDA VAZIYATLI YONDASHUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Jabbarov Zarifboy Rustamovich, O'zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi, dotsent, podpolkovnik*

**Annotatsiya.** Maqolada muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining ta'lim sifatini rivojlantirishda vaziyatli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari, vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning samaradorligi, bugungi kunda ta'lim tizimida konseptual yondashuvlarga oid mulohazalar keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** muhandislik qo'shinlari, harbiy xizmatchilar, vaziyatli yondashuv, vatanparvarlik, refleksiv jarayon, akmeologik, aksiologik, madaniy yondashuvlar.

## ОСОБЕННОСТИ СИТУАЦИОННОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ ИНЖЕНЕРНЫХ ВОЙСК

*Джаббаров Зарифбой Рустамович, преподаватель Учебного центра военной подготовки Национального университета Узбекистана, доцент, подполковник*

**Аннотация.** В статье рассмотрены особенности организации ситуативного подхода в развитии качества образования у военнослужащих инженерных войск, показана эффективность развития чувства патриотизма, приведены соображения относительно концептуального подхода в системе образования в нынешнее время.

**Ключевые слова:** инженерные войска, военнослужащий, ситуационный подход, патриотизм, рефлексивный процесс, акмеологический, аксиологический, культурологический подходы.

## CHARACTERISTICS OF SITUATION APPROACH IN DEVELOPING THE QUALITY OF EDUCATION OF MILITARY SERVANTS OF ENGINEERING TROOPS

*Jabbarov Zarifboy Rustamovich, teacher of the Military training center of the National University of Uzbekistan, associate professor, lieutenant colonel*

**Abstract.** The article examines the features of the organization of a situational approach in developing the quality of education among military personnel of the engineering troops, shows the effectiveness of developing a sense of patriotism, and provides considerations regarding the conceptual approach in the education system at the present time.

**Key words:** engineering troops, military personnel, situational approach, patriotism, reflexive process, acmeological, axiological, cultural approaches.

**Kirish.** Muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda barcha haqiqiy holatlarni rivojlanishi va o'zgarishi sifatida ko'rib chiqishni ko'zda tutadigan vaziyatli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari juda katta ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar, avvalom, bor aniq-hayotiy va tarixiy vaziyatlardan foydalanib vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning mazmuni, shakl va uslublarining muvofiqligini nazarda tutadi.

**Asosiy qism.** Aniq-hayotiy va tarixiy vaziyatlarga yondashish o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, halq kuch tuzilmalarda (MV, MG, MB, IIV va DXX) qahramonona tarixi asosida inson tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan vatanparvarlik ishida namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, haqiqatni o'zgartirmagan holda tarixiy voqealarni vaziyatli yondashuv asosida obyektiv yoritish katta ahamiyatga ega.

Muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri – vatanparvarlik va vaziyatli yondashuvning birligidir. Tarbiyaning barcha pog'onasida vatanparvarlik va vaziyatli yondashuvning vazifalari organik o'zaro bog'langanligi va o'zaro shartlanganligi vatanparvar shaxsni shakllantiradigan, doimiy ravishda nima uchun inson huquqlari va manfaatlarini, o'z Vatani himoya qilayotganini eslatib turadigan qudratli omil bo'lib xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usi, milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya xavfsizligini ta'minlash sohasidagi muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining vaziyatli yondashishida mujassamlashgan. Bu vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning manfaatlari va o'ziga xos xususiyatlari, ko'p millatli davlatimiz turli millat va xalqlarning urf-odatlarini va milliy an'analarini hisobga olgan holda qurish kerakligini talab etadi.

Vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning samaradorligi aniq vazifalar, mazmun, shakl, uslub va vositalar, o'ziga xos ma'lum vazifalarga vaziyatli yondashuv asosida hal etadigan turli davlat va ijtimoiy organlar, tashkilot va muassasalarni o'z ichiga oladigan mavjud ma'lum bir tizim orqali amalga oshiriladi. Ushbu umumiy xususiyatga ega bo'lgan tizim vatanparvarlik ongini uzluksiz shakllantirish, inson hayotining barcha bosqichlarida yaxlit faoliyat hisoblanib, kuch tuzilmalari va xalqning ajralmas birligiga asoslanganligidadir.

Vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning asosiy vazifasi bu Vatanimiz uchun g'ururli Qurolli Kuchlarimiz, o'z xizmat burchiga nisbatan muhabbat, jangovar va mehnat urf-odatlarimizga sadoqat, harbiy mehnatga hurmat hissini har taraflama rivojlantirish, ozodlik va mustaqilligimizni, muhofaza qilishga doimiy tayyorlikni shakllantirish, o'z fuqarolik burchini ado etishdir.

Vatanni himoya qilish uchun yo'naltirilgan fikr, ishonch, dunyoqarashni shakllantirish, unga bor kuchini, kerak bo'lsa hayotini ham berish maqsadiga ega bo'lgan muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarini tayyorlash, ularning ma'naviy-ruhiy, axloqiy-intizomiy, jangovar xislatlarini rivojlantirishni vaziyatli yondashuv mexanizmlari asosida tarbiyalashdan iborat.

Vaziyatli yondashuv asosida harbiy xizmatchilar davlat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarida vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning asosiy mazmuni: Vatani va fuqarolarning konstitutsion huquqini himoya qilishda o'z burchini tushuntirish; xizmat faoliyatida hal qilinadigan masalalar va ularning vazifasi va xususiyatlarini tushuntirish; harbiy xizmatchilar davlat xavfsizligini ta'minlash; huquqni qo'llash faoliyatining zamonaviy shakl va usullar bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash; psixologik, huquqiy, siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish; O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, Vatanga qasamyod va harbiy nizomlarning asosiy talablarini o'rganish va o'zlashtirish; ajdodlar merosi, buyuk va jasur ota-bobolarimizning jangovar an'ana, udumlarini targ'ibot qilish.

Vaziyatli yondashuv asosida vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishdan kutilayotgan natija va samaradorlik: vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning samaradorligi – tashkil etilayotgan va o'tkazilayotgan tadbirlarning muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarda davlat xavfsizligini ta'minlash ularning ongi va qalbiga ijobiy ta'sir etib, ularning intellektual,

ijodiy va kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi faolligini oshirish, mustaqil Vatani himoya qilish hamda xavfsizligi uchun xizmat burchi va mas'uliyatini anglab yetish, davlat va jamiyat manfaatlarini yo'lida har qanday xizmatga doimo shay turish pozitsiyasini shakllantirish; vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishdan kutilayotgan natija, bu vatanparvarlik tuyg'usi yuksak, zamonaviy bilim, mustahkam iroda va qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida faoliyat yuritish.

Harbiy xizmatchilar davlat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarida shakllantirilgan vatanparvarlik tuyg'usi, Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usi, milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qila olishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy jamiyat universitet bitiruvchilariga kasbiy jihatdan yuqori talablarni qo'yadi. Ish beruvchi nafaqat kundalik ishni qanday bajarishni biladigan, balki ish jarayonida yuzaga keladigan turli xil muntazam va favqulodda vaziyatlarni bartaraf eta oladigan malakali mutaxassisni ko'rishni xohlaydi.

«Vaziyatli yondashuv» atamasi lotincha vaziyat, holat, ahvol so'zidan kelib chiqqan. Boshqacha qilib aytdigan bo'lsak, voqelik subyektlariga, ularning munosabatlariga ta'sir qiluvchi va ularning atrofidagi yoki bog'liq obyektlarga ta'sirini belgilovchi omillarning har qanday birikmasini vaziyat deb atash mumkin. Ushbu yondashuvning afzalliklari birinchi marta iqtisodchi olimlar va menejerlar tomonidan, bozor iqtisodiyoti, boshqaruv xodimlariga o'z davri uchun yangi talablarni qo'ya boshlagan paytda baholandi. Taxminan yarim asr o'tgach, psixologlar, sotsiologlar va pedagoglar (V.S.Merlin, R.Rotter va boshqalar) bu yondashuvni qo'lladilar, birozdan keyin ekologlar qo'llay boshladilar. Bu yerda «vaziyat» va «vaziyatli yondashuv» atamalarini qo'llashda yuzaga keladigan chalkashliklarga ham to'xtalib o'tishimiz kerak. Birinchisi, o'z-o'zidan, to'satdan paydo bo'lgan va yagona, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatni ko'rib chiqadi. Ikkinchi yondashuv vaziyatlarni davriy ravishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va har qanday vaqt davom etishi mumkin bo'lgan, subyekt uchun ma'lum bir muhitni tashkil etuvchi shartlar yoki holatlar sifatida ko'rib chiqadi. Biroq, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda bu ikki tushuncha ko'pincha chalkashib ketadi, sinonim sifatida ishlatiladi. Ba'zan bir xil mazmuni ifodalovchi uchinchi sinonim misol yoki keys usulidir.

Bugungi kunda ta'lim tizimida konseptual yondashuvlar mavjud bo'lib, ular tizimli, kompetensiyaga asoslangan, akmeologik, shaxsga yo'naltirilgan, refleksiv, aksiologik, madaniy yondashuvlar bilan bir qatorda, hozirgi kunlarda eng ko'p talab qilinadigan vaziyatli yondashuvdir.

Vaziyatli yondashuvning zamonaviy ta'lim tizimidagi rolini ko'rib chiqishdan oldin, bu tizimning qisqacha tavsifini berish kerak, uning maqsadi shaxsga yo'naltirilgan paradigmani amalga oshirishdir. Demak, ta'lim tizimidagi barcha qayd etilgan yondashuvlar ushbu tarixiy bosqichda amalga bo'lgan ta'lim paradigmasini o'zida mujassamlashtirishga qaratilgan bo'lib, har qanday ta'lim paradigmasi ta'lim maqsadlarini belgilaydi, ular jamiyat ehtiyojlari va talablariga javob berishi kerak.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimi ko'p yillar davomida o'zgarish holatida bo'lib, uning maqsadi, birinchi navbatda, kasbiy vazifalarni hal qilishga hissa qo'shadigan kadrlar tayyorlash tizimini, ikkinchidan, bitiruvchining kasbiy o'zini namoyon qilish qobiliyatini belgilaydigan ijtimoiy va maxsus kompetensiyani shakllantirishdir. Bu vazifalar oliy ta'limning amaldagi tizimiga tegishli tuzatishlar kiritish va, birinchi navbatda, vaziyatli yondashuvni o'z ichiga olgan zamonaviy uslubiy yondashuvlarni joriy etish zarurligini belgilaydi.

Insonning kundalik hayotida duch keladigan vaziyatlar uzoq vaqtlardan beri psixologlar, sotsiologlar va faylasuflarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ushbu masala bo'yicha dastlabki tadqiqotlar «ijtimoiy kompetensiya» va «shaxslararo munosabatlar»ni ajratib ko'rsatishni boshlagan xorijiy psixologlarning ishlarida taqdim etilgan. Bu tadqiqotlar vaziyatli yondashuvni, shu jumladan, pedagogikada ham rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Hayotda vaziyatlarning keng tarqalganligi sababli, ularni o'rganish ko'plab fanlarning tadqiqot obyektiga aylangan bo'lib, ular psixologiya, falsafa, ilohiyot, huquq, sotsiologiya, marketing va inson bilimining boshqa ko'plab sohalarini nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Ushbu tadqiqotlar tufayli vaziyatli yondashuvning mohiyati aniq bo'ladi: shaxsning barcha harakatlarining motivlari aniq vaziyatlarda (kundalik maishiy, kasbiy) va inson faoliyati natijasiga bevosita ta'sir qiladi; atrof-muhitdagi inson xatti-harakatlarining faol tabiati bizni har ikkala vaziyatni ham, undagi xatti-harakatlarning eng samarali strategiyasini aniqlash uchun ulardagi shaxsiyatni o'rganishga undaydi.

Vaziyat shaxsning xatti-harakati holatini belgilaydi va bu ta'sirning tabiati hamda qo'lamini faqat shaxsning unga nisbatan subyektiv munosabatini bilish orqali tushunish va baholash mumkinligiga e'tibor berishadi. Shunday qilib, yangi paydo bo'lgan tajriba kelajakda o'xshash vaziyatlarda shaxsning xatti-harakatiga ta'sir qiladi.

Vaziyatli yondashuv tadqiqotchilar tomonidan «bir-biri bilan bog'liq tamoyillarga asoslangan nazariy, uslubiy g'oyalar majmui sifatida ta'riflanadi: hayotiy xodisalarga asoslangan, inson xulq-atvoriga e'tibor qaratadigan va vaziyatni subyektiv talqin qilish imkoniyatining mavjudligi».

N.V.Grishina vaziyatli yondashuv nazariyasi rivojlanishining quyidagi bosqichlarini aniqladi. Tadqiqotchi birinchi bosqichni «metodik muvaffaqiyat» deb atadi. Bu davrda (XX-asming 20-30-yillari) fanda «inson-muhit» muammosi qo'yildi. K.Levin, V.Tomas, L.S.Vigotskiy asarlarida vaziyatli yondashuvning uslubiy asoslari nazarda tutildi. S.A.Xazov [1] raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga vaziyatli-muammoli yondashuv nuqtai nazaridan qarab, ta'lim jarayonini vaziyatli-muammoli yondashuv asosida tashkil etish har xil darajadagi va turli xil mazmundagi (ijtimoiy, kasbiy, rolli, funksional) ta'lim vaziyatlarini yaratishni nazarda tutadi.

Didaktik nuqtai nazardan, vaziyatli yondashuv muammoli ta'limning o'ziga xos turi hisoblanadi. Chunki muammoli ta'limning asosiy tushunchasi muammoli vaziyat bo'lib, u o'rganilayotgan hodisaning qarama-qarshiligidan xabardorlikni talab qiladi. Muammoli vaziyatni tahlil qilish uning muammoli vazifaga aylanishiga yordam beradi, bu tushuntirish va yechim izlashni talab qiladi. Boshqacha aytganda, muammoli o'qitish metodi muammoli vaziyat, muammoli vazifa, yechim topish modelini, uning yechimini ta'minlaydi.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish fikrlashni rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi, chunki bu yerda aqliy harakatlarning turli usullari amalga oshiriladi. Shunday qilib, V.V.Davidovning so'zlariga ko'ra, muammoni hal qilishning nazariy imkoniyati va ma'lum bo'lgan hal qilish usulining amaliy jihatdan mumkin emasligi yoki maqsadga muvofiq emasligi kabi holatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga javob sifatida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida tizimli tahlilni o'tkazish hamda faoliyat vositalari va usullarini sintez qilish kerak. Ushbu qarama-qarshilik amalga oshirilganda paydo bo'lgan muammoli vaziyat tizimli tahlil va bilim hamda ko'nikmalarni sintez qilish jarayonlarini faollashtirdi.

V.V.Serikovning [2] tadqiqotlariga ko'ra, vaziyatni yaratishda quyidagi jihatlarga ega bo'lishi kerak: madaniy, ijtimoiy va kasbiy ma'nolarni talabalar uchun tushunarli shaklda

o'tkazish; bu shakl talaba tomonidan qabul qilinadigan va o'zlashtiriladigan sharoitlarni yaratish. Bu yerda, shubhasiz, vaziyatni rivojlantirish sxemasi bo'lishi kerak, bu tashqi omillar, hodisalar, elementlardan axborot oqimini qayta ishlash va uni talabaning shaxsiy tajribasiga aylantirish uchun ichki fikrlash jarayonlariga o'tishni o'z ichiga oladi. Har bir vaziyatni amalga oshirish bir-biriga bog'liq bo'lgan bir nechta bosqichlarni ketma-ket amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, zamonaviy ta'lim tizimi bir nechta yondashuvlarni o'z ichiga oladi. To'liqroq tasavvur hosil qilish uchun biz ularning har biri haqida qisqacha tavsif beramiz.

Tizimli yondashuv dunyoning tizimli tuzilishi va ijtimoiy munosabatlar tizimi haqidagi qarashlarga asoslanadi. Birinchi marta bu fikrni K.Marks ifoda etgan bo'lib, u insoniyat jamiyati to'g'risida alohida shaxslarni to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita yolg'on munosabatlar tarmog'iga bog'laydigan yaxlit tizim sifatida gapirgan. Har qanday tizim, tuzilishga va elementlar o'rtasidagi munosabatlarning mavjudligiga ega. Har bir alohida elementning ahamiyati, shuningdek, ularni tashkil etish faqat ushbu tizim mavjudligining umumiy maqsadi bilan bog'liq holda, zaruriy muhim tarkibiy qismi sifatida baholanishi mumkin. Shunday qilib, muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilari va o'qituvchining shaxsiyati ta'lim tizimining elementlari bo'lib, ularning o'zaro ta'siri bitta tizim doirasida mujassamlashadi. Bunda tizimli yondashuv shaxsiy yondashuv bilan umumiy xarakter kasb etib, pedagogik jarayonni boshqarish va amalga oshirish ta'lim oluvchi shaxsini eng yuqori darajaga qo'yadi va uni rivojlantirish butun ta'lim tizimining maqsadi hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, barcha tarkibiy elementlar ushbu maqsadga bo'ysunadi va natija bitiruvchining kutilgan talablarga muvofiqligi, bu tizimni samaradorligini bildiradi. Shundan kelib chiqib, tizimli yondashuv o'z nomidan aks etuvchi individual, ham faol, ham madaniy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Faoliyatli yondashuv ta'lim oluvchilarni o'quv jarayonida bevosita kasbiy faoliyatiga singdiradi yoki o'quv jarayonini shunday tashkil qiladiki, muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchi zarur bilimlarni faol ravishda o'zlashtiradi.

Faoliyatli yondashuvda shaxs bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, ularni amaliy qo'llash va jamiyatda ijtimoiylashishda faollik bilan tavsiflanadi. Ta'lim subyekti maqsaddan xabardor bo'lib, maqsadni o'zi shakllantiradi va unga erishish yo'llarini tanlaydi va natijada muayyan vaziyat sharoitlaridan kelib chiqib, aniq qadamlar qo'yishga imkon beradi.

N.F.Talizinaning [3] fikricha, keksa avlodning roli yosh avlodni real dunyo hodisalari bilan mustaqil tanishtirish uchun sharoit yaratish, shaxsiy faol tajribaga asoslanib, ularga tizim va barcha elementlarning o'zaro bog'liqligini ko'rishga yordam berishdan iborat. Tajriba bilimga nisbatan birlamchi hisoblanadi. Ya'ni, bilim subyekt uni olishga qaratilgan har qanday harakatlarni amalga oshirgandan keyingina paydo bo'ladi.

V.A.Bajanov [4] psixologiya fanida faollik yondashuvining mohiyatini ochib, uning talqiniga zamonaviy kognitiv fan tomonidan kiritilgan yangi pozitsiyalarni tushunib, inson organizmining hayotiy faoliyatining neyrobiologik omillari faoliyati va ijtimoiy-siyosiy faolliqi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Ba'zi faoliyatlar miyaga faol ta'sir qiladi, uning tuzilishi va neyrodinamik xususiyatlarini qayta tashkil qiladi. O'z navbatida, shaxsning neyrodinamik xususiyatlari uning faoliyatiga teskari ta'sir ko'rsatadi, uni o'zgartiradi va yanada muvaffaqiyatli qiladi.

Talabalarni kasbiy tayyorlashda faollik yondashuvining mohiyatini D.G.Pak va Yu.P.Yablonskiylar [5] ochib berishga harakat qilganlar. Ularning fikricha, qadriyatlar ta'lim oluvchi shaxsini «subyekt pozitsiyasi»ga o'tkazish uchun sharoit yaratadi. Shaxsiy

fazilatlari atrofda voqelikka faol munosabatni ifodalaydi, buning yordamida talaba dunyoni, fan va madaniyatni, jamiyatni bilish va o'zgartirish usullarini o'zlashtiradi, shakllantiradi va takomillashtiradi.

Ta'lim oluvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish refleksiv jarayonlarga asoslanadi, ya'ni refleksiv ta'limiy muhitda ta'lim oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va tahliliy faoliyat uchun zaruriy shart-sharoitlarni vujudga keltirish, ya'ni voqelikni va tushunchalarga bo'lgan munosabatlarni o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida xulosalar chiqirishga ta'lim oluvchilar uchun imkoniyat yaratib berish kabi muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Pedagogika tarixida yaratilgan barcha ta'limiy-axloqiy asarlarda ham vatanparvarlik tarbiyasi muammosi muhim o'rinni egallagan. Bugungi kunda ta'lim tizimida konseptual yondashuvlar mavjud bo'lib, ular tizimli, kompetensiyaga asoslangan, akmeologik, shaxsga yo'naltirilgan, refleksiv, aksiologik, madaniy yondashuvlar bilan bir qatorda, hozirgi kunlarda eng ko'p talab qilinadigan vaziyatli yondashuvdir. Muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usi, milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya chuqur singdirish barcha haqiqiy holatlarni rivojlanishi va o'zgarishi sifatida ko'rib chiqishni ko'zda tutadigan vaziyatli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari juda katta ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar, avvalom bor, aniq-hayotiy va tarixiy vaziyatlardan foydalanib vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning mazmuni, shakl va uslublarining muvofiqligini nazarda tutadi.

#### Adabiyotlar:

1. Хазова С.А. Компетентность конкурентоспособного специалиста по физической культуре и спорту: Монография. - М.: Академия естествознания, 2010. - 91 с.
2. Сериков В.В. Обучение как вид педагогической деятельности: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Под ред. В.А. Сластенина, И.А. Колесниковой. - М.: Академия, 2008.
3. Талызина Н.Ф. Педагогическая психология: Учебное пособие для студентов средних педагогических учебных заведений. - 5-е изд., испр. - М.: Академия, 2006. - 288 с.
4. Бажанов В.А. Деятельностный подход и современная когнитивная наука // Вопросы философии. - 2017. - № 9. - С. 162-169.
5. Пак Л.Г., Яблонских Ю.П. Реализация деятельностного подхода в профессиональной подготовке студента вуза // Современные проблемы науки и образования. - М., 2015. - № 2. - Ч. 1.

---

## BO'LAJAK AVIATSYA MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

*Djabbarov Shamsiddin Xujaqulovich, O'zbekiston milliy universiteti  
Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi sikl boshlig'i, dotsent, podpolkovnik*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola bo'lajak aviatsiya mutaxassislarning kasbiy faoliyatini shakllantirish jarayonining mohiyatini ochib beruvchi ma'lumotlar taqdim etilgan modelining ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlari ham ko'rib chiqiladi.

**Tayanch so'zlar:** aviatsiya mutaxassislari, pedagogik shart-sharoitlar, kasbiy faoliyat, fanlararo aloqalarning uzluksizligi va integratsiyasi, ijodiy fikrlash, hamkorlik.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ АВИАЦИОННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ

*Джаббаров Шамсиддин Худжакулович, начальник цикла  
Учебного центра военной подготовки Национального университета  
Узбекистана, доцент, подполковник*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены педагогические условия, необходимые для обеспечения функционирования представленной модели, раскрывающей сущность процесса формирования профессиональной деятельности будущих авиационных специалистов.

**Ключевые слова:** авиационные специалисты, педагогические условия, профессиональная деятельность, непрерывность и интеграция междисциплинарных связей, творческое мышление, сотрудничество.

## PEDAGOGICAL DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE AVIATION SPECIALISTS TERMS AND CONDITIONS

*Djabbarov Shamsiddin Khujakulovich, head of the cycle  
of the Military training training center of National university of Uzbekistan,  
associate professor, lieutenant colonel*

**Abstract.** This article also discusses the pedagogical conditions necessary to ensure the functioning of the presented model, which reveals the essence of the process of forming the professional activities of future aviation specialists.

**Key words:** aviation specialists, pedagogical conditions, professional activities, continuity and integration of interdisciplinary connections, creative thinking, cooperation.

**Kirish.** Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirishni talab etmoqda.

Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat.

**Asosiy qism.** Maqolada aviatsiya oliy harbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining tayyorlash sifatini oshirish masalalari muhokama qilinadi. Ushbu taklif qilinayotgan model bo'yicha professional kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish jarayonining mohiyatini ochib beruvchi ushbu modelni amalga oshirishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan pedagogik shartlar ta'kidlangan:

Birinchi pedagogik shart – bo'lajak ofitser-navigatorlarni tayyorlashda fanlararo aloqalarning uzluksizligi va integratsiyasini ta'minlashdir. Ushbu shartning asosi aviatsiya oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi butun mashg'ulot davomida o'quv fanlari, amaliy faoliyat, usullar va texnologiyalar o'rtasidagi ichki munosabatlardir.

Ikkinchi pedagogik shart – ta'lim jarayoni subyektlarining psixologik-pedagogik vositalarini bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilganligi. Vaziyatning kaliti muammoli ta'lim, bo'lajak ofitserlarning bilim qobiliyatlarini rivojlantiruvchi faol va interaktiv o'qitish usullaridan foydalanish, motivatsiya va mustaqil faoliyatni faollashtirish, nostandart harbiy kasbiy vazifalarni hal qilish qobiliyatidir.

Uchinchi pedagogik shart – bo'lajak aviatsiya mutaxassislarni harbiy-kasbiy tayyorgarligining barcha bosqichlarida integral pedagogik jarayon ishtirokchilarining hamkorligi navigator ishining asosini tashkil etuvchi harakatlar izchilligi, uyg'unligi bilan tavsiflangan integral pedagogik jarayon ishtirokchilarining maqsadli o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi.

Tarbiya shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki ta'sirlarga asoslangan pedagogik sharoitlar pedagogik jarayonning borishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Har qanday pedagogik modelni yaratish nafaqat uni qurishning uslubiy asoslarini, balki uni ta'lim muassasasining o'quv jarayoniga joriy etish va amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik sharoitlarni ham aniqlashni talab qiladi.

Aniqlangan pedagogik shart-sharoitlardan foydalanib, bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining indikativ-gnostik faoliyatini shakllantirishning tarkibiy-funksional modelini amalga oshirish uchun ularning mohiyati va maqsadini bilib olishimiz kerak.

Bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish faoliyatini shakllantirish modeli quyidagi talablarga rioya qilingan taqdirda o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. O'quv va moddiy-texnik ta'minot imkoniyatlarining umumiylikni aks ettiruvchi, uning faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan pedagogik sharoitlar hisoblanadi.

Bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining pedagogik faoliyatini shakllantirishning tarkibiy-funksional modelini amalga oshirishning pedagogik shartlarini aniqlashda quyidagilar e'tiborga olindi: tizimli faoliyat, shaxsga yo'naltirilgan va kasbiy yondashuvlarning yetakchi g'oyalari; modelning ishlash tamoyillari (tizimlilik, yaxlitlik, ong va faoliyat birligi, subyektivlik, ochiqlik, moslashuvchanlik); shuningdek, o'ziga xos tamoyillar (kasbiylik, o'ziga xoslik, darajalar, kasbiy kompetentsiyani) egallashning qadrlashi; harbiy aviatsiya navigatorlarining kasbiy tayyorgarligining o'ziga xos xususiyatlari; tahlili psixologik-pedagogik adabiyotlar bo'yicha aviatsiya psixologiyasi va pedagogikasi kasb-hunar ta'limi; bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining kasbiy faoliyatining shakllanish darajasini aniqlashga qaratilgan eksperimentning aniqlash bosqichining natijalari.

Shunday qilib, bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining pedagogik faoliyatini shakllantirishda muallifning tarkibiy-funksional modelini amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik shartlar to'plami aniqlandi va asoslandi:

1. Bo'lajak aviatsiya mutaxassislarni tayyorlashda fanlararo aloqalarning uzluksizligini ta'minlash.

2. Ta'lim jarayoni subyektlarining psixologik-pedagogik vositalarini bo'lajak aviatsiya mutaxassislari ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirish.

3. Aviatsiya mutaxassislarni harbiy kasbiy tayyorlashning barcha bosqichlarida yaxlit pedagogik jarayon ishtirokchilarining hamkorligi.

Bo'lajak aviatsiya mutaxassislarning kasbiy faoliyatini shakllantirish modeli oliy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida biz aniqlagan pedagogik shartlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Shuning uchun bo'lajak aviatsiya mutaxassislarning pedagogik faoliyatini shakllantirishda uzluksizlikni qo'llashning muhim elementlaridan biri axborotni qabul qilish va qayta ishlash bo'yicha umumlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Taklif qilinayotgan pedagogik modelimizda biz bo'lajak aviatsiya mutaxassislarning kasbiy faoliyatini shakllantirishning fanlararo bog'liqligini taklif qilamiz, chunki o'qituvchilar va kursantlarning faoliyati umumiy ta'lim, tayyorgarlik, parvozdan oldingi tayyorgarlik va bevosita parvoz paytida amalga oshiriladi. Uzluksizlikning mohiyati bilim va ko'nikmalarni yuqori ilmiy va amaliy asosda bosqichma-bosqich kengaytirish va chuqurlashtirish jarayonida yangi, eski va kelajak o'rtasida zarur aloqani o'rnatishdan iborat.

Bo'lajak aviatsiya mutaxassislarning kasbiy faoliyatini shakllantirishda uzluksizlikdan foydalanish pedagogik talablar birligiga rioya qilish bilan bog'liq, o'quv va amaliy faoliyat jarayonida bo'lajak aviatsiya mutaxassislardan tomonidan o'rnatilgan harakatlarning uzluksiz rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish va fanlararo bog'liqligini amalga oshirish.

Biz bo'lajak aviatsiya mutaxassislarning kasbiy faoliyatini shakllantirish jarayonining yaxlitligiga va bo'lajak aviatsiya mutaxassislarni tayyorlash va tarbiyalashning amaliy natijalariga erishishda fanlararo integratsiyadan foydalanishni taklif qilamiz.

Ish jarayonida, fanlararo integratsiyaning asosiy talabi quyidagilardan iborat degan xulosaga keldik: bo'lajak aviatsiya mutaxassislarga parvoz missiyasini bajarish va o'quv va amaliy muammolarni hal qilish jarayonida kasbiy faoliyatdan har tomonlama samarali foydalanishni o'rgatish.

Ushbu talab harbiy-texnik mutaxassislikni o'zlashtirish uchun dolzarbdir, chunki o'quv jarayonida umumiy nazariy, umumiy kasbiy va maxsus fanlarning integratsiyalashgan fanlararo tabiati aniq ko'rinadi.

Harbiy aviatsiya institutiga fanlararo integrativ aloqalar hodisasi, shuningdek, bo'lajak aviatsiya mutaxassislarning bilim qobiliyatini rivojlantirishni ta'minlash, o'z-o'zini faollashtirish, o'qitish mazmuni, usullari va vositalaridagi fanlararo bog'liqliklarda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, bo'lajak aviatsiya mutaxassislarning kasbiy faoliyatini shakllantirishning mualliflik modelini amalga oshirishdagi birinchi pedagogik shart birinchi kursdan boshlab barcha o'quv fanlari va amaliy faoliyatda quyidagi imkoniyatlarni ochib beradi: bo'lajak aviatsiya mutaxassislarning umumiy intellektual darajasini, o'quv va amaliy faoliyatni amalga oshirish asosidagi aqliy jarayonlarni rivojlantirish.

Oxir oqibat, bu modelning fundamental-texnologik tarkibiy qismi bo'lgan maqsadimizga erishishga olib keladi: bo'lajak aviatsiya mutaxassislarning yo'naltirilgan kasbiy faoliyatini shakllantirish uchun psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash bazasini yaratish.

Mazkur shartning amaliyotga tatbiq etilishi kursantlar o'rtasida ham zarur kasbiy muhim fazilatlarini shakllantirishni ta'minlaydi hamda bo'lajak aviatsiya mutaxassislarni xizmat va jangovar faoliyatga tayyorlash natijalarini oshiradi.

Ikkinchi pedagogik shart – ta'lim jarayoni subyektlarining psixologik-pedagogik

vositalarini bo'lajak aviatsiya mutaxassislarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilganligi. Ushbu shartni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun, bizning fikrimizcha, texnik fikrlash va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradigan, bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining bilim qobiliyatini rivojlantiradigan, motivatsiya va mustaqil faoliyatni faollashtiradigan muammoli ta'lim ustuvor bo'lishi kerak.

Aviatsiya mutaxassislarida hissiy va irodaviy fazilatlarini, nostandart harbiy-professional muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sababli, nazariy mashg'ulotlarda faol va interaktiv ish usullaridan va ko'proq darajada aviatsiya mutaxassislarini erdagi (parvozdan oldin) tayyorlashda, shu jumladan, turli xil texnologiyalar, masalan, vaziyatni tahlil qilish, mashg'ulotlar, o'yinlar va boshqalardan foydalanish kerak.

Uchinchi pedagogik shart – aviatsiya mutaxassislarini harbiy kasbiy tayyorgarligining barcha bosqichlarida yaxlit pedagogik jarayon ishtirokchilarining hamkorligi. Bunda bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining kasbiy faoliyatini shakllantirishning tarkibiy-funksional modelini amalga oshirishning uchinchi pedagogik shartining asosiy g'oyalari ham barcha tarkibiy qismlarda biz tanlagan uslubiy yondashuvlarda o'z aksini topgan.

Harbiy aviatsiya institutidagi yaxlit pedagogik jarayonning ishtirokchilari: institut qo'mondonligi, professor-o'qituvchilar tarkibi, bo'lajak aviatsiya mutaxassislari, kurs ofitserlari, yordamchi tuzilmalar mutaxassislari va kursantlar ekanligini ta'kidlaymiz.

Hamkorlikning asosiy komponenti o'zaro ta'sirning ijodiy muhiti bo'lib, unda o'zaro munosabatlari amalga oshiriladi va ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisi tomonidan individual harakatlar amalga oshiriladi. O'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi va hamkorligi o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, amaliy va xizmat faoliyatida turli ijodiy va mustaqil ishlarni bajarishda amalga oshiriladi. Shuningdek, harbiy aviatsiya oliy o'quv yurtlari kursantlarining intellektual ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchi va murabbiylarning psixologik-pedagogik bilim va malakalarini oshirishda o'zaro hamkorlik va hamkorlik o'z ifodasini topmoqda.

Hamkorlikni amalga oshirish kursantlar bilan individual va guruhli ishlarda amalga oshiriladi, bu bilimlarni oshirish, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi va etarli darajada o'zini o'zi qadrlash va yuqori motivatsiyani shakllantirishga imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, hamkorlik bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining faol kognitiv faoliyatini rag'batlantiradigan pedagogik vositalardan foydalangan holda ishlab chiqilgan mualliflik modelining barcha tarkibiy qismlarining ishini ularning birligida mustahkamlaydi. Shuningdek, bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining kasbiy faoliyatini shakllantirishning tarkibiy-funksional modelini amalga oshirishning uchinchi pedagogik sharti kompleks shakllantirish, nazorat qilish, baholash va sozlash uchun yaxlit pedagogik jarayon ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyatini o'z ichiga oladi. Zarur professional muhim fazilatlar, kasbiy bilim va ko'nikmalar, bizning fikrimizcha, aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Shunday qilib, birinchi pedagogik shart ' bo'lajak aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashda fanlararo aloqalarning uzluksizligi va integratsiyasini ta'minlash, bizning fikrimizcha, bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining o'qitish jarayonida kasbiy faoliyatida ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Harbiy aviatsiya instituti, kursantlarning amaliy tajribaga ega bo'lish jarayonini kuchaytiradi, kelajakdagi parvoz xodimlari uchun kasbiy tayyorgarlik jarayonining sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchi pedagogik shart – bu o'quv jarayoni subyektlarining psixologik-pedagogik vositalarini bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga

yo'naltirilganligi, bu esa, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa, o'quv jarayonini amalga oshirishda harbiy aviatsiya navigatorining kasbiy faoliyati asosiy vositasidir.

Uchinchi pedagogik shart – harbiy-kasbiy tayyorgarlikning barcha bosqichlarida yaxlit pedagogik jarayon ishtirokchilarining hamkorligi.

Bo'lajak aviatsiya mutaxassislarini o'z kasbiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga qodir bo'lajak aviatsiya mutaxassisining shaxsiy rivojlanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa.** Harbiy aviatsiya institutining o'quv jarayoniga kiritilgan pedagogik shartlarning har biri bo'lajak aviatsiya mutaxassislarining kasbiy faoliyatining shakllanishi natijasiga sifat jihatidan ta'sir qiladi. Ushbu shartlardan kompleksda foydalanish yaxlit pedagogik jarayonni rivojlantirishga va qo'yilgan tadqiqot muammosini hal qilishga qaratilgan aniq ijobiy dinamikaga ega. Harbiy aviatsiya instituti bo'lajak aviatsiya mutaxassislarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini shuni ko'rsatadiki, kompetensiya yondashuvini qo'llash to'liq bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy kompetensiya, iroda va asosiy psixologik bilimlarga ega bo'lgan haqiqiy mutaxassisni tayyorlash va tarbiyalashga qaratilgan, bu tayinlangan xizmat vazifalarini to'liq bajarishga imkon beradi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va professor-o'qituvchilari malakasini uzluksiz oshirish tizimini joriy etish to'g'risida»gi PF-5789-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 10-noyabrdagi 228-sonli «Fuqaro aviatsiyasi korxonalarining va aviatsiya ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish qoidalarini» qarori.

3. Полонский В.М. Словарь по образованию и педагогике. - М.: Высшая школа, 2004.

4. Ипполитова Н.В. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация // General and professional education. 2012.

5. Андреев В.И. Педагогика высшей школы. Инновационно-прогностический курс: Учебное пособие. - Казань: Центр инновационных технологий, 2013.

## YOSHLARNI VATANVARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHDA JADIDCHILIK G'ÓYALARINING O'RNINI

**Saparov Bobir Xudayberdiyevich**, *O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi sikl boshlig'i, dotsent, podpolkovnik*

**Annotatsiya.** Globallashuv jarayonida kechayotgan voqea-hodisalarni to'g'ri talqin qila olish, har bir voqelikni milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida tahlildan o'tkazish ulkan ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa, milliy g'oya va mafkuramiz mustahkam bo'lmog'i lozim, yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab-avaylashga undaydi.

**Tayanch so'zlar:** *globallashuv, komil inson, milliy-ozodlik, mustaqillik, madaniyat, urf-odat, modernizatsiya, aqidaparastlik, ma'rifat, millat.*

## РОЛЬ ПЕРЕДОВЫХ ИДЕЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА

**Сапаров Бобир Худайбердиевич**, *начальник цикла Учебного центра военной подготовки Национального университета Узбекистана, доцент, подполковник*

**Аннотация.** Важно уметь правильно интерпретировать события глобализации, анализировать каждую реальность, исходя из наших национальных интересов и ценностей. А для этого наша национальная идея и идеология должны быть сильными. Национальная идея, заложенная в умах и мышлении молодого поколения, не только гарантирует влияние на неё каких-либо иных идей, но и развивает способность адекватно реагировать на них, побуждает их уважать и сохранять наши национальные ценности.

**Ключевые слова:** *глобализация, совершенный человек, национальное освобождение, независимость, культура, традиция, модернизация, фанатизм, просвещение, нация.*

## THE ROLE OF ADVANCED IDEAS IN EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

**Saparov Bobir Khudaiberdiyevich**, *head of the training center of the National University of Uzbekistan, associate professor, lieutenant colonel*

**Abstract.** It is important to be able to correctly interpret the events of globalization, to analyze each reality on the basis of our national interests and values. And for that, our national idea and ideology must be strong. The national idea instilled in the minds and thinking of the younger generation not only ensures that it is not influenced by any foreign ideas, but also develops the ability to respond appropriately to them, encourages them to respect and preserve our national values.

**Key words:** *globalization, perfect man, national liberation, independence, culture, tradition, modernization, fanaticism, enlightenment, nation*

Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot,  
yo najot – yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir.  
*Abdulla Avloniy*

**Kirish.** Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan.

**Asosiy qism.** Aslida jaded so'zi (arabcha «jadid» – yangi) yangilanish ma'nosini

anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbic etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliyozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi. XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniyar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor, Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik kabi masalalar edi. Bunday g'oyalari, avvalambor, yosh avlodni milliy, ma'naviy hamda g'oyaviy jipslashtirish, ularni o'lka taqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashga jalb etish kabilarda aks etadi. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy-nazariy yo'nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar [1]. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan, o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy turmishini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxoja Behbudiy ta'kidlaganidek, «har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratli yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi».

Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi. Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo'lishlarini ta'kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, bunday do'konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishini o'zru qilgan. Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmi, ma'rifati, eng asosiysi esa, ota-onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta'kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifati bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta'kidlagan. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarning zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qilishdi, shu yo'lda fidoyilarcha kurashishdi.

Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; dunyoviy ilmlarni, zamonaviy fan va texnikani egallab, taraqqiy topgan millatlar darajasiga ko'tarilish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, qoloqlikka qarshi ma'rifat bilan kurashish, ana shu asosda hurriyatga erishish, Vatanning buyuk sha'nu shavkatini tiklash jadid ta'limotining o'zak g'oyasi hisoblanadi [2]. Shu o'rinda ma'rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim,

ilk o'zbek matbaachilaridan biri Ibratning yangi maktablar ochish, o'qituvchilar tayyorlash, ayollarni ilm-ma'rifatli qilish ishlarida faol qatnashganini, o'z she'rilarida mahalliy va chor amaldorlari kirdikorlarini fosh etganini, xalqning ilmli, ma'rifatli bo'lishi yo'lida amalga oshirgan ishlarini esga olish kifoya. Mutaassiblik va nodonlik hukm surgan davr muhitida mana shunday ishlarni amalga oshira olishning o'zi bo'lmasdi. Buning uchun kishida millat uchun uradigan katta yurak bilan birga, vatanparvarlik, fidoyilik kabi xislatlar, fazilatlar bo'lishi lozim edi. Shu sabab ham hech ikkilanmay aytish mumkinki, Ibrat domla singari bobolarimizning o'sha davrda el-yurtimiz taraqqiyoti yo'lidagi fidokorona xizmatlari chinakam ma'naviy jasorat edi.

O'rni kelganda aytish lozimki, bugungi imkoniyatlar, ilm-ma'rifatga xayrixoh hukumat jadidlar zamonida bo'lganida edi, Uchinchi Renessansga allaqachon erishgan bo'lardik. Mahmudxo'ja Behbudiyning «Zamona ilmu fanidan bebahra millat o'zgalarga poymol bo'lur», Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir», degan so'zlari bugun ham millatni uyg'otuvchi da'vatdek jaranglab turibdi. Jahon intellektual merosi taraqqiyoti tarixida jadid ma'rifatparvarligining ijtimoiy-iqtisodiy, falsafiy g'oyalari bugungi kun talablari nuqtai nazaridan o'rganish yoshlar milliy-ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, ularni axloqiy yuksaltirishda, turli xil yot g'oyalardan saqlashda, ular ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Agar o'tgan asr boshlarida xalqimiz hayoti va taqdiriga ega chiqmoqchi bo'lgan tashqi kuchlar qo'l bilan sanoqli va ularni ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan bo'lsa, bugun hayotning beistisno barcha sohalarini qamrab olgan xurujlarning sonini ham, kelayotgan manzilini ham, ortida qanday kuchlar va manfaatlar turganini ham bilish-aniqlash oson ish emas. Shunday ekan, bugungi ma'rifatchi-ziyolilar – olimlar, pedagoglar, ijodkorlar, din peshvolaridan bu masalalar ustida jiddiy o'ylash, ularning mohiyatini chuqur anglash va eng muhimi – millionlab yurtdoshlarimizga tushunarli til va uslublarda anglatish talab etiladi. Bunda targ'ibot-tashviqotning zamonaviy minbarlari – internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan tunu kun foydalanish zarur. Avvalgi davrlarda jadidlar va ularning ijodiga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lingani bor gap. Murojaatnomada jadidlar haqida aytilgan fikrlar zahirida mazkur jarayon bardavom bo'lishi, ularning ibratli hayoti va ijodi bilan chuqurroq tanishish, katta tajriba va mahorat maktabi sifatida ko'rish, bizga meros bo'lib qoldirgan asarlari va g'oyalari Yangi O'zbekistonni qurishda xizmat qiladi, degan ta'kid bor.

Jadid degani – yangi degani bo'lsa, demak, Yangi O'zbekiston yangilik va yaxshilik tarafdori bo'lgan jadidlarning orzusi ham edi, desak yangilishmagan bo'lamiz [2]. Bugun yoshlar o'z milliy tarixini o'rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf-odat va an'analarning qayta tiklanib borayotgani ularni o'zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yutiqdur. «Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma'naviy qadriyatlarini o'rganib qolayotgani yo'q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo'lmoqda. Xorijiy davlatlarda o'qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg'or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar» [3]. Yoshlar dunyoqarashida milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish, uning talqini va jamiyatimizda iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda tutgan o'rni bugungi muhim muammolar jumlasidandir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Millat uchun erkinlik adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o'ziga qaram qilishga, birovning mol-mulkini talon-taroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o'ldirishga yoki zarar yetkazishga yo'l qo'ymaydi», – deb ta'kidlaydilar. Erkinlik qonunga asoslanadi: qonun doirasida olib yuborilgan ishlar va xatti-harakatlar ahloqiy hamda huquqiy qadriyatlar jihatidan haqli hisoblanadi. Kundalik turmushda, o'zaro munosabatlarda inson erkinligi qonun hamda axloqiy normalar bilan cheklangan bo'ladi. Erkinlikni to'g'ri tushunib, uni hayotimizga to'g'ri tatbiq etganimizdagina, bu buyuk ne'mat-adolat va erkinlikni saqlab qolishimiz va undan keyingi avlodlarimiz ulardan bahra olishlari mumkin.

Mamlakatimiz xavfsizligini bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuchi bo'lmish o'sib, unib kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama mafkuraviy qurollantirish, ya'ni ularni turli xil yot va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish orqali ularning mafkuraviy immunitetini shakllanish lozimligini bugungi davrning o'zi talab qilmoqda. Agar bu tushunchani qurollantirish emas, balki qurollanmog'i kerak desak, bevosita ularni o'z holiga tashlab qo'ygan va ko'ziga «yaltirab» ko'ringan narsani o'zlashtirishga sharoit yaratgan bo'lamiz. Pok qalbli yoshlarimizni, pok niyatlarini bilib olgan va ularning ezgu g'oyalarini asta-sekinlik bilan yot g'oyaga aylantirishga sabab bo'layotgan, faqat sirtidangina jozibador, asli esa, puch bo'lgan g'oyalar ta'siridan qutulishning birdan-bir yo'li bu – ma'rifatdir.

Demak, biz yoshlar «Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» kerakligiga har doim ham amal qilish lozimligini unutmasligimiz kerak. Shundagina yoshlarda mafkuraviy immunitetning mustahkamligi milliy va umuminsoniy qadriyatlariga, madaniy merosi, urf-odatlarini, an'analari, tili, tarixini hurmat qilishi, unga bo'lgan e'tiqodi va sadoqati orqali namoyon bo'ladi. Shundagina u millatni globallashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ayrim tahdidlardan saqlaydi. Biz bugun amalga oshirayotgan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab berilganligi, yurtimizda o'z faoliyatini boshlagan Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi kabi yangi tuzilmalar muqaddas dinimizning asl g'oyalarini o'rganish, buyuk allomalarimiz, aziz avliyolarimiz ilmiy merosini chuqur tadqiq etish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish imkonini yaratib bermoqda. Albatta, bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, xalqimizga azal-azaldan xos bo'lgan ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining o'rni va ishtirokini oshirish maqsadida 2018 yilning 16-aprelida muhtaram Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni ham aynan bu sohada olib borilayotgan ishlarning mantiqiy davomi sifatida muqaddas dinimizning ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlaridan yosh avlodni bahramand qilishning yangi tuzulmalarini shakllantirishga, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlari-mizning bebaho merosini o'rganishni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgani bilan o'ta ahamiyatlidir. Hozirgi davrda qo'lga kiritilgan muhim yutuqlarimizdan biri - ta'lim-tarbiyada milliy, ma'naviy qadriyatlarimizning ustivorligiga erishganimizdadir. Bu yosh avlodga boy tarixiy, milliy, ma'naviy merosni singdirish hamda asrlar davomida shakllangan xalq pedagogikasi an'analari asosida ta'lim-tarbiya berish demakdir. Zero, Abdulla Avloniy aytganidek, «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» [3].

**Xulosa.** Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg'onish va milliy ong yuksalishida katta rol o'ynagan. Jadidchilik g'oyalarini uning yorqin vakillaridan Behbudiy, Fitrat, Cho'pon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo'jayev, So'fizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat kabilar g'oyat og'ir sharoitlarda targ'ib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini yerga urishga yo'l qo'ymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Ma'rifatchi jadidchilar og'ir moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor to'yg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga

oldilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadiclar maktablari ochar, ularda o'zlari dars berar, o'quv qo'llanmalari yozar, nashr etar va bu yo'lda jonbozlik ko'rsatar edilar. Bu yo'lda hatto o'z mablag'larini ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur. Bugunda ma'rifatparvar-jadiclarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma'rifatchi-jadiclarning nomlari tiklanayapti, tavallud topgan kunlari tantanali nishonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma'naviy, qadriyatlar sifatida xanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Zero, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab-avaylashga undaydi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal etishda milliy qadriyatlardan, ilg'or taraqqiyotga xizmat qiluvchi diniy qadriyatlardan foydalanish, ularni zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash masalasiga bugun yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Ayni paytda yoshlarni ma'naviy himoyalash tizimining mexanizimini ishlab chiqishga ham e'tibor qaratilmoqda. Chunki, hozirgi globallashtirish sharoitida, bir tomondan, milliy qadriyatga, ikkinchi tomondan, zamonaviy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-huquqiy yangilash jarayonlarini amalga oshirish alohida dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbek xalqining ibratnomuz, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashda katta ta'sir eta oladigan urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlari va marosimlari borki, ularni bugungi kunda oilada balalar ongiga, kundalik hayot tarziga singdirish yoshlarning ma'naviy taxdidlar ta'siriga tushib qolishining oldini olishdag muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Oblomurodov N., Hazratqulov A. va boshq. O'zbekiston tarixi: O'quv qo'llanma. - T., 2011.
2. Milliy istiqlol g'oyasi: Bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2020.
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat // Oyna. - 1914.

---

#### IIV AKADEMIYA KURSANT (TINGLOVCHILAR)NING QUTQARUV ISHLARIGA O'RGATISH MEKANIZMLARI

*Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich, IIV Akademiyasi Jangovar va jismoniy tayyorgarlik kafedrasida (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ichki ishlar organlari xodimlarning favqulotda vaziyatlar (yong'in, suv toshqini, tabiiy ofatlar va boshqalar) bo'lganda tezkor harakatlanish hamda ushbu sohaga mas'ul shaxslar yordami bilan hamkorlikda harakatlanish hamda qutqaruv ishlarini to'g'ri olib borish uchun o'quv qo'llanmalar, nazariy va amaliy ko'nikmalar haqida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** qutqaruv yo'riqnomasi, harakatlanish rejasi, doimiy hamkorlik, xodimlarning qutqaruv ishlariga o'rgatish, interfaol usullar, favqulotda vaziyatlar, oldini olish, profilaktikani amalga oshirish.

#### МЕХАНИЗМЫ ПОДГОТОВКИ КУРСАНТОВ (СЛУШАТЕЛЕЙ) АКАДЕМИИ МВД К СПАСАТЕЛЬНОЙ РАБОТЕ

*Юллиев Нуриддин Жуманазарович, доцент кафедры боевой и физической подготовки Академии МВД (PhD)*

**Аннотация.** В данной статье говорится об учебных методических пособиях, теоретических и практических навыках, о том, что сотрудники органов внутренних дел должны быстро действовать в чрезвычайных ситуациях (пожар, наводнение, стихийные бедствия и т.п.).

**Ключевые слова:** инструкция по спасению, план действий, постоянное сотрудничество, подготовка персонала к спасательным работам, интерактивные методы, чрезвычайные ситуации, профилактика, осуществление профилактики.

#### MECHANISMS FOR TRAINING CADETS (STUDENTS) OF THE MIA ACADEMY FOR RESCUE WORK

*Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich, associate professor Department of combat and physical training MIA Academy (PhD)*

**Abstract.** In this article, the employees of the internal affairs bodies should move quickly in emergency situations (fire, flood, natural disasters, etc.) it talks about training manuals, theoretical and practical skills.

**Key words:** rescue instruction, action plan, continuous cooperation, training of personnel for rescue work, interactive methods, emergency situations, prevention, implementation of prevention.

**Kirish.** Insoniyat o'zining hayotiy faoliyatida turli ko'rinishdagi: tabiiy, texnogen, ekologik va antropogenik xavf-xatarlarga duch keladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) ma'lumotiga ko'ra, o'tgan asming 60-yillarida dunyo aholisining 1.6 foizi, 80-yillarda esa, 3.5 foizi favqulodda vaziyatlardan aziyat chekkan. Bunday noxushlik bizning asrmizda ham, undan keyin ham kuzatilishi muqarrardir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27- oktabrdagi 455-sonli «Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida»gi Qarorida mamlakatimiz hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha turdagi favqulodda vaziyatlar tasniflab berilgan. Favqulodda vaziyat (FV) – ma'lum hududda yuz bergan falokat, halokat va boshqa turdagi ofatlar natijasida kishilarning o'limiga, salomatligiga, tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga sezilarli

moddiy zarar yetkazuvchi, odamlarning turmush sharoitini buzilishiga olib keladigan holatdir.

**Asosiy qism.** Favqulodda vaziyatlar xavfining tarqalish tezligiga ko'ra, quyidagi guruhlar bo'linadi: a) tasodifiy FV – yer silkinishi, portlash, transport vositalaridagi avariya va boshqalar; b) shiddatli FV – yong'inlar, zaharli gazlar otilib chiquvchi portlashlar va boshqalar; v) mo'tadil (o'rtacha) FV – suv toshqinlari, vulqonlarni otilib chiqishi, radioaktiv moddalar oqib chiquvchi avariya va boshqalar; g) rayon FV – sekin-asta tarqaluvchi xavflar: qurg'oqchilik, epidemiyalarning tarqalishi, tuproqning ifloslanishi, suvning kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va boshqalar.

Favqulodda vaziyatlar yana tarqalish miqyosiga (shikastlanganlar soniga hamda moddiy Yo'qotishlar miqdoriga qarab) ko'ra, 4 guruhga bo'linadi: lokal (obyekt miqyosidagi) FV, mahalliy FV; respublika (milliy) FV; transchegaraviy (global) FV.

Ushbu sohaga oid muammo va kamchiliklar haqida qisqacha to'xtalsak: favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslari tomonidan funksional majburiyatlarni bajarish qoidalarini buzish; hisobot hujjatlarini bajarish sifatini pasaytirish; aloqa va videokonferens aloqa faoliyatining ishonchligini kamaytirish; hisobot hujjatlarining to'liqligi xususiyatlarining buzilishi; hodisa haqidagi ma'lumotlarni buzish; hodisa haqidagi ma'lumotlarni noto'g'ri baholash va boshqalar; muntazam ishlar; ularning bajarilishi uchun belgilangan cheklangan vaqt davomida bajariladigan ishlarning katta ro'yxati; katta hajmdagi tahliliy ishlar; rasmiy va mazmunli o'zgarishlarning sezilarli miqdori; 3) qo'llab-quvvatlovchi sabablar: dasturiy ta'minot sohasida zamonaviy yutuqlardan yetarlicha foydalanilmaganligi; moliyaviy ta'minotni kamaytirish (iqtisodiy inqiroz sharoitida); kadrlar ta'minotini qisqartirish (favqulodda vaziyatlar vazirligida xodimlarni optimallashtirish sharoitida); intellektual dasturiy ta'minotdan foydalanishning kichik ulushi; 4) boshqa sabablar: boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishning yetarli darajada emasligi; bilimlarni o'zlashtirish, to'plash va taqdim etishda avtomatlashtirishning yo'qligi. Natijalar jabrlanganlarga o'z vaqtida yordam berish; moddiy zararning oshishi; o'lganlar va jarohatlanganlar sonining ko'payishi; favqulodda vaziyat joyiga kelgan bo'linmalarning uyushmagan harakatlari; qaror qabul qiluvchi tomonidan noto'g'ri qaror qabul qilish; kuch va vositalarning optimal hisoblanmasligi; yong'inga qarshi moddalar va boshqa resurslarning optimal bo'lmagan xarajatlari

Mansabdor shaxslarning faoliyatida muammoli masalalarni aniqlash va tahlil qilish masalalari juda muhimdir. Albatta, favqulodda vaziyatlar vazirligining bo'linmalari faoliyatiga xos bo'lgan barcha me'zonlarga ta'sir qilmaydigan mansabdor shaxslarning faoliyatini baholash usullari mavjud. Ayni paytda, Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatida muammoli masalalarni aniqlash va tahlil qilish masalasi va umuman, faoliyatni baholash jarayoniga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Bugungi kunda Favqulodda vaziyatlar vazirligining mansabdor shaxslari faoliyatini baholashni avtomatlashtirish bilan bog'liq masalalar faqat ko'rib chiqish va muhokama qilish bosqichida bo'lib, kelgusida tahlil va ishlab chiqishga muhtoj. Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markazi mansabdor shaxslari faoliyatini baholashni avtomatlashtirish muammoli masalalarni aniqlash va tahlil qilish va qo'shimcha mansabdor shaxslarni jalb qilmasdan olingan natijalarni qayd etish imkonini beradi, bu FVV xodimlarini optimallashtirishda zarur omil hisoblanadi. Muammolarning mavjudligi oqibatlarini tahlil qilish. Favqulodda vaziyatlar vazirligining favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markazi mansabdor shaxslari faoliyatiga muammoli masalalarni aniqlash va tahlil qilishning avtomatlashtirilgan texnikasini joriy etishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi [1].

FVHQ va BMM mansabdor shaxslari faoliyatida tahlil modelini qo'llash va muammoli masalalarni aniqlash bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan takliflarni tahlil qilib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlar vazirligining bo'linmalari faoliyatini samarali baholash uchun vazirlikning mansabdor shaxslari faoliyatida muammoli masalalarni aniqlash va tahlil qilish modeli quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga olishi kerak: 1) tekshiriladigan mansabdor shaxsni tanlash; 2) mansabdor shaxsga yuklatilgan vazifalarni tahlil qilish; 3) baholash amalga oshiriladigan vazifani tanlash; 4) baholash olib boriladigan xususiyatni tanlash; 5) baholash amalga oshiriladigan ko'rsatkichni tanlash; 6) ma'lumotlar bazasiga so'rovlarni shakllantirish; 7) olingan ma'lumotlarni tahlil qilish; 8) natijalarni favqulot vaziyatlarda qutqaruv ishlarini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar rahbariyatiga taqdim etish.

Zilzila va portlash kabi favqulodda holatlarda tezkor-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni bajarish uchun. Odam o'ta oladigan darajani hosil qiluvchi qurilmaning ishchi maydoni kamida 0,5-0,6 m<sup>2</sup> bo'lishi kerak. Qurilmaning ishchi maydon burchagi 900 dan oshmasligi kerak. Odam o'ta oladigan darajani hosil qiluvchi qurilmasidagi hisob-kitob ishlari uch kishidan iborat guruh orqali amalga oshiriladi. Odam o'ta oladigan darajani hosil qiluvchi qurilmasi ishlaydigan qutqaruvchilar, zarurat hollarda, uyumlarda hosil bo'lgan yog'och konstruksiyalarning qoldiqlarini arra bilan kesib, ularni kichik bo'laklarga (bo'shliqlarda va chuqurliklarda) bo'lib tashlaydi. Qutqaruvchilar tomonidan uyumlardagi metall-armatura konstruksiyalarini kesish uchun kerakli mexanizatsiyalashgan vositalarni, boshqa qutqaruvchilar tomonidan odam o'ta oladigan darajani hosil qiluvchi qurilma orqali etkazib beriladi. Bunday hollarda metall-armatura konstruksiyalarini mustahkamlovchi uchidan kesiladi. Temir-beton konstruksiyalarining mustahkamlovchi uchlari bolg'a yordamida egiladi. Agar uyum qoldiqlarini chetlab o'tish imkoni bo'lmasa, qutqaruvchi ko'tarmalardan foydalangan holda qoldiqlarni olib tashlaydi. Uyum qoldiqlarni olib tashlashda, qutqaruvchilar qoldiqlarning harakat yo'nalishini tanlaydi, ko'tarmalarni o'rnatadi va uning harakatini boshqaradi. Qutqaruvchilar tomonidan qoldiqlarni ajratishda (ko'tarishda) ko'tarmalarning barqaror pozitsiyasi ta'minlanishi kerak. Qutqaruvchilar uyum qoldiqlarini aniqlashda boshqa qutqaruvchilar tomonidan odam o'ta oladigan darajani hosil qiluvchi qurilma orqali yetkazilgan yordamchi qutqaruv uskunalari va biriktirma elementlardan foydalanadi. Qutqaruvchilar uyumlardagi jabrlanganlarni aniqlagandan so'ng, unga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatiladi va uni odam o'ta oladigan darajani hosil qiluvchi qurilmasi o'rnatilgan uyum yaqinidagi hududga evakuatsiya qiladi. Tungi vaqtlarda, odam o'ta oladigan darajani hosil qiluvchi qurilmasidan foydalanish paytida uyum joyi elektr lampalar yordamida yoritilishi kerak. Infektsion sharoitida qutqaruvchilar shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi zarur. Odam o'ta oladigan darajani hosil qiluvchi qurilmasidagi ishlarni bajarishda mexanizatsiyalashgan asbob-uskunalardan, diskli arra, gidro, pnevmatik ko'tarmalarni qo'llash mumkin.

Odam o'ta oladigan darajani hosil qiluvchi qurilmasidan foydalanish vaqtida mashinalar harakati to'xtatilishi kerak. Odam o'ta oladigan darajani hosil qiluvchi qurilmasi orqali ishni tashkil etishda ishlab chiqarishning eng samarali usullarini topish, mexanizatsiyalash vositalarini qo'llash, vaqt va kuchning eng kam xarajatlarini aniqlash uchun uyumlar joyini diqqat bilan o'rganishga alohida e'tibor qaratish kerak. Boshpanalar va boshpana joylaridagi uyumlarni ochish quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi: boshpanalardagi favqulodda chiqish tuynugi ustidagi uyum qoldiqlarini qazish (tozalash) orqali; bir-birining ustiga ochilgan tuynuk bilan boshpana qoplamasini tozalash orqali; binoning tashqi devorini tozalash, boshpana qurilmasi va boshpana (zamin) dagi devorni ochish orqali.

Omborxonada turidagi boshpanalarda, asosiy kirishlardan tashqari, favqulodda chiqish eshiklari tashkil etiladi. Favqulodda chiqish eshiklari odatda yer yuzasidan yuqoriga qarab ochilishi, odamlarning boshpanadan chiqishi bilan bir qatorda, boshpanaga tashqaridan havo kirishi uchun mo'ljallangan. Favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish bilan shug'ullanadigan barcha xizmatlarning tezkor, muvofiqlashtirilgan harakatlarini ta'minlash, shuningdek, favqulodda vaziyatlar sohasidagi ishlarining eng yuqori samaradorligiga erishish uchun qonunchilik bazasini, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash jamg'armalarini, maxsus texnik ta'minotni, aloqa vositalarini ta'minlashni o'z ichiga olgan kompleks chora-tadbirlar talab etiladi.

Qutqaruv ishlarini to'g'ri tashkillashtirish uchun qutqaruv ishlariga mas'ul organlar tizimida yosh kadrlarni o'qitish ko'nikmasini shakllantirish kerak. Xususan, IIV Akademiyasida taxsil oladigan kursant/tinglovchilar bilan doimiy ravishda o'quv mashg'ulotlar va amaliy treninglar o'tkazish yo'li bilan har oy tasdiqlangan reja jadval orqali amalga oshirilsa ko'zlangan maqsadga yetiladi, ya'ni kursant/tinglovchilar yurtimizda uchrash ehtimoli ko'p favqulodda vaziyatlar zilzila va yong'in sodir bolganda nima qilish kerakligi haqida taxminiy g'oyalarga va kerakli asbob-aslahalardan foydalanish qoidalarini bilish zarur.

O'zbekiston IIV Akademiyasining kursant/tinglovchilarining o'qitilishi lozim Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish va boshqarish bo'limining asosiy faoliyat yo'nalishlari: favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moddiy-texnik bazasini yaratish; tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan aholiga insoparvarlik yordamini ko'rsatish; aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni bartaraf etish bo'yicha o'qitish; yoshlar o'rtasida favqulodda vaziyatlar bo'yicha sanitariya drujinari va sanitariya postlarini, tashabbus guruhlarini tashkil etish va jihozlash; jamiyat ko'ngillilari va xodimlari orasidan tabiiy ofatlarga qarshi kurash guruhlarini tayyorlash; favquloddagi vaziyatlarda suv sanitariyasi va suv ta'minoti; favquloddagi vaziyatlarda oilaviy rishtalarni tiklash; favqulodda vaziyatlar sohasidagi xalqaro hamkorlik; barcha darajadagi favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni bartaraf etish rejalarini ishlab chiqish.

IIV Akademiyasining kursant/tinglovchilari bilan qutqaruv ishlarini tashkil qilishda dastlabki ko'nikmalar sifatida: universitetlar, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kollejar professor-o'qituvchilarini o'qitish, o'quvchilar bilan mashg'ulotlarni ishlab chiqishda uslubiy yordam ko'rsatish; ta'lim muassasalarini tabiiy ofatlar paytida o'zini tutish qoidalari bo'yicha axborot materiallari bilan ta'minlash; favqulodda vaziyatlarda o'zini tutish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha o'quv tadbirlarini o'tkazishda ko'maklashish; favqulodda vaziyatlar bo'yicha sanitariya postlari va tashabbuskor guruhlar tashkil etish; IIV Akademiyasida amaliy qutqaruv xonalarini tashkil etish va jihozlash.

Shuningdek, qutqaruv ishlariga o'rgatishning asosiy mexanizmlari sifatida aholi bilan keng hamkorlik qilish hamda doimiy aloqada bolish ularni qiynayotgan muammolar va ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy muammolarni mutasaddi vakillar bilan tezda hal qilib, favqulodda vaziyatlar kelib chiqmasdan avval uni oldini olish, profilaktikasini amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aholini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlarga tayyorlash O'zbekiston Respublikasi bo'ylab fuqarolarning mahalliy yig'ilishlarida favqulodda vaziyatlar mahalliy qo'mitalarini tuzish orqali amalga oshiriladi. Favqulodda vaziyatlar mahalliy qo'mitalarining tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan doimiy hamkorlikda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21-avgustdagi 650-sonli «Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga aholining tayyorgarligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorini

---

amalga oshirish bo'yicha hamkorlik doirasida amalga oshiriladi. MFY boshqaruv xodimlari uchun treninglar o'tkazilib, unda birlashtirilgan aholi punktlari zaifligi va salohiyatini baholash, tabiiy va texnologiya favqulodda vaziyatlarda o'zini tutish qoidalari bo'yicha ko'nikmalar beriladi, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, mahallaning harakat rejalarini va xavf xaritalarini tuzish ko'nikmalariga o'rgatiladi. Olingan barcha nazariy va amaliy bilimlar barcha hududiy xizmatlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi o't o'chiruvchilar xizmati va bevosita O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi vakillari ishtirokida MFY aholisi bilan simulyatsiya mashqlari davomida mustahkamlanadi. Ushbu mashqlar davomida aholi haqiqiy ofatlarni oldini olish va ularga qarshi kurashishning oddiy usullarini hamda jabrlanganlarga yordam ko'rsatishni o'rganadi. Aholi bilan olib borilgan ishlar, favqulodda vaziyat yuzaga kelishi mumkin bo'lgan taqdirda, qurbonlar sonini, jarohatlar va oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

**Xulosa.** IIV Akademiyasi kursant/tinglovchining qutqaruv islariga o'rgatish, ushbu sohaga oid muammolar va bartaraf etish bo'yicha amaliy tajribalarga asoslanib harakat qilish, qutqaruv hodisalari bo'lganda, kursant/tinglovchilar o'zlarini yo'qotib qo'ymasdan tezda operativ tarzda fikrlash madaniyatini shakllantirish, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni og'ishmay bajarish ko'nikmasini shakllantirish orqali kursant/tinglovchida nazariy ko'nikmalarga ega bo'lishadi hamda IIV Akademiyasida ushbu maqola orqali taklif etilgan qutqaruv simulyatsiya xonalarini tashkil etish orqali esa, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish IIV Akademiyasi kursant/tinglovchi ushbu jihozlangan xonalar orqali bevosita haqiqiy qutqaruv harakatlarini amalga oshirish orqali ularda qutqaruvga oid madaniyatni shakllantirgan bo'lamiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. <https://chat.openai.com/qutqaruv> ishlarida oid zamonaviy mexanizmlar
2. Nigmatov I., Tojiyev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi: Darslik. - T., 2011.
3. Nazarov Sh., Ne'matov A., Qobulov R., Mardonova N. Ma'lumotlar bazasi. - T., 2007.

## MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARI FONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SINTEZLASH

*Jumanova Fatima Uralovna, TDPU kafedra mudiri, p.f.n., dotsent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligi, ta'limga oid yangiliklar, ta'lim bosqichlari, ta'lim jarayoni va ta'lim tizimi uning rivojlanishi, o'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlari haqida atroflicha fikr yuritilgan. Ma'naviy-ma'rifiy ishlari fonida bo'lajak o'qituvchilar masalalari yuzasidan bir qancha fikrlar yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** *ma'naviyat, ma'rifat, innovatsiya, uzluksizlik, jamiyat, strategiya, pedagog, odob, axloq, komil inson, fundament, metod, pedagogika, tamoyillar, qoidalar, zamonaviy, tajriba, shaxsiy, kasbiy, sifat.*

## СИНТЕЗ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА УСЛОВИЯХ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ

*Жуманова Фатима Ураловна, заведующая кафедрой ТДПУ, к.п.н., доцент*

**Аннотация.** В данной статье подробно рассмотрена инновационная компетентность будущих педагогов, инновации в образовании, этапы образования, образовательный процесс и система образования, ее развитие, использование педагогами современных технологий. На фоне его духовно-просветительской работы сделан ряд размышлений по вопросам будущих учителей.

**Ключевые слова:** *духовность, просвещение, инновации, преемственность, общество, стратегия, педагог, этикет, мораль, совершенный человек, фундамент, метод, педагогика, принципы, правила, современность, опыт, личный, профессиональный, качество.*

## SYNTHESIS OF INNOVATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS ON THE BACKGROUND OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK

*Jumanova Fatima Uralovna, TDPU department head, PhD, associate professor*

**Abstract.** This article deals with the innovative competency of prospective teachers, innovations in education, stages of education, the educational process and the educational system in its development, the comprehensive consideration of teachers' use of modern technologies. Against the background of his spiritual and educational work, several opinions were made on the issues of future teachers.

**Key words:** *spirituality, enlightenment, innovation, continuity, society, strategy, educator, etiquette, morality, perfect man, foundation, method, pedagogy, principles, rules, modern, experience, personal, professional, quality.*

**Kirish.** Ma'naviyat – odamni hayvonlardan ajratib turadigan, insonning ruhiyati, turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan madaniy fazilati bo'lib, ayrim bir kishi, millat yoki jamiyatning ichki ruhiy holati va aqliy-axloqiy salohiyatini mujassamlashtiruvchi jamiki tushunchalar va qarashlar majmui hisoblanishi haqida xulosa va tavsiyalar berilgan.

**Asosiy qism.** «Ma'naviyat» so'zi arabcha bo'lib, unda insonning ruhiy, aqliy jihatlari mujassamlashadi. Aslini olganda, axloq – ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki xushmuomaladangina iborat emas. Axloq, bu, avvalo, insof va adolat tuyg'usi, imyon, halollik deganidir.

Ma'naviyat – jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha» [1, 111-b.]. Ma'naviyat – insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallik, sevish,

zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlar va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuasi» [2, 27-b.]. «Insonning ichki va tashqi olamini namoyon etuvchi murakkab jarayon va his-tuyg'ular yig'indisidir» [3, 27-b.]. Demak, ma'naviyatga adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan, lekin ularning barchasi insonning ichki dunyosi, faoliyati bilan bog'langan.

Yuksak ma'naviyat – insonga xos barcha ijobiy sifatlarni o'z ichiga oladigan yaxlit fazilat. Bu fazilat sof vijdonli, e'tiqodli va ma'rifatli insonlarda shakllanadi.

Keltirilgan barcha ta'riflarni umumlashtirib, ma'naviyatga shunday ta'rif berish mumkin: ma'naviyat – odamni hayvonlardan ajratib turadigan, insonning ruhiyati, turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan madaniy fazilati bo'lib, ayrim bir kishi, millat yoki jamiyatning ichki ruhiy holati va aqliy-axloqiy salohiyatini mujassamlashtiruvchi jamiki tushunchalar va qarashlar majmui.

Ma'naviyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish asosida komil insonni, ya'ni yuksak ongli, mustaqil fikrlaydigan, axloqi, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tarbiyalash hisoblanadi.

Milliy ong, o'z-o'zini anglash, inson va jamiyat ma'naviy kamolotning asosiy mezonini hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ma'naviyat tushunchasi ma'rifat tushunchasi bilan hamohang yoki uzviy bog'langan.

Ma'rifat – (arabcha bilish, bilimdonlik) odamzodning irsiy va jamiyatning ijtimoiy dasturlariga muvofiq ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'zaro birligida kechadigan, inson kamolotini tartibga solib, uni komillikka eltadigan ijtimoiy hodisa bo'lib, u qadriyat, ijtimoiy ong va shaxs tuzilmalarini o'z ichiga qamrab olgan jamiyatning alohida sohasi sifatida kishilarning ong-bilimi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan faoliyat.

Ma'rifatli bo'lish odamning ijtimoiy hayotda o'z o'ri, maqsadi, burch va mas'uliyatini anglashidan boshlanadi, aks holda, odam har qancha bilimli bo'lsa ham, ma'rifatli hisoblanmaydi. Har qanday shaxs yoki jamiyatning ma'naviyati va madaniyati – ma'rifatdan boshlanadi. Shu nuqtai nazardan, madaniyat – (arabcha – madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik) – uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar majmui; u yoki bu jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy turmush va taraqqiyot darajasi; kishilarning ijodiy faoliyati ifodasi va tarbiyalanganlik darajasi. Tor ma'noda, madaniyat – kishilar hayoti va faoliyatini tashkil etish turlari va shakllarida, shuningdek ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topadigan jamiyat taraqqiyotining, inson ijodiy kuch-g'ayrati va qobiliyatining tarixan shartlangan darajasi. Madaniyatni moddiy, ma'naviy, milliy, umuminsoniy, shaxsiy, oilaviy, kasbiy madaniyat kabi shakllarga bo'lib o'rganish mumkin. Siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, ekologik, estetik, jismoniy va mehnat madaniyati, shuningdek, muomala, nutq, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va dam olish madaniyati kabi tushunchalar ham farqlanadi.

Boshqacha aytganda, madaniyat – odamning tabiiy va ijtimoiy muhit bilan bog'liq bo'lgan bilim va ko'nikmalarida, ijodiy faoliyati va hissiy qadriyatli munosabatlari tajribasida majmuiy namoyon bo'ladigan, uning tafakkuri, til va metodlarni egallashi va dunyoni tasavvur yetishini ifodalaydigan yaxlit, o'zgaruvchan tuzilmaviy-saviyali fazilati. Pedagogik faoliyatni kasb sifatida tanlagan kishilar ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat tushunchalarining maqsadi, vazifalari va mazmuni nimalardan iborat ekanligi, uning mohiyatini to'liq tushunib olishi darkorki, aks holda pedagog o'z mutaxassislik faoliyati maqsadlarini chuqur, har tomonlama anglab yetmaydi. Zero, xalqimiz azaldan ilm-ma'rifatni nurga, jaholatni esa, zulmatga qiyoslagan. Qaerdaki nur bo'lsa, u joydan zulmat chekingan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashilgan, shu orqali xatolikka olib keluvchi loqaydlikka, jinoyatga boshlovchi sovuqqonlikka barham berilgan.

O'zbekistondagi uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining istalgan turida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog, ixtisosligidan qat'iy nazar, aqliy mehnat kishisi bo'lib, milliy ilm-ma'rifatning rivojlanishi, yuksak ma'naviyatli va madaniyatli barkamol avlodlarning shakllanishi aynan ularning pedagogik saviyasi va faoliyatiga bog'liqdir va, aksincha, ilm-ma'rifat beruvchi kishi o'z vazifasini yomon bajarsa yoki ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa, ta'limdan ajratib, «ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» tamoyiliga (zardushtiylik dinining muqaddas – buyuk qadriyatlar kitobi «Avesto»da ilgari surilgan uch tamoyil, ya'ni asarning bosh g'oyasi bo'lib, ularning birligi insonni komillik sari yetaklagan; bu g'oya jahon sivilizatsiyasi modeli sifatida ham e'tirof etilgan) asoslanmay saboq bersa, bilimi, dunyoqarashi, ma'naviyati va madaniyati past bo'lgan, millat va Vatan, tabiat va jamiyatning asl mohiyatini tushunmaydigan nodon, nopok va johil odamlar avlodi vujudga kelishi mumkin.

Tarbiyachi-murabbiy, ustoz-muallimlik ishi, ya'ni pedagogik faoliyat hamma davrlarda ham har qanday jamiyat taraqqiyotining negizi va dastlabki sharti bo'lgan. Haqiqiy pedagoglar tabiat, jamiyat va bola shaxsi qadriyatlarini to'liq anglashga, insoniyat tomonidan shu kunga qadar to'plangan ilmiy bilimlar va amaliy tajribalarni o'z o'quvchilariga berishga, ularda ijodiy kuch va qobiliyatlarini rivojlantirishga, ma'rifat vositasida ma'naviyatli va madaniyatli shaxslarni shakllantirishga doimo intilib kelganlar. Bolalarga bo'lgan bunday munosabat pedagogik faoliyatning tub mohiyatini aks ettiradi, aks holda insonparvar pedagogika, atrof-muhit va shaxsga yo'naltirilgan ilm-ma'rifat (ta'lim-tarbiya) to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas.

Oila tarbiyasi «Oila - kichik Vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, Vatan tinch bo'ladi» (Sh.Mirziyoyev). Haqiqatdan ham bolalar va yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi barcha davrlarda jamiyatning ustuvor vazifalaridan bo'lib, bu, eng avvalo, oila va mahallada shakllangan.

Oila – odamning ilk ijtimoiy-madaniy muhiti; jamiyatning boshlang'ich guruhi; nikohga asoslangan va a'zolari birgalikda yashash, uy xo'jaligini yuritish, o'zaro hissiy munosabatlar va majburiyatlar bilan birlashgan kichik guruh.

Mahalla – bir qancha oilani birlashtirgan, muayyan hududni makon tutgan, o'ziga xos qadriyatlari bilan ajralib turadigan ijtimoiy-madaniy tuzilma bo'lib, shaxs kamolotiga mahalla muhiti kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bola – oila va mahalla ko'zgusi deyiladi. Zero, bola oila va mahalla timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora oila va mahalla munosabatlarning tashkil etilish jarayonida anglaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda farzand va yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tashkil etilib, mazkur markazning asosiy vazifalaridan biri «Sog'lom oila – sog'lom jamiyat» konseptual g'oyasi asosida oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash, saqlash va rivojlantirish, ma'naviy-ahloqiy tarbiya, iqtisodiy va huquqiy bilimlar, tibbiy madaniyatni oshirish, oilaviy munosabatlar psixologiyasi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishni nazarda tutadigan o'quv dasturlarini ishlab chiqishdan iborat. Bu kabi tarbiyaviy tadbirlar tufayli sog'lom oila shakllanadi. Zero, nosog'lom oilada «ma'naviy kasal» insonlar vujudga keladi.

Oila tarbiyasi – ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Shunday ekan, bu tarbiyaning asosida oila turadi. Umuman olganda, oilada odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchimiz. «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa, keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib, to'g'ri yo'lga chaqirgan.

Oiladagi ma'naviy muhit ota-onaning o'z ma'suliyatini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Zero, oiladagi qo'pol munosabatlar, yolg'on gapirishlar, yoqimsiz xatti-harakatlar bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-onasidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Farzand tarbiyasida odatda o'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan ona shug'ullanadi. Bunda farzand saviyasini inobatga olish, ammo tarbiya natijasini tez ko'rishga shoshmaslik kerak. Masalan, ikki yoshgacha faqat shirin so'z bilan erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o'rganadi, asosiy ma'lumotni shu yosh oralig'ida egallaydi. Bu davrda ota-ona namuna bo'lishga intilishi, sog'lom oilaviy muhitni yaratishi zarur. Oilada otaning bolalarga loqayd bo'lishi oxiri xunuk oqibatlariga olib keladi.

Loqaydlik – yomon illat bo'lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo'l ochadi. Ota sustkashlik qilib, o'z burchini ado etmasa, farzandiga zarur ilm va yaxshi amallarni o'rgatmasa, ularda ijobiy fazilatlarni shakllantira olmaydi.

Oila – hayot abadiyligini, avlodlar sog'lig'i va vorisligini ta'minlaydigan, milliy qadriyat va urf-odatlarimizni asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazadigan, shu bilan birga, kelajak avlod qanday inson bo'lib kamol topishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng muhim tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Bu o'choq aslo o'chmasligi, gurkirib yonishi va nafaqat millatimiz, balki insoniyat jamiyatini taraqqiyotning ravon yo'llariga boshlashi kerak. Bugun jamiyatimizda ana shu tamoyil biroz izdan chiqqandek. Ba'zi bir oilalarda otaning o'rni va roli pasaygan. Bu oiladagi sharoit, ichki va tashqi ijtimoiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Ayniqsa, internet tarmoqlarida tarqatilyotgan diniy aqidaparastlik, terrorism g'oyalari yoyish, «ommaviy madaniyat» ko'rinishlarini yoshlar ongiga singdirishga bo'layotgan urinishlarga, o'quvchi-yoshlarning ana shu illatlar ta'siriga tushib qolmasliklari uchun, eng avvalo, ularning bilimi, ongi va tafakkurini boyitish, internet ma'lumotlaridan o'rinli va oqilona foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish zarur.

**Xulosa.** O'quvchi-yoshlarda yot g'oyalarga, illatlarga qarshi ma'naviy immunitet va tushunchalar shakllanmas ekan, axborot xurujlari xavfidan, hayotimiz va mafkuramizga kirib kelayotgan illatlardan qutilish qiyinchilik bilan kechadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ibrohimov A, Sultonov X, Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. - T.: O'zbekiston.
2. Erkaev K. Ma'naviyat – millat nishoni. - T.: Ma'naviyat, 1997.
3. Sharifxo'jaev M., Davronov Z. Ma'naviyat asoslari. - T.: TMI, 2005.
4. 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonun.
5. 2020-yil 20-dekabrda 802-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti» qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 8-mayda PQ-4312-son «Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi».
7. «Ilk qadam» takomillashtirilgan davlat o'quv dasturi. - T., 2022.
8. Элмурзаева Н.Х., Жуманова Ф.У. Ихтисослаштирилган мактаб ва мактаб-интернатларда таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш педагогик муаммо // Science and education. 2020. - 1 (Special Issue 4). - P. 284-295.

---

**BO'LAJAK SURDOPEDAGOGLARNING INKLYUZIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOY ZARURIYAT SIFATIDA**

*Subanova Barno Qodirali qizi, TDPU dotsenti, PhD*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida yoritiladi. Bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** *bo'lajak surdopedagoglar, inklyuziv kompetensiya, inklyuziv ta'lim, pedagogik integratsiya, dastur, sayohatchi pedagog, nogiron bolalar, pedagog-maslahatchi.*

**РАЗВИТИЕ ИНКЛЮЗИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ СУРДОПЕДАГОГОВ КАК СОЦИАЛЬНАЯ ПОТРЕБНОСТЬ**

*Субанова Барно Кодирали кизи, доцент ТГПУ, PhD*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрено развитие инклюзивной компетентности у будущих сурдопедагогов как социальная необходимость. Проанализированы научные взгляды на развитие инклюзивной компетентности у будущих сурдопедагогов.

**Ключевые слова:** *будущие сурдопедагоги, инклюзивная компетентность, инклюзивное образование, педагогическая интеграция, программы, путешествующий педагог, дети-инвалиды, педагог-консультант.*

**DEVELOPMENT OF INCLUSIVE COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS OF THE DEAF AS A SOCIAL NEED**

*Subanova Barno Kadiraliyevna, associate professor of TSPU, PhD*

**Abstract.** This article examines the development of inclusive competence of future teachers of the deaf as a social necessity. Scientific views on the development of inclusive competence of future teachers of the deaf are analyzed.

**Key words:** *future teachers of the deaf, inclusive competence, inclusive education, pedagogical integration, programs, traveling teacher, disabled children, teacher-consultant.*

**Kirish.** Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860- son qaroriga asosida 2020-2025 yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish to'g'risidagi nizomda nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishi, kasb tanlashi, hunar o'rganishi borasidagi huquqlarini amalga oshirish maqsadida ularning ta'lim olishi, kasb egallashi bilan bir qatorda binolarni qurishda, loyihalashtirishda ham nogironligi bo'lgan shaxslarning erkin harakat qilishlarini hisobga olish qonun me'yorlari belgilangan.

**Asosiy qism.** Huquqiy-me'yoriy hujjatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va asosiy erkinliklari, jumladan, ularning yashash, fuqarolik, huquqiy himoyalani, salomatliklarini saqlash, kafolatlari belgilangan. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15 oktyabrdagi «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida»gi Qonunda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini va ularni himoya qilishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilangan. 2021-2022-o'quv yili tajriba-sinov sifatida 31 ta inklyuziv va 4 ta boshlang'ich tayanch korreksion sinflar umumta'lim maktablarida joriy etildi (31 ta inklyuziv maktab, 46 ta inklyuziv sinf, 87 nafar ATEB o'quvchilari, 4 ta boshlang'ich tayanch korreksion sinf 35 nafar ATEB o'quvchilari). «Keraklilik madaniyati»dan «qadrilik

madaniyatiga»ga o'tish demokrattlashtirish, unitar jamiyatdan ochiq fuqarolik jamiyatiga o'tish davrida amalga oshirildi. Agar ilgari inson jamiyatga olib kelishi kerak bo'lgan foyda tamoyili ustun bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda insonparvarlik nuqtai-nazaridan hamma ta'lim usulini tanlash huquqiga ega bo'lishi kerak. Bugungi kunda dunyoda 15% dan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar istiqomat qiladi. Ularning oilalari, do'stlari va yaqinlarini hisobga olgan holda, nogironlik muammolari aholining 50%ga tegishli bo'ladi. O'zbekistonda 810 ming nogironligi bo'lgan shaxslar yashaydi. Ular maktabda, ishda va oilaviy hayotida diskriminatsiyani barcha shakllariga uchrab kelmoqda. XTV tizimida uyg'unlashtirgan ta'lim-tarbiya tajribasi natijasida 500 nafar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar umumta'lim maktablariga qaytarilgan. Hozirgi kunda 3 200 maktabda 13 ming nafar o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan. Joriy yilda alohida ta'lim ehtiyoji bor bolalarning 24 foizi, 2025 yilgacha esa, 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda.

L. Gaynutdinova, inklyuziv ta'limning maqsadi – alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat deb belgilanadi. D.A.Nazarova «an'anaviy ta'lim jarayonida «Nogironligi bo'lgan shaxs (bolalar)» alohida yordamga muxtoj bolalar ishtirok etish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Maxsus pedagogik yordamga alohida yordamga muxtoj bolalar ehtiyojlari qondirishni ko'zda tutuvchi usullar qo'llanishi samara beradi [1, 76-b.]. S.Mo'minov inklyuziv sinfdagi maxsus o'qituvchining alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikasini qo'rsatib berdi [2, 16-b.]. Maxsus o'qituvchi defektologik bilimiga ega bo'lib, inklyuziv sinfdan boshlang'ich sinf o'qituvchisi berayotgan bilimlarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga individual yondashgan holda atroflicha o'zgartirishiga yordam beradi.

Maxsus o'qituvchining asosiy vazifasi dars mazmunini, topshiriqlarni berishda: eshitishda nuqsoni bo'lgan (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar) o'quvchiga alohida, ko'rishda nuqsoni bo'lgan (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar) o'quvchiga alohida, hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan o'quvchiga alohida, intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan o'quvchilar uchun tushunarli va yetarli darajada yetkazib berish talab qilinadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir mavzuni tushuntirishda alohida ehtiyojli o'quvchi barcha sinfdoshlari bilan teng ravishda ishtirok eta olishini ta'minlash ko'zda tutiladi. Chunki har bir fandagi mavzu bo'yicha o'quvchilarda ma'lum tushuncha va tasavvurga ega bo'lishi tabiiy, ya'ni har bir fan bo'yicha dastur va darsliklar birinchi sinf o'quvchisining yoshi va imkoniyatiga mos ravishda tuziladi. Shundan kelib chiqqan holda maxsus o'qituvchi oldiga alohida ehtiyojli bolani har bir fan bo'yicha o'tiladigan mavzuga mos bo'lgan dastlabki tushunchalarni berib borilishi ko'zda tutiladi. Bundan tashqari, sinf o'qituvchisi va maxsus o'qituvchi, maktab psixolog, logopedi oila bilan hamkorlikda ish oli borishi va ota-onalarni uyda tegishli vazifalarni bajarish, o'rgangan bilimlarini mustahkamlab borish talabini qo'yishlari zarurligini ta'kidlaydi.

R.Sh.Shomaxmudova, ehtiyojlari cheklangan bolalarning hammasi ham maxsus ta'lim tizimida jalb etilmaganlini ko'rsatadi [3, 90-b.]. Ixtisoslashtirilgan maktablarda joylar soni cheklanganligi, barcha viloyat va tumanlarda maxsus maktablarni yo'qligi, rivojlanishida nuqsoni mavjud farzandlarning maktab-internatlarda ta'lim olishiga ota-onalarning xohishi yo'qligi kabi omillar to'siq bo'lib xizmat qiladi. Bunday sharoitda biz faqat integratsiyaning

jismoniy komponenti va ijtimoiy komponentning yo'qligi haqida gapirishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan ikkala model ham, bizning fikrimizcha, nogironligi bo'lgan shaxslarning imkoniyatlarini ham, jamiyatning bir-biri bilan yaxlit o'zaro ta'sirida imkoniyatlarini ham cheklaydi. «Ijtimoiy model» – inklyuziya inson oilaviy hayotda ishtirok etish, maktabda o'qish, ishlash uchun «tayyorgarlik» bo'lishi shart emasligini ifodalaydi.

Inklyuziya tushunchasi ushbu modelga o'tish bilan bog'liq. Geterogen guruh uchun yagona ta'lim makonini yaratish g'oyalari asoslangan inklyuziya barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan umumiy ta'limni rivojlantirishni ta'minlaydi. Hozirgi kunda jahon ta'lim amaliyotida «integratsiya» atamasi (ingliz tilidan integrate – bir butunga birlashish) «inklyuziya» atamasi bilan almashtirildi (ingliz tilidan include – o'z ichiga olish, o'z ichiga olish, qamrab olish). Integratsiya bolaning tizim talablariga moslashishini o'z ichiga oladi, inklyuziya esa, tizimni bolaning ehtiyojlariga moslashtirish demakdir. Dunyoning aksariyat demokratik mamlakatlarida kuchli pozitsiyalarni egallagan zamonaviy qarashlar asosida inklyuziv ta'lim jamiyat hayotining alohida tarkibiy qismi sifatida emas, balki kengroq ma'noda ko'rib chiqiladi. Inklyuziv ta'limni «inklyuziv jamiyat yaratishning yakuniy maqsadiga erishish yo'lidagi birinchi qadam», – deb ta'riflaydi. Bunday jamiyatda farqlar hurmat qilinadi va qadrlanadi, siyosatda, kundalik hayotda va institutlar faoliyatida kamsitishga qarshi faol kurashiniladi» [1, 89-b.]. YUNESKO inklyuziv ta'limni dinamik yondashuv, bolalarning turlichaligi va o'ziga xosligi sari ijobiy qadam deb biladi. Ushbu yondashuv bilan bolalarning farqlari muammo sifatida emas, balki o'quv jarayonini rivojlantirish imkoniyati sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Shuning uchun inklyuziv ta'lim nafaqat texnik va tashkiliy o'zgarishlar, balki ta'lim falsafasidagi o'zgarishlardir [3, 12-b.]. U.Yu.Fayziyevaning fikricha, maksimal vazifani qo'yadigan yondashuv bilan – ta'limdagi barcha to'siqlarni bartaraf etishga harakat qilish «integratsiya» va «inklyuziya»ni bir jarayonning ikki bosqichi deb hisoblash qonuniydir, dastlab faqat mavjudligi ta'minlanganda va keyinchalik ham bu ta'lim tizimiga to'liq qo'shilish deganidir. Shu ma'noda u ularni «ruxsat» va «ishtirok etish!» so'zlari bilan almashtirishni taklif qiladi. Avvalo, olimning so'zlariga ko'ra, ta'lim tizimini odamlarning turli so'rovlariga javob berishi uchun yetarlicha moslashuvchan qilish kerak. Inklyuziyani transformatsiya sifatida tushunish, ta'lim tizimi duch keladigan inson materiallarining turlichaligiga munosabatni tubdan o'zgartirish kerak. Bu turlichalikni qiyinchiliklar manbai sifatida emas, aksincha, qabul qilinishi va bundan tashqari, qadrlanishi kerak bo'lgan voqelikning atributi sifatida ko'rib chiqish kerak. Ushbu yondashuv bilan normaning bir hil va barqaror narsa sifatida qat'iy ildiz otgan ko'rinishi rad etiladi, turlichalik esa, norma sifatida ko'rinadi [4, 36-b.]. Shunga asoslanib, inklyuziv ta'lim deganda, biz kengroq integratsiya jarayonini nazarda tutamiz va integratsiyaon ta'limda nogiron va sog'lom bolalarni do'stona munosabat va turli ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim-tarbiya olish imkoniyati yuzaga keladi.

Inklyuziv ta'lim ta'ldoirasida pedagogik integratsiya turli dasturlarga muvofiq amalga oshiriladi:

1. «Maxsus xona» umumta'lim maktabida yaratilgan, unda pedagog-defektolog ishlaydi. «Maxsus xona»: ma'lum nogironligi bo'lgan bolalarni o'qitish uchun barcha zarur maxsus yordamchi vositalar va jihozlar bilan jihozlangan bo'ladi. Nogironligi bo'lgan bola oddiy sinf a'zosi bo'lib, maxsus yordamga muhtoj bo'lganda «Maxsus xona»ga yuboriladi.

2. «Sayohatchi pedagog» pedagog-defektolog nogiron bolalar o'qiydigan maktabdan boshqasiga bir hudud ichida «sayohat qiladi». Maktabga borish tartibi nogironligi bo'lgan bolalarning o'ziga xos ehtiyojlariga bog'liq bo'ladi.

3. «Pedagog-maslahatchi»: ushbu dastur nutq patologining muhim va doimiy nogironligi bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan. U bir nechta maktablarda maslahatchi bo'lib ishlaydi va ko'p vaqtini pedagog bilan muntazam mashg'ulotlarda o'tkazadi, u nogironligi bo'lgan o'quvchilarni ta'limi bo'yicha haqida maslaxat beradi.

O'zbekistonda integratsion yondashuvlarni rivojlantirish an'anasi tub siyosiy o'zgarishlar, davlat va jamiyat tomonidan inson huquqlari va bola huquqlari to'g'risida yangi tushunchaga o'tish sharoitida paydo bo'ldi. Z.N.Mamarajabova bu davrda davlat maxsus ta'lim tizimi alohida ehtiyojli bolani nogironligi bo'lgan, inklyuziv ta'limda o'qitish metodikalarni muntazam takomillashtirib borish maqsadida tajribali mutaxassislardan guruhini va aniq rejalarni shakllantirish hamda doimiy ravishda ehtiyojga mos ravishda metodik adabiyotlarni tayyorlab borish; nogironligi bor bolalarni boricha qabul qilish, ularga alohida yondashgan holda barcha bolalar kabi bir xil faoliyatga qo'shish maqsadida jamiyatda targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish; nogironligi bor bolalarni boricha qabul qilish, alohida ta'lim ehtiyoji bor har bir bolaning inklyuziv ta'limga o'tkazish bo'yicha ijtimoiy rolklar tayyorlash, OAV orqali tushuntirish ishlarini yanada jonlantirish lozimligini ta'kidlaydi [3, 91-b.].

**Xulosa.** Tabaqalashtirish maxsus (korreksiya) muassasalari tizimini takomillashtirish bilan bog'liq sanaladi. Respublikamizda bugungi kunda 86 ta maxsus maktab va maktab-internatlar mavjud bo'lib, ularda 21 ming nafardan ziyod eshitish, ko'rish, tayanch-harakat tizimi, og'ir nutq buzilishi, hissiy va aqliy sohada nuqsoni bor bolalar ta'lim va tarbiya olmoqdalar. Mazkur muassasalarning 18 tasi eshitishida muammolari bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalarga mo'ljallangandir. Nogironligi bo'lgan bola ta'lim muassasasini erkin tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerakligini hisobga olsak, kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlarda biz ushbu kompetensiya kengroq tushunchaning ajralmas qismi – surdopedagogning kasbiy kompetensiyasi ekanligi dalillandi.

#### Adabiyotlar:

1. Бекмурадов Н.Ш. Влияние жаркого климата на работоспособность учащихся школ глухих.: Автореф. ... дис. канд. пед. наук. - М., 1989. - 17 с.
2. Khudaybergenova Z.N. (2024). Problems of teaching literature in special schools of Uzbekistan: the correctional-pedagogical model of the speech development. Revista De Gestao E Secretariado, 15(2), 3547.
3. Mamarajabova Z.N. Adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirish: Ped. fanl. d-ri (DSc) ... dis. Avtoref. - T.: TDPU, 2020.
4. Po'latova P.M., Numuxammedova L.Sh., Yakubjanova D.B., Mamarajabova Z.N., Amirsaidova Sh.M., Sultonova A.D. Maxsus pedagogika: Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.

**BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING SHAXSIY-PEDAGOGIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI**

*Musaxanova Gulnora Mavlyanovna, TDIU dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari, ya'ni bo'lajak mutaxassislar tomonidan o'rganilgan nazariy va amaliy bilimlar darajasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularni integrativ yondashuv asosida o'qitishni tashkil etish, ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, vazifalar haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** integratsiya, yondashuv, bo'lajak mutaxassis, ta'lim, tarbiya, ta'lim shakli, uzluksizlik, faollik, mustaqil fikr, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ**

*Мусаханова Гулнора Мавляновна, доцент ТГЭУ,  
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)*

**Аннотация.** В данной статье автор описывает требования к уровню теоретических и практических знаний, получаемых сегодня выпускниками высших учебных заведений, то есть будущими специалистами, организацию их подготовки на основе интегративного подхода, реализацию в этой области мыслей, даны сведения о проводимых реформах и задачах.

**Ключевые слова:** интеграция, подход, будущий специалист, образование, воспитание, форма обучения, преемственность, активность, самостоятельное мышление, личностно-ориентированное образование.

**PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF PERSONAL AND PEDAGOGICAL QUALITIES OF FUTURE SPECIALISTS**

*Musakhanova Gulnora Mavlyanovna, associate professor of TSEU,  
doctor of philosophy in pedagogy (PhD)*

**Abstract.** In this article, the author describes the requirements for the level of theoretical and practical knowledge obtained today by graduates of higher educational institutions, that is, future specialists, the organization of their training based on an integrative approach, and the implementation of thoughts in this area. information was given about ongoing reforms and tasks.

**Key words:** integration, approach, future specialist, education, upbringing, form of education, continuity, activity, independent thinking, personality-oriented education.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan mustaqillik islohotlari iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy, madaniy islohotlar ta'lim-tarbiya tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, bugungi globallashuv sharoitida har bir mamlakatning yuksalishi, rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi o'sha mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligiga har jihatdan bog'liqdir. Hozirda yangilanayotgan jamiyat uchun hamda erkinlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar uchun, avvalo, shu sifatlarga mos tarzda faoliyat ko'rsatishga qodir ta'lim tizimi zarur.

**Asosiy qism.** Bizga ma'lumki, oliy ta'lim tizimiga O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yunalish deb yondashilayotgani shubhasizdir. Shu bois, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish barcha talabgorlar uchun ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi prinsipi asosida amalga oshiriladi deb ta'kidlab o'tilgan [1].


So'ngi yillarda ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish, tahsil oluvchilarning nodir iqtidorini namoyon etishlariga ko'maklashish, o'quvchilarni shaxs

va subyekt sifatida shakllantirish, ularning aqliy, ruhiy rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq va ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, bolalar har tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish vazifalari ustuvor etib belgilandi. Natijada, o'quvchilarning metakognitiv bilimlar sohasini kengaytirish, empatiyaga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish va ularni takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim sohasida yangicha yondashuvlar faol joriy etilmoqda, yangi turdagi ta'lim tashkilotlari, xususan, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, Prezident maktablari, ijod maktablari faoliyati yo'lga qo'yilayotganligi haqida fikr yuritib, jahon tajribasini o'rgangan va yangi tartib-qoidalar, zamonaviy ta'lim usullari joriy etilishi barobarida ta'lim didaktikasiga shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni tatbiq etishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati asoslangan.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlarini namoyon eta olgan tizim hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogikada o'qituvchining kasbiy ahamiyati tarbiyalanuvchi shaxsining psixologik sifatlari jamiyat bilan o'zaro aloqada madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida shakllantirish jarayonini tashkil etishni bilish orqali belgilanadi. Bunda o'zaro aloqaning asosiy maqsadi – shaxsni maksimal rivojlantirish hamda mazkur rivojlanish darajasida insonning ijtimoiy hayot mazmuniga kirishidir. Bu, o'z navbatida, bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirish omillarini quyidagi 1-rasmda aks ettiramiz:



1-rasm. Bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirish omimllari

Ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislar masalasi ijtimoiy munosabatlarning demokratik asoslariga ta'limda aksiologik yondashuvning ustuvorligini belgilaydi. Insonga insonparvarlik yondashuvi insoniy faoliyat bahosiga o'sib boruvchi, ya'ni u yoki bu natija erishiladigan haqiqiy shaxsiy-psixologik hatti-harakatlarga e'tibor ifodalandi. Inson tarbiyasida zaruriy va erkning, ijtimoiy va subyektivning uyg'un mujassamligi ta'lim jarayonida faqatgina universallik tamoyillariga tayanishi mumkindir. Jamiyatning zamonaviy subyektini muayyan hayot tarzini ishlab chiqishi hisoblanib, u inson o'zining imkoniyatlarini ochishi, o'zining mohiyatli tavsiflarini amalga oshirishga mosdir.

Bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy-pedagogik tarbiyaviy ta'sirlarning yakuniy vazifasi sifatida subyekt quyidagi rivojlanish sifatlarini shakllantirishda quyidagi natijalar muhim o'rin tutadi: bo'lajak mutaxassislarining jamiyatda insoniyat yutuqlariga muvofiqlik; shaxsiy hayot faoliyatining insoniyat muammolariga taalluqliligi; zamonaviy madaniyatning eng oliy qadriyati sifatida insonga yo'nalganlik; individual sifatning o'ziga xosliklari muhim o'rin tutadi.

Demak, pedagogik shart-sharoitlar taraqqiyot, ma'naviylik, axloqiylik tushunchalariga taalluqlidir, ular ahamiyatli darajada faoliyat subyektini tavsiflaydi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ish tajribasi talabalarida dialektik fikrlarni rivojlantiruvchi, ularni kerakli xulosaga mustaqil kelishiga, umumlashtirishga, hodisalarning mohiyatini tushunishga, o'tmish va hozirgi zamonning hodisalarini prinsipial baholash uchun bilimlardan foydalanishga o'rgatadigan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodlari tasdiqlanishini ta'kidlaydi [2]. U shu tariqa, zamonaviy oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarda ilmiy-insonparvarlik dunyoqarashini shakllantirishda ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotganligini ko'rsatadi.

Bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy-pedagogik sifatlarining rivojlanishida maxsus mutaxassislik fanlarining metodologik asoslariga e'tiborning ortib borishi. Bo'lajak o'qituvchilarga mashg'ulotlar jarayonida an'anaviy materialni bayon etishdan voz kechib, o'quv axborotiga fanning dunyoqarashga oid masalalarining talqini kiritadilar. Bunda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish samaradorligining muhim mezonini ijtimoiy bilimlarning individual ongning faol omiliga, chuqur shaxsiy ishonchlarga o'tishi tan olinadi [3-4]. Dunyoqarashni shakllantirish qisqa muddatli emas, balki ko'p darajali jarayon bo'lib, unda har bir o'quv fani muayyan o'ringa ega bo'lishi va aniq vazifalarni hal etishga javob berishi kerakdir. Tarix fani o'qituvchisining ilmiy-insonparvarlik dunyoqarashiga nisbatan uning fanga oid tayyorgarligi sohasida eng dolzarb hisoblanib, unda tarix o'qituvchisi – pedagogik mutaxassisligining jihatlarga taalluqli kasbiy ahamiyatli ishonchlar samarali shakllanishi mumkin.

Bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirishga oid dunyoqarashni shakllantirish omillariga quyidagi jihatlarni muhim ahamiyat kasb etmoqda: bo'lajak mutaxassislarining dunyoqarashi shaxs ongining ikki darajasi – mafkura va psixologiya, tashqi va ichki, obyektiv va subyektivning sintezini aks ettiradi; bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy-pedagogik dunyoqarashini shakllantirish - pedagogning fuqarolik va kasbiy-metodik bilimlarini shakllanishiga bog'liq; bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy-pedagogik, ilmiy-insonparvarlik dunyoqarashini shakllantirish jarayoni shaxsning intellektual va ma'naviy axloqiy shakllanishining o'zaro aloqadorligi bilan bog'liq; kasbiy ahamiyatli ishonchlarni shakllantirishga layoqat quyidagilarga qobiliyat bilan belgilanadi: a) tarixning ijobiy mazmunini tahlil qilish va tushunishni bilish; b) umumlashtirishni amalga oshira olish; c) tarixiy hodisalarning mohiyatini tushunish; d) o'tmish va hozirgi zamon hodisalarini prinsipial baholash uchun bilimlardan foydalanish; pedagogning predmetli tayyorgarligi sohasi uning kasbiy ahamiyatli ishonchlarini shakllantirish uchun eng ahamiyatli hisoblanadi.

**Xulosa.** Pedagog kasbi eng sharafli kasblardan biridir. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik jihatlarni o'rganish asosiy masalardan biri hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

2. Mirziyoyev Sh. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni: <https://lex.uz/>

3. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi»: <https://lex.uz/>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-son «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillash-tirish to'g'risida» Qarori.

---

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ-ДЕВУШЕК НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА

*Курбонова Гузал Маматкаримовна, к.п.н., доцент ТГПУ*

**Аннотация.** Статья посвящена актуальной теме – развитию социальной активности среди молодежи. Особое внимание уделено психологическим и педагогическим аспектам социальной активности студентов-девушек с учетом гендерного подхода.

**Ключевые слова:** *гендерный подход, механизм, традиции, социальная активность, психологическо-педагогическая адаптация, социальная характеристика.*

## GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARNI IJTIMOYI FAOLIYATINING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

*Qurbonova Guzal Mamatkarimovna, p.f.n., TDPU dotsenti*

**Annotatsiya.** Maqola dolzarb mavzuga – yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga bag'ishlangan. Gender yondashuvini hisobga olgan holda talaba qizlarning ijtimoiy faoliyatining psixologik-pedagogik jihatlariga alohida e'tibor beriladi.

**Tayanch so'zlar:** *gender yondashuvi, mexanizm, an'analar, ijtimoiy faollik, psixologik-pedagogik moslashuv, ijtimoiy xususiyatlar.*

## PEDAGOGICAL ASPECTS OF SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS-GIRLS ON THE BASIS OF GENDER APPROACH

*Kurbonova Guzal Mamatkarimovna, PhD, assistant professor of TSPU*

**Abstract.** The article explores the contemporary necessity of fostering the social engagement of young individuals within society. Specifically, it delves into the psychopedagogical dimensions of social activity among female students, employing a gender perspective.

**Key words:** *gender perspective, mechanism, traditions, social activity, psychopedagogical adaptation, and social characteristics.*

**Введение.** В современном обществе наблюдается значительный рост уровня правовой культуры среди населения. В рамках инициативы по устранению архаичных практик и формированию полноценного статуса женщин как активных строителей нового гражданского общества, основанного на демократических принципах, мы опираемся на богатство духовного наследия всего человечества.

**Основная часть.** Одним из значимых достижений в области педагогической науки является возможность обучения и воспитания на основе гендерного равенства и особенностей. Это явление приобретает особое значение в контексте гуманизации образования. Регулирование социальных и учебных взаимоотношений между девочками и мальчиками приобретает высокое педагогическое значение, поскольку именно через учебный процесс формируются социальные взаимоотношения между мужчинами и женщинами в обществе в долгосрочной перспективе. В конце прошлого века в нашей стране стали звучать идеи о важности учета гендерных различий и идентичности в сфере образования. Следует отметить, что гендерный подход вытекает из феминистской теории, ставшей своеобразным продолжением этих обсуждений.

Термин «гендер» был введен в научную лексику американским психологом

Столлером в 1968 году и означает «социально-культурные и психологические характеристики, связанные с мужским и женским полом» [1].

На конференции ЮНЕСКО, проведенной 9 октября 1998 года, было признано, что глобальной целью системы высшего образования является строительство общества, свободного от насилия и дискриминации [2]. Для достижения данной цели была выделена важность пересмотра учебных программ с использованием новых педагогических технологий и современных методов.

Материалы специальной сессии Генеральной Ассамблеи ООН по теме «Женщины – 2000: гендерное равенство, прогресс и мир» [3], а также исследования, проведенные при участии Всемирного банка, подчеркивают прямую связь между экономическим развитием и гендерным равенством. Растущий интерес к этой проблеме в странах Европы, особенно, в Германии, свидетельствует о значимости данного вопроса для общественного развития.

В настоящее время учет гендерных особенностей в учебно-познавательном процессе все более признается как естественное педагогическое явление. Несмотря на то, что половые отношения активно изучались психологией и ранее, введение нового термина «гендер» в социальную науку спровоцировало появление ряда новых научных направлений: «История гендера», «Гендерная психология», «Гендерные аспекты философии», «Гендерная антропология», «Гендерная социология», а позднее и «Гендерная педагогика».

Понятие «гендер», в первую очередь, охватывает социально-психологические и педагогические аспекты взаимоотношений между мужчинами и женщинами, а также между мальчиками и девочками. Основные различия между полами проявляются на социальном уровне, в общественном облике мужчин и женщин. Эти различия формируются в обществе через социальные институты, нормы и культурные установки, привлекая особое внимание к социальным аспектам гендерных различий.

Гендерная дифференциация играет ключевую роль в развитии гуманной системы общества и образования в социально-педагогическом контексте. Гендерная педагогика не ограничивается просто описанием специфических особенностей обучения и воспитания мальчиков и девочек. Ее основу составляет формирование навыков и умений на основе осознанной гендерной дифференциации. В результате коренных реформ, охватывающих все аспекты нашего общества, республика занимает заслуженное место среди развитых стран мира в экономической, социальной, политической, культурной и образовательной сферах. Эти изменения последовательно внедряются и в систему образования и воспитания.

В настоящий период значительных изменений в социально-экономической, духовной и интеллектуальной жизни Узбекистана, организация учебного процесса на основе гендерного равенства и особенностей должна стать интегральной частью педагогического процесса и научных исследований.

**Вывод.** В современной системе высшего образования наблюдается динамика социально-политического участия женщин в обществе, активная вовлеченность женского пола в научный потенциал, изменения в уровне занятости женщин на рынке труда, а также эволюция ценностного отношения к семейно-брачным отношениям, описываемая с учетом теории исторических периодов.

#### Литература:

1. Бобоева З., Усмонова З. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси. - Т.: Ўзбекистон, 2003, - 276 б.
2. Шабурова О.В. Гендер // Современный философский словарь. - М.: Панпринт, 1998. - С. 180-183.
3. Бок Г. История, история женщин, история полов // THESIS: Женщина, семья. - М., 1994. - № 6. - С. 170-200.

---

**ZAMONAVIY YOSHLARDA QADRIYATLARNING NAMOYON BO'LISHI:  
IYERARXIYA VA O'ZGARUVCHANLIK**

*Djumaeva Sanobar Absaatovna, TDPU dotsenti, PhD*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy yoshlar ongida qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarning shakllanish mezonlari muhokama etiladi. Bunda iyerarxiya hamda o'zgaruvchanlik, islohotlarga bo'lgan aksiologik munosabatlar, ijtimoiy subyektlarning voqelikka munosabati kabilarga urg'u beriladi.

**Tayanch so'zlar:** *iyerarxiya, qadriyat, sotsiologiya, o'zgaruvchanlik, munosabat, metod.*

**ВЫРАЖЕНИЕ ЦЕННОСТЕЙ У СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ:  
ИЕРАРХИЯ И ИЗМЕНЧИВОСТЬ**

*Джумаева Санобар Абсаатовна, доцент ТГПУ, PhD*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены критерии формирования отношения к ценностям в сознании современной молодежи. Акцент сделан на иерархии и изменчивости, аксиологическом отношении к реформам, отношении социальных субъектов к действительности.

**Ключевые слова:** *иерархия, ценность, социология, вариативность, установка, метод.*

**THE EXPRESSION OF VALUES IN MODERN YOUTH: HIERARCHY AND  
VARIABILITY**

**Annotatsiya.** Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining kreativ salohiyatini oshirish, kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o'quv reja, dastur va adabiyotlarini yaratish tizimini yanada takomillashtirishning xuquqiy me'yoriy asoslari yaratish orqali amalga oshiriladi.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, talaba, kreativ, xuquq, adabiyot, pedagogik muammolar, o'qituvchi, texnologiya, qobiliyat, maqsad.

## ПОВЫШЕНИЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

*Кадирова Халима Бувабеевна, доцент ТГПУ*

**Аннотация.** В высших учебных заведениях повышение творческого потенциала студентов реализуется путем создания правовых и нормативных основ, развития профессиональных и творческих способностей, формирования навыков самостоятельного мышления, дальнейшего совершенствования системы создания учебных планов, программ и литературы.

**Ключевые слова:** образование, студент, творчество, право, литература, педагогические проблемы, преподаватель, технология, способности, цель.

## INCREASE THE CREATIVE POTENTIAL OF STUDENTS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

*Kadirova Khalima Buvabaevna, associate professor of TSPU*

**Abstract.** In higher education institutions, it is implemented by creating legal and regulatory frameworks for increasing the creative potential of students, developing professional and creative abilities, developing independent thinking skills, and further improving the system for creating curricula, programs and literature.

**Key words:** education, student, creativity, law, literature, pedagogical problems, teacher, technology, abilities, goal.

**Kirish.** Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning kreativ mexanizmlari ta'lim jarayoniga tadbiiq etishga, aniq yo'nalishdagi kasbiy ma'lumotlarni o'rgatishga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini modellashtirish, elektron axborot ta'limi resurslarini yaratish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, oliy ta'lim muassasalarida talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini mediatexnologiyalar asosida tashkil etish, kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirish, har bir sohaning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash maqsadida talabalar uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish lozim.

**Asosiy qism.** Hozirgi kunda talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda talabalarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlar va o'qitishning yangicha shakli noan'anaviy metodlar orqali ularni bilish jarayonini faollashtirish tufayli ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini mazmunan modernizatsiyalash,

ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga xizmat qiladigan choralarni izlab topishni taqozo qiladi. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarida talabalarining kreativ salohiyatini oshirish, kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o'quv reja, dastur va adabiyotlarini yaratish tizimini yanada takomillashtirishning xuquqiy me'yoriy asoslari yaratish orqali, ta'lim tizimining moddiy texnik bazasi ya'nada rivojlantiriladi. «Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish» kabi vazifalar belgilangan [1]. Bunda talabalarda kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda kognitiv-informatsion, shaxsiy, madaniyat, kompetensiyaviy paradigmalardan foydalanish, o'qitish sifati diagnostikasini amalga oshirish, tanqidiy fikrlash va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish, zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta'lim va ishlab chiqarishdagi sinergetik integratsiyani amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik muammolari, talabalarda kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonining tizimli tahlili, ta'lim jarayonida talabalarda kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonining ziddiyatlari va amaliyotdagi mavjud holati masalalari bilan ta'kidlab o'tilgan.

Talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda turli olimlar tomonidan e'tirof etilgan kasbiy kompetensiya muammolari to'g'risidagi ilmiy maqolalarida ijodiy izlanishning eng asosiy sifatlaridan biri ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Kasbiy pedagogik ijodkorlik mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari R.G.Isyanov, N.A.Muslimov, D.N.Mamatov, O.Magdiev, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Abduraimov tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan bo'lsa, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini takomillashtirishning nazariy va metodik asoslari U.I.Inoyatov, Q.T.Olimov tomonidan tadqiq etilgan. V.I.Samoxvalovning ta'kidlashicha, ijodkor shaxs o'zini namoyon qilishi uchun qudratli kuchga ega bo'lgan odamdir, ammo: birigchidan, bu energiya yangilik yaratish uchun safarbar qiladi: ikkinchidan, ruhiyatda yuzaga kelgan vulqonni jilovlay oladi [2, 583-b.]. Ijodkor odam ijod qilishga chanqoq bo'ladi. Uni amalga oshirish uchun qat'iyat bilan ishlashni ham biladi.

Biz hozirgi vaqtdagi oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchini kasbga tayyorlash sohasidagi o'zgarishlarning zarurati to'g'risida fikr yuritamiz. Mazkur tayyorlovdagi asosiy masalalardan biri bo'lajak o'qituvchining pedagogik madaniyati, uning pedagogik texnologiyalarni qay darajada egallaganligi darajasi to'g'risidagi masalalar bo'lib, ularni hal etishda kasbiy-pedagogik qobiliyatlari, bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijodiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga bog'liqdir. Mutaxassisning kasbiy-pedagogik ijodkorligi shaxsning murakkab tuzilmasi bo'lib uning faoliyatini aniqlab beradi va uning kasbiy bilimlari, mahorati, kasbiy ijodiy yondashuvi, shaxsning ijtimoiy yo'naltirilganligi, kasbiy vazifalari samarasiga yechim topishni ta'minlovchi majmuadir. Bu mazmun-mohiyatiga ko'ra, mutaxassisning kasbiy-pedagogik ijodkorligi quyidagi bilimlardan iborat, funksional-turli fan sohaslarini tashkil etish tizimlari haqidagi bilimlar, harakat haqidagi amaliy bilimlar-metodik va texnologik hamda shaxsning o'z bilimlaridan iborat. Bularning natijasida mutaxassisning kasbiy, kommunikativlik mahorati va ko'nikmalari shakllanadi.

Oliy ta'lim muassasasi talabasining kasbiy ijodiy qobiliyatlari deganda, kasbiy ijodiy faoliyatning muayyan ko'rinishi talablariga ularning mosligi darajasini tavsiflovchi va uning samaradorligi darajasiga bog'liq bo'lgan, dolzarb nazariy ishlanmalarni hamda innovatsion amaliy yechimlarni maqsadga muvofiq va izchil o'zlashtirishga imkon beradigan, pedagogik faoliyatning tanlangan sohasida o'zining noan'anaviy yo'nalishini izlashga undaydigan shaxs sifatlari va xususiyatlarining majmui tushuniladi Oliy ta'lim muassasasi talabasining kasbiy ijodiy qobiliyatlari bu ularning ijodiy qobiliyatlari, ilmiy faoliyati, tashkiliy qobiliyati, didaktik

qobiliyati, tadqiqotchilik qobiliyatlari bilan ham namoyon bo'ladi. Kasbiy ijodiy qobiliyatlarning tarkibiy qismlari (komponentlari) faoliyatning ixtiyoriy ko'rinishi motivatsiya bilan bog'liq hisoblanadi. Shaxsning rivojlanish darajasiga ko'ra, kasbiy ijodiy qobiliyatning rivojlanishi motivatsiyasiga ta'sir etuvchi omillarning uch guruh mavjud bo'lib, tashqi omillar, ya'ni o'qituvchi tomonidan qo'yilgan talablar, kasbiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ehtiyoji, qiziqishi, tashqi talablarning shaxs o'zgarishiga undovchi haqiqiy vaziyat bilan almashinishiga asoslanadi. Kasbiy ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi ularning namoyon bo'lishi belgilarining shunchaki miqdori o'sishini emas, balki ularning eski sifat holatidan yangisiga va shu orqali rivojlanishining bir darajasidan boshqasiga, o'tishini aks ettiradi. Kasbiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini tashkil etish vositalari talabalar va o'qituvchilar faoliyatlarining barcha komponentlari bilan aloqadordir. Ammo ular qo'yilgan maqsad bilan, ifodalayotgan jarayonni tashkil etish metodlari va shakllariga bog'liq shaxsning rivojlanishiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, mazkur vositalar faoliyatning boshqa komponentlari bilan aloqasi kasbiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladi va uning rivojlanishi bilan o'zgarib boradi. Shaxs qobiliyatlarning muayyan darajasi uchun dolzarb hisoblangan vazifalarni hal etish bilan bog'liq bo'lgan o'rta muddatli maqsadlarni belgilash kasbiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonining optimalligini ta'minlovchi vositalar majmuini aniqlashtirishga ham, o'z navbatida, imkon beradi. O'qituvchi tomonidan ham va o'z-o'zini takomillashtiruvchi, o'z-o'zini rivojlantiruvchi talaba tomonidan ham belgilanadigan joriy maqsadlar vositalar to'plamidan eng samaralisini ajratish va ularni kasbiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish jarayonida qo'llash imkonini beradi.

Pedagog uchun eng asosiy kasbiy-meyoriy ko'rsatkich – bu o'z holatini pedagogik jarayonda bunyodkor sifatida his etishi va anglab yetishidir. Pedagog o'zining ish faoliyatiga xususiy kasbiy yaroqliligini, pedagogik voqelikdagi o'z o'rmini baholay olmas ekan, undan hech qachon ijodkorlikni talab qilib bo'lmaydi. Pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan har bir talaba unga moslashuvchanligini, shu kasbga layoqati, qiziqishining borligini to'liq his etishi lozim. Talabalar kasbiy faoliyatini rivojlantirish uchun, avvalo, reja tuzish va shu rejani tahlil qilish, dars mashg'ulotlarini o'tkazishda talabalarning kasbiy ijodiy qobiliyatlari qay darajada ekanliklarini qanday kasbiy bilimlarga ega ekanlik holatini ham aniqlashi zarurdir. Aniqlashtiruvchi bosqichda davomida ilgari surilgan g'oyalarni talabalarning amaldagi faoliyatiga ta'siri o'rganiladiva shu bilan birga tahlil qilinadi. Kasbiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha ilgari surilayotgan g'oyalarga tushunmaslik holatlari aniqlanadi va uni bartaraf etuvchi vositalar hamda ishlanmalar yaratish rejalashtiriladi. Demak, biz aniqlashtiruvchi bosqichdan kegin shakllantiruvchi bosqichni ham amalga oshirishimiz kerak. Shakllantiruvchi bosqichida kasbiy fanlar o'quv jarayonini takomillashtirish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish va ularni tahlil qilish, talabalarning auditoriyadan tashqari ishlari asosida kasbiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish usul va vositalarini ishlab chiqish va ushbu vazifalarni amalga oshirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat tashkil etadi. Har ikkala bosqichda ham oliy ta'lim muassasasi talabasining kasbiy ijodiy qobiliyatlarini aniqlashdagi baholash darajalariga e'tibor qaratildi. Bu baholash darajalarida muhim kompenetlar va kasbiy ijodiy komponentlar tuzilmasidagi bloklar orqali beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi lozim bo'lgan darajalarga ajratilgan holda amalga oshirildi [2]. Talabalarning kasbiy ijodiy faoliyatning dolzarb nazariy ishlanmalarini hamda innovatsion amaliy yechimlarini maqsadga muvofiq va izchil o'zlashtirishga imkon beradigan, pedagogik faoliyatning tanlangan sohasida o'zining noan'anaviy yo'nalishini izlashga undaydigan shaxs sifatleri va xususiyatlarining namoyon bulishi xam hisobga olinadi.

Kasbga oid axborot bilan ishlash ko'nikmalarni hosil qilish uchun reproduktiv darajadagi topshiriqlarni bajarish talab etiladi – ta'lim oluvchilarni birlashtirish, ularni mashg'ul qilish, majburiyatlarni taqsimlash, ishni rejalashtirish, amalga oshirilganlarga

yakun yasash; o'quv materialini, ko'rgazmali materiallar, jihozlarni tanlash va tayyorlash, o'quv materialini tushunarli, aniq, ifodalil, ishonchli va izchil bayon etish, bilishga oid qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlarning rivojlanishini rag'batlantirish, o'quv-bilishga oid faollikni oshirish; ta'lim oluvchilarning ma'naviy olamlariga kirib borish, ularning emotsional holatlarini obyektiv baholash, psixikalarining xususiyatlarini aniqlash hakidagi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; kasbiy muloqotni amalga oshira olishga qaratilgan topshiriqlar tuplamidan iborat bo'lgan produktiv darajaga mansub vazifalarni barajarish talab etiladi; ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblar, ta'lim muassasasi rahbarlari bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlarni o'rnatish; ta'lim oluvchilarga emotsional-irodaviy ta'sir etish; pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni bilish va obyektiv baholash haqidagi bilim, ko'nikma va malakalar; kasbiy-pedagogik faoliyatga oid muammoli vaziyatlarni hal qila bilishga oid ijodiy yondashuvni talab qiladigan kreativ darajadagi topshiriqlar tizimidan iborat; tanlangan sohadagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish; kasbiy faoliyat mohiyatini o'zlashtirish sohasida yuzaga kelgan muammoning o'z noan'anaviy yechimini ko'ra, olish haqidagi bilim, ko'nikma va malakalaridan tashkil topadi. Talabalarning kasbiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini tashkil etish shakllariga auditoriya ish shakllarini (o'quv mashg'ulotlari – ma'ruzalar, seminarlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari) hamda auditoriyadan tashqari shakllarini – suhbatlar, ekskursiyalar, to'garaklardagi mashg'ulotlar, badiiy ijod, mehnatning turli ko'rinishlari va boshqalarni kiritamiz. Bir shaklning o'zi turli vositalar bilan birgalikda qo'llanilishi va bir vositaning o'zi turli tarbiya shakllarida foydalanilishi mumkin.

**Xulosa.** Ilmiy bilimning alohida sohasi bazasida (vosita) tadbirlarning turli shakllarini tashkil etish mumkin (ko'rgazma, tanlov, to'garak va h.k.). Ifodalangan jarayonni tashkil etishning sanab o'tilgan shakllarini vositalar bilan umumlashtirishning to'g'ri tanlovi kasbiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini optimal boshqarishni ta'minlaydi. Shu o'rinda, oliy ta'lim muassasalari hozirgi XXI asr o'rta-maxsus kasb-hunar maktablarida ishlashlari, yosh avlodni hayot va mehnatga samarali tayyorlashga ko'maklashuvchi yangi ta'lim-tarbiya texnologiyalarini amaliy yaratishlari kerak bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlashlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda kasbiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik sharoitlari oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarining mazkur yo'nalishdagi olib boradigan kasbiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning muvaffaqiyatiga ko'maklashadigan harakatlantiruvchi kuchlarining ta'sirini optimal tashkil etishning zaruriy shartidir. Demak, oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish faoliyatini egallashga qaratilgan maqsadi hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони.

2. Kadirova Y. Loving the country is faithful // Science and innovation. - 2022. - T. 1. - № B4. - С. 420-423.

---

## TEKNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA KOMPETENTLIKNI SHAKLLANISHINING ASOSIY JIHLTLARI

*Kadirova Yakitjan Buvabayevna, TDPU dotsent v.b., p.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya.** O'quv jarayonlarida fanlararo integratsiya sharoitida o'quvchilarda o'rganilayotgan obyekt haqidagi yaxlit tasavvur hosil bo'ladi. Bunda asosan bilishning umumilmiy usullaridan foydalaniladi.

**Tayanch so'zlari:** integratsiya, o'quv jarayon, fan, sharoit, o'quvchi, obyekt, tasavvur, bilish, texnologiya, ta'lim, integrativ.

## ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Кадирова Якитжан Бувабаевна, и.о.доцента ТГПУ, д.ф.п.н. (PhD)*

**Аннотация.** В условиях междисциплинарной интеграции в образовательные процессы у учащихся формируется целостный образ изучаемого объекта. В основном используются общие методы познания.

**Ключевые слова:** интеграция, процесс обучения, наука, установка, обучаемый, объект, воображение, познание, технология, образование, интегративный.

## THE MAIN ASPECTS OF THE FORMATION OF PUPILS' COMPETENCE IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION

*Kadirova Yakitjan Buvabaevna, (PhD) pedagogical sciences, acting associate professor of TSPU*

**Abstract.** In the context of interdisciplinary integration into educational processes, pupils form a holistic image of the object being studied. Basically, general methods of cognition are used.

**Key words:** integration, learning process, science, installation, learner, object, imagination, cognition, technology, education, integrative.

**Kirish.** Hechkinga sir emaski, bugungi kunda ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishga alohida e'tibor qartilmoqda. Bu esa, o'z o'rnida texnologik jarayonni amaliy faoliyatga yo'naltirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

**Asosiy qism.** Ta'limda amaliy-texnologik yo'nalishning zarurligi, o'quv predmetining mantiqiyiligi o'quv fanlarining o'ziga xosbo'lgan jihatlarga egaligidan kelib chiqadi. Ta'lim-dagi integrativ yondashuv uning mazmunidagi bir qator integratsiyalashtiruvchi birliklar yordamida to'ldirish va takomillashtirish ehtiyoji mavjudligini anglatadi. Shu jumladan, o'quv fanlari orasidagi integratsiya o'zining muayyan maqsadlariga ega bo'lib, umumlash-malarni uyg'unlashtirish, o'quv fanlari orasidagi tarkibiy qismlarni birlashtirish, faoliyat usullarini ajratish, ularni turli xil fan sohalariga o'tkazishni ham nazarda tutadi. Integrativ yondashuvning metodologik strategiyalari ta'lim-tarbiya muammolarini hal qilishning yagona hamda turli tuman ko'rsatkichlarini nazariy asoslarini tizimlashtirishga qaratilgan. O'quv jarayonlarida fanlararo integratsiya sharoitida o'quvchilarda o'rganilayotgan obyekt haqidagi yaxlit tasavvur hosil bo'ladi. Bunda, asosan, bilishning umumilmiy usullaridan foydalaniladi. Ayni bir vaqtning o'zida bir qator psixologik operatsiyalar: tahlil, umumlash-tirish, uyg'unlashtirish, abstraksiyalash, tasniflash, qiyoslash, induksiya, deduksiya, modellash, o'xshatish

kabilar amalga oshiriladi. Bunday aqliy operatsiyalar integratsiyaning asosini tashkil qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quv fanlararo integratsiya ikki va undan ortiq o'quv fanlari mazmunini uyg'unlashtirishga asoslanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, integratsiyaning yana bir ko'rinishi ta'lim darajasi bilan bog'liq holda o'quv jarayonining amaliy-texnologik jihatlarini rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Bu esa, integratsiya ta'limning yangi natijalarini oydinlashtirib, muammolarni mustaqil yechish jarayonida tajribalarni o'zlashtirishda integratsiyalashgan faoliyat ko'rinishida o'z ifodasini topadi. Demak, hozirgi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish bir qator muammolarga e'tibor qaratishni ham taqozo etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv uchun asos bo'ladigan tayanch tushunchalarni oydinlashtirish, bunda pedagog olimlarning zamonaviy yondashuvlariga tayanish, «kompetensiya» va «kompetentlik» atamalarining o'zaro munosabatini didaktik jihatdan tavsiflash, kompetentlikning kompetensiyalar majmuidan tashkil topishini integrativ nuqtai nazardan asoslash, kompetensiya kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida o'quvchilarning ijtimoiy, o'quv hamda mehnat faolligini ta'minlashga xizmat qilishi pedagogik jihatdan ochib berilishi lozim. Kompetentlikning o'ziga xos jihati shundan iboratki, uning inson faoliyati bilan bog'liqligida o'z ifodasini topadi. U insonning muayyan sohadagi faoliyati mahsuldorligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham texnologiya darslarida o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllanish jarayoni jadal kechadi. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish uchun u bilan bog'liq umumiy talablarga rioya qilish lozim albatta. Kompetensiya insonning muayyan faoliyatni amalga oshirishi uchun asos bo'ladi. Kompetensiyalar, ularning komponentlari tarkibiy tuzilishi orqali aniqlanadi. Kompetensiyalar tarkibiga bilimlar, mazkur bilimlarni qo'llash metodologiyasi hamda ushbu metodologiyani egallashning amaliy ko'nikmalar kiradi. Kompetentlikning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish uning muntazam rivojlanuvchi faoliyatli tavsifi sifatida faoliyatga xos bo'lgan jihatlariga ko'ra farqlashni talab qiladi. Insonning mehnat ko'nikmalari motivli-qadriyatli, bilishga asoslangan kognitiv, faoliyatli, refleksiv qismlardan iborat.

Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarda kompetentlikning shakllanishi va rivojlanishi maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni taqozo qiladi. Bunda pedagogik tizimning aniqlovchi tarkibiy qismlari o'z ifodasini topadi. Ushbu shart-sharoitlar texnologiya ta'limi mazmunini integrativ yondashuv asosida chuqurlashtirish, kengaytirish va boyitish imkonini beradi. Hozirgi kunda o'quvchilarni o'quv faoliyatga undovchi o'zaro muvofiq keladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash talab qilinmoqda. Mazkur texnologiyalar texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning subyektiv munosabatlarga kirishish imkoniyatini yaratishi kerak. B'azi bir mutaxassislar o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ularning ta'lim jarayonidagi faoliyatiga tayanish lozimligini ta'kidlaydilar. Ular ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan bosqichlarni ajratib ko'rsatganlar. Bunda o'quvchilarning motivli-qadriyatli, tezkor faoliyatli, tahliliy-baholovchi sohalariga e'tibor qaratish lozimligini tavsiya qiladilar. Shuning uchun ham integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda ularning ko'pfaoliyatlikni tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratish talab qilinmoqda. O'quvchilarda ko'pfaoliyatlikni shakllantirishda esa, texnologiya ta'limi, sinfdan tashqari pedagogik jarayonlar, turli to'garaklardagi o'quv-tarbiya faoliyati muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini tashxislash murakkab pedagogik xodisa hisoblansada, bu jarayonda bir qator ziddiyatlar mavjud. Bu, ayniqsa, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va texnologiya ta'limi jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat o'quv jarayonida, balki mustaqil bilim olish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun ham o'quvchilarning kompetentlik darajalarini tashxislashda uning tarkibiy qismlarini rivojlantirish dinamikasini

ham hisobga olish lozim. Integral ko'rsatkichlarni aniqlashda validlik psixometrik apparatga e'tibor qaratiladi.

Pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv taraqqiyotining hozirgi bosqichida kompetentlikning shakllanishini emas, balki uning jadal rivojlanishini tahlil qilishga e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham kompetensiyaviy yondashuv turli yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan ta'dqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bir qator mutaxassislar kompetensiyalarning integratsiyasi va ta'lim jarayonida ularning amalga oshirilishi haqida o'z qarashlarini bayon qilganlar. Jumladan, O.A.Valixonovanning [1, 183-b.] matematik kompetensiya, L.A.Petrovskiyning [2, 387-b.] muloqot kompetensiyasi, A.R.Kamaleevaning [3, 54-b.] tabiiy-ilmiy kompetensiyalar ustida amalga oshirgan ta'dqiqot ishlari o'quvchilarda integratsiyalashgan kompetensiyalarni shakllantirish muammosiga bag'ishlangan. L.S.Petrova [4, 320-b.] matematik subkompetensiyalarni ajratib ularning axborotli-texnologik, tarkibli-modelli, hisoblash-eksperimental jihatdan integratsiyalashganligini asoslagan. Ushbu kompetensiyalar mantiqiy jihatdan umummadaniy hamda kasbiy kompetensiyalar tarkibidan ajratib olingan bo'lib, o'quvchilarning tasavvurlarida uyg'unlashadi. Shu asosda integratsiyalashgan kompetensiyalarning muayyan modeli hosil bo'ladi. Ye.A.Kagakina ning [5, 264-b.] ta'dqiqotlarida umummadaniy hamda kasbga oid kompetensiyalarning integratsiyasi ochib berilgan. Ta'dqiqot muallifi muayyan o'quv predmetini o'rganish jarayonida umummadaniy hamda fanga oid kompetensiyalarning uyg'unlashuvini nazariy jihatdan asoslab bergan. Bu o'rinda ikkita muhim holatni inobatga olish lozim. Birinchidan, har qanday kompetensiya insonning shaxsiy tavsifini ifodalaydi. Kompetensiyalar insonning shaxsiy tavsifi sifatida muayyan o'quv predmetini o'zlashtirishga oid faoliyat jarayonida shakllanadi. Jumladan, texnologiya ta'limi jarayonida, ona tilini o'rganish asosida matematik bilimlarni egallashda. Bu uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, insonning shaxsiy sifatleri o'zgarishiga asos bo'ladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni to'liq shakllantirish uchun ayni bir o'quv predmetining imkoniyatlari yetarli emas. Buning uchun o'quv fanlarining ayrim mavzularini integratsiyalash lozim. Kompetensiyalar o'quv jarayonida fanlararo aloqadorlik va darajali integratsiya asosida shakllantiriladi. Ikkinchidan, har bir o'quv fanining mazmuni tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun muayyan asos yaratib, yaxlit tarzda tayanch kompetensiyalar klasterini vujudga keltiradi. Shu asosda tayanch kompetensiyalar orasida uzviylik va uzluksizlik tarkib topadi.

**Xulosa.** Ko'rsatib o'tilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish natijasida o'quvchilarni ijtimoiy hayot va istiqboldagi mehnat faoliyatiga jadal tayyorlash amalga oshirilib, u shaxsning har qanday faoliyat sohasida muvaffaqiyat qozonishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida alohida o'rinni egallab kelmoqda. Albatta, tayanch kompetensiyalar yordamida o'quvchilar o'zlari mansub bo'lgan jamiyatdagi odob me'yorlari, madaniyatga oid bilimlar va qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy bilimlarni o'zlashtiradilar. Ular o'zlari uchun ahamiyatli bo'lgan insonlar, ya'ni o'qituvchilari, ota-onalari, tengdoshlari bilan muloqot jarayonida muayyan qadriyatlar va madaniy-ma'rifiy yondashuvlarni egallaydilar. Ijtimoiylashish, bir tomondan qaraganda, murakkab jarayon emas, u shaxsning faoliyat sohasi, uning xarakteri, o'ziga xosligini aks ettiradi. Shaxsning faoliyati va o'ziga xosligi uning ijtimoiy funksiyalari, tayanch kompetensiyalarini ifodalaydi. Tayanch kompetensiyalarga ega bo'lgan shaxs jamiyat hayotida faol ishtirok etadi, uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok eta olishi unda shakllangan kompetensiyalarga bevosita bog'liq hisoblanadi. Tayanch kompeten-

siyalar yordamida inson madaniy va moddiy boyliklarning mohiyatini anglaydi, uni o'zlashtiradi, shaxslararo muloqotga kirishadi, o'zining fuqarolik pozitsiyasini namoyon eta oladi yana shu bilan bir qatorda, fan-texnika yutuqlarini o'zlashtiradi va ulardan o'z o'rmi da foydalana oladilar.

Demak, jamiyat va inson faoliyatining barcha jihatlarini eng yangi axborotlar bilan ta'minlash asosida o'quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish umumiy o'rta ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash bilan bir qatorda eng zarur mehnat ko'nikmalari va kasbiy bilimlarni ham shakllantirishni nazarda tutadi, albatta, buning uchun o'quvchilarga maxsus ixtisoslashtirilgan dasturlar asosida integratsiyalashtirilgan bilimlarni taqdim etish orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Barchamizga ma'lumki, kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilardan zarur bilimlarni mustaqil, o'zaro aloqadorlikda o'rganishni ham taqozo etadi. Ta'lim chuqurlashtirib o'qitiladigan umumta'lim maktablar va sinflarida o'quvchilarda zarur kompetensiyalarni hosil qilish uchun qo'shimcha bilimlar bilan boyitilgan o'quv materiallari taqdim etiladi. Bu esa, o'quvchilarda integratsiyalashgan bilimlar yordamida qo'shimcha kompetensiyalarni hosil qilish imkonini ham beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Валихонова О.А. Формирование информационно-математической компетентности студентов инженерных вузов в обучении математике с использованием комплекса прикладных задач: Дис. ... канд. пед. наук. - Красноярск, 2008. - 183 с.
2. Петровская Л.А. Общение - компетентность - тренинг // Избранные труды. - М.: Смысл, 2007. - 387 с.
3. Камалева А.Р. Механизм формирования основных естественнонаучных компетенций студентов-гуманитариев // Вестник Челябинского ГПУ. - Ч., 2009. - С. 54-70.
4. Петрова Л.С. Методика обучения уравнениям математической физики будущих бакалавров-теплоэнергетиков, способствующая формированию математических субкомпетенций: Дис. ... канд. пед. наук. - Омск, 2013. - 264 с.
5. Кагакина Е.А. Интеграция общекультурных и профессиональных компетенций как фактор подготовки будущих специалистов в условиях модернизации университетского образования: Дис. ... д-ра пед. наук. - Кемерово, 2015. - 579 с.

---

## YANGI O'ZBEKISTON FENOMENINI YARATISHDA YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASINING O'RNI

*Jalilov Nodirjon Azamatovich, TDPU o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada prezidentimiz farmonlarida belgilab berilgan maqsad, vazifalar va Yangi O'zbekiston fenomenini yaratishda yosh avlod ta'lim-tarbiyasining o'rni va ahamiyati hamda yosh avlod tafakkurini shakllantirish, ularning dunyoqarashini tarbiyalash ularning o'zi va dunyoga munosabatini takomillashtirib borish bo'yicha kerakli ma'lumotlar mavjud.

**Tayanch so'zlar:** *Yangi O'zbekiston, Yangi O'zbekiston fenomeni, aql-zakovat, tafakkur, ilm-fan, ilmiy-tadqiqot, texnologiya, modernizatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, moddiy-texnik, ilmiy-innovatsion.*

## РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В СОЗДАНИИ ФЕНОМЕНА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

*Жалилов Нодиржон Азаматович, преподаватель ТГПУ, доктор философии по педагогическим наукам(PhD)*

**Аннотация.** Данная статья содержит необходимую информацию о целях, задачах, определенных указами президента, роли и значении образования и воспитания подрастающего поколения в создании нового узбекского феномена, формировании мышления подрастающего поколения, формировании его мировоззрения, совершенствовании их отношения к миру.

**Ключевые слова:** *Новый Узбекистан, феномен Нового Узбекистана, интеллект, мышление, наука, исследования, технологии, модернизация, социально-экономический, духовно-образовательный, материально-технический, научно-инновационный.*

## THE ROLE OF EDUCATION OF THE YOUNGER GENERATION IN THE CREATION OF THE PHENOMENON OF THE NEW UZBEKISTAN

*Jalilov Nodirjon Azamatovich, teacher of TSPU, doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD)*

**Abstract.** This article contains the goals, objectives and the role and importance of the education of the younger generation and the formation of the thinking of the younger generation, the upbringing of their worldview, the necessary information on improving their attitude to and the world in creating the phenomenon of the New Uzbekistan.

**Key words:** *New Uzbekistan, New Uzbekistan phenomenon, intelligence, thinking, science, research, technology, modernization, socio-economic, spiritual and educational, material and technical, scientific and innovative.*

**Kirish.** Mamlakatimiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zamirida zamonaviy ko'nikmalar va o'z qat'iy pozitsiyasiga ega bo'lgan yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning «Yangi O'zbekiston strategiyasi» nomli asarida Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun ilg'or bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak [1, 237-b.], – degan fikrlari muhim ahamiyatga ega.

**Asosiy qism.** Insonning amaliy faoliyati, ilm-fanning rivojlanishiga bo'lgan extiyojni zaiflashtirmagan, aksincha, yana ham kuchaytirdi. Inson bu tafakkur orqali uz mohiyati, jamiyat, tabiat, tafakkur haqida tizimli bilimlar kunikmasini hosil qilish bilan cheklanmay,

ular asosida ilmiy tafakkur rivoji, amaliy faoliyati uchun muhim bo'lgan umumiy xulosalar chiqarishga ham intiladi. Oqibatda fan uchun yangi kashfiyotlar dunyo yuzini kuradi. Bu esa, fanning takrorlanmas yutug'idir. Yosh avlodning tafakkurini shakllantirish, ularning dunyoqarashini tarbiyalash, o'zi va dunyoga munosabati takomillashtirib borish bu kunning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Chunki yosh avlod ertangi kunimizning davomchisidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmonida qo'yidagi strategik maqsad va vazifalar belgilab berilgan [2]. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari: mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish; oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish; sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash [2].

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi: oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish; ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish; oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish; ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish; yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish; oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash; oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish; korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish; oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrda «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6097-son Farmonida Konsepsiya hamda uning maqsadli ko'rsatkichlari va indikatorlari, shu jumladan, quyidagilarni nazarda tutadi [3]: a) ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida: ilmiy tashkilotlarning ilmiy-innovatsion faoliyati samaradorligini baholashga yo'naltirilgan milliy reyting tizimini joriy etish; ilm-fanda o'zini o'zi boshqarish tizimini rivojlantirish orqali davlat va ilmiy tashkilotlar o'rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish hamda uning doirasida loyihalarni amalga oshirish; b) ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikat-siyalash borasida: 2025-yilga qadar ilm-fanga yo'naltiriladigan jami mablag'larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 6 baravarga, 2030-yilgacha esa, 10 baravarga oshirish; 2025-yilga qadar ilm-fanni umumiy moliyalashtirish hajmida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag'lar ulushini amaldagi 8 foizdan 20 foizga, 2030-yilgacha esa, 30 foizga yetkazish; innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy yetakchi investitsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda 2021-yilda 2 ta, 2025-yilda 10 ta venchur jamg'armalarini tashkil qilish; v) yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish borasida: ilmiy tashkilotlar tadqiqotchilarining o'rtacha yoshini 2025-yilga qadar 45 ga, 2030-yilgacha esa, 39 ga yetkazish; 2025-yilga qadar 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning umumiy sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning (fan nomzodi, falsafa va fan doktorlari) ulushini 2 baravarga, 2030-yilgacha esa, 3 baravarga oshirish; g) ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish borasida: 2025-yilga qadar ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sohasidagi texnologik

innovatsiyalarga xarajatlarning umumiy hajmida tashkilotning o'z kuchi bilan bajarilgan texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning ulushini 3,5 baravarga, 2030-yilgacha esa, 9 baravarga oshirish; 2021-yilda Yashnobod innovatsion texnoparkining rezidentlari sonini 60 taga yetkazish va shu asosda innovatsion mahsulotlar turi va hajmini oshirish, shuningdek, 720 dan ortiq yangi ish o'rinlarini yaratish; 7 ta zamonaviy laboratoriya majmualarini tashkil etish, ularni GLP va GMP jahon standartlariga mos uskunalardan jihozlash; d) ilm-fan taraqqiyotiga ko'maklashuvchi zamonaviy axborot muhitini shakllantirish borasida: milliy ilmiy portalni yaratish; olimlar, tashkilotlar, ilmiy-texnik axborot manbalari reytinglarini joriy etish [3].

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 6-yanvardagi Oliy majlisga murojat-nomasida Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim [5], – deya ta'kidlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmonida [4]: oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish; kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022-yilda oshirish; 2022-yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish; to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta'lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish; 2026-yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish; Davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan, ular tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'lga qo'yish kabi fazifalar belgilab berilgan [4].

**Xulosa.** Respublikamiz oliy ta'lim muassasalari oldida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishdek muhim maqsad va vazifalar belgilab berilgan. Hozirgi kunda jamiyatimiz hayotida ta'lim-tarbiya orqali inson fenomenini yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida ta'lim sahasini tubdan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlarni jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T., 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabridagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabridagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 6-yanvardagi Oliy majlisga murojaatnomasi.

---

## PEDAGOGIKA FANI VA AMALIYOTIDA IJODKORLIK MUAMMOSINING HOLATI

*Shodmonova Abera Shodiyevna, Fan va texnologiyalar  
universiteti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada pedagogik adabiyotlarda hamda ta'lim amaliyotida ijodkorlik muammosining o'rganilish holati yuzasidan tahlili olib borilgan. «Ijodkorlik», «ijodiy faoliyat», «ijodiy salohiyat», «ijodiy rivojlanish» tushunchalarini konkretlashtirish maqsadida Sharq va G'arb mutafakkirlarining ilmiy manbalariga murojaat qilinib, bugungi kun ta'lim jarayonida qo'llashda muvaffaqiyatli jihatlari ochib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** *pedagog, ta'lim amaliyoti, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, ijodiy salohiyat, ijodiy rivojlanish, ta'lim jarayoni.*

## СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ ТВОРЧЕСТВА В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКЕ И ПРАКТИКЕ

*Шодмонова Абера Шодиевна, старший преподаватель  
Университета науки и технологий*

**Аннотация.** В статье проанализировано состояние изученности проблемы творчества в педагогической литературе и образовательной практике. С целью конкретизации понятий «творчество», «творческая деятельность», «творческий потенциал», «творческое развитие» использованы научные источники мыслителей Востока и Запада, а также рассмотрены успешные аспекты их применения в современном образовательном процессе.

**Ключевые слова:** *педагог, образовательная практика, творчество, творческая деятельность, творческий потенциал, творческое развитие, образовательный процесс.*

## THE STATE OF THE PROBLEM OF CREATIVITY IN THE SCIENCE AND PRACTICE OF PEDAGOGY

*Shodmonova Abera Shodiyevna, senior teacher of University of science and  
technology*

**Abstract.** The article analyzes the state of study of the problem of creativity in pedagogical literature and educational practice. In order to concretize the concepts of «creativity», «creative activity», «creative potential», «creative development», the scientific sources of Eastern and Western thinkers have been referred to, and successful aspects of their application in today's educational process have been revealed.

**Key words:** *pedagogue, educational practice, creativity, creative activity, creative potential, creative development, educational process.*

**Kirish.** Ijodkorlikka qiziqish har bir zamonda va har bir sohada doim dolzarb bo'lib kelgan. O'qituvchilarga o'quvchilarning ijodiy rivojlantirish, ularning individual qiziqishlarini aniqlash, yosh xususiyatlarini inobatga olib differentsial yondashish zarur.

**Asosiy qism.** Olib borilayotgan tadqiqot mavzusi «Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish» kontekstida «ijodkorlik», «ijodiy faoliyat», «ijodiy salohiyat», «ijodiy rivojlanish» tushunchalarini konkretlashtirish maqsadida

pedagogikaga oid nazariy manbalarga murojaat qildik. Olimlar ushbu hodisaning turli tomonlarini ko'rib chiqmoqdalar. Ijodkorlik muammolarini o'rganishda ko'tarilishlar va pasayishlar mavjud, shuning uchun turli tarixiy davrlarda ijodning mohiyati, tabiati va kelib chiqishi masalasi noaniq ko'rib chiqilgan. O'quv jarayonida o'quvchilarning ijodiy rivojlanish imkoniyatlarini o'rganish ijodkorlikning falsafiy mohiyatini ko'rib chiqish va uning namoyon bo'lishini individual va shaxsiy darajada tahlil qilishni taqozo etdi.

Antik falsafada ijodkorlik inson ijodi (san'ati) orqali ilohiy yaratilish harakatining yakuniy borligi yoki namoyon bo'lishi sifatida ta'riflangan. Faylasuflar (Aristotel, Platon, Shopengauer va boshqalar) dunyoni badiiy sezgi jarayoni orqali anglashga intilib, qayta-qayta «ijodkorlik nazariyasi»ni yaratishga urindilar [1-2]. Qadimgi faylasuflarning asarlari inson nafaqat o'z atrofidagi dunyoni o'zgartiradi, balki o'zini yaratuvchisi hamdir, degan fikrni aniq tasdiqlaydi. Ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish haqida birinchi eslatmalardan biri Geraklitga tegishli bo'lib, u tezisni ilgari surgan: «Men o'zimni tekshiraman». Sokrat o'z shogirdlarini o'zlarini bilishga va shu bilan dunyoni ijodiy rivojlanishi uchun tushunishga undadi. Yuqori darajada rivojlangan o'z-o'zini hurmat qilish bilan birgalikda ichki dunyoga e'tibor M.Avreliy va Platonda uchraydi, ular «ruhni o'ziga qaratish» zarurati haqida yozganlar [3].

O'rta asr G'arb falsafasida ijodning «eng mukammal tabiat» [2] ruhidagi panteistik talqini ham, ateistik talqini ham mavjud bo'lib, unga ko'ra ijod «Xudoning irodasi» ilohiy iroda harakatidir [4]. O'rta asrlarning yangi narsalarni yaratishdagi g'ayrioddiy qobiliyatlari haqidagi g'oyalar insonning Xudo tomonidan tanlanganligining dalili, Xudo tomonidan dunyoni yaratishda ishtirok etishining bir shakli sifatida e'tirof etilgan. Piko dela Mirandolla «Insonning qadr-qimmatini to'g'risida» risolasida agar Xudo insonni o'ziga xos surat va o'xshashda yaratgan bo'lsa va Xudo yaratuvchi bo'lsa, har bir inson yaratuvchidir, degan fikrni ifodalaydi. Uyg'onish davrida ishlab chiqilgan bu konsepsiya inson va uning xatti-harakatlarini yuksak qadrlaydigan insonparvarlik tamoyilini tasdiqladi [3]. Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy o'quvchida ijodkorlikni tarbiyalash yaxlit ta'lim va shaxsiy o'sish uchun zarur ekanligiga qat'iy ishonadi. Farobiy fikricha, ijodkorlik nafaqat badiiy asarlar yaratish, balki yangilik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va o'zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Farobiy o'quvchilarni o'z tasavvurlarini o'rganishga va o'zgacha fikrlashga undaydigan muhit yaratish muhimligini ta'kidlaydi. Bu ochiq loyihalar uchun imkoniyatlar taqdim etish, qiziqishni rag'batlantirish va turli istiqbollarni nishonlashni o'z ichiga oladi. Farobiyning fikricha, har bir o'quvchining o'ziga xos iste'dodi va qiziqishlari bor, ularni turli ijodiy vositalar, xoh u tasviriy san'at, musiqa, yozish yoki STEM faoliyati orqali rivojlantirish kerak. Bundan tashqari, Farobiy ijodkorlikni tarbiyalashda o'qituvchilarning rolini e'tirof etadi. Pedagoglar o'quvchilarni ijodiy jarayonga yo'naltiruvchi, konstruktiv fikr bildirishlari, ularni tavakkal qilishga va o'z ehtirolari bilan shug'ullanishga undashlari kerak. Farobiy o'rganishga fanlararo yondashuvlarni qo'llab-quvvatlaydi, bunda o'quvchilar turli fanlardan bilimlarni birlashtirib, mazmunli va innovatsion loyihalar yaratishlari mumkin. Ibn Sino, shuningdek, Avitsenna nomi bilan ham tanilgan turli sohalar, jumladan, falsafa, tibbiyot va ilm-fanga katta hissa qo'shgan. Ibn Sino o'z-o'zini kashf etish va o'z-o'zini aks ettirishning o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida muhimligiga ishongan. U bilimga nafaqat tashqi manbalar orqali, balki introspeksiya va tanqidiy fikrlash orqali ham intilishni ta'kidlaydi. Ibn Sino kuchli aql va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish tarafdori bo'lib, u shaxsning o'z salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun zarur deb hisoblagan. Ibn Sino fikricha, o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish yo'li bilimga chanqoqlik va umrbod bilim olishga intilishdan boshlanadi. O'quvchilarni

taxminlarga shubha qilish, yangi tajribalarni izlash va mustaqil izlanishga jalb qilish kerak. Ibn Sino intellektual qiziquvchanlikni qadrlagan va inson o'z dunyosi va o'zi haqidagi tushunchalarini doimiy ravishda kengaytirishga intilishi kerak, deb hisoblagan. Bundan tashqari, Ibn Sino o'z-o'zini ijodiy rivojlantirishda muvozanatning muhimligini tan oldi. U aql, tana va ruhning o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, aqliy va ma'naviy qobiliyatlarni rivojlantirishni targ'ib qildi. O'quvchilar nafaqat bilim qobiliyatlarini rivojlantirishlari, balki rahm-shafqat, halollik, kamtarlik kabi fazilatlarini ham rivojlantirishlari kerak.

Abu Rayhon Beruniy turli sohalarga, jumladan, astronomiya, matematika, geografiya, antropologiya va tarixga katta hissa qo'shgan mutafakkir. Al-Beruniy bilimga intilishda empirik kuzatish va tanqidiy fikrlashning muhimligini, o'quvchilarning o'qishlarida faol ishtirok etishlari, taxminlarga shubha qilishlari va xulosalarini tasdiqlovchi dalillarni izlashlari zarurligini ta'kidlagan. Al-Beruniy ta'limga yaxlit yondashuv tarafdori bo'lib, u o'quvchilarni turli mavzular va istiqbollarni o'rganishga undash, fanlararo ta'lim orqali ijodkorlikni rivojlantirish, ilm-fanda yangilik va o'ziga xoslikni qadrlagan. U ijodkorlikning inson tushunchasi chegaralarini kengaytirish va ilmiy izlanishlarni rivojlantirishda muhimligini tan oldi. Al-Beruniyning o'zi o'z ijodida ijodkorlik ko'rsatdi, o'lchashning yangi usullarini ishlab chiqdi, tajribalar o'tkazdi, yangi nazariyalarni taklif qildi. Al-Beruniy fikricha, o'quvchilarda ijodkorlikni tarbiyalash qiziquvchanlik, tajriba va mustaqil fikrlashga undaydigan muhit yaratishni talab qiladi. O'qituvchilar amaliy o'rganish, hamkorlikdagi loyihalar va ochiq tadqiqot uchun imkoniyatlar yaratishi kerak. O'quvchilarning tug'ma qiziquvchanligini tarbiyalash, ularni tanqidiy va ijodiy fikrlashga undash orqali o'qituvchilar ularni umrbod ta'lim oluvchi va innovatsion fikrlovchi bo'lib yetishishadi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy matematik, astronom va geograf sifatida taniqli mutafakkir. Al-Xorazmiy asarlarida zamonaviy tushuncha sifatida «ijodkorlik» to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmasa-da, uning matematikaga yondashuvi va masalalar yechish o'quvchilarda ijodkorlikni tarbiyalash haqida tushuncha beradi. Al-Xorazmiy matematik masalalarni yechishda mantiqiy fikrlash va tizimli usullarning muhimligiga ishongan. U matematik fikrlashda fikrning ravshanligi va aniqligi zarurligini ta'kidlab, keyinchalik algebraik manipulyatsiya uchun asos bo'lgan tizimli protseduralarni belgilab berdi. Bundan tashqari, Al-Xorazmiy matematik tadqiqotlarda yangilik va o'ziga xoslikni qadrlagan. U murakkab masalalarni yechish uchun yangi matematik usullar va algoritmlarni ishlab chiqdi, kelajakdagi matematik ishlanmalar uchun zamin yaratdi. Al-Xorazmiyning muammoni yechishdagi yondashuvi ijodkorlikni o'z ichiga olgan, chunki u ko'pincha ilgari hal etilmagan muammolarga yangi yechimlarni o'ylab topishga to'g'ri kelgan. Al-Xorazmiy fikricha, o'quvchilarda ijodkorlikni tarbiyalash ularga matematik izlanishlar va kashfiyotlar bilan shug'ullanish imkoniyatini berishni nazarda tutadi. O'qituvchilar o'quvchilarni matematik tushunchalar bilan tajriba o'tkazishga, muammolarni hal qilishning turli strategiyalarini o'rganishga va matematik masalalarga o'zlarining yondashuvlarini ishlab chiqishga undashlari kerak. Ijodkorlik va innovatsiyalarni qadrlaydigan qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlash orqali o'qituvchilar o'quvchilarga ishonchli muammolarni hal qiluvchi va ijodiy fikrlovchi bo'lishlari mumkin.

XVII-XVIII-asrlarda ijodkorlik muammosiga qiziqish kuchaydi. Jamiyat tarixiga inson ijodining mahsuli, daho esa, bunyodkorlik tashuvchisi sifatida qarala boshlaydi. Masalan, D.Lokk, Volter, C.Gelvetiyalar dahoning yuksak ne'mat bo'lishi bilan birga, bir vaqtning o'zida ne'mat, yuk va mas'uliyat ekanligini ta'kidlaydilar [3]. Aynan shu davrda ijodkorlik metodi muammolari va ijodkorlikni o'rganish metodlari (ilmiy, texnik, badiiy) o'rganiladi.

Bu tadqiqotlar F.Bekon, R.Dekart, G.Xyum asarlarida taqdim etilgan bo'lib, ular ijodkorlikni tasodifiy «mavjud elementlarning zarba kombinatsiyasi» deb talqin qilganlar. Ijod insonning o'zini o'zi anglash jarayoni sifatida ma'rifat arboblari tomonidan ko'rib chiqilgan. A.Volter, J.J.Russo, C.Helvetius va boshqalar shaxsning o'z bilimining subyekti sifatidagi mohiyati haqidagi ilmiy qarashlarni tasdiqladilar. Ularning asarlarida shaxsning erkin o'z-o'zini rivojlantirish g'oyalari bilan insonparvarlik va ta'lim madaniyati muammolari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan [3]. Ijod muammosi XVIII-XIX-asrlarda nemis klassik falsafasida rivojlangan. Ijodkorlik tushunchasi subyektni o'zgartiruvchi faoliyat sifatida asoslanadi, uning doirasida shaxs ijodkorlik subyekti hisoblanadi. Asosiy yo'nalishlar: kognitiv faoliyatning ijodiy tabiatini tushunish (I.Kant); ijodning madaniy-tarixiy belgilanishini asoslash (G.Gegel); ijod bilan odamlar hayoti va ijtimoiy munosabatlari o'rtasidagi bog'liqlik (L.Feyerbax).

Nemis klassik falsafasida ijodkorlik tushunchasi shu bilan farq qiladiki, ijodkorlik aql, hissiy va mantiqiy, tasavvur va tafakkur o'rtasidagi munosabatlar orqali ko'rib chiqiladi, ya'ni dialektik usul nuqtai nazaridan inson ongining passiv, tafakkur mohiyati haqidagi boshqa falsafiy qarashlardan farqli o'laroq, I.Kant birinchi bo'lib ijodiy faoliyatning prinsipial yangi turini – faol angalaydigan va harakat qiluvchi subyektni aniqladi [5]. Ijodkorlikning madaniy-tarixiy belgilanishini G.Gegel asoslab, odamlar doimo «ma'lum bir davr va ma'lum bir xalqning ma'naviy madaniyati» [6] tamoyillariga muvofiq fikr yuritib, ijod qilishini ta'kidlaydi. Ijodkorlikni havaskorlik faoliyati deb tushunib, u bu fikrga umuminsoniylik maqomini beradi va inkorni inkor etish dialektikasini ijodiy faoliyatning asosiy mexanizmi deb biladi [6]. L.Feyerbax ijod bilan odamlar faoliyati va ularning ijtimoiy munosabatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib, ijodkorlikni antropologik munosabat deb hisoblaydi, inson faoliyati esa, uning mohiyati va ijodiy faoliyat manbaini belgilaydi. Uning ijodiy tashabbus g'oyasi insonning asosiy kuchlari jamida har tomonlama rivojlanishida yotadi. Faylasuf ijod subyekti sifatida ijodkorlik va insonning o'ziga xos fazilatlarini o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratadi va insonning muhim kuchlari, uning imkoniyatlari to'g'risidagi masalani ko'taradi [7]. Rus falsafasida ijodkorlik nazariyasi insonning muhim kuchlarini amalga oshirish nuqtai nazaridan N.A.Berdyaev, M.M.Baxtinning madaniy kontseptsiyasida chuqur tarixiy ildizlarga ega [4-5]. N.A.Berdyaev ijodkorlik mexanizmi sezgi, fikrning ongsiz ishi bilan bog'liq deb hisoblagan. U ijodiy jarayonni «cheksizlikning ochilishi, cheksizlikka uchish, obyektivlashtirish emas, balki transsendensiya» deb tushungan [8, 89-b.]. Ijodkorlikning maqsadi, N.A.Berdyaevning fikricha, «madaniy mahsulotlar yaratish emas, balki butun insoniyatni hayratda qoldirish va yuksaltirishdir, chunki shaxs har doim «ijodkor» vazifasini bajaradi, ijodkorlikdan tashqarida hech qanday narsa yo'q» [8, 114-b.]. M.M.Baxtinning falsafiy merosida ijodkorlik kontseptsiyasi «uning rivojlanishining turli bosqichlarida paydo bo'lgan g'oyaning birligi» sifatida tushuniladi. Bunday yondashuv birgalikda ijod qilish imkoniyatini yaratadi. Faylasufning fikriga ko'ra, haqiqat tug'ilmaydi va alohida shaxsning boshida joylashmaydi, u o'zlarining dialogik muloqoti jarayonida haqiqatni birgalikda kashf etadigan odamlar o'rtasida tug'iladi [4, 158-b.]. Shunday qilib, ijod muammosi XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida jamoatchilik ongida o'z o'rnini egalladi. Falsafada individuallik g'oyasi, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va uning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish zarurati e'tirof etilmoqda. Biroq, ijodkorlikni shaxs darajasida tahlil qilish, shaxsning muhim kuchlari sifatida ijodiy qobiliyatlarni maqsadli rivojlantirish masalasi hali mustaqillikka ega emas edi, chunki ijod hodisasi inson mavjudligi va uning atrofidagi dunyoni bilish kontekstida ko'rib chiqiladi.

Ijodkorlik obyekti turli omillar bilan belgilanadi. Asosiysi, uning muayyan faoliyat turi qonunlariga bog'liq. Ijodkorlik subyekt faoliyatining eng yuqori ko'rinishi sifatida «obyekt bo'ysunadigan qonunlar, uning tabiati, ontologik muhiti bilan cheklangan» va muayyan shartlarga bog'liq. Ushbu naqshlar doirasida ijod obyektida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ushbu tamoyillardan muhim xulosalar kelib chiqadi. Birinchidan, insonning ijodkorlik qobiliyati uning muhim xususiyatidir: shaxs sifatida shakllanishda nafaqat ijodiy qobiliyatga ega bo'lish, balki uni faoliyat jarayonida doimiy ravishda namoyon etishni ham anglatadi. Faoliyat ijod obyekti va uning subyektining rivojlanishi va sifat o'zgarishiga ta'sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi. Ikkinchidan, shaxsning o'zini o'zi anglash va takomillashtirish qobiliyati ijodiy faoliyat shaxsiy rivojlanishning asosiy omili sifatida namoyon bo'lish shartidir.

Zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda ijod muammosi S.A.Buksh va boshqalar [9, 13-b.]. P.F.Kravchuk insonning ijodkorlikdagi muhim kuchlarini amalga oshirish darajalarini belgilaydi. Muallif Gegelning shaxs ijodiy tashabbusining universalligi haqidagi g'oyasidan, har bir shaxsning transformatsion faoliyat uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligidan kelib chiqadi. Ijodkorlikning birinchi, umumiy darajasida mavjud ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish va rivojlantirish, ko'pincha tashqi zarurat tufayli obyektlar va hodisalarni yaxshilash uchun ijodiy va o'zgartiruvchi faoliyatda ifodalanadi; ehtiyojlar ichki intilish sifatida emas, balki bajarilgan ishning tabiati bilan belgilanadi. Ijodiy harakatlar o'z-o'zidan sodir bo'ladi.

**Xulosa.** Keltirilgan fikrlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: ijodkorlik ongli qiymat bilan belgilanadigan faoliyat sifatida inson mavjudligining atributidir; ijodning mohiyati – ijodkor shaxs va tashqi olamning o'zaro munosabati jarayonida shakllanadigan faoliyat ziddiyatlari bo'lib, bunda faoliyatning mohiyati va rivojlanishi ochiladi; ijodkorlik inson faoliyati natijasida yangi narsa va sifatlari, xulq-atvor namunalari, yangi namunalari va bilimlar yaratish natijasida yuzaga keladi.

#### Adabiyotlar:

1. Аристотель. Метафизика / Сочинения в 4 т. - М.: Мысль, 1975. - Т. 1. - 364 с.
2. Аристотель. Танланган асарлар. Т. 1. - М., 1975. - Кн. 8. - 368 с.
3. Антология мировой философии: в 4 т. Т. 1 Философия древности и средневековья. - М., 1969. - Ч. 1. - 563 с.
4. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. - М.: Просвещение, 1979. - 421 с.
5. Кант И. Сочинения: в 6 т. - М., 1966. - Т. 5. - 654 с.
6. Гегель Г. Сочинения. - М., 1959. - Т. 9. - 457 с.
7. Фейербах Л. Избранные философские произведения. - М., 1955. - Т. 2. - 943 с.
8. Бердяев Н.А. Философия творчества, культуры и искусства: в 2 т. - М.: Искусство, 1994. - Т. 1. - 544 с.
9. Букш С.А. Творчество как вид социальной деятельности: Дис. ... канд. филос. наук. - М., 1998. - 132 с.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

*Эргашева Дилором Данияровна, старший преподаватель ТГЭУ*

**Аннотация.** Анализ процесса цифровизации современного образования приводит к пониманию, что в процессе цифровой трансформации образования происходят заметные изменения личности учащегося, информационная и коммуникационная сферы всецело поглощают его и превращают в свой продукт. В условиях цифровизации образования педагоги сталкиваются с теми же проблемами, которые в традиционной педагогике давно исследованы и изучены, но для их решения необходимы новые методы и технологии решений. Психологи же сталкиваются с новым видом социализации, протекающей под виртуальным воздействием, формируя новую личность и новое поколение в целом.

**Ключевые слова:** психические процессы, когнитивные способности, интеллект, цифровое слабоумие, социализация, цифровая культура, цифровая среда.

## TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK JIHATLARI

*Ergasheva Dilorom Daniyarovna, TDIU katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Zamonaviy ta'limni raqamlashtirish jarayonini tahlil qilish ta'limning raqamli transformatsiyasi jarayonida talaba shaxsiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz berayotganini, axborot-kommunikatsiya sohalari uni butunlay o'zlashtirib, o'z mahsulotiga aylantirishini tushunishga olib keladi. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'qituvchilar an'anaviy pedagogikada uzoq vaqtdan beri o'rganilgan bir xil muammolarga duch kelishmoqda, ammo ularni hal qilish uchun yangi usullar va echim texnologiyalari zarur. Psixologlar virtual ta'sir ostida yuzaga keladigan, yangi shaxsni va umuman yangi avlodni shakllantiradigan ijtimoiylashuvning yangi turiga duch kelishmoqda.

**Tayanch so'zlar:** ruhiy jarayonlar, kognitiv qobiliyat, aql, raqam, sotsializatsiya, raqamli madaniyat, raqamli muhit.

## PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF DIGITALIZATION OF EDUCATION

*Ergasheva Dilorom Daniyarovna, senior lecturer at TSUE*

**Abstract.** The analysis of the process of digitalization of modern education leads to the understanding that in the process of digital transformation of education, noticeable changes in the student's personality occur, the information and communication spheres completely absorb it and turn it into their product. In the context of digitalization of education, teachers face the same problems that have been studied and studied in traditional pedagogy for a long time, but new methods and technologies of solutions are needed to solve them. Psychologists, on the other hand, are faced with a new kind of socialization that takes place under virtual influence, forming a new personality and a new generation as a whole.

**Key words:** mental processes, cognitive abilities, intelligence, digital dementia, socialization, digital culture, digital environment.

**Введение.** Цифровая эпоха навсегда и радикально изменила все аспекты жизни человека. Она спроектировала и определила, как человек социализируется, как живет, учится, работает, общается, и самое главное, меняет способ обучения и воспитания.

**Основная часть.** Цифровизация образования нередко отождествляется с онлайн-обучением, но такой подход не всегда является верным. Понятие цифровизации интерпретируется гораздо масштабнее, чем просто использование сети для обу-

чения, в него включены все цифровые ресурсы, а также скорректированные методы обучения. С развитием современных технологий неизбежны изменения и в самой системе образования, в трансформации обучающегося. В 1999 году научной обществу был представлен термин «электронное обучение», то есть была оформлена и реализована идея использования цифровых технологий в процессе преподавания и обучения. Сочетание этих понятий со временем трансформировалось в то, что сегодня мы называем цифровое образование. Цифровизация формирует индивидуальные образовательные среды, например, онлайн-платформы, которые позволяют обучающемуся самостоятельно управлять своей учебной деятельностью, обогащать реальные учебные ситуации цифровыми данными, облегчать усвоение знаний, а иногда и создавать трудности в социализации. Но тем не менее, становится понятно, что назад уже пути нет и развитие технологий влекут за собой трансформацию не только всего образовательного процесса, но и обучающейся личности в целом. Интерес к цифровизации в системе образования поначалу возник в передовых западных странах, потому что именно там более стремительно развивались цифровые технологии. В 2002 году американские исследователи Д.Джонсон и Л.Бакер опубликовали один из первых научных трудов о цифровизации системы образования «Оценка влияния технологий в преподавании и обучении». Они одни из первых высказали возможность применения цифровых технологий в образовании.

В современной науке P.Newman (2017), M.Hutson (2018), F.Fukuyama, B.Richman, A.Goel (2020) D.Wilson (2003) в связи с распространением информационных потоков и их влияния на детей и молодежь исследуют изменение восприятия как возможный управляемый процесс [1-2]. Педагогические и психологические исследования цифровизации образования Б.Е.Стариченко (2020), А.А.Строкова (2020), акцентировали её особенности, специфику, перспективы, достоинства и недостатки в сравнительно-сопоставительном аспекте как феномена, реализуемого в большинстве стран мира [3-4]. Изменения в образовании, связанные с развитием и совершенствованием дистанционных технологий, а также их структуру и специфику в контексте реализации принципа индивидуализации исследовали P.Andersson, L.-G Mattsson (2021) [5]. Влияние цифровизации на развитие личности, начиная с детского образа исследовалось Д.И.Фельдштейном (2012) с учетом воздействия процесса вовлеченности в виртуальное пространство в контексте направления анализа деформации личностного развития и коммуникативной сферы в связи с неконтролируемым потреблением информации через социальные сети [6]. В основном, большинство упомянутых исследователей изучали и отметили достоинства и недостатки процесса цифровизации образования, которые обуславливают изменения современного образования и специфические особенности развития личности. Методология данного исследования основывается на сравнительно-сопоставительном анализе научных подходов к изучению цифровизации в контексте её влияния на образование и психолого-педагогические процессы, связанные с социализацией, воспитанием, обучением и развитием личности. Использовался социокультурный методологический подход при изучении влияния цифровизации на образование.

В продолжающемся процессе цифровизации образования, несомненно, появляются проблемы учебно-организационного, психологического, социального характера. Одна из важных задач любого исследователя в этой области определить и оценить психолого-педагогические положительные и отрицательные аспекты, свя-

занные с цифровизацией образования, ее влиянием на развитие личности, в частности, социализацию, и выделить учебные аспекты, требующие наибольших усилий и внимания в ходе данного процесса.

Нынешнее цифровое поколение отличается спецификой социализации, которая проходит в сети и осуществляет особое функционирование психических процессов перцепции, обработки и интерпретации информации, а также интеллектуальные функции, связанные с пониманием информации. Отсутствие цифровой культуры, то есть излишняя загруженность информацией, ее бездумное поглощение, например, негативно влияет на весь мыслительный процесс, а её развлекательный и наглядный характер формирует так называемое «клиповое» мышление. Страдают когнитивные функции, в частности, ослабевает память, поскольку учащийся не напрягается, то есть легкость получения информации избавляет от необходимости её запоминать. Еще один психический процесс – внимание преломляется и рассеивается по причине быстрого и не контролируемого поглощения различной информации, воспринимаемая не связанные между собой явления. С психологической точки зрения, по этой же причине учащийся не всегда развивает мыслительные операции анализа и синтеза поступающей информации. Именно поэтому главными перспективами развития цифровизации образования, по мнению Э.Гейбла, являются не компьютерные классы и повсеместное подключение к интернету, а новые результативные педагогические практики, которые успешно реализуются в цифровой образовательной среде и опираются на использование инновационных технологий, а также непрерывное профессиональное развитие педагогов [3]. В эпоху опосредованной коммуникации затруднена обратная связь в цепочке «педагог-учащийся». В таких условиях невозможно понять и представить картину достоверности на предмет увлеченности и усвоения информации. Опосредованная коммуникация в таком цифровом контексте между педагогом и учащимся снижает психолого-педагогические возможности для полноценного осуществления учебного процесса, что отрицательно сказывается на учебной мотивации. Цифровизация способствует развитию самостоятельности личности при работе с информацией. Значение самостоятельного обучения трудно переоценить, такая форма взаимодействия все меньше определяется заданными учебными материалами и зависимостью от преподавателя. Особо выделяя самостоятельность в процессе обучения, исследователи подчеркивают необходимость такого образования в течение всей жизни [7]. К сожалению, на сегодняшний день ситуация выглядит таким образом, что задачи цифровизации образования связаны с технологическим обеспечением и в меньшей степени касаются психологических и педагогических аспектов обучения и воспитания. В связи с цифровым преобразованием учебного процесса педагоги и психологи наделяются особыми функциями, которые должны отвечать требованиям образовательной среды. Как никогда эта система нуждается в профессионалах, обладающих инновационными востребованными компетенциями. Например, в проектировании онлайн платформ для дистанционного обучения очень востребованы педагогические дизайнеры, в том числе эксперты по формирующему оцениванию, аналитики, которые организуют систему сбора данных о том, как учащиеся взаимодействуют с образовательной программой и много других специалистов, связанных с функционированием цифровых технологий.

Следует отметить, что возможности открытых источников информации дают максимальную доступность информации, это требует от педагогов и обучающихся по-

стоянного поиска и выбора качественного контента, а также скорости обработки получаемой информации, то есть гибкости мышления. Кстати, учащиеся даже детского возраста быстрее адаптируются к цифровой среде, формируя первоначальные навыки и умения использования цифровых технологий, а педагоги, особенно старшее поколение испытывают особые трудности. А поскольку цифровизация образования напрямую зависит от уровня владения цифровыми технологиями педагога, он просто обязан научиться применять ресурсы интернета и инновационные технологические инструменты. Помимо этой проблемы, возникла проблема с потерей памяти, расстройством внимания, общими когнитивными нарушениями, подавленностью и депрессией, низким уровнем самоконтроля. У этой проблемы появился термин «цифровое слабоумие», и ее решением уже серьезно занимаются исследователи, в частности, психологи, педиатры, нейробиологи, нейрофизиологи, физиологи мозга [8-9]. Однообразное времяпрепровождение резко ограничивает количество внешних стимулов. Мозг не получает достаточного опыта, чтобы развить важнейшие участки, ответственные за восприятие учебной информации, осмысление, усвоение, а также сопереживание, самоконтроль, принятие решений и пр. То, что постоянно не функционирует, то есть, не работает, отмирает. Как, например, у человека, переставшего ходить, атрофируются мышцы ног, так и у учащегося, не тренирующего свои психические процессы каким бы то ни было запоминанием, возникают проблемы с памятью поскольку вся информация находится в смартфоне. То есть мозг может не только развиваться, но и деградировать, а его живые ткани могут атрофироваться. Примером тому и служит цифровое слабоумие. Педагоги и психологи, работающие в образовательных учреждениях, фиксируют в некоторых случаях у учащихся признаки цифрового слабоумия. На наш взгляд, они должны публично делиться своими опасениями и мнением по поводу рисков, которые несут новые цифровые технологии подрастающему поколению. Этим должны озаботиться не только родители, но и политики, экономисты, принимающие решения. Информация и коммуникация выступают в качестве двух основных сфер реализации цифровых технологий в современном образовании, усугубляя педагогические и психологические проблемы, включая вопросы межличностной коммуникации.

Психолого-педагогические исследования, нацеленные на анализ личностного развития учащихся в эпоху цифровизации, отмечают недоразвитие коммуникативных и других социальных навыков, ослабление активно-волевой сферы личности. Иницируются исследования по проблематике детского развития в цифровом пространстве, уже упомянутое снижение когнитивного развития, снижение активности и энергичности по причине роста эмоционального дискомфорта, недоразвитие мотивационной сферы, воли, снижение уровня детской любознательности и воображения, неразвитость тонкой моторики, слабая социальная компетентность, обеднение общения в межличностных отношениях, развитие чувства незащищенности и др. [6]. Цифровая социализация способствует негативным, а иногда и трагичным изменениям в сфере личности и поведения. Это происходит потому, что способ восприятия и оценки самих себя меняется в зависимости от новых личностных качеств, возникающих и сформированных в виртуальном мире. К ним относятся: завышенная самооценка, а также преувеличенное чувство собственных возможностей, иллюзорный нереалистичный оптимизм, преувеличенное чувство контроля над событиями новый набор не всегда верных моральных принципов, которые люди

перенимают из сети, склонность к импульсивному поведению и тенденция к регрессии в детское состояние.

Одним из последствий цифровизации также можно считать исчезновение творчески мыслящей личности, которую можно рассматривать как стратегический ресурс информационного общества. Большую роль в развитии этого кризиса играет и изменение характера социальных коммуникаций. Именно обычное человеческое общение стимулирует интеллектуальные процессы в личности, переход же на удаленное или виртуальное общение, обедняет их, отрывая человека от социальной реальности. Отношение к цифровизации образования в рамках современных исследований неоднозначно, она оказывает вполне благоприятное влияние на систему образования, другие же считают, что люди в скором времени утратят способность мыслить. В условиях цифровизации массив информации вокруг обучающегося заполняет собой все пространство его познания, в ущерб смыслам самого получаемого знания.

**Вывод.** Стремительная цифровизация образования создала определенное напряжение и противоречия в педагогическом процессе многих учебных заведений из-за несформированной готовности участников образовательного процесса к неизбежным изменениям. Возникли серьезные проблемы и психологического порядка, связанные с обучением и социализацией, проходящей в сети. Новые условия, связанные с активным внедрением информационных технологий в систему образования, потребовали от обучающихся, как потребителей онлайн-платформ, высокого уровня навыков самостоятельного управления своим обучением, большей учебной активности и дисциплинированности. В свою очередь, от педагогических работников потребовалось владение дистанционными технологиями, профессиональной цифровой культурой. Не все участники образовательного процесса на начальном этапе цифровизации образования смогли эффективно решить инновационные задачи, однако вынужденная необходимость определила неизбежные изменения на всех уровнях системы образования. Отмечая влияние цифровизации образования на развитие личности, можно выделить некоторые значимые направления исследований, разработка которых в будущем будет способствовать определению и решению задач развития личности в процессе обучения, воспитания и социализации: воспитание цифровой культуры обучающихся и цифровой компетентности педагогов; погруженность основного межличностного и учебного общения в социальные сети; учет влияния сети на социальное и когнитивное развитие обучающихся; учет психологических факторов при виртуальном обучении в условиях опосредованного взаимодействия при дистанционном обучении.

Следовательно, с целью усовершенствования процесса цифровизации образования целесообразно: ввести стандартизированные протоколы и процедуры онлайн-образования как при традиционном подходе в соответствии с требованиями со стороны государства; позволить каждому образовательному заведению индивидуально решать, как оцифровать свой учебный процесс, отслеживать результат с учетом мнения самих студентов, например, какое программное обеспечение легче и удобнее использовать и т.д.; делиться передовым педагогическим опытом с помощью конференций, мастер-классов на онлайн-площадках образовательных учреждений; разработать и реализовать индивидуальные образовательные маршруты педагога с целью повышения их цифровой культуры; продумать и разработать систему воспитания цифровых граждан с развитием моральных, интеллектуаль-

ных, физических и других способностей. Создав новую концепцию развития цифровизации образования, руководствуясь повышением цифровой культуры педагогов и учащихся, с помощью интеграции цифровых технологий и образования, можно с успехом добиться изменений в инновационном развитии образования, повышении его качества.

#### Литература:

1. Newman D. Top 6 Digital transformation trends in education: <https://www.forbes.com/sites/danielnewman/2017/07/18/top-6-digital-transformation-trends-in-education/?sh=5e0da0502a9a2>.

2. Fukuyama F., Richman B., Goel A. How to save democracy from technology: <https://www.foreignaffairs.com/articles/united-states/2020-11-24/fukuyama-how-save-democracy-technology>.

3 Гэйбл Э. Цифровая трансформация школьного образования: международный опыт, тренды, глобальные рекомендации / Пер. с англ.; под науч. ред. П.А.-Сергоманова. - М.: НИУ ВШЭ, 2019. - 108 с.

4. Строков А.А. Цифровизация образования: проблемы и перспективы // Вестник Мининского университета. - 2020. - Т. 8. - № 2 (31).

5. Andersson P., Mattsson L.-G. Future digitalization of education after COVID-19: <https://www.hhs.se/en/research/sweden-through-the-crisis/future-digitalization-of-education-after-covid-19>

6. Фельдштейн Д.И. Современное детство как социокультурный и психологический феномен // Universum: Вестник Герценовского университета. - 2012. - № 1.

7. Candy P.C. Self-direction for Lifelong Learning. - California: Jossey-Bass, 1991. - 271 p.

8. Palmer Sue. Toxic Childhood. - Orion, 2007.

9. Rown Chris. Virtual child: the terrifying truth about what technology is doing to children. - Sunshine Coast Occupational Therapy Inc., 2010.

---

**BO'LAJAK TARBIYA ISHI PEDAGOGLARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH HOLATI VA MUAMMOLARI TAHLILI**

*Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna*, Chirchiq DPU katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak tarbiya ishi pedagoglarini pedagogik faoliyatga tayyorlash holati va muammolari tahlili haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** tarbiya, ta'lim, pedagog, tyutor, kredit-modul, kommunikativ, kreativ, fenomen, shaxs, integral, metod, taraqqiyot, kontekst.

**АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ И ПРОБЛЕМ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГОВ БУДУЩЕЙ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

*Исмаилова Дилафруз Мухиддиновна*, старший преподаватель Чирчикского ГПУ

**Аннотация.** В статье рассматривается анализ ситуации и проблем подготовки будущих педагогов к педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, педагог, тьютор, кредитный модуль, коммуникативный, творческий, явление, личность, интеграл, метод, развитие, контекст.

**ANALYSIS OF THE STATE AND PROBLEMS OF PREPARING TEACHERS OF FUTURE EDUCATIONAL WORK FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY**

*Ismailova Dilafruz Mukhiddinovna*, senior teacher at Chirchik SPU

**Abstract.** The article examines the analysis of the situation and problems of preparing future teachers for teaching activities.

**Key words:** education, upbringing, teacher, tutor, credit module, communicative, creative, phenomenon, personality, integral, method, development, context.

**Kirish.** Mamlakatimiz ta'lim tizimida mutlaqo yangicha yondashuvlar asosida tarbiya ishini joriy etish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'limning kredit-modul tizimi asosida tashkil etilishi sharoitida tarbiya ishi bilan shug'ullanish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchi yangi tizim – tyutorlik amaliyotga joriy etildi. Mazkur tizim o'qitishning kredit-modul sharoitida bevosita tarbiya jarayoni va uning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Bularning barchasi oliy ta'lim muassasalarida tarbiya ishi pedagoglarini tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish muammosini alohida tadqiq etishni taqozo etadi.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida belgilanganidek, «tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga va ularning ongini maqsadli shakllantirish, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar asosida dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon»dir [1]. Bu jarayonda tarbiyani tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi va boshqaruvchi asosiy shaxs tarbiya ishi pedagoglaridir. Tarbiya ishi pedagogi – bu ta'lim tizimida tarbiya jarayonini amalga oshiruvchi asosiy o'qituvchilar va tyutorlardir. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fani, o'rta maxsus va oliy ta'lim tashkilotlarida «Tarbiya», «Boshlang'ich ta'limda «Tarbiya» fanini o'qitish metodikasi» hamda «Tarbiyaviy ishlar

metodikasi» fanlarini o'qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, ta'lim tizimida tarbiyaviy tadbirlar vositasida ta'lim oluvchilarni tarbiyalashning innovatsion shakl, metod va vositalarini joriy etish, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiya ishi pedagoglarini tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Har bir talabani bo'lajak kasbiy faoliyatida ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilishi – o'zini kamol toptirishi va maqsadini ro'yobga chiqarishi uchun muhim sifat ko'rsatkichi sanaladi. An'anaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan talabaga axborotni etkazish jarayoni sifatida ko'rinadi va qo'yilgan savollarsiz javoblarni ta'minlashga aylanadi.

Qayd etishimiz joizki, tayyor ko'rinishda taqdim etilgan va olingan bilim hamda ko'nikmalar o'qitishning maqsadi hisoblanmaydi, balki kreativlikni yuzaga chiqarish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish uchun vositaga aylana boradi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kreativlikni tarbiyalash va rivojlantirish muammosi alohida e'tiborni talab qiladi. Negaki, aynan o'qituvchilardan ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini ongli boshqarish, yosh avlodda kreativlikni kamol toptira bilish talab qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy-kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va shu asosda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishning integrallashgan pedagogik tizimini amaliyotga tatbiq etish zaruratini asoslaydi. Mazkur masalaning mohiyati, madaniyat, ilm-fan, ishlab chiqarish va tarixiylik kontekstdagi ijtimoiy institutlar bilan aloqalari haqidagi ilmiy tasavvurlar rivojini akslantiradi.

Ta'kidlash lozimki, bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy-kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish muammosining paydo bo'lishi, shart-sharoitlarining bosqichma-bosqichligini ajratib ko'rsatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy-pedagogik tahlil asosida quyidagi uch jihat: 1) kreativlik nazariyasini ishlab chiqish, 2) tarbiya va ta'lim nazariyasining shakllanishi, 3) shaxsning kommunikativligini tarbiyalash g'oyalari rivojini hisobga olib, bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kreativlikni tarkib toptirish ajratib ko'rsatilgan. O'rganilayotgan muammoni tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, uni, asosan, quyidagi davrlarga ajratishimiz mumkin.

Birinchi davr – paydo bo'lish (miloddan avvalgi IX-VIII asrlar) – antik tamaddunda pedagogik fikrning tug'ilish bosqichida, kreativ kommunikativlik fenomeni haqidagi bilimlar paydo bo'la boshlaydi va falsafiy asosga ega bo'ladi. Shu bilan birga ijod, ijodiy faoliyat, kreativlik, eng avvalo, bilish obyektlari sifatida maydonga chiqadi. Ko'rilayotgan bosqich Suqrot, Aflotun, Arastu va boshqa bir qator faylasuflar nomi bilan bevosita bog'liq.

Aflotun o'z akademiyasiga asos solgach, unda ikki toifa tahsil oluvchilar uchun mashg'ulotlar o'tkazadi: umumiy – tinglovchilarning keng doirasi uchun, maxsus – falsafani o'rgangan saralangan o'quvchilar uchun. Bu esa, keyinchalik tarbiya va ta'lim sohasida tabaqalashtirish va individuallashtirish asoslariga poydevor bo'lib xizmat qildi.

Tarbiya va ta'lim, Suqrotning fikricha, insonga o'z bilimlarini mustaqil shakllantirishga yordam berishi kerak. O'z navbatida, tarixchilarning guvohlik berishicha, Suqrot mashhur «Suqrot suhbat» metodi muallifiga aylanadi. Bunda asosiy usul sifatida bir qator ketma-ket savollar ko'riladi. Bundan tashqari, Suqrot muloqot mahorati, kommunikatsiyani qurish ko'nikmasiga alohida e'tibor qaratgan.

Arastuning falsafiy qarashlari ikki yo'nalishda rivoj topgan: nazariy (mushohadaga asoslangan), uning maqsadi – bilim – bilim uchun, amaliy – bilim ijod uchun. Shunday qilib, Arastu bilimlar ijodiy faoliyat uchun bir vosita hisoblanadi, deb bilgan.

Qadimgi yunon faylasuf-sofistlari «so'zamollik» va «donishmandlik» jabhasining

---

professional o'qituvchilari rolida o'z o'miga ega bo'lgan. Bahs-munozaralar (sofistlar shunga o'qitishgan)da qo'llanadigan usullar va turli hiylalar keyinchalik «sofistika» nomini olgan.

**Xulosa.** Shunday qilib, quyidagicha xulosa qilish mumkin: ta'lim va tarbiyaning ilk g'oyalari ancha ilgari, antik davrda tug'ilgan; ushbu vaqtda kommunikatsiya va kreativlik fenomenlarini tadqiq qilish falsafiy asosga ega edi; ijodiy-kommunikativ qobiliyat qobiliyatni tarbiya toptirish muammosi maxsus tadqiqotlar predmeti hisoblanmaydi, biroq antik davr faylasuflari tadqiq qilinayotgan muammoning keyingi rivoji uchun imkoniyatlar yaratib berganlar.

Ikkinchi davr – taraqqiyot (XVII-XIX asrlar). O'rta asrlarda cherkov namoyandalari antik davr so'zamolligini unutmagandi. Shu bois, ruhoniylarni tayyorlash rejasiga ritorika, grammatika, dialektika singari fanlar qo'shilgandi. Bundan tashqari, qadimgi yunon germenevtikasi – nazmiy (Gomer) va muqaddas matnlarni tushunish va talqin qilish haqidagi fan qayta tiklangan edi. Ya.A.Komenskiyning «Tillarning ochiq eshigi» nomli tadqiqot ishi biz uchun muhim ahamiyatga ega. Bu ishda til o'zining ichki qurilishi va tashkiliy shakliga ega muayyan tizim sifatida ta'riflangan. Bu tizimsiz tabiatni va til belgisining ma'nosini anglash mumkin emas.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» Qonun. 2020-yil 23-sentyabr: lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. Ezgulik, insonparvarlik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir. - T., 2021.
4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabdagi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi.
5. Психология. Словарь. - М., 1991.

---

**MALAKALI KADRLAR TAJRIBASI ASOSIDA HARBIY AVIATSIYA  
MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Ilyasov Botir Kodirovich, O'zbekiston Milliy universiteti  
Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada malakali kadrlar tajribasi asosida harbiy aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash mexanizmlari haqida so'z yuritilgan.

**Key words:** aviator pilot, military pilot, military aviation, qualified personnel.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ  
ВОЕННОЙ АВИАЦИИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ**

*Ильясов Ботир Кодирович, преподаватель Учебного центра военной подготовки  
Национального университета Узбекистана*

**Аннотация.** В данной статье раскрыты механизмы подготовки специалистов военной авиации на основе опыта квалифицированных кадров.

**Ключевые слова:** летчик-авиатор, военный летчик, военная авиация, квалифицированный персонал.

**IMPROVEMENT OF TRAINING MECHANISMS OF MILITARY AVIATION  
SPECIALISTS BASED ON THE EXPERIENCE OF QUALIFIED PERSONNEL**

*Ilyasov Botir Kodirovich, teacher of the military training center  
of National University of Uzbekistan*

**Abstract.** This article talks about the mechanisms for training military aviation specialists based on the experience of qualified personnel.

**Tayanch so'zlar:** uchuvchi-aviator, harbiy uchuvchi, harbiy aviatsiya, malakali kadrlar.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» tasdiqlandi [1].

**Asosiy qism.** Ushbu taraqqiyot strategiyaning yo'nalishlaridan biri – mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish hisoblanadi.

Farmon ilovasida 100-maqсад sifatida quyidagilar alohida qayd etilgan:

– davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash;

– Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish;

– barcha bo'g'indagi hokimiyat organlari rahbarlarining qo'shinlar kundalik hayotida, harbiy shaharchalar barpo etish, ularning infratuzilmasini yaxshilash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda faol ishtirok etishini ta'minlash;

– harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etish, ularni ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish, Qurolli Kuchlarning barcha davlat idoralari, muassasa va korxonalar uchun yetuk kadrlar tayyorlaydigan maktabiga aylanishiga erishish;

– mamlakat harbiy xavfsizligini ta'minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish;

- Qurolli Kuchlar yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va raqamlashtirishni yanada takomillashtirish;
- Qurolli Kuchlarda yagona axborot kommunikatsiya tizimini yaratish va axborot xavfsizligini ta'minlash;
- Mudofaa vazirligi qo'shinlarining jangovar shayligi va tayyorgarligi hamda o'quv moddiy-texnika bazasini yanada takomillashtirish;
- fuqarolarning harbiy xizmatni o'tash tartibini yanada takomillashtirish;
- Oliy harbiy ta'lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish;
- Mudofaa vazirligi qo'shinlarida rahbar lavozimlariga kadrlar zaxirasini yaratish tizimini rivojlantirish;
- Mudofaa vazirligi tizimida geraldika ishlarini samarali yo'lga qo'yish;
- qo'shinlarni zamonaviy qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnika hamda jihozlar bilan ta'minlash.

Ma'lumki, ko'pchilik bolalikdan uchuvchi bo'lishni orzu qiladi. Bu sharaffi kasb egasi bo'lish uchun ham uzoq vaqt tayyorgarlik talab etiladi. Samolyot uchuvchisi yoki aviator – samolyotning parvozini boshqaradigan shaxs hisoblanadi. Navigatorlar yoki bort muhandislari kabi boshqa havo ekipaji a'zolari ham aviatorlar hisoblanadilar, chunki ular samolyotning navigatsiya va dvigatel tizimlarini boshqarishda ishtirok etadilar. Aviator (fransuzcha, «aviateur») atamasi asosi «avis» so'zi lotincha bo'lib, «qush» degan ma'noni anglatgan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, harbiy uchuvchilar hukumat yoki davlatning Qurolli Kuchlari hisoblanib, ularning vazifalari jangovar va jangovar bo'lmagan operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri dushman harakatlar va qo'llab-quvvatlash operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Harbiy uchuvchilarga qiruvchi uchuvchilar, bombardimonchi uchuvchilar, transport uchuvchilari, sinov uchuvchilari va kosmonavtlar kiradi [2].

Mamlakatimizda harbiy uchuvchilarni tayyorlash bo'yicha 1994-yilda asos solingan Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti 2019-yilda Qarshi shahrida qayta tashkil etildi. Qarshi serjantlar tayyorlash maktabi negizida Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti tashkil etilib, ajratilgan 73 milliard so'm evaziga o'quv korpusi va yordamchi binolar zamonaviy ko'rinishga keltirilib, yangi trenajyorlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan.

Hozirda bu bilim yurti O'zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti sifatida qayta tashkil etilib, o'quv jarayonini tashkil etish uchun qo'shimcha yangi zamonaviy o'quv binolari, o'quv laboratoriya va trenajyor majmualari barpo etilgan. Kursantlar tarkibi uchun barcha maishiy sharoitlarga ega bo'lgan yotoqxona va oshxona foydalanishga topshirilgan.

Institut O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar uchun yuqori malakali aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash vazifalarni amalga oshirib kelmoqda.

Institutda to'rt yillik bakalavr va ikki yillik magistratura hamda bir yillik doktorantura bo'lib, quyidagi mutaxassislar tayyorlanmoqda [3]:

I. 4 yillik bakalavr:

- samolyot aviatsiyasi taktik qo'mondon-uchuvchiligi (samolyot uchuvchisi);
- vertolyot aviatsiyasi taktik qo'mondon-uchuvchiligi (vertolyot uchuvchisi);
- havodagi harakatlarni boshqarish mutaxassisligi;
- uchish apparatlari va dvigatellariga xizmat ko'rsatish bo'yicha aviatsiya muhandisligi;
- uchish apparatlarining aviatsiya qurollariga xizmat ko'rsatish bo'yicha aviatsiya muhandisligi;

– uchish apparatlarining aviatsiya jihozlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha aviatsiya muhandisligi;

– uchish apparatlarining radioelektron jihozlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha aviatsiya muhandisligi.

– uchuvchisiz uchish apparatlari operatori-uchuvchi (taktik qo'mondon-uchuvchiligi).

II. 2 yillik magistratura:

– havodagi harakatni boshqarish operativ-taktik shtab qo'mondonligi (muhandis-dispatcher);

– uchish apparatlari ekpluatatsiyasi operativ-taktik shtab qo'mondonligi (uchish apparatlari va dvigatellariga xizmat ko'rsatish);

– uchish apparatlari ekpluatatsiyasi operativ-taktik shtab qo'mondonligi (uchish apparatlarining aviatsiya qurollariga xizmat ko'rsatish);

– uchish apparatlari ekpluatatsiyasi operativ-taktik shtab qo'mondonligi (uchish apparatlarining aviatsiya jihozlariga xizmat ko'rsatish);

– uchish apparatlari ekpluatatsiyasi operativ-taktik shtab qo'mondonligi (uchish apparatlarining radioelektron jihozlariga xizmat ko'rsatish).

Muhandislik yo'nalishlari uchun 1 yillik doktorantura mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahridagi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti faoliyati bilan tanishish jarayonida yoshlar bilan suhbatda o'z mutaxassisligiga qo'shimcha xorijiy tillar va zamonaviy texnologiyalarni puxta o'rganishning ahamiyati haqida gapirib, «Har bir davlatning mudofaasi uning qudratini ko'rsatadi. Mudofaani esa sizga o'xshagan bilimli, aqlli, irodali harbiylar, muhandis va uchuvchilar ta'minlaydi. Bunga munosib bo'lish uchun doim o'qib-o'rganib, o'z ustingizda ishlab, har tomonlama barkamol bo'lib yetishishingiz kerak», ' deya ta'kidladilar.

Haqiqatdan ham, O'zbekiston havo sarhadlarini qo'riqlaydigan bo'lajak mutaxassislarni yuksak darajadagi malakali kadrlar sifatida tayyorlash juda muhim. Uchuvchi birinchi o'rinda sog'lom bo'lishi kerak. Shuningdek, tez fikrlashi, favqulodda qarorlar qabul qila olishi zarur. Samolyot qancha tez uchsa, uchuvchi ham shunday tez fikrlashi kerak bo'ladi. Uchuvchilar har qanday vaziyatga tayyor bo'lishi kerak.

Uchuvchilar tarkibini tibbiy ko'rikdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligida, shuningdek, tashkiliy-shtab tuzilmalarida uchuvchilar tarkibi bo'lgan boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarda o'tkaziladi.

Tibbiy ko'rik quyidagilarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi:

– uchuvchilar tarkibini sog'lig'ining holatiga ko'ra uchuvchilik ishiga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining boshqaruv organlari, Qurolli Kuchlar aviatsiyasi harbiy qism (muassasa)larida uchuvchilik harbiy-hisob ixtisosligi bo'yicha xizmatga (ishga, o'qishga) yaroqliligini aniqlash;

– ular sog'lig'ining holatiga ko'ra Qurolli Kuchlar aviatsiyasi turlari va uchuvchilik harbiy-hisob ixtisosligi bo'yicha fuqarolarni to'g'ri taqsimlashga ko'rsatmalar berish;

– uchuvchilar tarkibi tomonidan ular harbiy xizmatni (harbiy yig'inlarni) o'tash davrida orttirilgan kasallik, shikastlanish, yaradorlik, jarohatlarning sababiy bog'liqligini aniqlash;

– uchuvchilar tarkibiga tibbiy-jitmoiy yordam ko'rsatilishini va ularga reabilitatsiyaning amalga oshirilishining muddati, hajmi va turlarini belgilash [4] va hok.

Harbiy uchuvchilar harbiy instruktorlar tomonidan olib boriladigan fuqarolik uchuvchilar-dan farqli o'laroq, o'quv dasturi bilan tayyorlanadi. Bu turli xil samolyotlar,

parvoz maqsadlari, parvoz holatlari va javobgarlik zanjirlari bilan bog'liq hisoblanadi. Ko'pgina harbiy uchuvchilar harbiy xizmatni tark etgandan so'ng fuqarolik-uchuvchi malakasiga o'tadilar, shundan so'ng odatda ularning harbiy tajribasi fuqarolik uchuvchisi litsenziyasi uchun asos bo'ladi [2].

Hozirgi paytda dunyoda kuzatilayotgan xavf-xatarlardan kelib chiqib, havo mudofaasini yangi pog'onaga ko'tarish, tajriba tariqasida uchuvchisiz qurilmalar yig'ishni yo'lga qo'yish, aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashni takomillashtirish, xorijiy muassasalar bilan qo'shma ta'lim dasturlarni amalga oshirish borasida ishlar olib borilmoqda.

**Xulosa.** Harbiy aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashda harbiy-tarixiy fanlarni ham o'qitish, harbiy-siyosiy ish va tarbiyani takomillashtirish, shaxsiy tarkibni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ahamiyat qaratish [5], harbiy uchuvchilarning ruhiy tayyorgarligini hisobga olish ham bu jarayondagi dolzarb vazifalardandir.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022'2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Samolyot\\_uchuvchisi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Samolyot_uchuvchisi).

3. <https://mudofaa.uz/39058/>

4. <https://kun.uz/news/2019/10/30/qurolli-kuchlar-aviatsiyasi-uchuvchilar-tarkibini-tibbiy-korikdan-otkazish-tartibi-elon-qilindi>

5. Лантухов С.С. Деятельность органов государственной власти и военного управления по строительству военно-воздушных сил РККА во втором периоде Великой отечественной войны (19 ноября 1942-1943 годы): Дис. ... канд. истор. наук. ' М., 2022.

---

## BO'LAJAK OLIGOFRENOPELAGOGLARNING O'QUVCHILARNI SAVODGA O'RGATISHGA DOIR METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNI AHAMIYATI

*Pardayeva Munira Yusufovna, TDPU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lg'usi oligofrenopedagoglarni maxsus maktab o'quvchilarini savodga o'rgatishga doir metodik tayyorgarlini rivojlantirishni yanada takomillashtirish masalalarining nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, ularni savodga o'rgatishga o'qitish bo'yicha kompetentli yondashuvni pedagogik va psixologik adabiyotlardagi qiyosiy tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** savodga o'rgatish, metodik bilim, kompetensiya, metodik kompetensiya.

## ЗНАЧИМОСТЬ РАЗРАБОТКИ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ОЛИГОФРЕНОПЕДАГОГОВ ОБУЧЕНИЮ СТУДЕНТОВ ГРАМОТНОСТИ

*Пардаева Мунира Юсуфовна, базовый докторант ТГПУ*

**Аннотация.** В данной статье освещены теоретические основы вопросов дальнейшего совершенствования методической подготовки олигофренопедагогов к обучению грамоте учеников специальных школ, а также дан сравнительный анализ компетентного подхода к обучению их обучению грамоте в педагогической и психологической литературе.

**Ключевые слова:** обучение грамоте, методическое знание, компетенция, методик компетенция.

## THE SIGNIFICANCE OF DEVELOPING THE METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE OLIGOPHRENOPELAGOGS TO TEACH STUDENTS TO LITERACY

*Pardayeva Munira Yusufovna, PhD student of TSPU*

**Abstract.** This article provides the theoretical foundations for further improving the methodological preparation of oligophrenopedagogues for teaching literacy to students of type VIII special schools, as well as a comparative analysis of the competent approach to teaching them literacy in the pedagogical and psychological literature.

**Key words:** literacy training, methodological knowledge, competence, methodological competence.

**Kirish.** Jadal tarzda rivojlanib kelayotgan dunyoda yetakchi ta'lim muassasalarida imkoniyatlari cheklangan bolalardagi nuqsonlarni korreksiyalash va reabilitatsiya qilish, ularga ta'lim-tarbiya berish va imkoniyatlari, potentsiallarini ochib beradigan kasblarga tayyorlashda o'quvchilar uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlarni bevosita amaliy tarzda egallay olishlari ta'lim tizimiga tatbiq etilgan.

**Ключевые слова:** образование, профессия, квалифицированные кадры, рынок труда, государственная программа, школа, обучающийся, профессиональное образование.

## THE PROBLEM OF PROFESSIONAL EDUCATION OF STUDENTS IN UZBEKISTAN AND A SYSTEMATIC APPROACH TO THIS PROBLEM

**Muxammadiyeva Dilnavoz Dilshod qizi**, *doctoral student of the National research Institute for professional development of pedagogues and training in new methods*

**Abstract.** This article analyzes the reforms and adopted laws on vocational training of students in Uzbekistan in recent years and makes some recommendations.

**Key words:** education, profession, skilled personnel, labor market, state program, school, learner, professional education.

**Kirish.** Hech birimizga sir emaski, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan davrda mehnat bozoriga raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlarga har doimgidan ham ko‘proq ehtiyoj sezilmoqda. Yurtimizni yanada rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilash, malakali kadrlar tayyorlash maqsadida so‘nggi yillarda prezidentimiz tomonidan umumta‘lim maktablarida o‘qitish jarayonini takomillashtirish masalalari qayta-qayta tilga olinmoqda. 2022-yil 28-yanvardagi «2022-20226-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning tarqiqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli farmonida maktablarda ta‘lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish maqsad qilib olindi. Bundan tashqari, kasbiy ta‘lim bilan tizimli ravishda shug‘ullanish, kasbga yo‘naltirib o‘qitish ko‘lamini kengaytirish vazifalari belgilab olindi [1]. «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim, tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida» gi farmoniga asosan 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab umumta‘lim muassasalari bitiruvchilari o‘z iqtidori va qiziqishlariga mos

kasbni tanlab olishi, jamiyatda munosib o'z o'rnini topishi, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishi uchun «Kasbga yo'naltirish tizimi»ni joriy etish ko'zda tutilgan [2].

**Asosiy qism.** Har qanday jamiyat yuksak aqliy va ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali kadrlarga muhtoj. Qachonki, biz ana shunday kadrlarni yetishtirib chiqsak, jamiyatimizning yanada rivojlanishiga erishishimiz mumkin. Buning uchun esa, maktab ta'lim tizimi alohida o'ringa ega. Chunki insonda maktab yoshidan boshlab qandaydir kasb egasi bo'lish hoxishi paydo bo'ladi. Keyin u kasb tanlashga harakat qiladi. Agar ta'lim jarayonida fanlar kasbga yo'naltirilgan holatda o'qitilsa, mavzularing kasb egalari ahamiyatlilik darajasi ko'rsatib berilsa, har bir kasbning mohiyati ochib berilsa o'quvchi o'zining qiziqishlari, qobiliyati va emotsional holatidan kelib chiqib kasb tanlay oladi. Qachonki, inson o'zi qiziqqan sohada faoliyat yuritisa u muvaffaqiyatga erishadi. Bu fikr yillar davomida o'z tasdig'ini topib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan U-Report orqali kasbga yo'naltirish bo'yicha so'rov o'tkazilgan. Bu so'rovnoma 6300 dan ko'proq respondent ishtirok etgan va quyidagi natijalar qayd etilgan.

Davlat yoshlar uchun kasbga yo'naltirishni tashkil qilishi kerakmi degan savolga 82% o'quvchilar «kerak», 1% o'quvchi «bilmadim», 8% o'quvchi «kerak emas» deb javob bergan [3].

Kasbga yo'naltirishni qachondan boshlash kerak degan savolga respondentlar tomonidan quyidagicha javob berilgan: 57% maktabda, 22% bog'chada, 14% kollejda, 3% OTMda, 3% - bilmadim, 1% ishga kirishdan oldin [3].

Kim kasbga yo'naltirishi kerak degan savolga respondentlar tomonidan quyidagicha javob berilgan: 32% psixologlar, 28% o'qituvchilar, 14% boshqa, 13% ish beruvchilar, 8% - mehnat vazirligi xodimlari, 5% bandlikka ko'maklashuvchi markazlar. So'rovnoma natijalaridan ko'rinib turibdiki, yoshlarni kasbga yo'naltirish keng jamoatchilik fikriga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablarining vazifasi bo'lib qolmoqda va bunda o'qituvchi va maktab psixologlari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30% da tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan. O'qituvchining vazifasi – o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehiyotlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat [4].

2020-yil 23-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolangan O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning 10-moddasida professional ta'lim tizimi yoritilgan bo'lib, unga ko'ra yurtimizda quyidagi shakllardagi professional ta'lim turlari mavjuddir: boshlang'ich professional ta'lim; o'rta professional ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim [5]. Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi. O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyliги kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar ham o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi. Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limni olish huquqiga ega. 2020-2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekistonda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimida tegishli ta'lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari va texnikumlardan iborat professional ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi. O'zbekiston prezidentining 6 sentyabrdagi professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risidagi farmonida bu haqida so'z boradi [6]. Bundan tashqari, jami 388 ta kasb-hunar kollejlari binolari tegishli ro'yxatga asosan maktab sifatida foydalanilishi belgilandi. Kasb-hunar maktablarida maktablarning 9-sinf bitiruvchilariga 2 yillik kunduzgi ta'lim beriladi. Ta'lim olayotgan o'quvchilar Davlat byudjeti hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida (202730 so'm) oylik stipendiya hamda uch mahal ovqat bilan ta'minlanadi. Kollejlarda kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida ta'lim beriladi. Texnikumlarda esa, umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo'lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida ta'lim beriladi

«O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida» Hukumat qarori (466-son, 07.08.2020) qabul qilindi [7]. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Nizomga ko'ra, professional ta'lim mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari hamda «Hayot davomida ta'lim olish» prinsipi asosida ta'lim olishga mo'ljallangan. Ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli bitirganlarga davlat namunasidagi diplom beriladi. Diplom olgan bilim, ko'nikma va malakalarni mehnat faoliyatida qo'llash huquqini beradi. Professional ta'lim tizimidagi yangiliklardan biri dual ta'limdir. Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa, ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi [8]. Shu o'rinda Yurtboshimiz 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga qilgan Murojaatida «Ta'lim sohasidagi navbatdagi muhim yo'nalish, bu – yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelayotgani hammamizni o'ylantirishi kerak. Shu bois, 700 dan ortiq kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar imkoniyatidan samarali foydalanish zarur. Shu maqsadda 2023 yildan boshlab yangi dastur amalga oshiriladi. Har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy etiladi. Kelgusi besh yilda barcha kollej va texnikumlar ushbu tizim bilan qamrab olinadi», – deya ta'kidlab, kasb-hunar ta'limiga ham jiddiy e'tibor qaratilishiga urg'u berib o'tdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2023-yillarga mo'ljallangan «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» davlat dasturi ta'lim sohasini o'z ichiga olgan holda, rivojlantirishga va kasbga yo'naltirishga qaratilgan. Quyidagi muhim nuqtalarni keltirib o'tamiz [9]: Ta'lim sifati: davlat dasturi ta'lim sifatini oshirish va sohani xorijiy tajriba asosida isloh qilishga qaratilgan. Bu esa, ta'lim sohasidagi yangiliklarni amalga oshirish, o'quvchilarga sifatli va zamonaviy ta'lim berishni maqsad qiladi. Professional ta'lim tizimi: dasturda professional ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu soha yuqori sifat va e'tibor bilan yaxshi tuzilgan bo'lishi uchun harakat qilmoqda. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish: o'quvchilar 10-sinfdan boshlab 64 ta ishchi kasblar, 21 ta tadbirkorlik sohasi, 10 ta IT va «kreativ industriya» yo'nalishidagi kasblarga o'rgatilmoqda. Bu esa, o'quvchilarni turli sohalarda kasbga yo'naltirish va ularni amaliyotda foydali bo'lishga tayyorlashni maqsad qiladi. Fizika fanidan tashqari: dasturda belgilangan vazifalar fizika fanidan tashqari boshqa fanlar bo'yicha ham o'quvchilarni kasbga yo'naltirib o'qitishni talab qilmoqda. Bu esa, o'quvchilarga genetika, innovatsiyalar, matematika, tillar va boshqa sohalarda ham rivojlanish imkoniyatlarini beradi. Yangi yondashuv: o'quvchilarni kasbga yo'naltirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa, yangi yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rivojlantirish va mamlakatning umumiy taraqqiyotiga xizmat qilishni maqsad qiladi. Umuman olganda bu davlat dasturi O'zbekistonlik o'quvchilarni sifatli kasbga yo'naltirilgan va innovatsiyalarga ishonchli fuqarolar sifatida tayyorlashga

qaratilgan. Bu davlat dasturi O'zbekistonning ta'lim sohasini rivojlantirish va mamlakatning umumiy taraqqiyoti uchun muhim qadamni ifodalaydi. Shu fikrni kengaytirib, dasturni yuqori samarali amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni ko'rsatish mumkin: hamkorlik va tashkil etish: dasturni amalga oshirishda, ta'lim tizimining har bir qismi, o'qituvchilar, maktablar, oliy ta'lim muassasalari, korxonalar va sohalar bilan samarali hamkorlik qilish kerak. Hamkorlik, yangiliklarni hayotga tatbiq etish, va o'zbekistonlik talabalarni xalqaro darajada tanitish imkoniyatlarini oshirishga imkon beradi. Adolat va qoniqlik baho berish: o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida adolat va qoniqlik baholash muhimdir. Har bir o'quvchi kuchli va kamtar kuchli yonlarda rivojlanishi mumkin. Bu esa, uning shaxsiy qobiliyatlarini e'tirof etish va qo'shimcha o'quvchilarni mustahkam qilishga olib keladi. Ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish: dastur davlat ilmiy markazi va oliy ta'lim muassasalari orqali ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirishni talab qiladi. Bu esa, yangi bilimlar, texnologiyalar va soha o'rtasida xalqaro darajada tanqidlash va tanitish imkoniyatlarini oshiradi. O'zbekiston xalqaro tanitish diplomatiyasini rivojlantirish: O'zbekistonning ta'lim sohasidagi muvaffaqiyati dunyoga o'zining o'zgacha ta'lim tizimi, innovatsiyalari va o'quvchilarni orqali tanitish orqali ko'rsatilishi mumkin. Xalqaro tanitish diplomatiyasi yordamida, O'zbekiston ta'limini dunyoda tanitish va ko'rsatish bo'yicha strategiyalar rivojlantirilishi kerak. Bu chora-tadbirlar dasturni samarali amalga oshirishda yordam berishga imkon beradi va O'zbekistonning ta'lim sohasidagi rivojlanishini kuchaytirish uchun xizmat qilishi mumkin.

**Xulosa.** O'quvchilarni kasbga yo'naltirib o'qitish, O'zbekistonning rivojlanishi va progressiv rivojlanish yo'nalishlarini tashkil etishda asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Bu, yangi avlodni malakali va iqtidorli kafolatlantirish, texnologiyalarni rivojlantirish, yangi sohalarida innovatsiyalarni amalga oshirish va mamlakatimizni global muhitda o'z me'yori va salohiyatini o'zgartirishda katta rol o'ynaydi. Shuningdek, mehnat va taraqqiyotga yo'naltirilgan o'quv jarayonlari orqali o'quvchilarga zamonaviy bilim va ko'nikmalar berish orqali ularni kasbga yo'naltirish, mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim vazifalardan birini bajaradi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning tarqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni.
3. <https://uzbekistan.ureport.in/story/364/>
4. Sharipov Sh.S. va boshq. Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari: O'quv qo'llanma. - T., 2007.
5. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RB-637-sonli «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-sonli «Professional ta'lim tizimini yanada Takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi 466-sonli «O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaati: <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
9. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi: <https://davlatdasturi.uz>

---

## HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BOLALAR VA ULARNING OILALARI BILAN ISHLASHDA IJTIMOY PEDAGOG VA IJTIMOY ISHCHI FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI

*Nazarova Ra'no Sidiq qizi, «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot instituti  
tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Huquqbuzarlikka moyil bo'lgan bolalar va ularning oilalarini erta aniqlash va erta yordam ko'rsatish choralarini ko'rish bo'yicha jahonda bir qancha yangi yondashuvlar ilgari surilmoqda. Davlatimizda ijtimoiy ishchi va ijtimoiy pedagog mutaxassislari oliy ta'lim muassasalarida o'qitilib, jamiyatda o'z vazifalarini amalga oshirmoqdalar. Bu ikki yo'nalishdagi mutaxassislar o'z faoliyati davomida bunday toifadagi bolalar va oilalarga yordam ko'rsatishi funksional vazifa sifatida belgilangan bo'lib, mazkur maqolada har ikkala yo'nalishning o'ziga xos jihatlarini yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** *huquqbuzarlikka moyil bo'lgan bolalar, ijtimoiy pedagog, ijtimoiy ishchi, ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya, voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ijtimoiy ish.*

## ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОЦИАЛЬНОГО ПЕДАГОГА И СОЦИАЛЬНОГО РАБОТНИКА С ДЕТЬМИ, СКЛОННЫМИ К ПРАВОНАРУШЕНИЯМ И ИХ СЕМЬЯМИ

*Назарова Рано Сидик кизи, базовый докторант научно-исследовательского института «Семья и гендер»*

**Аннотация.** В мире появляется несколько новых подходов по предотвращению детской преступности и оказанию ранней помощи их семьям. В нашей стране социальные работники и социальные педагоги готовятся в высших учебных заведениях и выполняют свои обязанности в обществе. В ходе своей работы специалисты этих двух направлений определяют функциональную задачу оказания помощи детям и семьям данной категории, и в данной статье освещены особенности обоих направлений.

**Ключевые слова:** *дети-правонарушители, социальный педагог, социальный работник, социально-педагогическая реабилитация, социальная работа с несовершеннолетними правонарушителями.*

## MAIN AREAS OF ACTIVITY OF A SOCIAL PEDAGOGUE AND SOCIAL WORKER WITH CHILDREN PROPOSED TO OFFENSE AND THEIR FAMILIES

*Nazarova Rano Sidiq qizi, doctoral student of the research institute  
«Family and gender»*

**Abstract.** Several new approaches are emerging around the world to prevent child crime and provide early assistance to their families. In our country, social workers and social pedagogues are educated in higher educational institutions and carry out their duties in society. In the course of their work, specialists in these two areas determine the functional task of assistance to children and families of this category, and this article highlights the features of both areas.

**Key words:** *child offenders, social teacher, social worker, social and pedagogical rehabilitation, social work with juvenile offenders.*

**Kirish.** Jamiyatda ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'lgan turli oilalar va shaxslarga eng birinchi instansiya sifatida mahallalarda yordam ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish ham fuqarolar uchun, ham davlat idoralari uchun birmuncha qulaylik tug'diradi. Shu maqsadda davlatimizda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son «Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordamni ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha

kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonida davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo'nalishlari sifatida «...ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og'ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish» [1] vazifasi ham keltirib o'tiladi. Ushbu vazifalarning to'laqonli amalga oshirish uchun birlamchi bo'g'in sifatida mahallalardagi mavjud tizimni takomillashtirish masalasi yuzaga keldi. Ushbu masala yuzasidan 2023-yilning 26-sentyabrida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi [2]. Ushbu yig'ilishda tizimning mavjud holati tahlil qilinib, mahalla «beshligi»ga soliq xodimi va ijtimoiy xodim qo'shildi hamda mahalla «yettiligi» tizimiga o'tilishi belgilandi. Ijtimoiy xodimning asosiy vazifalari sifatida yolg'iz keksa, nogiron va boshqa muhojirlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish kabi aniq vazifalar belgilandi. Shu bilan birga jamiyatimizda ijtimoiy pedagogning asosiy vazifalari ham belgilangan bo'lib, ularga shaxslarning ijtimoiylashuvi masalalariga ko'maklashish, tarbiyalash, axborot berish, hamkorlik o'rnatish, tashkil qilish, himoya qilish va qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar kiradi.

**Asosiy qism.** Ijtimoiy ish va ijtimoiy pedagogikaning umumiy jihatlari:

Ijtimoiy pedagogika insoniyat jamoa bo'lib yashashni boshlagan davrda vujudga kelgan deb hisoblaniladi. Jamoada birgalikda olov qilish, mehnat qilish, giyohlardan foydalanish, olov yoqish kabilarni jamoaning kichik yoshdagi vakillariga o'rgatish, jamoaning barcha uchun majburiy bo'lgan qoidalariga rioya qilish ko'nikmasini shakllantirish maqsadidagi harakatlar ilk ijtimoiy pedagogik tadbirlar sifatida qaraladi [3, 43-b.]. Shu kabi ijtimoiy ish sohasining vujudga kelishi ham insoniyat va jamiyat rivojining dastlabki bosqichlariga borib taqaladi. Qadimgi davrlarda o'z-o'zini ta'minlay olmaydigan shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatish (masalan, Qadimgi Misrda ehromlar oldida muhojirlarga non tarqatish, Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimda qashshoq odamlarga pul, non, kiyimlar ulashish va boshqalar) ijtimoiy ishning asosiy elementi bo'lgan ijtimoiy himoyaning dastlabki ko'rinishlaridir [4, 10-b.]. Ushbu ikki faoliyat yo'nalishining tarixiy ildizlari qadimgi davrlardagi insonparvarlik faoliyatiga borib taqaladi. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish sohasining ilmiy asosini ijtimoiy falsafa, sotsiologiya va psixologiya tashkil etadi.

Bir qator mamlakatlarda ijtimoiy ishchi va ijtimoiy pedagog kasblari «ijtimoiy xodim» deb qaraladi va ularga barcha turdagi ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordam ko'rsatish vazifasi yuklanadi. Tadqiqotchi Tuggener «o'ziga xoslik nazariyasi (identiklik nazariyasi)» asosida tahlil qilib, ushbu ikki sohani «tanganing ikki tomoni» sifatida ifodalaydi, ular bir-birini to'ldirishi va bir-biriga tayanishi haqida bayon etadi [5]. Bir qator tadqiqotchilar ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishning umumiy va xususiy jihatlarni o'rgangan bo'lib, ularning aksariyati bu ikki yo'nalishning sinonim tushunchalar emasligini ta'kidlashadi. Jumladan, nemis olimi I.Noyfeld ijtimoiy ish sohasini hayriya va homiylikning izdoshi hisoblab, shaxsni himoya qilish va unga yordam ko'rsatishga qaratilgan barcha faoliyatni o'z ichiga oladi deb hisoblaydi. Ijtimoiy pedagogikani esa, turli yosh guruhlari bilan pedagogik faoliyatni olib borishni tushunadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy ish aholining yordamga muhtoj yoki nochor guruhlaridagi ijtimoiy muammolarni amaliy hal qilishga qaratilgan faoliyat, ijtimoiy pedagogika esa, bunday qatlamdagilarning ta'lim va tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyat sifatida ifodalanadi. G.D.Kuznetsova ijtimoiy ishchi va ijtimoiy pedagogning funksional vazifalaridan kelib chiqib, ikki sohaning o'ziga xos faoliyat yo'nalishini aniqlashga harakat qildi. Uning fikricha, ijtimoiy ishchining asosiy vazifasi – vasiylik va homiylikni kuchaytirish, subyektlar o'rtasida vositachilik qilish, shaxs va uning atrofidaqilar bilan o'zaro munosabatlariga ko'maklashish deb hisoblaydi. Ijtimoiy pedagog esa, jamiyatdagi barcha shaxslarning muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun shart-sharoitlarni tashkil etadi va jamiyatga moslashish uchun tarbiyalanish faoliyatiga ko'maklashadi deb hisoblaydi. Shu bilan birga,

V.G.Bocharova va G.N.Filonov ijtimoiy pedagogikani ijtimoiy ishning nazariy-metodik qismi sifatida ko'rishadi, ijtimoiy xodim ijtimoiy pedagogikani chuqur bilishi va shaxslarga pedagogik ta'sir ko'rsata olishi zarur deb hisoblashadi [6, 48-b.].

Ijtimoiy ish va ijtimoiy pedagogikaning obyekti o'xshashligiga qaramay, ayrim jihatlari ularni farqlab turadi: ijtimoiy ish obyekti yoshidan qat'i nazar turli muammoga duch kelgan, yordamga muhtoj bo'lgan shaxs; ijtimoiy pedagogikaning obyekti esa, ijtimoiylashuv jarayonida ma'lum ijtimoiy normalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan va bunda pedagogik yordamga muhtoj bo'lgan shaxslar, odatda, bolalar. Shuningdek, ular bilim sohasiga ko'ra ham farqlanadi: ijtimoiy pedagogika – pedagogikadan, ijtimoiy ish esa, sotsiologiyadan oziqlanadi deb hisoblanadi. Amaliy faoliyatga ko'ra, ijtimoiy pedagoglar faoliyati davomida pedagogik nazariyalar va metodikalarga suyanmalar, ijtimoiy ishchilar ijtimoiy nazariyalar va texnologiyalardan foydalanadilar [7, 80-b.].

Huquqbuzarlikka moyil bolalar va ularning oilalari bilan ijtimoiy ishning asosiy yo'nalishlari: Ijtimoiy ish – bu qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxs, oila yoki jamiyat resurslaridan foydalanishni tashkillashtirishdir [8, 528-b.]. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ijtimoiy ish – bu voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning ijtimoiy sohadagi ixtisoslashgan sohadir, u voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga mo'ljallangan bo'lib, ularning moddiy farovonligini, voyaga yetmaganlarning ongi, tafakkuri, madaniy darajasini oshirishga qaratilgan umumiy ijtimoiy chora-tadbirlarga asoslanadi. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ijtimoiy ish – bu voyaga yetmaganlarga ijtimoiy funksiyalarini to'g'ri yo'lga qo'yish yoki tiklashga yordam berishning kasbiy faoliyati; jamiyatda ushbu maqsadlarga erishish uchun qulay sharoitlarni yaratishdir [9, 91-b.].

Voyaga yetmagan jinoyatchilar bilan ijtimoiy ishning asosiy yo'nalishi quyidagilardan iborat: 1. O'spirin ajralmas shaxsini o'rganish va shu asosda uning o'ziga xosligi, ijtimoiy yoki noqonuniy sabablari va xususiyatlari, harakterdagi o'ziga xoslik, xulq-atvorini identifikatsiyalash. 2. O'spirin ma'lum bir turga shartli ravishda tayinlanishi va u bilan individual ishlashning asosiy yo'nalishini ko'rib chiqish. 3. O'spirin bilan individual ishlashda ularning tasnifidan foydalangan holda ustuvor chora-tadbirlarni belgilash. 4. Ijtimoiy-ijobiy, samarali ta'sirini oshirishga qaratilgan individual ishning asosiy yo'nalishini – voyaga yetmagan shaxsning mustaqilligi holatini aniqlashtirish, uning dinamikasini o'rganish va eng oqilona usullardan foydalanish. 5. Zarur bo'lgan qo'shimcha mutaxassislarni jalb qilish 6. Bajirilgan ishlarni tahlil qilish, yakunlash va umumlashtirish [10; 99-100-b.].

Huquqbuzarlikka moyil bolalar va ularning oilalari bilan ijtimoiy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari: Ijtimoiy pedagogika – ta'lim subyekting (bola, ota-ona, uning o'mini bosuvchi shaxslar, o'qituvchilar va boshqalar) muayyan jamiyatning faol yetuk fuqarosi sifatida shakllanishiga yo'naltirilishi bilan bog'liq muammolarni o'rganuvchi faoliyat yo'nalishidir. Ijtimoiy pedagog voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini oldini olish maqsadida huquqbuzarlik sodir etish havfi ostida bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va hal qilishga yordam beradi.

Huquqbuzarlikka moyil bolalar bilan ijtimoiy pedagog ish faoliyatining asosiy yo'nalishlari: bola tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishda oilalarga yordam berish; o'smir, o'spirinda huquqbuzarlik harakatlarini sodir etishga bo'lgan ishtiyoqning sabablarini aniqlash; ota-onalar va bolalarni ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlarga jalb qilish; muammoni hamda qiyin hayotiy vaziyatni o'rganish, diagnostika qilish, hal qilish yo'llarini qidirish; ota-onalar, bolalar, pedagoglar bilan individual va jamoaviy konsultatsiyalar o'tkazish; boshqa tashkilotlardagi mutaxassislar yordami zarur bo'lganda, ularni jalb qilish; bola va uning oila a'zolariga huquqiy, tarbiyaviy, psixologik maslahatlar berish; bolalarning o'quv darslaridan tashqari vaqtlarini samarali tashkil etishga ko'maklashish [11, 62-b.].

Olima N.M.Egamberdiyeva huquqbuzarlikka moyil va deviant xulqli bolalar bilan ijtimoiy pedagog faoliyatining asosini ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya chora-tadbirlarini tashkil etishini bayon etadi. Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya - bolaning hayotiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgan shaxsiy fazilatlar, uning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashuvchi hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, ijobiy ijtimoiy rollar va xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaviy tavsifdagi chora-tadbirlardir [7, 177-b.].

**Xulosa.** Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish sohasi voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishda tobora huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari faoliyatidan samaraliroq natija taqdim etishi mumkinligi xorijda o'tkazilgan qator tadqiqotlarda o'z ifodasini topmoqda. Buning sabablari sifatida ijtimoiy xodimlarning bolaga individual yondashuv uslublaridan xabardor ekanligi, oilalar bilan ishlashda ijtimoiy xizmatlar bilan faol hamkorlikda bo'lishi, muammoni keltirib chiqarayotgan omillarni har tomonlama tahlil qilib, ijtimoiy yordam ko'rsata olish ko'nikmasining mavjudligi, pedagogik maslahat berish malakasi va boshqalar ko'rsatiladi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim muassasalarida ham ijtimoiy pedagog, ham ijtimoiy ishchi faoliyat yuritishadi. Ularning faoliyatidagi asosiy yo'nalish esa, ijtimoiy pedagoglarda tarbiyalanish manbalarini, imkoniyatlarini, sharoitlarini yaxshilash, bola va oila a'zolarining tarbiyaviy sifatlarini oshirish orqali samarali ijtimoiylashuvga ko'maklashish; ijtimoiy ishchilarda esa, bolalar va ularning oilalari bilan muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun zarur bo'lgan ijtimoiy yordam manbalarini jalb qilish va hamkorlikdagi faoliyatni ta'minlab turishdir.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son «Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordamni ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni: <https://lex.uz/docs/-6480342#-6483437>.

2. Mahalla tizimini yanada kuchaytirish masalalari muhokama qilindi: <https://president.uz/oz/lists/view/6695>.

3. Хуторской А.В. К обоснованию педагогической футурологии // Народное образование. - М., 2019.

4. Ганиева М.Х. Основы социальной работы: Учебное пособие. - Т., 2009.

5. Курманева Г.К. К вопросу соотношения понятий «социальная работа» и «социальная педагогика» // Обучение и воспитание: методика и практика. - М., 2009.

6. Заглодина Т., Степанченко Д. Социальная работа и социальная педагогика: общее и специфическое // Психолого-педагогическое наследие прошлого в современной социально-педагогической деятельности: Материалы 7-х международных студенческих педагогических чтений. - Е., 2010.

7. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika: O'quv qo'llanma - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

8. Социальная работа с различными группами населения: Учебное пособие / Коллектив авторов; под ред. Н.Ф.Басова. - М.: КНОРУС, 2016.

9. Чабанова С.С. Социальная практика реализации защитной концепции по отношению к несовершеннолетним, находящимся в конфликте с законом // Отечественный журнал социальной работы. - М., 2014.

10. Федотова В.О. Криминологическая характеристика личности несовершеннолетнего правонарушителя в аспекте правосознания // Вестник Краснодарского университета МВД России. - М., 2009.

11. Садвакасова З.М. В помощь социальному педагогу, или как работать с трудными детьми: Учебно-методическое пособие. - Алматы, 2008.

---

**BO'LAJAK SURDOPEDEAGOGLARGA IMO-ISHORA NUTQINI O'RGATISHDA BILINGVUAL YONDASHUV**

*Yembergenov Dauran Tileubergenovich, TDPU o'qituvchi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak surdopedagoglarga imo-ishora nutqini o'rgatishda bilingvual yondashuv mazmuni yoritiladi. Imo-ishora nutqini o'rgatishda bilingvual yondashuvga oid ilmiy qarashlar tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** surdopedagogika, bo'lajak surdopedagoglar, imo-ishora nutqi, bilingvual yondashuv, kar bolalar, nutqiy muloqot, mimika, mikrosotsium, kar insonlar.

**ДВУЯЗЫЧНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ЖЕСТОВОЙ РЕЧИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ГЛУХИХ**

*Ембергенов Дауран Тилеубергенович, преподаватель ТГПУ*

**Аннотация.** В данной статье описано содержание билингвального подхода в обучении жестовой речи будущих сурдопедагогов. Проанализированы научные взгляды на билингвальный подход к обучению жестовому языку.

**Ключевые слова:** сурдопедагогика, будущие сурдопедагоги, жестовая речь, билингвальный подход, глухие дети, речевое общение, мимика, микросоциум, глухие.

**BILINGUAL APPROACH TO TEACHING SIGN SPEECH TO FUTURE TEACHERS OF THE DEAF**

*Yembergenov Dauran Tileubergenovich, teacher of TSPU*

**Abstract.** This article describes the content of the bilingual approach to teaching sign speech to future teachers of the deaf. Scientific views on the bilingual approach to teaching sign language are analyzed.

**Key words:** pedagogy of the deaf, future teachers of the deaf, sign language, bilingual approach, deaf children, speech communication, facial expressions, microcommunity, deaf.

**Kirish.** Mamlakatimizda zamonaviy talablar asosida ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan holda oliy ta'lim muassasalari bo'lajak surdopedagoglarga imo-ishora nutqi vositasidagi muntazam kommunikativ muloqoti o'sishida interaktiv metodlar, tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion loyihalar, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va intensiv ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko'tarish hamda uning moddiy-texnik bazasini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi.

**Asosiy qism.** Bo'lajak surdopedagoglarga imo-ishora nutqini o'rgatish sifatini oshirishda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga oid yondashuvlarni jadal-lashtirish zarurati ko'zga tashlanmoqda. O'qituvchi-surdopedagoglarni kasbiy tayyorlash sohasi yangi g'oyalar, konsepsiyalarga, innovatsion usullarga muhtoj bo'lib, ularni qo'llash natijasida yuqori malakali mutaxassislar ko'magida kar va zaif eshituvchi bolalarga ta'lim berish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish jahon andozalari darajasiga ko'tarilishi mumkin. Zamonaviy mehnat bozorida nafaqat bilimli, balki turli toifadagi insonlar bilan imo-ishora nutqi vositasida muloqotga kirisha oladigan, jamoada ishlash qobiliyatiga ega, o'zgalarni qiziqitirib, jalb eta olish singari qator muhim ijtimoiy malakalarga ega mutaxassis ko'proq ustunlikka ega. Imo-ishora nutqi vositasidagi katta hajm va turli mazmundagi axborotlarni egallay olish, ularni tahlil etish, tizimlash, mustaqil xulosa chiqarish, shaxsiy

qarorlar qabul qilish va mazkur qaror natijalarini oldindan ko'ra bilish singari qobiliyatlarni ham muhim rol o'ynaydi. Sanab o'tilgan faoliyat shakllari kommunikativ saviyaning muhim elementi bo'lib, shaxsning tegishli sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ishlari esa, mutaxassislar tayyorlashning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Muammoni nazariy o'rganish, eksperimental tadqiqotlar ma'lumotlarini tahlili, xorijiy mutaxassislarning tajribasi bilan tanishish natijasida L.S.Vigotskiy xulosaga keladiki, karlarning har tomonlama rivojlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy tarbiyalash masalalarini hal etish uchun pedagogik ta'sir etish nutqiy vositalar tizimini kengaytirish, karlar nutqining ayrim turlariga, birinchi navbatda, mimika va yozma nutqqa, an'anaviy nazariy va amaliy munosabatni qayta baholash zarur. L.S.Vigotskiy imo-ishora nutqini o'rgatishda bilingvual yondashuv pedagogik tizimi masalalariga amaliy yondashib: «kar bolalarning ruxsat berilgan nutqiy muloqot doirasidan mimikani haydab chiqarib, surdopedagogika shu harakati bilan o'zining doirasidan kar-soqov bolaning jamoaviy hayot va faoliyatidan katta qismni o'chirib tashlayapti», – degan fikrni bayon etadi. L.S.Vigotskiyning imo-ishora nutqi – bu «o'zining funksional mazmuni barcha boyligidagi asl nutq», degan fikri jahon fanida yangilik bo'ldi. Imo-ishora nutqini rivojlangan kommunikativ tizim sifatida tan olishi J.I.S.Vigotskiyga kar bolaning rivojlanish xususiyatlarini poliglossiya sharoitda rivojlanish deb ko'rishga imkon berdi. O'z qarashlarini I.S.Vigotskiy kar bolalar o'qituvchilarining umumrossiya konferensiyasida ta'riflab berdi [1, 76-b.]: «...biz mimikaga nazar-pisandsiz munosabatda bo'lmasdan va uni dushman sifatida mensimay, nutqning turli shakllari nafaqat bir-biriga raqib bo'lmasligi va o'zaro bir-birini rivojlanishini sekinlashtirmasligi, balki ular kar bolaning nutqni egallashga ko'tariladigan zinapoyasi sifatida tushunib, kar bolaning nutqiy faoliyati barcha imkoniyatlaridan foydalanishimiz kerak. Shuning uchun kar bola uddalaydigan nutqning barcha turlaridan maksimal ravishda foydalanish – bu kar bolalarni tarbiyalashni tubdan yaxshilashning kerakli sharti». Zamonaviy madaniy sotsiologik konsepsiyalarda sivilizatsiyalangan jamiyatning taraqqiyoti uning tarkibidagi milliy, diniy, til va boshqa an'analar bilan farqlanadigan mikrosotsiumlarning o'zaro harakatlanishi muvaffaqiyatiga bog'liq. Bunday mikrosotsiumlar a'zolari qandaydir barcha uchun yagona «standart»ga mos bo'lishi shart emas, balki o'zining alohida ehtiyojlarini amalga oshirishga to'la huquqqa ega. Bu jamiyatni nogironlarga, shu hisobdan, kar odamlarga, munosabatini tubdan o'zgartirdi. Endi kar insonlardan «ko'pchilikka», eshitadiganlarga o'xshashi talab qilinmaydi va shu o'zini karlar mikrosotsiumi a'zolari deb hisoblagan kar odamlar o'zlarini o'ziga xos shaxs sifatida o'z madaniyatini rivojlantirishi, o'z tiliga egalik qilishi, milliy ishora tilida ta'lim olish huquqiga ega [2, 45-b.]. Aynan shu qoidalar «bilingvistik yondashuv» tizimining platformasiga joylashgan. «Bilingvistik yondashuv» rahnamolari ta'kidlashicha, kar bolalarni o'qitish va tarbiyalashda ikki teng huquqli nutqiy vositalardan foydalanish kerak: milliy til (o'zbek, ingliz, nemis va hokazo) va milliy ishora tili.

Bo'lajak surdopedagoglarga imo-ishora nutqini o'rgatishda bilingvual yondashuv pedagogik tizimi imo-ishora tilini o'qitishning yangi yo'nalishi sanalib, mazkur tendensiya dunyoda 1980-yillarning boshlarida paydo bo'lgan. Bilingvual termini lotincha «bilingvizm», «bilingvual» so'zlari ma'nosini ifodalab, tiliga «ikki tili», «ikki tillilik» sifatida tarjima qilingan. Ikki tili ta'limning uslubiy platformasining asosini sivilizatsiyalashgan jamiyatning o'zgaruvchan mentalitetini, kar insonlarning mikrosotsiumlariga, imo-ishora tiliga yangicha munosabatni aks ettiruvchi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalar majmui tashkil etadi. Zamonaviy ilmiy paradigma butun o'quv jarayonini tubdan qayta qurish, milliy imo-ishora tilini og'zaki nutq bilan bir qatorda pedagogik ta'simning asosiy vositalari tizimiga kiritishni ta'minlaydi [3, 87-b.]. Kar insonlarga nisbatan ikki tillilik atamasi 25 yil oldin ishlatila boshlangan. Ko'pchilik kar insonlar, u yoki bu darajada, bir vaqtning o'zida o'z mamlakatining imo-ishorali nutq belgisi va og'zaki tilida gapirishadi. Kar insonlarning ayrimlari imo-ishora tilini asosiy til deb biladi, ayrimlari og'zaki tilni afzal ko'radi, ammo ular aloqa holatiga qarab, ikkalasini ham ishlatishi mumkin [1, 32-b.]. Bo'lajak surdopedagoglarga imo-ishora nutqini o'rgatishda bilingvual

yondashuv pedagogik tizimi o'quv jarayonining ikkita nutq shaklidan o'zbek tili hamda o'zbek ishora tili teng foydalanishni ko'zda tutadi. Bo'lajak surdopedagoglarga imo-ishora nutqini o'rgatishda bilingvual yondashuvni amalga oshirishda imo-ishora nutqini o'rgatish omillarni hisobga olish lozim. Birinchidan, bu imo-ishora tillariga nisbatan tubdan o'zgargan munosabat. Karlar deyarli har doim o'zlarining muloqotlari uchun imo-ishora tilidan foydalanganlar va IV asrda Avliyo Avgustin tomonidan imo-ishora tilining birinchi tavsifi bayon qilingan. Fransiya va Rossiyada XX asming 70-yillarida faqat milliy imo-ishora tillari haqida V.Stouki, M.Brennon, G.L.Zaysevaning fundamental tadqiqotlari shuni isbotladiki, imo-ishora tili o'ziga xos grammatika, lug'at va morfologiyaga ega bo'lgan to'laqonli, murakkab va boy lingvistik tizimdir. imo-ishora tili ibtidoiy til emasligi isbotlangan [4, 89-b.]. G.L.Zayseva ta'kidlaganidek, o'quv jarayonida imo-ishora tilidan bilingvual foydalanish o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi barcha aloqa to'siqlarini bartaraf etadi, ular o'rtasida samimiy, ishonchli munosabatlarni yaratadi. Shuningdek, u hissiy jihatdan zaryadlangan o'rganishni ta'minlaydi. Aloqa to'siqlarini bartaraf etish o'quv ma'lumotlari hajmini sezilarli darajada oshirish, uni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish va idrok etishni tezlashtirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, mazkur fanlarni og'zaki nutq tilida o'qitishning murakkabligi tufayli ilgari kar maktab o'quvchilari uchun mavjud bo'lmagan o'quv fanlari (masalan, chet tili, mantiq, etika) va bilim sohaslarini kengaytirishga imkon beradi [5]. Maxsus ta'lim o'quv jarayonida imo-ishora tilidan bilingvual foydalanish kar o'quvchilarni umumta'lim maktabining o'quv dasturini to'liq va taqdim etilgan vaqt ichida bajarish uchun haqiqiy imkoniyat beradi. Kar ota-onalarning kar bolalari eshituvchi oilalaridagi kar bolalarga qaraganda yaxshiroq IQ ko'rsatkichlariga ega bo'lib, eshitishda nuqson bo'lgan tengdoshlaridan ustun turadi. Shu sababli oilada imo-ishora nutqiga erta o'rgatish va lingvistik bazaning tabiiy shakllanishi imo-ishora nutqini keyingi muvaffaqiyatli o'rganishning asosiga aylanadi. Bilingvual yondashuv asosida imo-ishora nutqini o'rgatish bo'lajak surdopedagoglarni keng umumiy dunyoqarashga ega bo'lib, jamiyatni yetuk a'zosi sifatida ijtimoiy moslashishida samara beradi.

**Xulosa.** Muammoni nazariy o'rganish, eksperimental tadqiqotlar ma'lumotlarini tahlili, xorijiy mutaxassislarining tajribasi bilan tanishish natijasida L.S.Vigotskiy xulosaga keladiki, karlarning har tomonlama rivojlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy tarbiyalash masalalarini hal etish uchun pedagogik ta'sir etish nutqiy vositalar tizimini kengaytirish, karlar nutqining ayrim turlariga, birinchi navbatda, mimika va yozma nutqqa, an'anaviy nazariy va amaliy munosabatni qayta baholash zarur.

#### Adabiyotlar:

1. Геранкина А.Г. Применение дактильно-жестового перевода как вспомогательного средства в вечерних школах для глухих: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М., 1996. - 18 с.
2. Abdullayeva M.M. Bo'lajak surdopedagoglarning imo-ishora nuqti vositasidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ped. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoref. -T., 2017. -22 b.
3. Иванюшева Н.В. Мимико-жестикуюляционная речь. - Киев: Реклама, 2008.
4. Зайцева Г.Л. Замонавий имо-ишора тилини ўқитиш муаммолари бўйича Л.С.Виготский билан мулоқот // Дефектология. - М., 1998. - № 2. - С. 38-41.
5. Yakubjanova D.B. Bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyasi: Ped. fanl. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... dis. Avtoref. - T., 2017. - 22 b.

---

**TALABALARNI TELEKOMMUNIKATSION TA'LIM FAOLIYATIGA  
TAYYORLASHDAGI VOSITALARI HAQIDA**

*Abdullayev Nozimjon Qodiraliyevich, O'zPFITI doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika fani o'qituvchilariga axborot telekommunikatsion ta'lim faoliyatini o'rgatishda yuzaga keladigan pedagogik muammolar va ularga berilgan yechimlar, fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, pedagogikaning zamonaviy o'quv tajribasidan foydalangan holda amalga oshirish masalalari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** *axborot, telekommunikatsiya, kompyuter, texnologiya, masofaviy ta'lim, interaktiv aloqalar.*

**О СРЕДСТВАХ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННОЙ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

*Абдуллаев Нозимжон Кодиралиевич, докторант УзНИИПН*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены педагогические проблемы, возникающие при преподавании информационно-телекоммуникационной образовательной деятельности будущими преподавателями информатики в высших учебных заведениях, и пути их решения с использованием новейших достижений науки и техники, современного педагогического опыта.

**Ключевые слова:** *информация, телекоммуникации, компьютер, технологии, дистанционное образование, интерактивные коммуникации.*

**ABOUT TOOLS FOR PREPARING STUDENTS FOR TELECOMMUNICATION  
EDUCATIONAL ACTIVITIES**

*Abdullaev Nozimjon Kodiraliyevich, doctoral student of UzRIPS*

**Abstract.** This article deals with the pedagogical problems that arise in the teaching of information and telecommunication educational activities to future informatics teachers in higher educational institutions and their solutions, using the latest achievements of science and technology, modern educational experience of pedagogy. issues of increase are covered.

**Key words:** *information, telecommunications, computer, technology, distance education, interactive communications.*

**Kirish.** Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan keng qo'lamli islohotlar natijisida - axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirishga katta hissa qo'shayotgan, o'zining bilimi va salohiyati hamda yuqori darajadagi kasbiy mahorati bilan boshqalarga namuna bo'layotgan soha xodimlari mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 29-noyabrda «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida «mohir aloqachi» ko'krak nishoni va «o'z kasbining ustasi» belgisini ta'sis etish to'g'risida»gi 681-son qarori qabul qilindi [1]. Bu esa, o'z navbatida, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish yo'lida katta motivatsiya bo'la oladi. Ushbu qaroming ijrosi davlatimiz va jamiyatimizning axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish va bu boradagi bilimlarni o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlash masalasida befarq emasligini bildiradi. Yoshlarga axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida ta'lim olishda keng imkoniyatlarni taqdim etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi «Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 556-son qarori qabul qilindi [2]. Bu esa, o'z navbatida, bo'lajak informatika o'qituvchilarning telekommunikatsion ta'lim faoliyatga tayyorlashda, ularga yangi sharoitlar yaratish, iqtidori va salohiyatini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

**Asosiy qism.** Ta'limning zamon talablari asosida rivojlanib borishi fundamental o'zgarishlar, yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. Shuning uchun axborotlardan samarali foydalanishning yo'llari va imkoniyatlarini topish ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanib, ta'lim oluvchilarga axborotlarni o'zlashtirish, interpretatsiya qilish, qayta ishlash, ularning imitatsiyalarini yaratish, shu bilan birga, yangi g'oyalarni asosida axborotlarni ishlab chiqish, o'zlashtirilgan axborotlarni integratsiya qilishga o'rgatishi, o'quvchilarni o'quv va hayotiy faoliyatida axborotlardan foydalanish kompetentligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Ta'lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o'zlashtirib borilishi bilan birga uni qo'llay olishga o'rganilishi ularni interpretatsiya qilish, qayta ishlash va imitatsiyalarini yaratish imkoniyatlarini beradi. Qadimgi Grek faylasufi Suqrot «o'qituvchining ijodkorligi, ...bu tayyor axborotni o'quvchiga yetkazishga emas, balkim, o'quvchilarni haqiqatga intilish, mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilganligidadir» [3, 72-b.], – deb ta'kidlagan. Ko'p holatlarda o'zlashtirilgan axborotlar miqdori (hajmi) ta'lim samarasi sifatida qaralib, ta'lim natijalarini baholashda o'zlashtirilgan axborotlar miqdori hisobga olinadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi o'zlashtirilgan axborotlarni tegishli sohalar hamda hayotiy faoliyatlar davomida qo'llay olish darajasi bilan belgilanadi. Bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarida ham kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limda ta'limning natijasiga ahamiyat berilishi va bunda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar hajmi emas, balki turli vaziyatlarda mazkur axborotlarni qo'llay olishiga e'tibor qaratilishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan [4, 18-b.].

Bo'lajak o'qituvchilarni telekommunikatsion ta'lim faoliyatiga tayyorlashda o'qituvchilar o'rtasida amaliyotga tayyorlash, yangi texnologiyalardan foydalanish, masofaviy ta'lim tizimlarini rivojlantirish, o'quvchilar bilan interaktiv aloqalar yaratish, bir vaqtda xabar almashish va muloqotlar o'tkazish kabi muhim bo'lgan yo'nalishlarda ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bu sohada o'qituvchilar, ta'lim tizimlarini yaratish, onlayn ta'lim resurslarini rivojlantirish, masofaviy ta'lim jarayonlarini baholash va boshqalar bilan tajribalarini almashish kabi muhim masalalarni o'rganib borish maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining telekommunikatsion ta'lim faoliyatiga tayyorlashda pedagogika ixtisosligi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining davlat ta'lim standartlari tahlili o'qituvchining kundalik kasbiy vazifalari hamda fanlarni o'qitishning zamonaviy ilmiy asoslangan metodlari, usullari va vositalaridan, jumladan, o'qitishning texnik vositalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnologiyalaridan foydalana olish kabi maqsad va vazifalari ham mavjud ekani haqida xulosa chiqarishga imkon berdi.

Jahon ta'limi sohasidagi rivojlanish tendensiyalari axborotlashgan jamiyat sharoitida zamonaviy didaktik o'quv vositalarini joriy etish va ularning samaradorligini oshirishning dolzarbligidan dalolat beradi. Yevropa mamlakatlariga xos bo'lgan global ta'lim muhitini shakllantirishda ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, ta'limning uzluksizligi va amaliy yo'nalishini ta'minlash, mustaqil ta'lim, ijodiy rivojlanishga yo'naltirish, rivojlanishda yangi ta'lim formatlaridan faol foydalanish, zamonaviy didaktik vositalarni yaratish va bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalarni joriy etish yo'nalishini takomillashtirish, shuningdek, telekommunikatsiya texnologiyalarni o'quv jarayonida foydalanish mexanizmlarini to'g'ri qo'llashni bilish alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari sohasida kadrlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar davlat tashkilotlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam asos yaratadi. Xususan, Muhammad Al Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'qitish bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab va bir qator xorijiy oliy o'quv yurtlarining filiallari ishga tushirildi, tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalarni o'qitish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, respublika mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmasligi axborot texnologiyalari sohasida ta'lim dasturlari va metodikalarini takomillashtirishni, o'quv yurtlari

va IT-kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni talab qilmoqda.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida ta'limni tashkil etishning dasturiy-uslubiy ta'minotini, bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy va jahon ta'lim tajribasi asosida tayyorlashning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish hisobiga mamlakatimiz intellektual resurslari salohiyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasiga muvofiq [5]. Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish bugungi kunda muhim vazifalardir. Xususan, informatika o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy didaktik o'quv vositalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Ta'limning bosqichma-bosqich modeli asosida insonning ijodiy qobiliyatlarini global miqyosda rivojlantirishga imkon beradigan zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish (imprinting – o'quv materialining mazmunini tushunish; takrorlash va yodlash; avtorizatsiya-o'quv materialining mazmunini tushunish); o'quv materiali va uni ko'paytirish; tashabbus – olingan bilimlarni baholash va tan olish bosqichlari); yangi modellarni ishlab chiqish zamonaviy ta'lim texnologiyalari yordamida kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish; bo'lajak informatika o'qituvchilarini ijodiy va ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish, umuminsoniy va tarbiyaviy qadriyatlarining mohiyatini ochib berish, shuningdek, bo'lajak informatika o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarni joriy etish tendentsiyasini takomillashtirish uchun foydalaniladigan normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha zamonaviy didaktik o'quv vositalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

**Xulosa.** Global o'zgarishlar jarayoni, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishiga asoslangan axborot jamiyati muhiti ta'lim tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda muntazam ravishda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari va innovatsion jarayonlarning asosiy vazifalaridan biri raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlariga to'liq moslashishdir. Xalqaro miqyosda ta'lim tizimini boshqarishda ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligini yaxshilash muhimligi tobora ravshanlashmoqda. Shuning uchun integrativ ta'lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor berib, oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishning interaktiv texnologiyalarini ishlab chiqish kerak.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 29-noyabrdagi 681-son «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida «mohir aloqachi» ko'krak nishoni va «o'z kasbining ustasi» belgisini ta'sis etish to'g'risida»gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi 556-son «Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.

3. Отепбергенов Ж.С. Ахборотлашган таълим муҳити шароитида талабаларда когнитив компетентликни ривожлантириш технологияси: Пед. фанл. буйича фалс. д-ри ... Дис. - Т., 2020.

4. William H. Rice IV Moodle: E-learning Course Development / Birminham-Mumbai: PACKET-Publishing, 2006. - 252 p.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami. - T., 2017. - 6 (766)-son. - 70 modda.

---

## O'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL SOHALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATGA UNDASH IMKONIYATLARI

*Kenesbaeva Elmira Joldasbaevna, Nukus DPI tayanch doktoranti*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada modulli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatishlari, o'zaro muloqotga kirishishlari, bir-birlariga ko'maklashishlari, o'zlari va o'rtoqlarining ishlarini baholay olishlari bilan odatdagi darslardan keskin farqlanishi haqida fikrlar ilgari surilgan.

**Tayanch so'zlar:** o'quv jarayoni, modulli o'qitish, mustaqil fikirlash, mustaqil ijodiy faoliyat, modulli o'qitish texnologiyasi, o'qituvchi, o'quvchi faoliyati.

## ВОЗМОЖНОСТИ ПООЩРЕНИЯ СТУДЕНТОВ К САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ ИХ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СФЕРЫ

*Кенесбаева Эльмира Жолдасбаевна, базовый докторант Нукусского ГПИ*

**Аннотация.** В данной статье выдвигаются идеи о том, что уроки, организованные с помощью модульных технологий, существенно отличаются от обычных уроков, так как учащиеся имеют возможность осуществлять самостоятельную творческую деятельность, участвовать во взаимном общении, помогать друг другу, оценивать свою работу и работу своих сверстников.

**Ключевые слова:** учебный процесс, модульное обучение, самостоятельное мышление, самостоятельная творческая деятельность, модульная технология обучения, преподаватель, деятельность учащихся.

## OPPORTUNITIES TO ENCOURAGE STUDENTS TO INDEPENDENT CREATIVE ACTIVITY BASED ON THE DEVELOPMENT OF THEIR INTELLECTUAL FIELDS

*Kenesbaeva Elmira Joldasbaevna, basic doctoral student of Nukus SPI*

**Abstract.** In this article, ideas are put forward that the lessons organized with the help of modular technologies are significantly different from the usual lessons, as students are able to perform independent creative activities, engage in mutual communication, help each other, and evaluate their own and their peers' work.

**Key words:** educational process, modular teaching, independent thinking, independent creative activity, modular teaching technology, teacher, student activity.

**Kirish.** O'quvchilar bilimlarni mustaqil o'zlashtira olsalar, bu jarayonda o'qituvchilar modulli o'qitish texnologiyalar yordamida ularni mustaqil bilim olishga yo'naltirish, ijodiy faoliyatlarini tashkil etish, zarur maslahatlar berish, o'zlashtirish darajalarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Asosiy qism.** Modulli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatishlari, o'zaro muloqotga kirishishlari, bir-birlariga ko'maklashishlari, o'zlari va o'rtoqlarining ishlarini baholay olishlari bilan odatdagi darslardan keskin farqlanadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyati mohiyatini anglashlari va bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga intilishlari o'qituvchilarni axborot berishdan maslahatchilik va o'quv jarayonini

boshqarish faoliyatiga o'tishga undaydi. Modulli o'qitish texnologiyalari o'quvchilarni modul doirasida harakatlanishga undaydi. O'qituvchi esa, axborot beruvchilik vazifasidan ozod bo'lib, boshqarishning bir qator vazifalarini modulli dastur zimmasiga yuklaydi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning o'z faoliyatlarini mustaqil tashkil etishlari va o'z o'zlarini rivojlantirishlariga asos bo'ladi.

Modulli o'qitish texnologiyalari yordamida tashkil etilgan darslarda o'qituvchining faoliyati o'quvchilarning mustaqil ishlari va mustaqil bilim olish jarayonlarini nazorat qilish hamda baholashdan iborat bo'ladi [1]. Modulli o'qitish texnologiyalariga asoslangan pedagogik jarayonda o'qituvchi har bir o'quvchi hamda o'quvchilar guruhi bilan dialokka kirishadi. Natijada, o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik, yordam bir birini qo'llab-quvvatlash muhiti vujudga keladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, ayrim o'quvchilarda o'z kuchiga ishonmaslik ikkilanish, o'z fikrini bayon qila olmaslik, tortinchoqlik va apatiya holatlari uchraydi. Natijada, o'quv jarayonida ular noqulay vaziyatlarga tushib qoladilar. Modulli o'qitish texnologiyalar asosida tashkil etiladigan darslarda o'quvchilarga yozma va og'zaki topshiriqlar beriladi, ular dastlab o'zaro hamda o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bu esa, o'quvchilarning dialogga kirishishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Past baho olgan o'quvchilar sinfdoshlari yordamida o'z baholarini tuzatishga harakat qiladilar. Mazkur vaziyatlarda o'qituvchi o'quvchining nazariy bilimlarini o'zlashtirish darajasi hamda kompetensiyalarni o'zlashtirganlik darajalarini alohida-alohida baholashi lozim. O'qituvchi o'quvchilarning topshiriqlari qay darajada bajarilganliklarini muntazam nazorat qilib natijalarni formativ baholashga intilishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda o'qituvchi nazariy hamda amaliy ko'nikmalar uchun olingan baholarning o'zaro muvofiq kelishiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Uy vazifalari bilan darsda bajarilgan topshiriqlar orasida o'zaro mutanosiblikni ta'minlash modulli o'qitish texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishning muhim sharti hisoblanadi. Agar o'quvchi barcha o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga muvaffaq bo'lsa, uning intellektual faolligi ortadi. Bunday o'quvchilar uy vazifasini ham muvaffaqiyatli bajarib o'zlarining intellektual imkoniyatlarini namoyon etadilar. Modulli o'qitish texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlaridan biri shundaki, o'quvchi darsda topshiriqni noto'g'ri bajarгани taqdirda o'zlashtirilgan bilimlar va o'quv topshiriqlariga qayta murojaat qilish imkoniyati ta'minlanadi. Har bir dars yakunida o'qituvchi o'z tavsiyalarini modulli texnologiyalar tarkibiga kiritishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu tavsiyalar muayyan o'quv materiallariga takror murojaat qilishi imkoniyatini yaratishga e'tibor qaratiladi. Modulli o'qitish texnologiyalari o'quvchilarning intellektual imkoniyatlari va ijodiy layoqatlarini ro'yobga chiqaradi. Shuning uchun ham modulli o'qitish jarayonida o'quvchilarga muntazam tarzda ijodiy xarakterdagi topshiriqlar berilishi nazarda tutiladi. Bu, o'z navbatida, ularning mustaqil ijodiy faoliyatlarini, intellektual darajalarini mustaqil rivojlantirish tayanch va fanga oid kompetensiyalarini puxta o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratadi.

O'qituvchi o'quvchilarning ijodiy ishlarini alohida baholashi talab etiladi. Modulli o'qitish texnologiyalar asosida tashkil etiladigan darslarni loyihalashtirish o'qituvchidan alohida kasbiy mahoratni talab qiladi. Shu bilan bir qatorda, bunday darslarni loyihalash uchun o'qituvchi alohida tayyorgarlik ko'rish o'quvchilarning intellektual darajalari va faolliklarini hisobga olishi muhim ahamiyatga ega. Jumladan: 1) O'qituvchi ikkilamchi didaktik loyihalar va topshiriqlar ustida puxta ishlashi ular orasidagi aloqadorlikni ta'minlashga erishishi. 2) O'quvchilarning intellektual sohalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv mavzularini alohida ajratib olishi

va topshiriqlarni shu asosda tanlab tizimlashtirishi, o'qituvchi loyihada dars yakunida qanday natijaga erishishlari nazarda tutilayotganligi aniq tasavvur qilib rejalashtira olishi talab etiladi. 3) O'quv materialarining mazmuni, hajmi, ko'lami va izchilligini aniqlash. 4) Har bir o'quv elementini o'zlashtirish uchun sarflanadigan vaqt hamda o'quvchilarning ijodiy, mustaqil ish turlarini ko'rsatish. 5) O'quv mavzulari rivojlantiruvchi vaziyatlarni loyihalashtirish hamda ular uchun zarur bo'lgan o'quv topshiriqlarini tanlash. 6) O'quvchilarning intellektual rivojlanganlik darajalarni aniqlash maqsadida test topshiriqlari, didaktik o'yinlar, evristik topshiriqlar, bahsmunozara vaziyatlari, yozma ishlarning mavzularini tanlash va tizimlashtirish, modellashirish mashqlarini tanlash kabilar. Shu asosda o'quvchilar uchun mustaqil ishlar mavzularini tanlash va tizimlashtirish talab etiladi.

Modulli o'qitish texnologiyalarini qo'llash jarayonida o'qituvchilar o'quv modullarini loyihalash va tuza olish kompetenstiyasiga ham ega bo'lishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday modullarni tuzishda o'qituvchilar quyidagilarni amalga oshirishlari talab etiladi. Modulli o'qitish texnologiyalarini qo'llash jarayonida o'quv topshiriqlarini tanlash va qat'iy izchillikda strukturalashi talab qilinadi. Bunda tugallangan o'quv bloklari o'quv jarayoni mazmuni va o'quvchilar ishini tashkil etish usullarini muayyan mantiqiy izchillikda qamrab oladi [2]. Modulda o'quv mavzusini o'zlashtirish darajasi, maqsadi, vazifalari aniq ifodalab beriladi. Shu bilan bir qatorda, o'quv modulini o'rganish jarayonida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetenstiyalar ham aniq ifodalanadi. Modulli texnologiya doirasida oldindan tanlangan muayyan izchillikdagi o'quv materiallari hamda ularni o'zlashtirishga xizmat qiladigan topshiriqlar taqdim etiladi. Modulli o'qitish texnologiyalarining imkoniyatlari keng bo'lib, u o'quvchilar uchun intellektual ijodiy rivojlanish o'qituvchilar uchun kasbiy takomillashish imkonini beradi. Mazkur texnologiyaning keng imkoniyatlari tufayli «o'qituvchi-o'quvchi» munosabatlari tizimida o'quvchi markaziy mavqei egallaydi. Bunda o'quvchilarning intellektual imkoniyatlari hisobga olinib, ular o'z bilim doiralari asoslangan holda o'quv materialining muayyan qismini o'zlashtiradilar hamda intellektual ijodiy rivojlantirishga xizmat qiladigan aniq topshiriqlarni bajaradilar. Natijada, o'quvchilarda o'quv motivlari rivojlanib, o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishlari ortadi. O'quvchilarning intellektual taraqqiyoti ta'minlanib, ta'lim traektoriyasi mustaqil tanlash imkoniyatlari kengayadi.

O'qituvchi tomonidan tanlangan va tizimlashtirilgan o'quvchilarni intellektual rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lgan topshiriqlar, ularni evrestik izlanishga undaydi. Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, kompetenstiyalarini mustaqil tekshirishlari va baholashlari mumkin. Shuningdek, ular sinfdoshlari bilan guruhli faoliyatga kirishishlari, muammolarning echimi ustida maslahatlashishlari, zaruriyat tug'ilganda bahslashishlari, munozara vaziyatlarga kirishishlari, bir-birlariga ko'maklashishlari, o'qituvchilar bilan dialokka kirishishlari mumkin [3]. Bu, o'z navbatida, modulli o'qitish texnologiyalarining intellektual rivojlantirish hamda ularda tayanch kompetenstiyalarni shakllantirishda katta imkoniyatlarga egaligidan dalolat beradi. O'qitishning modulli texnologiyalari o'quvchilarning yangi materiallarni o'zlashtirish darajalarini aniqlash uchun sharoit yaratib, ularning intellektual rivojlanishlari va aqliy faoliyat usullarini bajarishdagi bo'shliqlarini to'ldirishga sharoit yaratadi. Modulli o'qitish texnologiyalarini muayyan o'quv fani tarkibida qo'llashning dastlabki natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, darsdagi mustaqil ishlari ko'lami kengayib, o'quvchilarda o'z-o'zini mustaqil nazorat qilish imkoniyati vujudga keladi. Buning natijasida ular o'z faoliyatlarini obyektiv baholash, o'zlashtirish darajalaridagi bo'shliqlarini aniq ko'ra olish, juftliklarda samarali

ishlash, ishchan dialokka kirishi, kommunikativ kompetensiyalarini namoyon qila olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Xulosa.** Bugungi kunda ta'lim muassasalarida pedagoglar o'qitishning yangi usullaridan foydalanishga harakat qilmoqdalar. Modulli o'qitish texnologiyalarini ham pedagogik faoliyatning innovasion usuli hisoblanadi. Bunday texnologiyalarining asosiy g'oyasi o'quvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini kengaytirish, o'z-o'zlarini nazorat qilishlari va baholashlari uchun qulay sharoit yaratishlaridan iborat. Modulli o'qitish texnologiyalarining o'ziga xos jihati shundaki, mazkur texnologiya o'quvchilarning intellektual, ijodiy taraqqiyotlari mustaqil faoliyat ko'rsatishlari uchun qulay pedagogik vaziyat yaratadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Safarova R.G. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida modulli o'qitish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni fanlar kesimida tasniflash: Metodik qo'llanma. - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 11 b.t.
2. Батышев С.Я. Блочно-модульное обучение. - М.: Профессиональное образование, 2006.
3. Левитес Д.Г. Практика обучения: современные образовательные технологии: Книга для учителя. - Мурманск, 2007.

---

**TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION VA ZAMONAVIY  
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

*Qodirov Ulugbek Ismoilovich, TDPU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy ta'limning asosiy innovatsion texnologiyalarini ko'rib chiqish, shuningdek, ularning xarakterli xususiyatlarini va amaliy qo'llash usullarini aniqlash haqida ma'lumot beriladi.

**Tayanch so'zlar:** *pedagogik texnologiya, innovatsiya, zamonaviy o'qitish tizimi, global-lashgan jamiyat, ta'lim.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ И СОВРЕМЕННЫХ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ  
ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ**

*Кодиров Улугбек Исмоилович, преподаватель ТГПУ*

**Аннотация.** В данной статье представлена информация по визуализации основных инновационных технологий современного образования, выявлению качественных практических методов и их применения.

**Ключевые слова:** *педагогические технологии, инновации, современная система образования, глобализированное общество, образование.*

**USE OF INNOVATIVE AND MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES  
IN INCREASING EDUCATIONAL EFFICIENCY**

*Kodirov Ulugbek Ismoilovich, teacher of TDPU*

**Abstract.** This article provides information on reviewing the main innovative technologies of modern education, as well as identifying their characteristic features and methods of practical application.

**Key words:** *pedagogical technology, innovation, modern education system, globalized society, education.*

**Kirish.** Ta'limdagi tushunchalar orasida pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbir etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Innovatsion ta'lim (ingl. «innovation» – yangilik kiritish, ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllanirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim ma'nosi beradi [1, 72-b.].

Zamon talabiga mos mutaxassislariga ta'lim berish, har tomonlama yetuk soha vakili etib tarbiyalash murakkab ko'p funktsiyali tizimdir. O'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi turli xil usullar va o'quv vositalaridan foydalanadi, bu esa, eng qisqa vaqt ichida ijobiy samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogik ta'lim tizimi ta'limda innovatsion texnologiyalar-

dan foydalanishga qaratilgan bo'lib, ular o'quv jarayonini to'g'ri shakllantirish va aniq tashkil etish bilan ta'lim samaradorligi va sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin [5, 194-b.].

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va amaliyotda qo'llash jarayoni kasb-hunar ta'limi o'qituvchilari uchun asosiy muammo bo'lib qolmoqda, chunki bu texnologiyalarni nafaqat o'quv jarayoniga to'g'ri integratsiyalash, balki o'z yondashuvlariga o'ziga xos tuzatishlar kiritish, talabalar faoliyatini tashkil etish, yo'nalishni an'anaviydan innovatsionga o'tkazish ham muhimdir.

Jadallik bilan taraqqiy etib borayotgan dunyo dinamikasi nafaqat yuqori sifatli, balki tegishli ta'limga bo'lgan ehtiyojning ortishining kalitiga aylanmoqda.

Ta'kidlash joizki, ta'limning eng yuqori samaradorligi uning hozirgi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatga va boshqa tashqi sharoitlarga moslasha olishida namoyon bo'ladi. O'qituvchilar tomonidan o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarni faol ta'lim pozitsiyasidan ta'lim jarayoniga jalb etishga qaratilgan. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ulardan malakali foydalanish ta'lim samaradorligi va sifatini oshiradi [2, 108-b.].

Demak, innovatsion texnologiyalar deganda o'qituvchining o'quv jarayonini tashkil etishdagi metod va ko'nikmalari bilan uyg'unlashgan, talabaniy potentsial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish pozitsiyasidan faol o'rganishni tashkil etishga qaratilgan maxsus shakl va usullar tushuniladi.

Shuningdek, innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy (tizim shakllantiruvchi) komponentlarning o'zaro bog'liqligi tamoyili asosida qurilgan zamonaviy kontent, o'qitish usullaridan foydalanish, shuningdek, zamonaviy o'qitish infratuzilmasini shakllantirish [3, 40-b.]: zamonaviy kontentdan foydalanish qo'shimcha o'quv materiallarini (multimedia taqdimotlari, videolar, audio fayllar va boshqalar ko'rinishida) shakllantirish bilan o'quv fanining mazmunini aniq strukturalashni; ulardan foydalanish esa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari materiallari mavjudligini nazarda tutadi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, ta'lim tashkilotida o'qitish mazmuni nafaqat bilim va ko'nikma, balki davr talabidagi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatga mos keladigan tegishli vakolatlarni ham shakllantirishni o'z ichiga oladi; innovatsion o'qitish usullari deganda, birinchi navbatda, talabalarni faollashtirish va ta'lim jarayoniga jalb qilishga (o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda va tegishli o'qitish ko'nikmalarini shakllantirish), faol guruh ijodiy faoliyatini, jamoaviy o'zaro ta'simi kiritishga qaratilgan usullar tushuniladi (ma'lumotlarni «passiv» anglashdan farqlanadi); o'quv jarayoni – axborot, tashkiliy (boshqaruv), texnologik, aloqa va texnik komponentlar, ularning har biri zarur afzalliklarga ega bo'lish va ularni o'quv jarayoniga joriy etish imkonini beradi (masalan, o'quv jarayonida gadgetlardan faol foydalanishni joriy etish va boshqalar) [4, 10-b.].

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

**Xulosa.** Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan

---

holda dars o'tish, so'nggi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan kimyo sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalari keltirib o'tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi [6, 84-b.].

Shunday qilib, ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish o'qituvchidan maxsus prognostik, tashkiliy, ijodiy va boshqa qobiliyatlarga ega bo'lishni, talabalarni faol o'quv va kognitiv faoliyatga jalb qilish uchun yuqori motivatsiyani talab qiladi, buning asosida bilim, ko'nikma va malaka, kompetensiyani shakllantirish maqsadlari ham amalga oshiriladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabr PQ-3416-son «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori.

2. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi: Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2008. - 288 b.

3. Avliyoqulov N.X., Musayeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar: Darslik. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2012. - 210 b.

4. Холикова Ш. Modern technologies of teaching foreign languages // Актуальное в филологии. - М., 2022. - № 70(10).

5. Holikova Sh., Muminova M. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. Topical issues of the application of innovative methods in the english lesson at the textile institute as a tool for effective language learning. Vol. 6 | Issue: 12 |December 2020 |SJIF Impact Factor: 7.032. - P. 193-196.

6. Khutorskoy A.V. Internet at school // Distance learning workshop. - M.: IOSO-RAO, 2000. - 122 p.

---

## CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING HARBIY-VATANPARVARLIK TAYYORGARLIGI MODEL

*Botirov Uchqun Vafokulovich, TDPU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada harbiy ta'lim fakulteti talabalarining harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligi modeli asoslari va vazifalari, shuningdek, jamoaviy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari tahlil etilgan.

**Tayanch so'zlar:** *Vatan, ma'naviy, mahorat, ko'nikma, model, harbiy-ilmiy, qurol-yarog', harbiy texnika.*

## МОДЕЛЬ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ПО НАПРАВЛЕНИЮ ДОПРИЗЫВНОТЕ ВОЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

*Ботиров Учкун Вафокулович, преподаватель ТГПУ*

**Аннотация.** В статье проанализированы основы и задачи модели военно-патриотической подготовки студентов факультета военного образования, а также приобретения коллективных знаний, навыков и квалификации.

**Ключевые слова:** *Родина, духовное, мастерство, умение, интеллект, военно-научное, оружие, военная техника.*

## MODEL OF MILITARY-PATRIOTIC TRAINING OF STUDENTS IN THE DIRECTION OF PRE-CONTRACTION MILITARY EDUCATION

*Botirov Uchkun Vafokulovich, teacher of TSPU*

**Abstract.** The article analyzes the foundations and objectives of the model of military-patriotic training of students at the faculty of military education, as well as the acquisition of collective knowledge, skills and qualifications.

**Key words:** *Fatherland, spiritual, spiritual mastery, skill, intelligence, military-scientific, weapons, military equipment.*

**Kirish.** Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligi modelining tavsifiga o'tishdan avval, model ostida nimani tushunishimizni aniqlashtirish lozim.

**Asosiy qism.** XX asrning ikkinchi yarmida matematika, fizika, biologiya, filologiya, psixologiya, pedagogika, falsafa va boshqa fanlarda modellashtirishdan faol foydalana boshladilar. «Model» so'zi lotincha «modulus» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'lchov, namuna ma'nosini anglatadi. Dastlab model ostida boshqa nazariyaga nisbatan strukturaviy o'xshashlikka ega bo'lgan nazariyani tushunganlar. So'ngra «model» atamasi mazkur nazariya taalluqli bo'lgan yoki u ifodalaydiganga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan obyektini ifodalash uchun foydalanila boshlandi.

Tadqiqotchilar tomonidan model obyektini amaliy yoki nazariy o'zlashtirish bog'liq bo'lgan oraliq bo'g'in bo'lib xizmat qilishi aniqlangan. Modellar bilish jarayonida va ularni amalga oshirish usuli bo'yicha ularning roli bo'yicha xilma-xildir. Model: bilim va amaliyotning zamonaviy darajasining cheklanganligi oqibatida uni bevosita tadqiq etish imkoni bo'lmaganida, nazariyani ishlab chiqishda qo'llaniladi; agar fanda to'plangan dalillar yoki qonunlarni tushuntirish uchun nazariya mavjud bo'lmasa, ularni tushuntirish uchun

tanlanishi yoki qurilishi mumkin; tadqiq etilayotgan obyektning yetarli rivojlangan nazariyasi mavjud bo'lib, uning bilan tavsiflanayotgan obyektlarning tahliliga nazariyani qo'llash murakkab bo'lgan hollarda qo'llaniladi; nazariyaning u tavsiflavloi voqelikning predmetli sohasi bilan bevosita bog'lanish imkoniyati mavjud bo'lmaganida nazariya va voqelik o'rtasidagi oraliq bo'g'in rovida xizmat qiladi; ikkita avval bog'liq bo'lmagan nazariyalar o'rtasidagi aloqadorliklarni o'rnatish uchun qo'llaniladi; bevosita tasdiqlanishining imkoni mavjud bo'lmaganida u yoki bu qoidalarning amaliy tekshiruvchini amalga oshiradi; tajribasinoxda tekshirish imkoni bo'lgan obyektlarni tadqiq etish uchun qo'llaniladi va h.k. Biz ishlab chiqqan harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligi modeli oraliq bo'g'in bo'lib xizmat qiladi va unga yordam beradi. Ya'ni talabalar oliy ta'lim muassasalarida asosiy ta'limiy dasturni egallash bilan bir vaqtda harbiy kafedralarda zaxiradagi talabalarni tayyorlash dasturini o'zlashtirishlari orqali kasbiy qayta tayyorgarlikdan o'tadilar.

Harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligi subyektlari sifatida oliy ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi va talabalar – bo'lajak zaxiradagi talabalar bilan bevosita o'zaro aloqada bo'lish imkoniga ega bo'lgan kompetent mutaxassislar xizmat qiladi. Bundaylarga harbiy kafedra pedagoglari, OTM rahbariyati xodimlari, talabalarning darsdan tashqari faoliyatlarining tashkilotchilari va kuratorlar kiradi.

Harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligining maqsadi – fuqarolik OTMlari harbiy kafedralarida ta'lim oluvchi zaxiradagi talabalarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi mazmunini amalga oshirishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, zaxiradagi talabaning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi butun o'quv-tarbiya jarayonining bo'lajak zaxiradagi talabalarning ongi, hissiyotlari va xulqiga ularni Vatan oldidagi o'z harbiy burchlarini bajarishga tayyorlash maqsadida yaxlit, tashkiliy, bosqichma-bosqich, uzluksiz, faol ta'sir etishni ta'minlovchi maqsad va vazifalar, mazmun, prinsiplar, metodlar va vositalar, tashkiliy shakllarning umumiyliigi va majmuini ifodalaydi.

Pedagogik texnologiya to'g'risidagi mazkur tasavvurlardan kelib chiqib, qo'yilgan maqsadlarga eng samarali erishishni ta'minlovchi o'qitish shakllari, metodlari va vositalari tizimi nuqtai nazaridan harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligi bosqichlaridan har birini ko'rib chiqamiz. Birinchi bosqichda (harbiy kafedradagi ta'limning birinchi yili) harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligining yetakchi yondashuvi subyekt-obyektli yondashuv bo'lib, uning mohiyati pedagog o'quv jarayonining subyekti, talaba (zaxiradagi talaba) esa, obyektli hisoblanishidan iboratdir. Bunda harbiy-vatanparvarlik tayyorgarlik sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni hamda shaxsiy sifatlar majmuini shakllantirish maqsadida pedagogning talabaga ta'siri yo'naltirilgandir, ularni «Harbiy-vatanparvarlik tayyorgarlikning maqsadi» bo'limida sanab o'tganmiz. Bu, o'z navbatida, o'qitishning an'anaviy texnologiyalaridan foydalanishni belgilab beradi. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarining quyidagi an'anaviy o'quv mashg'ulotlarning turlaridan foydalanildi.

Ma'ruza. Ma'lumki, ma'ruza u yoki bu ilmiy masalani mantiqiy tuzilmali, tizimli izchillikdagi va tushunarli bayon etishni ifodalaydi. Ish jarayonida biz ma'ruzaning an'anaviy hamda noan'anaviy turlaridan foydalandik.

Muammoli ma'ruza – unda haqiqiy hayotning ziddiyatlari ularni nazariy konsepsiyalarda ifodalash orqali modellashtiriladi. Bunday ma'ruzaning asosiy maqsadi – tinglovchilarning mustaqil ravishda bilimlarni egallashlari hisoblanadi.

Ma'ruza-vizuallashtirish, bunda ma'ruzaning asosiy mazmuni obrazli shaklda ifodalanadi (rasmlar, grafiklar, sxemalar va h.k.). Bunda vizuallashtirish fikrlashni

faollashtirish va turli belgili tizimlar yordamida axborotni qayta kodlashtirishga o'rgatish usuli sifatida qaraladi.

Juftlikdagi ma'ruza, bir mavzu bo'yicha ma'ruza o'quvchi va o'zaro hamda auditoriya bilan muammoli-tashkiliy material bo'yicha o'zaro aloqada bo'luvchi ikki o'qituvchilarning ishlarini ifodalaydi. Muammolashtirish shakli va mazmun hisobiga sodir bo'ladi.

Ma'ruza-matbuot anjumani, bunda mazmun bir necha o'qituvchilarni jalb qilish bilan auditoriyaning so'rovi (savollari) bo'yicha shakllantiriladi.

Ma'ruza-konsultatsiya turi bo'yicha avvalgi ma'ruzaga yaqindir. Farqli tomoni – taklif etilgan (malakali mutaxassis) pedagogik faoliyat metodlarini zaif egallaganligi hisoblanadi. Ma'ruza orqali konsultatsiya berish tinglovchilar diqqatlarini faollashtirish va ma'ruzachining professional mahoratidan foydalanish imkonini beradi (yoki rejalashtirilgan xatolar bilan ma'ruza), tezkor tahlil qilish, ma'lumotni tushunish va uni baholash malakalarini shakllantiradi. «Jonli vaziyat» metodi sifatida foydalanilishi mumkin.

Ma'ruza-dialog, bunda mazmun savollar seriyasi orqali beriladi va ularga tinglovchi bevosita ma'ruza davomida javob berishi kerak. Bu turga qayta aloqa usuli qo'llash bilan ma'ruza, shuningdek, dasturlashtiriladigan ma'ruza-konsultatsiya yaqin hisoblanadi.

Didaktik metodlarni qo'llash bilan ma'ruza («aqliy hujum» metodi, aniq vaziyatlar metodi va h.k.), bunda tinglovchilar muammoni o'zlari ifodalaydilar va uni hal etishga harakat qiladilar.

Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishni tashkil etish. Amaliy mashg'ulotlarning asosiy vazifasi – o'quv materialini o'qib topshirishni (interiorizatsiya) tashkil etish va o'tkazish hamda talabalarda bilimlarni amaliyotda qo'llash, ularni mustaqil egallash va chuqurlashtirish ko'nikma va malakalarini shakllantirish hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlarni quyidagicha tarzda tashkil etdik. Avval talabalarining mustaqil ishga tayyorgarliklari amalga oshirildi, so'ngra ular qo'yilgan vazifalarni mustaqil yechadilar. Mashg'ulotlarning mazkur shakli o'qitishni individuallashtirishni ta'minladi va talabalarining bilishga oid faoliyatlarini faollashtirishga ko'maklashdi. Mashg'ulotlar istisnosiz barcha talabalar ular uchun mos bo'lgan bilishga oid vazifani yechish bilan mashg'ul bo'lishlari tarzida tashkil etildi. Bu o'qituvchining talabalarining individual xususiyatlarini bilishini ko'zda tutdi. Mashg'ulotlarni tashkil etishda yaxshi tayyorlangan talabalarga yetarlicha yuqori talablarni qo'yishga ko'maklashadigan, ularning maksimal intellektual rivojlanishlarini ta'minlaydigan va shu bilan bir vaqtda ulardan pastroq darajadagi tayyorgarlikka ega talabalarining bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallashlari uchun sharoitlar yaratadigan tarzda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Biz amaliy mashg'ulotlarning turli xil turlaridan foydalandik.

Seminarlar – bunda o'qituvchi mavzuning (bo'limning) oldindan belgilangan savollari bo'yicha munozarani tashkil etadigan o'qitish shakli hisoblanadi. Bunday mashg'ulotlarga talabalar oldindan o'rganilayotgan mavzu doirasida nutqlarining tezislarni (referatlar) tayyorlaydilar. Har bir seminar mashg'ulotida o'qituvchi talabalar tayyorlagan referatlarini, ularning munozaralardagi faolliklarini, o'z nuqtai nazarlarini ifodalash va himoyalash malakalarini baholaydi.

Konsultatsiya – talaba o'qituvchidan mos nazariy qoidalar yoki ularni amaliy qo'llash jihatlari bo'yicha aniq savollarga javoblar yoki tushuntirishlarni oladigan o'quv mashg'ulotining shaklidir.

Auditoriyadan tashqari amaliy mashg'ulotlar talabaning kutubxonaning o'quv zalida, o'quv xonalarida (laboratoriyalarda), kompyuter sinflarida, shuningdek, uy sharoitlarida

o'quv materialini o'zlashtirishi bo'yicha mustaqil ishini ifodalaydi. Bundan tashqari, modelni amalga oshirishning mazkur bosqichida quyidagi o'qitish metodlaridan foydalanildi.

Xabar qiluvchi bayon etish orqali tayyor bilimni bayon etish metodi. Uning yordamida tushuntirish o'qituvchi tomonidan bilim va xatti-harakatlar mazmunini og'zaki yoki yozma xabarda bayon etishidan iboratdir.

Talabaniing vazifasi – taklif etilgan ma'lumotni tushunishdan iborat. Bu avval egallangan predmetli bilimlar va obyektlar hamda xatti-harakatlar tavsiflarini qiyoslashdosh farqlash, o'xshatish, umumlashtirishni amalga oshirish, oqibatlarini aniqlash, tasniflash, isbotlash va h.k. bilishga oid malakalari asosida amalga oshiriladi. Barcha xatti-harakatlar reproduktiv amalga oshiriladi, chunki ular talaba tomonidan emas, balki o'qituvchi tomonidan beriladigan xabarniing mazmuni bilan aktuallashtiriladi. O'qituvchidan mazmunning tushunish uchun barcha zarur komponentlarini ta'kidlash bilan materialni aniq va izchil ifodalash talab etiladi.

Muammoli bayon etish orqali tayyor bilimni ifodalash metodi avvalgi metoddan, o'qituvchi tushuntiriladigan mazmun bo'yicha o'zi tomonidan oldindan qo'yilgan savollarga javob sifatida xabar beradi. Bunda talaba bir muncha faol ishlashi mumkin, chunki savolni ifodalashdan so'ng mustaqil fikrlashi va savolga o'qituvchi beradigan javobidan oldin va berishi vaqtida o'zi javob berishga harakat qilishi mumkindir.

Deduktiv xulosa orqali tayyor bilimni ifodalash metodining mohiyati o'qituvchi talabalarga (muammoli yoki xabar ko'rinishida) ma'lum umumiy qoidalarni, asoslarni, tushuntirish prinsiplarini bayon etadi va talabalarga ulardan o'zlari mustaqil aniqlikning turli darajalaridagi obyektlar va xatti-harakatlar to'g'risidagi aniqroq bilimlarni hosil qilishlarini taklif etishidan iboratdir.

Mustaqil evristik izlanishda bilimni olishni tashkil etish tushuntirish metodi o'qituvchi obyektlar va ular bilan amallar to'g'risidagi kerakli bilimlarni bayon etmasligi, balki talabaga ularni mustaqil topishi topshirig'ini berishidan iboratdir.

**Xulosa.** Talaba izlanishni to'liq mustaqil emas, balki o'qituvchi tomonidan, yo'naltiruvchi savollar, ko'rsatmalar va hokozolar orqali izlanishni bilvosita boshqarishi bilan amalga oshiradi. Talaba vazifa shartlarini tahlil qiladi, ularni yechish yo'llari to'g'risidagi farazlarni ilgari suradi va o'qituvchidan yoki tekshirish yordamida o'z g'oyalari to'g'riligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32-yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi.
2. Xonimqulov A.R. Harbiy qismlarda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubi: O'quv qo'llanma. - T., 2022. - 170 b.
3. Maxmudov R.M., Ikmatullayev G'.Z. Harbiy pedagogika: O'quv qo'llanma. - T., 2018. - 157 b.
4. Usmonov A.A. Umumta'lim maktab o'quvchilari ongiga milliy g'oyani innovatsion texnologiyalar asosida singdirish yo'llari // International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Interdisciplinary Research and Development. Berlin, Germany. February, 2024.

---

## ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA NUTQIY TAYYORLASH USULLARI

*Muhammadjonova Dilafruz Farhodjon qizi, Qo'qon DPI o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga maktab ta'limiga tayyorlash mazmuni yoritiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning maktab ta'limiga nutqiy tayyorlash usullari tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, maktab ta'limi, nutqiy tayyorlash, usullari, pedagogik texnologiya, nutqiy muloqot, yalpi mashg'ulotlar, yakka mashg'ulotlar.

## МЕТОДИКА РЕЧЕВОЙ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ С ДЕФЕКТАМИ СЛУХА К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

*Мухаммаджоновой Дилафруз Фарходжон кизи,  
преподаватель Кокандского ГПИ*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрено содержание подготовки детей дошкольного возраста с нарушением слуха к школьному обучению. Проанализированы методы речевой подготовки к школьному обучению слабослышащих детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** слабослышащие дети дошкольного возраста, школьное образование, речевое обучение, методика, педагогическая технология, речевое общение, фронтальные занятия, индивидуальные занятия.

## METHODS OF SPEAKING PREPARATION OF CHILDREN WITH HEARING DEFECTS FOR SCHOOL EDUCATION

*Muhammadjonova Dilafruz Farhodjonjonovna, a teacher of Kokand SDPI*

**Abstract.** This article discusses the content of preparing preschool children with hearing impairment for school education. Methods of speech preparation for school education for hearing-impaired preschool children are analyzed.

**Key words:** hearing-impaired preschool children, school education, speech training, methodology, pedagogical technology, speech communication, frontal classes, individual classes.

**Kirish.** Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarda yosh avlodning barkamolligiga erishish masalalari, xususan, alohida e'tiborga muhtoj shaxslar ta'lim-tarbiyasi muammolarini hal etishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

**Asosiy qism.** Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar orasida u yoki bu darajada eshitishidan mahrum bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. Ushbu toifa bolalariga milliy qadriyat va hududiy shart-sharoitlarimizdan kelib chiqqan holda maxsus ta'lim muassasalarida korreksion yordam ko'rsatish (umumiy va xususiy maqsadlari, vazifalari, ta'lim-tarbiyalashning mazmun va tamoyillari, ushbu bolalar imkoniyatlariga mos bo'lgan ish metodlari)ning ilmiy asoslarini to'liq ishlab chiqish maxsus ta'lim tizimining kun tartibida turgan hamda o'zining tezkor echimini kutayotgan bosh muammodir. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi zamonaviy tizimining mohiyati, uning o'ziga xosligini tushunish hamda maxsus ta'lim, xususan, maxsus ravishda tilga o'rgatish

tizimining samaradorligiga erishish, uni takomillashtirishda surdopedagogikaning rivojlanish tarixini: turli davrlarda yashab o'tgan ilg'or surdopedagog va olimlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalari, yondashuvlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, taniqli olim F.F.Rau ta'kidlaganidek [2, 28-b.], «O'tmish surdopedagoglarning tajribasi, ya'ni surdopedagogikaning rivojlanish tarixi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lgan surdopedagoggina o'tmish xatoliklarini takrorlash, shuningdek, kulgili ravishda «yangidan Amerikani kashf qilish»dan kafolatlanadi hamda ishiga ijodiy yondasha olish va o'z g'oyalarini ishonchli tarzda olg'a sura olish imkoniga ega bo'ladi». Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan rus pedagog va olimlari V.I.Fleri, J.Itar, Ya.T.Speshnev bunday o'quvchilar orasida u yoki bu holda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan, qisman lug'at boyligiga ega bo'lgan, ba'zan, hatto, sodda jumalalar tuza oladigan bolalar borligini, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa, bunday bolalar ta'lim-tarbiyasining barcha muammolari hal etilishi mumkinligini ta'kidlab, eshitishi qisman buzilgan bolalarga, ular nutqining o'ziga xos rivojlanishiga alohida e'tibor qaratganliklariga guvoh bo'lamiz [4, 140-b.]. O'zbekiston Respublikasi maxsus ta'limni isloh qilish maqsadida ixtisoslashtirilgan maktab ta'lim-tarbiya sohasiga daxldor bo'lgan farmonlar, qaror va farmoyishlarning qabul qilinishi tom ma'noda maxsus ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va yangilanishlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga nutqiy tayyorlashga yo'naltirilgan innovatsion jarayonini boshlab berdi. Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga nutqiy tayyorlashning har bir bosqichida shaxsning shakllanishi jarayonida bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, kreativ ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish muhitini shakllantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda sog'lom yoshlar kabi ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarning salomatligini hamda aqliy, psixologik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, yagona va uzluksiz ta'lim tizimi asosida amalga oshiriluvchi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim turlari va shakllarini globallashtirgan davr talablari hamda xalqaro ilg'or tendensiyalar asosida takomillashtirishning huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi va moddiy-texnik bazasi rivojlantirilmoqda. Maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama kamol toptirish hamda maktab ta'limiga tayyorlash – maktabgacha tarbiya muassasalarining asosiy vazifasidir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga maktab ta'limiga tayyorlash ularning nutqini o'stirish vazifasi ularni har tomonlama rivojlantirib borish negizida hal etiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishi ularning kundalik hayotida hamda ta'lim dasturida belgilangan barcha faoliyat turlarini tashkil etish jarayonida va uyg'unlikda ta'minlanishi zarur. Maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida umumiy va maxsus metod va usullaridan foydalanib, eshitish, ko'rish va bilish qobiliyatining buzilishi bilan bogliq kamchiliklarni kompensatsiyalash vazifalari ko'zlanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagog-ning predmetli va nutqiy xatti-harakatlarga taqlid qilishga o'rgatish, ularning diqqatini so'zlayotgan shaxslarga jalb qilish, taqlid asosida so'zlash ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Pedagog xatti-harakatlariga taqlid qilish yirik va mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan «Ko'zgu», «Maymunchalar», «Mana shunday bajar» kabi pedagogik texnologiya jarayonida o'rgatib boriladi. Ularda bolalar turli-tuman harakatlari va tana holatlari, yuz mimikasi va emotsional

holatni takrorlashga o'rganadilar. Nutqning motor-harakat asosini yaratish, shuningdek, keyinchalik daktil nutq shaklini o'zlashtirish maqsadida asosiy e'tibor mayda qo'l motorikasiga qaratiladi. Nutqni rivojlantirishga oid mashg'ulotlar mavzuyi tamoyilga rioya qilingan holda tashkil etiladi. Ma'lumki, dasturda berilgan mavzular mazmunining bolalar hayotiga yaqin va bog'liqligi («O'yinchoqlar», «Oila», «Mevalar va sabzavotlar», «Oziq-ovqatlar», «Kiyimlar», «Oyoq kiyimlar», «Tana a'zolari», «Hayvonlar», «Jihozlar», «Idish-tovoqlar», «Bayram», «Ob-havo»), ta'lim muddatlari, muayyan mavsumiy davr bilan bog'liq holda yil davomida takrorlanib keladi. Tevarak-atrof bilan tanishish, o'yinlar, tasviriy faoliyat jarayonida mana shu mavzular birdek e'tibor markazida bo'ldiki, bu nutqiy material mazmuni ustida ish olib borishda puxta ko'rgazmali asos yaratishga imkon beradi. Taqdim etiluvchi lug'at materialini turli maishiy vaziyatlarda, bolalarning erkin faoliyatida, tarbiyachi va pedagogning barcha mashg'ulotlarida ishlatiladi. Muayyan mavzu bo'yicha nutqiy material hajmining uncha katta bo'lmasligi e'tiborga olib boriladi. Bu materiallarning bolalardan turli fikriy va nutqiy faollikni talab qiladigan turli xildagi o'yinlarda, shuningdek, boshqa qator ish turlarida ishtirok etishlari jarayonida ko'p martalab takrorlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Masalan, «Kiyimlar» mavzusi bo'yicha mashg'ulot o'tkazishda har xil kiyimlarni ularning nomlarini atagan holda ko'rib chiqish, turli ko'rinishdagi ko'ylaklar, shimlar va h.k. tasvirlangan rasmlarni tanlash, qirg'ilgan rasm qismlarini joy-joyiga qo'yib chiqish, kiyimlarning yetishmagan qismlarini chizib to'ldirish, qo'g'irchoqlarni kiyintirish kabi usullardan foydalaniladi. Ana shunday pedagogik texnologiya bilan so'z ma'nolari va iboralar mazmunini asosli o'zlashtirish uchun shart-sharoit yaratiladi [1, 45-b.].

Nutqiy muloqotni shakllantirish yetakchi masalalardan biri bo'lganligi tufayli, o'rganish uchun taqdim etilgan so'zlar, ularning ma'nolari aniqlashtirilganidan so'ng, nutqiy muloqot uchun xos bo'lgan sintagmatik aloqalar ustida ishlash maqsadida iboralar tarkibiga qo'shib boriladi. Bolalar bilan muloqotda pedagoglar o'z nutqlarini cheklamaydilar, hatto, ancha sodda va kundalik turmushda ko'p takrorlanadigan iboralarni tushunish bolalar uchun qiyinchilik tug'dirishini hisobga olib, u yoki bu jihatdan keng qo'llanadigan bazaviy konstruksiyalarning ma'nolarini aniqlashtirish va ular ustida ishlashga ko'proq diqqat qaratadilar. Bunday konstruksiyalar asta-sekin murakkablashuv asosida qo'llaniladi [6, 34-b.]. Yalpi va yakka mashg'ulotlarda, ilgari o'zlashtirilgan nutqiy ko'nikmalarning tez unutilishining oldini olish maqsadida, ta'limning dastlabki bosqichida egallangan lug'atning muttasil faollashtirib borilishiga e'tibor qaratib boriladi. Lug'at yangi so'zlar hisobiga ham, tanish so'zlarning yangi shakllarini qo'llash hisobiga ham boyitib boriladi. Turli mavzularga oid mashg'ulotlarda bolalarga tanish bo'lgan so'zlarning ko'plab takrorlanishi hamda yangilarining kiritilishi va o'zlashtirilishiga alohida ahamiyat beriladi. Fe'llar va sifatlar boshqa turkumdagi so'zlarga nisbatan faolroq kiritib borildi. Shuningdek, bolalar tomonidan umumlashtiruvchi so'zlarning ma'nolarini yaxshiroq o'zlashtirib olishlari uchun og'zaki nutqda «O'yinchoqlarni olib kel», «Idishlarni yig'ishtir (ko'rsat)» kabi iboralarni qo'llash ko'paytiriladi.

Bolalarning nutqiy ko'nikmalarini faollashtirish, muloqot jarayonida o'zlashtirilgan nutq vositalaridan foydalanish maqsadida pedagoglarning bolalarning so'z vositasida muloqot qilishga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlab borishlari yo'lga qo'yiladi. Bunga pedagoglarning bolalarga nutqiy xulq-atvor namunalarni namoyish qilish: salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, bolalarga iltimoslar va xabarlar bilan murojaat etishlari orqali erishib borildi. Mashg'ulotlar, shuningdek, ulardan tashqaridagi ishlarda savollarni idrok etishga, javoblarda o'zlashtirilgan nutqiy materialdan foydalana olish ko'nikmalarining

shakllanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda ishning yashirin (yashirib qo'yilgan) predmet bilan, keyinchalik esa, yopiq rasm bilan ishlash kabi usullaridan foydalanishga ham keng o'rin beriladi [3, 78-b.].

**Xulosa.** O'qitishning ijobiy natijasi – deyarli barcha bolalarda dastlabki tasvirlash istagi, shuning o'z maqsadlarini so'z orqadi aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Bolalarning ba'zilar ishning boshlanishiga qadar qanday ketma-ketlikda harakat qilishlarini aytib berishga harakat qilganlar. Ammo barcha ishning bosqichlarini avvaldan rejalashtirish katta guruhdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ham jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi, ular, asosan, eng yaqin bosqichlarni aniqlash bilan chegaralanadilar. Maktabga cha tarbiya yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga maktab ta'limiga tayyorlashning eng muhim yutuqlaridan biri bolalarda, nutqiy va shaxsiy aloqaga kirishish xohishlarini, taassurotlar bilan almashishi, birgalikdagi faoliyatning mazmuni bo'yicha kelishib olish motivatsiyasini shakllantirish sanaladi.

#### Adabiyotlar:

1. Khudaybergenova Z. The effective application of andragogical principles in training teachers Staff of higher education // International Journal of early childhood special education (INT-JECSE) DOI: 10.9756/INTJECSE/V14I5.667 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022.

Mazkur parametrlar quyidagilardan iborat: 1. Muammolarni aniqlash va shakllantirish layoqati. 2. Ko'psonli muammolarni generasialash. 3. Turli-tuman g'oyalarni tezkorlik bilan mahsulotga aylantirish. 4. Masofaviy assosiasialarni vujudga keltirish nostandart yechimlarni qabul qilish. 5. Turli detallarni qo'shish asosida obyektlarni takomillashtirish. 6. Obyektning yangi belgilarini ko'ra olish hamda uni qo'llashning yangi usullarini tatbiq etish kabilar.

P.Torrens esa, kreativlikka ega bo'lgan shaxs faoliyatini quyidagi mezonlar asosida baholashni taklif qilgan: tezkorlik, ya'ni ko'p sonli g'oyalarni generasialash; moslashuvchanlik – muammolar yoki topshiriqlarni bajarishning turli usullaridan foydalanish; betakrorlik – g'oyalarning nostandart yechimlarini qo'llash; ishlab chiqilganlik – g'oyalarni qismlarga bo'lib qayta ishlash; qarama qarlishliklarning barataraf etilishi – stereotiplardan voz kchib yangilarni kashf etish; nomlarning abstrakt xarakterga egaligi – muammoning mohiyatini anglash, obrazlarni so'z vositasida ifodalash.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida kreativ fikrlashning ahamiyati beqiyos bo'lib, pedagogik faoliyat doirasida kasbiy jihatdan mahsuldor shakllar va metodlarni qo'llash ehtiyojni qondirish imkonini beradi [3]. Kreativ fikrlash o'qituvchilarni tayyorlash

oliy pedagogik ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan hisoblanadi [5]. Bugungi kunda yuqori malakali pedagoglarni tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan muhim kamchiliklardan biri ularning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid pedagogik chora tadbirlarning yetarlicha qo'llanilmayotganligidadir. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishning yo'nalishlari va mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni amalga oshirgan mutaxassislar mazkur muammoning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradigan ayrim vositalarni aniqlashga muvafiq bo'lganlar.

Bunday shart-sharoitlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: 1. Subyektiv shart-sharoitlar. U o'zida shaxsiy sifatlar tavsifini mujassamlashtiradi. Mazkur sifatlar bo'lajak o'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirishda ta'sir qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatleri, ularning ijodiy faoliyatga nisbatan ijobiy motivlari, ijod qilish bilan bog'liq qonun-qoidalarni bilishlari, kasbiy yo'nalganliklari kabilarni kiritish mumkin. 2. Obyektiv shart-sharoitlar. Maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkonini beradigan shart-sharoitlar hamda bo'lajak o'qituvchining qo'yilgan maqsadga muvofiq tarzda harakatlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlardan iborat.

**Xulosa.** Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdan ko'zlanadigan asosiy maqsadlarni aniqlash asosida amalga oshirilgan ishlar mazmuni belgilanadi. Birinchi navbatda, bo'lajak o'qituvchilar tafakkurining tayanch darajalarini aniqlash nazarda tutiladi. Bunda narsa va buyumlarga asoslangan holda kreativ fikrlash, ramzlarga asoslangan holda kreativ fikrlash, belgilar va obrazlarga asoslangan holda kreativ fikrlash darajalari aniqlanadi. Bu, o'z navbatida, talabalarning tanlagan kasblariga oid faoliyatlari va kreativ fikrlash darajalarining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Туник Е.Е. Тест Е.Торренса: диагностика креативности: Методическое руководство. - СПб.: ИМАТОН, 2004. - 191 с.
2. Калмыкова З.И. Развитие продуктивного мышления школьников. - М.: Педагогика, 2011. - 200 с.
3. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar: Monografiya. - T.: Science and innovation, 2024. - 186 b.
4. Кларин М.В. Развитие критического и творческого мышления // Школьные технологии. - М., 2004. - № 2. - С. 3-10.
5. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта: Лекция, прочитанная в Стенфордском университете 13 апреля 1959 года // Психология мышления / Под ред. А.М.Матюшкина. - М.: Прогресс, 1965. - 534 с.

## GUMANITAR VA IJTIMOYIY FANLAR TA'LIMI

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ РЕЧЕВОЙ РЕАЛИЗАЦИИ  
КОНЦЕПТА «РОДИНА»**

**Нурманов Абдиназар Ташбаевич, д.п.н., профессор ДжГПУ,  
Каримова Зулфия Одылжоновна, ДжГПУ**

**Аннотация.** Статья посвящена функционально-коммуникативному анализу концепта Родина в речевой реализации на уровне текста путем изучения его атрибутивных, генитивных сочетаемостей, а также результатов метафоризации слова Родина. В ходе анализа контекстов выявлены оценочные функции данного концепта, новые явления в его словообразовании.

**Ключевые слова:** *концепт, концептуальный анализ, атрибутивная сочетаемость, генитивная сочетаемость, модели сочетаемости, метафоризация, негативно-оценочная функция, функция, функционирование.*

**«VATAN» TUSHUNCHASINI TAMGA OLISH NUTQINING  
LINGVOLTUROLOGIK JIHATI**

**Nurmanov Abdinazar Toshbaevich, p.f.d., JDPU professori,  
Karimova Zulfiya Odiljonovna, JDPU**

**Annotatsiya.** Maqola matn darajasida nutqni amalga oshirishda Vatan kontseptsiyasini uning atributiv, genitiv kombinatsiyasini, shuningdek, Vatan soʻzini metaforalash natijalarini oʻrganish orqali funktsional-kommunikativ tahliliga bagʻishlangan. Kontekstlarni tahlil qilish jarayonida ushbu tushunchaning baholovchi vazifalari va uning soʻz yasalishidagi yangi hodisalar aniqlandi.

**Tayanch soʻzlar:** *tushuncha, kontseptual tahlil, atributiv moslik, genitiv moslik, moslik modellari, metaforaziya, salbiy-baholovchi funktsiya, funktsiya, funktsionallik.*

**LINGUOCULTUROLOGICAL ASPECT OF SPEECH IMPLEMENTATION  
OF THE CONCEPT «MOTHERLAND»**

**Nurmanov Abdinazar Tashbaevich, DSc, professor of JSPU,  
Karimova Zulfiya Odiljonovna, JSPU**

**Abstract.** The article is devoted to the functional-communicative analysis of the concept Rodina in speech implementation at the text level by studying its attributive, genitive combinability, as well as the results of metaphorization of the word Rodina. During the analysis of contexts, the evaluative functions of this concept and new phenomena in its word formation were identified.

**Key words:** *concept, conceptual analysis, attributive compatibility, genitive compatibility, compatibility models, metaphorization, negative-evaluative function, function, functioning.*

**Введение.** Новые явления в речевой реализации концепта Родина связаны с расширением сочетаемости воплощающих его слов в речи, в результате чего возникают смысловые преобразования их значений, не зафиксированные в словарях.

**Основная часть.** Как правило, это связано с метафорическим переосмысле-

нием концепта – например, представление Родины как товара в следующем контексте из НКРЯ (национальный корпус русского языка): Для многих из нынешней правящей элиты Родина – товар [1]. Далее мы рассмотрим только два типа сочетаний – атрибутивные сочетания по модели «прил. + сущ.» и генитивные сочетания по модели «сущ. + сущ. в род. пад.».

Атрибутивные сочетания со словом Родина демонстрируют, какой представляется Родина носителям современного русского языка, какие признаки и свойства открываются ими в этом понятии. Нестандартные сочетания слова Родина с относительными прилагательными выражают семантически емкие метафорические смыслы, обогащающие представление о Родине. Так, Родина может быть деревянной: Где-то есть деревянная Родина с заброшенными могилами бабушки с дедушкой и отца, которым уже ни от кого не услышать наследный шепоток – все разъехались [2] (имеется в виду деревня, где родился говорящий, с деревянными домами); захолустной: Этот город – как будто бы моя небесная, но слегка захолустная Родина; иные мои небесные родины вряд ли настану [3] (имеется в виду провинциальное расположение малой Родины говорящего), и даже виртуальной: Виртуальная Родина меняется тут на виртуальный уровень – эка важность [4] (имеется в виду то, что Родина – для говорящего в каком-то аспекте не признается настоящей). Однако наибольшее разнообразие нестандартной атрибуции Родины имеется в сочетаниях с качественными прилагательными. В этих случаях встречаются примеры «языковой игры», употребления стилистических фигур, например, фигуры тавтологии: И чем дольше пребываешь на чужбине (пусть даже ставшей второй Родиной, пусть даже любимой не меньше) – тем будто сильнее выкристаллизовывается, высвечивается «Родная» Родина, выстраивается в каком-то другом измерении, куда ни самолеты не летают, ни поезда не ходят... [5].

Ряд контекстов выражает идею о непознаваемости путей родной земли или страны для говорящего: Не исключено, что отсюда и тоска, тут ее, так сказать, необъятная, непостижимая Родина [3]; Неведомая Родина дышала у меня под окнами квартиры, великая пустошь тянулась тысячами миль под крылом самолета, и я жил на грани, с глазу на глаз с этой привольной и беспросветной, изящной и грубой, жестокой и слезливой страной... [6]; Судя по всему, загадочная Родина предков не обманула ожиданий заморского гостя и пришлась ему по душе... [7]. Во всех этих случаях наводятся экспрессивно-оценочные коннотации имплицитного типа. Но в большинстве примеров нестандартной сочетаемости слова Родина с качественными прилагательными оценочность выражается напрямую. Так, Родина может переосмысляться как носитель чувств, в норме присущих человеческому существу: И зажила наша незлобивая Родина по законам зоны [8]. Во многих случаях Родина оказывается выразителем чувства грусти, печали, жалости: Впрочем, Европа в любом случае гораздо более цивилизованна, чем наша могучая и печальная Родина [9]; Отрадно знать, что большой мир все-таки есть, чахлая Родина его не отменила; к тому же там, где культура прогрессивная, и бытовые условия лучше [9]; Теперь, когда наша несчастная Родина переживает исторический момент, мы обязаны нанести противнику сокрушительный удар [10]; Моя бедная

Родина – тонут ее корабли, // Ее гибельный код мы, увы, набираем исправно [11]. Применительно к контекстам, выражающим эмоционально-оценочные смыслы, оценка может быть позитивной: Ведь государство – это еще не моя милая Родина [12]. Но чаще всего в собранном материале встречаются все же контексты негативной оценочности разного типа по отношению к Родине, с точки зрения говорящего: «Осмысленно жестокая Родина» – и идеальное государство, отбраковавшее более 15 миллионов человек, – называется Славянский Союз... [13]; Сколько безжизненных или, в лучшем случае, едва населенных, бедных ресурсами (и в особенности главным ресурсом) миров, куда более скудных, чем суровая Родина зшсс!.. [14]; ... инженер попробовал себя в коммерции, одно, другое, наконец на пару с каким-то старым приятелем устремился за пределы неуютной Родины и теперь владел солидным рестораном ни много, ни мало, а в Сочи [15]; Не они, несчастные, изменили Родине, но расчетливая Родина изменила им и притом ТРИЖДЫ [16]; Хотя значок «18+» сборник получил не за пресловутую «пропаганду нетрадиционных ценностей», каковую наша вороватая Родина сможет, коли захочет, усмотреть даже в мультике про ёжика и медвежонка, а за матерную лексику некоторых текстов [17].

Анализ моделей атрибутивной сочетаемости выявил семантическое расширение слова Родины и обнаружил его существенный оценочный потенциал, главным образом негативный. Здесь надо отметить, что негативно оценивается говорящими не Родина вообще, а Родина, «неправильная» в каком-то смысле, «неправильно» себя ведущая, отклоняющаяся в какой-либо хронологический период или в каком-либо отношении от нормы, с точки зрения говорящего. Чаще всего речь идет не о малой родине, а о Родине как стране, государстве рождения. Кроме того, широко представлены в собранном материале контексты нестандартной генитивной сочетаемости, которые, как правило, строятся по модели генитивной метафоры [Чернейко, 1997]. Здесь мы тоже встречаемся с концептуально-метафорическими моделями одушевления неодушевленной сущности, стилистическим приемом олицетворения.

Во многих примерах лексема Родина входит в модели антропоморфной метафоры, уподобляющей Родину внешним признакам и внутренним свойствам человеческого существа. Ей, например, приписываются атрибуты человеческого тела: Выходит, мы в некоторой степени лицо Родины [18]; Таким уж был Лик Родины – прекрасным и ужасающим [19]; Вот какая хорошая у нас столица Третий Рим, порт пяти морей и сердце Родины город Москва [О.Демьянова, 1997]; Что он перестал быть производной коллективной междоусобицы. Что его отъяли от пуповины Родины [20]; Улыбаться даже себе велел... только как тут было улыбаться, когда вместо тайги он полдня уже обозревал родимые пятна милой Родины [21]. Другая сторона антропоморфного представления Родины – приписывание ей: физических свойств человека: Эта дремучая, дремотная сила Родины тянула его в детство, тянула в этот солдатский бушлат, в котором он чувствовал себя свободным и сильным... [8]; ментальных состояний: Сейчас мы с благодарностью можем говорить о писателе как о великом заступнике России, как об осуществлённой надежде Родины

[22]; внутренних, психологических свойств и состояний, свойственных человеку – души, характера, инстинкта (последний присущ и другим видам живых существ): ...были просто русские люди, так называемые носители языка, они несли его сквозь отпущенные им годы и тяготы, успехи и завоевания не как крест, а как сокровищницу, как живую душу своей великой неудачливой Родины, своего великого народа... [23]; В поисках приключений на свою непримечательную задницу подросток Крылов постигал характер новой северной Родины, суть природного рифейства [О.А.Славникова, 2017]; У Иванова – инстинкт Родины; думаю, если б его высадили на льдине, он и там обнаружил бы замороженную в прозрачную глыбу многовековую историю и влюбился в нее [Л.А.Данилкин, 2016].

Родине может быть также метафорически приписано свойство иметь дом: Хорошо, чтобы дом Родины, её Пантеон, был полон личностей различных и интересных [Э.Лимонов, 1987]. Другая сторона метафоризации Родины в генитивных сочетаниях – натуралистическая метафора, метафора природы, явлений природы, природных сил: Захмелевший от весны, от воздуха Родины (спиртного он не пил) и – в тысячу раз сильнее! [В.Тыцких, 2019]; Винитар поднял ведёрко клицу и то ли ответно поцеловал студёную воду Родины, то ли отпил солёный глоток [М.Семенова, 2003]; Но очень скоро молодая царица затосковала среди растрескавшихся от жары камней и песков Вавилона по траве и цветам своей Родины [Т.Миткевич, 2004]; Песни-погудки, побаски и присказки, «богатство Древних песен... Звон частушек» и большое небо родины тоже достались поэту по наследству [Э.Кочеткова, 2019].

Слово Родина также входит в модель метафоры чувственного восприятия – может иметь цвет, запах и пр.: «Перенесите меня в Швейцарию, в Индию, в Бразилию, окружите какою хотите роскошною природой, накиньте на эту природу какое угодно прозрачное и синее небо, я все-таки везде найду милые мне серенькие тоны моей Родины, потому что я всюду и всегда ношу их в моем сердце, потому что душа моя хранит их, как лучшее свое достояние», – так описал он свои ощущения словами одного из героев «Губернских очерков» [В.Г.Глушкова, 2015]; И только на шестом сердце Забелина екнуло – повеяло гниловатым запахом родины [С.Данилюк, 2004]; И на Перри задышала теплота его родины – скупой практический разум веры его отцов, понявшей тщету всего неземного [А.П.Платонов, 1927].

Слово Родина может использоваться в модели так называемых параметрических метафор, т.е. конструкций, в которых ей приписывается какие-либо количественные параметры – размерность или порционность. Так, Родина может получать измерение вглубь: В институте учиться, в «полях» недра Родины необъятной щупать-изучать, а по ночам от справочников, станков сверлильных-шлифовальных да от тиглей не отходить... [Т.Соломатина, 2011]; Наверное, автор прав, и понятие «глубинка» происходит вовсе не оттого, что тот или иной населенный пункт находится в глубине нашей нескончаемой Родины, но именно оттого, что каждая подобная точка на карте – не пятнышко краски на плоскости, но кружочек ряски, скрывающий под собой глубину водоема [С.И.Трунев, 2011]. В других контекстах Родина, наподобие вещества, мыслится как нечто, делимое на части, на порции: В конце спектакля герои в буквальном смысле разберут «Россию» на части, и куски

необъятной Родины будут летать по сцене наравне с тортами [А.Гулина, 2003]; Кроме того, это будет частица малой Родины ребят, что-то очень близкое и родное, то, к чему их сердца не останутся равнодушными [Е.А.Нифантьева, 2003]; И это тихое утро в лесу стало для нас ещё одним открытием любви к самой малой крупинке Родины и своей ответственности за её судьбу [Б.Неменский, 2008].

**Вывод.** В целом, проанализированный словообразовательный материал свидетельствует о том, что в моделях неодеривации лексема Родина имеет значительный оценочный потенциал, причем не только положительный, но и отрицательный. Подчеркнем еще раз, что речь не идет о негативном отношении носителей русского языка к Родине как к таковой - речь идет о негативной оценке тех недостатков, которые присущи ей в современный период ее существования, ее несоответствия идеалу Родины, какой она должна быть. При этом в большинстве случаев имеется в виду Родина именно как страна, государство.

#### Литература:

1. «Futurum», или О разделении России на «мы» и «они» // Жизнь национальностей. - М., 2004. - 16 апреля.
2. Распутин В.Г. Новая профессия. - М., 1998.
3. Володин В. Повесть временных лет // Волга. - М., 2009.
4. Пермьяков А. Иная мелодия // Волга. - М., 2012.
5. Андреева А. Трилистники вневремени // Волга. - М., 2016.
6. Иличевский А. Перс. - М., 2009.
7. Гандлевский С. НРЗБ // «Знамя», 2002
8. Уткин А.А. Крепость сомнения. - М., 2010.
9. Кантор Ю. Лев Додин: жизнь - это репетиция // Известия. - М., 2002.
10. Васильев Б. Были и небыли. - Кн. 1. - М., 1988.
11. Аннинский Л. Десять лет, которые потрясли мир // Дружба народов. - М., 1999.
12. Гурченко Л. Аплодисменты. - М., 1994-2003.
13. Данилкин Л.А. Клубж. - М., 2016.
14. Нестеренко Ю. Из жизни инопланетян. Завоеватели // Наука и жизнь. - М., 2006.
15. Маркосян-Каспер Г. Кариатиды // Звезда. - М., 2003.
16. Солженицын А.И. Архипелаг Гулаг. - М., 1958-1973.
17. Пермьяков А. Хорошая книга плохая книга хорошая книга плохая книга // Волга. - М., 2015.
18. Кувичка Д. Нет больше сил смотреть на солнце. Раскрыт секрет успеха отечественных «пляжников» // Известия. - М., 2001.
19. Старосельская Н.Д. Повседневная жизнь «русского» Китая. - М., 2006.
20. Иличевский А. Матисс // Новый мир. - М., 2007.
21. Ремизов В. Воля вольная // Новый мир. - М., 2013.
22. Осипов Ю.С. Слово о Солженицыне // Вестник РАН. - М., 2009.
23. Михальский В. Одинокому везде пустыня. - М., 2003.

---

## OFITSER PEDAGOG NUTQIGA TALABLAR

**Xonimkulov Anvar Rahimqulovich**, *TDPU dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ofitser-o'qituvchi nutqining aniq va ta'sirchanligi, ravn va keng ma'noligi bilan auditoriyani o'ziga jalb qila olish mahorati bo'yicha tushuncha va ko'rsatmalar berilgan. Shu bilan birga, nazariyani amaliyot bilan bog'lash va ko'nikmalarni takomillashtirib borish to'g'risida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** *nutq, varvarizm, improvizatsiya, grammatik, timsolliylilik, kommunikativ.*

## ТРЕБОВАНИЯ К РЕЧИ ОФИЦЕРА ПЕДАГОГА

**Xonimkulov Anvar Rahimkulovich**, *доцент ТГПУ, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)*

**Аннотация.** Данная статья представляет собой изложение офицерско-преподавательской речи и привлекает аудиторию своим воздействием, связным и широким смыслом. Даны концепции и инструкции по искусству слова. Вместе с этим идёт речь о связи теории и практики, усовершенствовании навыков связной речи.

**Ключевые слова:** *речь, варваризм, импровизация, грамматический, олицетворение, коммуникативность.*

## REQUIREMENTS FOR OFFICER EDUCATOR SPEECH

**Khonimkulov Anvar Rakhimkulovich**, *assistant professor of TSPU, doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD)*

**Abstract.** This article is a presentation of an officer-teaching speech and attracts the audience with its impact, coherence and broad meaning. Given concepts and instructions on word art. At the same time, we are talking about the connection between theory and practice, improving the skills of coherent speech.

**Key words:** *speech, barbarism, improvisation, grammatical, personification, communicative.*

Nutqning kuchi oz so'z ishlatib ko'p fikrni ifoda eta olishdadir.

Plutarx

**Kirish.** Ofitser-o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati davomida, mashg'ulot o'tishga, omma oldida nutq so'zlashga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'z nutqini rivojlantirish va nutqning ta'sirchanligiga erishish ustida doimiy ishlashi lozim. Harbiy notiq nutqiga qo'yiladigan talablar nutqning xususiyatlaridan kelib chiqadi.

**Asosiy qism.** Nutq so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina tilga bog'liq sanalmasdan, shu bilan birga, ham ruhiy, ham estetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun ham unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda, tinglovchi va kitobxon ko'zda tutilgan maqsad, aytilmoqchi bo'lgan muddaoning to'liq anglab yetishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi, shuningdek, bu vazifalarni amalga oshirishda nutq oldiga ayrim talablar qo'yiladi. Bu talabalar grammatik jihatdan nutqning to'g'ri bo'lishini, so'zlar ko'zlangan ma'noni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va ta'sirchan bo'lishini taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi.

Qadimgi davrlarda ham nutqning bu jihatlariga alohida e'tibor berib kelishgan. Masalan, rimliklar namunaviy nutqning sifatlarini o'zida aks ettiruvchi qoidalar ishlab chiqishgan. Mashhur notiq Mark Tulliy Sitseronning (qadimgi Rimdagi siyosatchi, faylasuf va notiq m.av. 78 yil) fikricha, aniqlik va tozalik nutq uchun shunchalik zarurki, ularni asoslab o'tirishning ham hojati yo'qdir. Ammo o'qituvchi tinglovchilarni o'ziga jalb qilishi uchun bu sifatlar hali yetarli emas. Buning uchun nutq jozibador bo'lishi ham kerak. Notiq Dionis Galikarnas (qadimgi grek tarixchisi m.av. I asr) esa, nutqning maqsadga muvofiqlikni muhim deb hisoblagan [1-2].

Nutqning to'g'ri bo'lishi – bu uning bosh aloqaviy sifati sanaladi. Nutqning to'g'ri tuzilgan bo'lishi o'qituvchi va tinglovchining, yozuvchi va o'quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi. Agar nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqi ham bo'lmaydi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uchun adabiy tilning qabul qilingan meyoriga qat'iy va aniq rioya qilish, uning talaffuzi, imloviy lug'at va grammatik qoidalariga amal qilinishi talab etiladi.

Nutqning to'g'ri bo'lishi, asosan, ikki meyorga – urg'u va grammatik meyorga amal qilishni taqozo etadi. Nutq jarayonida ma'noni to'g'ri anglatish uchun so'zdagi bo'g'in, gapdagi so'z urg'uning to'g'ri ishlatishga e'tibor qilish kerak [3-4].

Aniqlik bu nutqning asosiy kommunikativ sifatlaridan biri bo'lib, yaxshi nutqning shakllanish sharoitlaridan biridir. Aniqlik deganda, so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishi nazarda tutiladi.

Agar to'g'rilik nutqning yuzaga kelishida faqat til omilining zaruriy belgisi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda, uning shakllanishiga xizmat qiladigan, tildan tashqarida bo'lgan omillarni ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Bunda dastlab til va tafakkur munosabati turadi. Chunki, tabiat va hodisalar o'rtasidagi mutanosiblik va uning nutqda aks etishi ana shu aniqlikning xuddi o'zidir.

Aniqlik ikki xil bo'ladi: narsa va tushunchaning aniqligi.

Narsaning aniqligi deganda, nutqda aks etgan mavjudlikning narsalar, hodisalar doirasi bilan nutq mazmunining munosabatida ko'rinadi.

Aniq nutq yaratish so'zlovchidan quyidagilarni o'rganish va ularga amal qilishni talab qiladi: a) tilning sinonimlik imkoniyatlarini bilish va sinonimlik qatoridan kerakli variantni ajratib nutqda qo'llash; b) nutqda ishlatiladigan so'zning anglatgan ma'nolarini har tomonlama bilish, noijodiy taxminiy qo'llashlardan qochish va h.k.

Noo'rin so'z qo'llash nutqning mazmunini va ahamiyatini buzadi [1, 5].

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatleri bo'lib, u to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib keladi. Nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrlarning o'zaro munosibligi mantiqiylik deb yuritiladi. Mantiqiy nutqda gaplardagi fikrlar butun nutqdan kelib chiqadigan fikrning qismlari hisoblanadi. Ular orasida ziddiyat bo'lmaydi, mantiqiylik aniqlikka suyanadi. Bunda predmet aniqligi, tushuncha aniqligi ham mavjud bo'ladi. So'zlarni bir-biriga mazmunan bog'lash, ular o'rtasidagi grammatik aloqani to'g'ri shakllantirish sintaktik meyorga amal qilishning asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Mana bu misolda «kuy» va «raqs» so'zlarining diktor tomonidan uyg'un tarzda qo'llanilishi mantiqning buzilishiga olib kelgan: «Endi kuy va raqslar tinglab, dam oling» (televideniya). Kuyni tinglash mumkin, ammo raqsni-chi? Demak, mantiqiy nutq deganda, yaxlit bir tizim asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda yuzaga keladigan nutqni tushunamiz [1].

Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy tilning meyorlariga muvofiq kelishi tushuniladi. Nutqning tozaligi, uning keraksiz so'z va iboralardan xoli bo'lishi o'qituvchi va tinglovchi uchun, yozuvchi va o'quvchi uchun ham zarurdir. Til vositalari vaziyat va sharoitga qarab ishlatilgan, hech qanday siyqa so'z va iborasiz hosil qilingan nutq tabiiy va samimiy bo'ladi, tinglovchi va o'quvchining qalbiga yetib boradi. Qo'pol so'zlarning ishlatilishi ham nutqimiz tozaligiga salbiy ta'sir qiladi. Og'zaki nutqda ba'zan

uchrab qoladigan so'kinish, haqorat so'zlari jamiyatning axloq normalariga to'g'ri kelmaydigan hodisadir. Ammo badiiy adabiyotlarda personajlar kuchli hayajonli g'azablanganligini ifoda etish maqsadida dag'al so'zlardan foydalaniladi. Nutqda boshqa tillardan so'z o'zlashtirish, zaruriyatga ko'ra ulardan foydalanish salbiy hodisa emas. Ammo bunday so'zlar orasida «varvarizm» deb ataluvchi shunday bir qatlam mavjudki, ularni nutqda qo'llash-qo'llamaslik masalasiga adabiy til meyorlari nuqtai nazaridan munosabat bildirish lozim. Gap shundaki, varvarizm sifatida qaraladigan «ну», «как», «вот», «совсем», «вообще», «только», «только так», «естественно», «обязательно», «конечно», «уже», «почти», «короче», «так что», «значит», «как раз», «неужели», «тем более», «документ», «оформить қилмоқ», «организовать қилмоқ», «принимать қилмоқ», «разрешение олмоқ», «подпись қўймоқ», «бо», «акун», «сони» kabi so'z va birikmalar o'zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud. Buning ustiga ular adabiy tilimizga kirgan emas. Demak, bu so'zlar o'zbek tili uchun meyor emas. Ammo biz ularni, ijtimoiy muhit ta'siridan bo'lsa kerak, albatta, farqiga bormasdan ishlataveramiz, nutqimizni nazorat qilmaymiz. Shu tarzda leksik meyor ham, nutq ham buziladi. Shuning uchun tilda varvarizmning ishlatilishi ijobiy hodisa sifatida emas, balki meyorning buzilishi deb qarash va ularni nutqda qo'llamaslik lozim. Xullas, nutqimizning tozaligi uchun kurash undan foydalanuvchi har bir kishining vazifasi bo'lishi kerak. Ana shundagina umummilliy til madaniyati haqida gapirishimiz mumkin bo'ladi [1, 4].

Nutqning ta'sirchanligi deganda, auditoriyaning e'tiborini va qiziqishini qozona olishi tushuniladi. Nutqning ijro etilishida unga ma'lum bir voqea-hodisa haqida ma'lumot berishdan tashqari yana bir maqsad – tinglovchi ongiga va ruhiyatiga ta'sir etish vazifa qilib qo'yiladi. Shuning uchun ta'sirchanlik nutqning asosiy sifatlardan biri sanaladi hamda to'g'rilik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik ham suhbatdoshga, auditoriyaga ta'sir etishiga qaratilgan bo'ladi. Bu sanab o'tilgan xususiyatlarda til omillari birinchi o'rinda tursa, ularning barchasidan foydalangan holda ta'sirchanlik keng doirada tildan tashqaridagi omillarni ham qamrab oladi. Nutqning tinglovchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida o'qituvchining nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tutishi, mimikasi (yuz harakatlari), jesti (qo'l harakatlari), imo-ishoralari, hatto kiyinishi va ko'z qarashlari kabi omillarning ham ahamiyati katta. Samimiylik, odoblilik, tinglovchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning kishilar tomonidan diqqat bilan tinglashiga sabab bo'ladi [1, 3, 4].

O'qituvchi nutqning muhim shartlaridan biri ifodalilikdir. Ifodalilik nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishini ta'minlaydi. Tinglovchi nuqtai nazaridan qaraganda, kishilarning nutqlari ifodasining soddaligi yoki murakkabligi, mazmunining boyligiga qarab nutq xilma-xildir. Hatto turli kishilarning bir mavzuga bag'ishlangan nutqlari turlicha ifodalanishi mumkin. Bunday nutqlarning biriga tinglovchi qiziqib qarasa, boshqasiga nisbatan loqayd munosabatda bo'ladi. Nutqni ravon qilishda mavzu va xabarning mantig'i, dalillarning yangiligi, muallifning ta'sir o'tkazish vositalari, nutqning tuzilishi xususiyatlari muhimdir [1, 3]. O'qituvchi nutqning boy (rang-barang)ligi deyilganda, unda ishlatiladigan til vositalarining ko'pligi, so'zlar yoki fikrlarning kamroq takrorlanganligi, tinglovchiga ko'rsatgan ta'siri tushiniladi [1, 4]. O'rinlilik nutqning barcha xususiyatlari qatorida muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday talabga rioya etgan holda, ifoda etilayotgan fikr nutq so'zlanib turgan sharoit, vaziyat, auditoriya uchun o'rinli bo'lsagina, o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha oladi. O'qituvchi o'zining nutqi tili ustida ishlaganda, yuqorida sanab o'tilgan talablarga ahamiyat berishi lozim. Faqat shundagina nutq mazmunli, chiroyli, maqsadga muvofiq va ta'sirli bo'ladi hamda notiq o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erisha oladi. Muloqotga kirishish, nutq so'zlash jarayonida mantiq qonunlariga amal qilish, bahs madaniyati qoidalarini inobatga olgan holda fikr yuritish muloqot jarayonining samarasini yanada oshirishga yordam beradi.

Yuqorida o'qituvchi nutqiga qo'yilgan talablarni ko'rib chiqdik, endi esa, uni tahlilini ko'radigan bo'lsak, har bir nutqni mustaqil tahlil qilish dadillik, improvizatsiyaga tayyorgarlik tinglovchilar holatini sezish va unga tezda javob qaytarish qobiliyati, savollarga javob berish san'ati rivojlanishiga ko'maklashadi – bularning barchasi nutq so'zlagan sayin takomillashib boradi [1, 4].

Nutq davomida auditoriya diqqat-e'tiborini tortish uchun eslatma:

1. Biroz to'xtash (pauza) qilish, tinglovchilar o'z diqqat-e'tiborini bir yerga jamlashi uchun imkon yaratish.

2. Tinglovchilar auditoriyasi to'g'risida, birinchi qatordan 2-3 metr uzoqlikda turib nutq so'zlash.

3. Dastlabki to'xtam vaqtida o'qituvchi auditoriya bilan ko'zma ko'z aloqa o'rnatishi zarur.

4. Ma'lumot mantiqan to'g'ri bayon qilib berilishi lozim.

5. Nutqda o'ta qiziq ma'lumotlar bo'lishi zarur.

6. Turli xil ko'rgazmali vositalarga: nazariy qoidalarni tasdiqlash uchun yorqin misollar, diagrammalar, esda qoluvchi metafora va o'xshatishlarga murojaat qilish zarur.

Nutq dinamikligini saqlash: intonatsiya va ovoz vositalaridan foydalanish (to'xtashlar, ovozni baland yoki pastlatish, tempi, mantiqiy urg'usini o'zgartirish va h.k.); muloqotning (nigoh, mimika, imo-ishora, tana harakati, auditoriya holati) kinetik (harakat) tizimini boshqarish [1, 4, 5].

Diqqat-e'tiborni tortishga qaratilgan til vositalaridan foydalanish: auditoriyaga murojaat qilish; takrorlash; auditoriya diqqat-e'tiborini faollashtirish uchun mavzudan biroz chetga chiqish, hazil-mutoyiba ishlatish; nutq uning mazmuniga ziyon yetkazilmagan holda lo'nda bo'lishi kerak.

Nutq so'zlashingizdan taxminan bir kun avval mashg'ulot o'tkaziladigan auditoriyada guvohlarsiz o'zingiz asosiy repetitsiyani o'tkazing: nutq so'zlanadigan joyga borib, bo'sh zalga qarang; gavdangizni tutishni o'rganing; ovozingizni maromiga yetkazing; nutqingizning boshlang'ich va yakuniy qismlarini o'ylab toping. Kechqurun uyquga yotishingizdan avval butun vaziyatni, tinglovchilar to'planayotgani, nutq so'zlanadigan joyga borayotganingiz, nutqni qanday boshlayotganingizni tushingizda ko'rishga o'zingizni tayyorlang. Eng asosiysi, siz nutq muvaffaqiyatli bo'lishini his etishingiz va bunga ishonishingiz lozim.

**Xulosa.** Nutqingizdan bir necha soat avval uyda kresloda o'tirgancha butun ma'ruza jarayonini hayolan tasavvurdan o'tkazing, ssenariyni rejalashtiring. Bunda barchasi muvaffaqiyatli o'tishidan xursandchilikni his etishga harakat qiling [1, 4].

#### Adabiyotlar:

1. Bekmirzayev N. Notiq, nutq, xulq. - T.: Noshirlik yog'dusi, 2011. - 80 b.

2. Kaykovus. Qobusnoma. - T.: O'qituvchi, 2011. - 206 b.

3. Karnegi D. Do'st orttirish va odamlarga ta'sir ko'rsatish to'g'risida o'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati: bezovtalikdan xalos bo'lish va yangi hayot boshlash sirlari. - T.: Yangi asr avlodi, 2013. - 720 b.

4. Saidov U. Boshqaruv va notiqlik san'ati: O'quv qo'llanma. - T.: G'afur G'ulom, 2011. - 176 b.

5. Satib-Aldiyev A. Pedagogik mahorat asoslari: O'quv qo'llanma: - T.: O'R MV Uslubiy markazi, 2022. - 86 b.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СТИЛИСТИЧЕСКОГО ПРИЁМА АНТИТЕЗЫ

*Гулямова Зарина Рахматилоевна, PhD, и.о.доцента ТГПУ*

**Аннотация.** Выделение антитезы как действенного стилистического приема языка и определение ее места среди других стилистических приемов основывается на анализе лингвистической природы, лингвистической сущности антитезы, так как анализ последней является непременным условием правильного понимания функционирования антитезы.

**Ключевые слова:** языковые средства, экспрессивно-эмоциональные оттенки, разные типы повторов, инверсия, параллелизм, градация, многочленные сочинительные единства, эллипсис.

## ANTITEZA STILISTIK VOSITANING LINGVISTIK MOHIYATI

*Gulyamova Zarina Raxmatiloyevna, PhD, TDPU dotsent v.b.*

**Annotatsiya.** Antitezani tilning samarali stilistik vositasi sifatida ajratib ko'rsatish va uning boshqa stilistik vositalar orasidagi o'rnini aniqlash antitezaning lingvistik tabiatini, lingvistik mohiyatini tahlil qilishga asoslanadi, chunki lingvistik mohiyatini tahlil qilish antitezaning ishlashini to'g'ri tushunishning ajralmas shartidir.

**Tayanch so'zlar:** til vositalari, ekspressiv-emotsional nuanslar, takror stilistik vositaning har xil turlari, inversiya, parallellizm, gradatsiya, ko'p nomli koordinativ birlik, ellipsis

## THE LINGUISTIC ESSENCE OF THE STYLISTIC DEVICE OF ANTITHESIS

*Gulyamova Zarina Rahmatiloyevna, PhD, associate professor of TSPU*

**Abstract.** The identification of the antithesis as an effective stylistic device of language and the determination of its place among other stylistic devices is based on the analysis of the linguistic nature, linguistic essence of the antithesis, because the analysis of linguistic essence of the antithesis is an indispensable condition for a correct understanding of the functioning of the antithesis.

**Key words:** linguistic means, expressive and emotional shades, different types of repetitions, inversion, parallelism, gradation, polynomial compositional unities, ellipsis.

**Введение.** В художественной литературе широко используются языковые средства, усиливающие действенность высказываний. Это усиление происходит благодаря тому, что к чисто логическому содержанию текста добавляются различные экспрессивно-эмоциональные оттенки.

**Основная часть.** Художественная речь, прежде всего, выполняет эстетическую функцию. Окружающая действительность представляется в образной, конкретно-чувственной форме. Это означает, что они обладают способностью давать определенному предмету характеристику, дополнительную к тем его признакам, которые закреплены за данной словарной единицей и зафиксированы в словарях. К стилистическим приемам относят стилистические фигуры и тропы. Стилистическими приемами являются также синтаксис или стилистические фигуры, увеличивающие эмоциональность и экспрессивность высказывания за счет необычного синтаксического построения: разные типы повторов, инверсия, параллелизм, градация, многочленные сочинительные единства, эллипсис, сопоставление противополо-

ложностей и т.д. И.Р.Гальперин понимает намеренное и сознательное усиление какой-либо типической структурной и/или семантической черты языковой единицы (нейтральной или экспрессивной), достигшее обобщения и типизации и ставшее таким образом порождающей моделью. Основным признаком является намеренность или целенаправленность употребления того или иного элемента, противопоставляемая его существованию в системе языка [1].

Стилистический прием играет большую, иногда даже существенную роль, дополняет содержание высказывания, развивает содержание в определенном направлении, создаёт образное представление о предмете и т.д.

Прежде всего, необходимо рассмотреть, как взаимодействует антитеза с другими стилистическими приемами. Выявление этого взаимодействия поможет подробнее описать функцию антитезы. В стилистике грамматическая структура и лексические компоненты антитезы как стилистического приема долгое время изучались изолированно. Следующим этапом в развитии исследований стилистического приема антитезы стал ее комплексный анализ, который представил новую, более глубокую характеристику антитезы, и позволил разработать модели антитезы, исходя из значений элементов и структуры антитезисных высказываний. Стилистическая значимость антитезы достигается двумя путями: лексической или синтаксической организацией антитезы. Остановимся, прежде всего, на использовании лексических средств создания антитезы, в частности, на использовании антонимов, синонимов, лексический повтор и т.д.

His whole material and immaterial life is wonderfully strange. (Dickens)

Within days, the worthy but perplexed Barry Goldwater was shown by Mr. Reagan how to explain the unexplainable, to justify unjustifiable, to pile lie upon lie in furtherance of a policy of «Reagan rules the world, OK». (M.Star)

Freeman and slave, patrician and plebian, lord and serf, guild-master and journeyman in a word, oppressor and oppressed stood in constant opposition to one another, carried on an uninterrupted now hidden, now open fight, a fight that each time ended either in a revolutionary reconstruction of society at large, or in the common ruin of the contending classes [1, с. 2].

В данных примерах мы видим, что эмоциональный эффект высказывания достигается перечислением антонимичных групп: material and immaterial, to explain the unexplainable, to justify unjustifiable, freeman and slave, patrician and plebian, lord and serf, hidden – open, reconstruction – ruin. Первые антонимичные группы в итоге объединяются в одной паре: oppressor and oppressed. В узбекском языке также можно выделить примеры с использованием антонимов. Кечаси айтилган гап эрталаб тонг отмай кампирнинг оғзидан чиқарди. (С.Аҳмад «Келинлар кўзғолони»). Тол соясида энгил машиналар қатор тизилиб турар, катта-кичик болалар ҳам шу ерда эди. (С.Зунунова «Қарз»). В данных примерах эмоциональный эффект достигается использованием антонимичных групп как кечаси-эрталаб, катта-кичик. Women see without looking, their husbands look without seeing [3].

When a man walks in his sleep he leaves his wife;  
when he talks in his sleep, his wife leaves him [3, с. 256].

В вышеприведенном примере наряду с противопоставлением woman – husband имеется синонимическое употребление слов see, look.

It is absurd to divide people into good and bad. People are either charming or tedious [4, с. 16]. Woman's difficulties are physical and real, man's difficulties are mental and formal (J.Galsworthy, End of the Chapter, p. 52).

Следующие прилагательные good, charming, bad, tedious образуют синонимичные отношения. He had never done anything good enough to go to heaven, and he had never done anything bad enough to go to hell (J.Jones. Some Came Running p. 639). Woman's difficulties are physical and real, man's difficulties are mental and formal [5, с. 52].

Следующие примеры образуют стилистический приём повтор. В примерах ясно выделяются оппозиции: good – bad, heaven – hell, woman – man, physical and real – mental and formal, на фоне повторяющихся элементов he had never done anything, enough, to go to, difficulties.

Изучение антитезы в узбекском языке также показало использование повторов в следующем примере.

Яхши сўз суюнтирар, ёмон сўз куюнтирар,  
Яхши сўз тўрга элтар, ёмон сўз – форга,  
Яхши сўз – юрак ёғи, ёмон сўз – юрак доғи,  
Яхши сўз – юракка мал?ам, ёмон сўз – юракка ҳам («Ўзбек халқ мақолалари»).

К синтаксическим средствам создание выразительности относятся использование параллельных конструкций (частично и полного параллелизма), использование инверсий: Например,

When I take a long time - I'm slow,  
When he takes a long time - he is thorough  
When I don't do it - I'm lazy;  
When he doesn't do it - he's too busy;  
When I do something without being told - I'm Know - all;  
When he does something without being told - that's initiative;  
I wish I were my boss and always right!

And the way of the soldier is the way of death, but the way of the gods is the way of life [6, 230]. Обе части предложения построены на параллелизме, имеют также анафорический повтор. Можно часто наблюдать взаимосвязанное употребление антитезы и повтора в параллельной конструкции.

Для антитезы, построенной на параллельных структурах, характерна ритмическая организация высказывания и зачастую характерное для поэтических произведений использование рифмы. Рифма и аллитерация повышает выразительность антитезы [2]. Например,

All without is mean and small,  
All within is vast and tall  
All without is harsh and shrill,  
All within is hushed and still [7, 79].

В приведенном примере следующие слова являются рифмованными: small - tall, shrill - still. Помимо рифмы, здесь также можно увидеть и аллитерированные слова without - within.

В узбекском языке можно увидеть использование параллельных конструкций, такие как: Юлдузларни хаёлида хар хил ранга бўяб кўрди – юлдузлар ўз рангида хира милтираб тураверди.

Яхши бола ёғ келтирар.

Ёмон бола доғ келтирар.

В приведенном примере следующие слова построены на параллелизме, а также могут быть рифмованными: ҳар хил рангга – рангида хира, яхши – ёмон.

Наблюдаются случаи, когда в состав антитезы входят несколько стилистических приемов, как, например, в следующем отрывке, в котором в рамках антитезисной конструкции задействованы приемы метафоры и сравнения: He didn't stand firm in the landscape of her life like a tower of strength, like a great pillar of significance. He was like a flower in the garden, trembling in the wind of life, and then gone, leaving nothing to show (D.H.Lawrence).

**Вывод.** Таким образом, количество примеров сочетания антитез при помощи метафоры, метонимии, повтора, параллелизма можно безгранично увеличить, что свидетельствует об имеющейся связи в употреблении стилистических приёмов. Сочетание антитезы с другими приёмами придаёт антитезе определенное значения.

#### Литература:

1. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. - М.: УРСС, 2004. - 144 с.
2. K.Man, F.Kngels, Manifesto of the Communist Party, P. 2.
3. Esar's Comic Dict. p. 245.
4. O.Wilde, Lady Windermere's Fan, p. 16.
5. Galsworthy J. End of the Chapter, p. 52.
6. Show B. Ceasar and Cleopatra, p. 230.
7. Kingsley Ch. The Saint's Tragedy, p. 79.

---

## SO'PBOSLI SIPIRA JIROVNING YOSHLAR TARBIVASI HAQIDAGI QARASHLARI

*Reymova Nurjamila Alisherovna, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining metodisti*

**Annotatsiya.** Maqolada Oltin O'rda davri yozma adabiyotining yirik vakili, mumtoz shoir, qoraqalpoq jirovlari maktabining asoschisi So'pbosli Sipira Jirovning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarining bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** *Oltin O'rda, Jirov, shoir, ta'lim, tarbiya, odob-axloq.*

## МНЕНИЯ СОПБОСЛИ СИПИРЫ ЖИРОВА ОБ ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

*Реймова Нуржамила Алишеровна, методист Министерства дошкольного и школьного образования Республики Каракалпакстан*

**Аннотация.** В статье говорится о значении воспитательных взглядов Супбосли Сипира Жирова великого поэта-классика письменной литературы Золотого Орда, основателя школы Жирова в Каракалпакстане в воспитании современной молодежи.

**Ключевые слова:** *Золотая Урда, Жиров, поэт, образование, воспитание, манеры.*

## SOPBOSLI SIPIRA ZHIROV'S OPINIONS ON YOUTH EDUCATION

*Reimova Nurjamila Alisherovna, methodologist of Ministry of preschool and school education of the Republic of Karakalpakstan*

**Abstract.** The article talks about the importance of the educational views of Supbosli Sepir Zhirov, the great poet-classic of written literature of the Golden Horde, the founder of the Karakalpak Zhirov school in the education of modern youth.

**Key words:** *Golden Horde, poet, education, upbringing, manners.*

**Kirish.** Jirov so'zi jir jirlamoq so'zidan olingan bo'lib, uning kelib chiqish tarixi uzoq davrlarni o'z ichiga oladi. Jirovlar haqidagi fikrlar XIV-XV asrlardagi yozma manbalarda ko'p uchraydi.

**Asosiy qism.** XV asr o'zbek mumtoz adabiyotining atoqli shoiri Lutfiy o'zining «Gul va Navro'z» dostonida:

Jirovlar yig'ilishib bari jem bo'ldi,

Dilkash so'zlaridan bari nem bo'ldi, – deb yozadi [1, 163-b.].

Ya'ni Lutfiy jirovlarning kuy, sozlaridan ko'ra so'zlariga katta ahamiyat berishlarni ta'kidlaydi. Turkiy xalqlar adabiyotida jirovlarning kelib chiqishi Qorqut ota jirlari bilan bog'liq. Jumladan, Oltin O'rda va No'g'ay davri yozma adabiyotining mumtoz shoiri, qoraqalpoq jirovlari maktabi asoschisi, mutafakkir So'pbosli Sipira Jirov hisoblanadi. Sipira Jirov haqidagi dastlabki ma'lumotlar qoraqalpoq adabiyotshunosligida XX asrning 30-40 yillaridan ko'zga tashlana boshladi. Bu haqda N.Davqaraev, I.Sag'itov, Q.Ayimbetov, Q.Maqsatov, K.Mambetov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida salmoqli fikrlar keltirilgan. Shuningdek, qoraqalpoq pedagogikasi fani rivojiga katta hissa qo'shgan olim U.Aleo'ov tadqiqotlarida So'pbosli Sipira Jirovning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlariga alohida diqqat qaratilgan. Jirov nomi Itildan Dongacha bo'lgan hududlarda, Orol va Kaspiy dengizlari

atrofida, Qrim va Kavkazda qadimgi davrlardan beri yashab kelayotgan qipchoq, mang'it va no'g'ay xalqlarida keng tarqalgan.

So'pbosli Sipira Jirov Chingizxonning Markaziy Osiyoni bosib olishidan boshlab, Tayxuchxon va uning o'g'li To'xtamishxon davrida (1383), Oltin O'rdaning qulash davrlarigacha Mang'ishloq atrofida, Yoyiq daryosi bo'yida va no'g'aylar poytaxti Saroychiqda yashab, taxminan 180 yil yashagan favqulodda iqtidor egasi edi [2, 176-b.]. Uning hayoti haqidagi ma'lumotlar «G'arringman» to'lg'ovida batafsil aks etadi. Jirov hamma vaqt boshiga so'pbos (konus shaklidagi bosh kiyimi) kiyib yurganligi uchun So'pbosli Sipira deb atalgan. Manbalarda yozilishicha, Jirovning o'ttiz o'g'li bo'lgan. U Oltin O'rda davlatida To'xtamishxon davrigacha to'qson olti xonni ko'rgan. Yigirmaga yaqin xon bosh qo'shgan katta yig'inlarda o'zining terma dostonlarini ijro etgan. Jirov ko'pgina xonlarning maslahatchisi edi. Ilmiy adabiyotlarda So'pbosli Sipira Jirov nomini dastlab mashhur qozoq olimi, etnograf Ch.Valixonov kiritgan edi [3, 34-b.].

Diniy ta'sirga ega Jirov davlat arboblari, amaldorlar va buyuk insonlar davrasida ko'p bo'lganligi, ularning duolarini olish baxtiga musharraf bo'lganligi sababli uzoq umr ko'rganligini ta'kidlaydi. Shoimning donishmandligi va uzoq umr ko'rganligi sababidan xalq uni «Hazrati Hizimi yetti marta ko'rgan, duolari qabul bo'ladigan» inson sifatida muqaddas kishilar qatoriga qo'shadi. XIV asrning 30 yillarida Saroychiqda bo'lgan tarixchi Ibn Batutta turkiy xalqlarning Jirovi So'pboslining buyukligi haqida yozadi [4, 74-b.]. Shoir butun umri davomida jirovchilik hunarini ko'rsatib, Oltin O'rdaning ko'pgina yerlarida bo'ladi. Jirov Oltin O'rda davrida turkiy xalqlarning qipchoq qavmidan chiqqanligi sababli o'sha davrlardan boshlab hozirgacha ushbu xalqlarning o'rtoq donishmandi, mutaffakiri shoiri hisoblanadi. Shu bois Sipira Jirovning badiiy ijodi, jirovlik shuhrati qoraqalpoq, qozoq, no'g'oy, boshqird xalqlari orasida keng tarqalgan. Jirov Dashti-Qipchoqda ko'pgina xonlar bilan uchrashdi. U har bir xonning jamiyatni, xalqni boshqarish siyosatini, ularning o'zaro yashash sharoitidagi xalqdan talab qilgan odob-axloq talablarini, mamlakatdagi obodonchilik va buzg'unchilik ishlarini o'zining yuksak tafakkuri bilan tahlil etgan, kuzatib borgan yirik donishmand edi. Ayniqsa, shoimning ichki ijtimoiy turmush masalalarida xonga maslahat berib, mamlakatning boshqaruv ishlariga to'g'ridan-to'g'ri aralashib yashashi, odamlar xulq-atvorini yaxshilash orqali farovon jamiyat shakllantirish konsepsiyasi, obyektiv holda ta'lim-tarbiya masalasiga, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash muammosiga e'tibor qaratishiga olib keldi. Buni esa, uning o'z hunarini ko'rsatishda, xonlar saroyida, xalq oldida hamma vaqt insoniylik tarzidagi aql-nasihatga to'la to'lg'ovlarni jirlashidan bilish mumkin. Shoir yaratgan badiiy ijod namunalari orasida «Edige» dostoni alohida ahamiyat kasb etadi. «Og'iz ayg'oq, til tayg'oq», «To'ralar», «Qirimning qirq botiri», «Bir deganda ne yomon» va boshqa to'lg'ovlari faqat badiiy asarlar emas, balki yoshlar tarbiyasida pand-nasihat keng o'rin olgan ta'lim-tarbiyaga oid didaktik poeziyaning buyuk namunalari hisoblanadi [5, 235-b.]. Sipira Jirov to'lg'ovlarining ko'pchilikka ma'qul tomoni shundaki, unda falsafiy fikr, topqirlik kuchli. Jirovning yurakni tebratgan jirlari xalq dardi bilan aralashib ketadi. Shu sababdan poeziyada So'pbosli Sipira Jirov ijrochi sifatida emas, uning so'z chechani, ya'ni to'lg'ov yozish usuli, badiiy so'zining ta'siri, xalqchilligi, falsafiy fikrga egaligi jihatidan boshqa jirovlardan yuqori o'rinda turadi.

Shoir dunyoqarashi ko'ra islom ta'limotiga suyanadi. Zamondoshi Berke xon qabul qilgan islom dini ta'limotlari hamda an'analariga sodiqlik ko'rsatadi. Sipira Jirov ko'pni ko'rgan, turmush tajribalariga ega, barcha sohalaridan xabardor, qiyosiy fikrlovchi va kreativ fikrga ega qobiliyatli inson bo'lgan. Ushbu qobiliyatini sezgan To'xtamishxon Edige haqida ma'lumot olish uchun o'z saroyiga chaqirtiradi. Shunda Sipira Jirov zulimi yuziga chiqib

turgan xonga qarata: «Vaqti kelib, sen ham xon bo'lding, bilaman, meni o'ldirasan, ammo menga bu bilan hech narsa bo'lmaydi, allaqachon men o'lishim kerak edi, agar san meni o'ldirsang, zolim qo'lida o'lgan odam sifatida jannatga boraman» [5, 235-b.] – deydi. Bu fikrlarga qaraganda, Jirovning dunyoqarashida islom ta'limotidagi jonning abadiyligiga ishonch, u dunyoda «qiyomat qoyim bo'lganida, o'lgan odamlarning qayta tirilishi» qayta hayot boshlanishi, jannat va do'zax haqidagi tushunchalar o'rin olgan. Shuningdek, shoir Chingizxon va uning izdoshlarining odamlarni yovuzlarcha qirg'in qilishi, insoniyat uchun zulm haddan ziyod kuchaygan davrida demokratik fikrlari bilan insonparvorlikni qo'llab-quvvatlash tarafdori bo'ldi. U insonni e'zozlaydi. Insoniyat hayotidagi barcha masalalarni yechishda adolatga, to'g'rilikka asoslanishni talab qildi. O'z maqsadi yo'lida qat'iy turgan Jirov adolatsizligi uchun hatto xonga, uning vazirlariga to'g'ri fikrlarini ayta oldi. Haqiqatni buzuvchi kim bo'lishidan qat'i nazar, aybi uchun qoralab, insoniylik fazilatlariga ega bo'lishni, aql bilan qaror chiqarish, fikr qilish kerakligini talab etdi.

Jirov «Og'iz ayg'oq, til tayg'oq» to'lg'ovida ijtimoiy hayotda yaxshi va yomon kunlarning bo'lishini, yaqqol misollar orqali jamiyatni tahlil etdi. To'xtamish xon davrida xalqning va xonlikning tarqalishini, hukimdoming xalqni adolatli boshqarmaganligidan deb tushuntiradi. Bunga qo'shimcha xon atrofidagi amaldorlarning xalq uchun ishlamasdan, o'zaro qarama-qarshilikda buzg'unchi harakatlaridan juda ko'ngli qolganligi jirov yaratgan to'lg'ovlaridan bizga ma'lum. Zulm ishlarga To'xtamish xonning o'zi yo'l berib qo'yganligidan kuyingan Jirov, jamiyatni boshqarishdagi kamchiliklarni uning yuziga aytadi: «Jon olsangda, qo'lingdan jon bermoq kelmaydi», – deb xonning faqat zulm qilganini, xalq uchun xayrli ishlar qilmasligini ro'y-rost bayon qiladi. Shuningdek, shoirning «To'ralar» to'lg'ovi jamiyatning boshqaruvdagi ba'zi bir xon va uning amaldorlarining yomon ishlarini oshkor qilishga qaratilgan. Ularning xalqni boshqaruvdagi yovuzlik harakatlarini ochiq shaklda yuzlariga aytib, zulm, yomon ishlardan holi o'zlarini tuta bilishini o'rganish kerakligini eslatadi. Bazi amaldor boylar o'zlaridagi yomon odatlarning noto'g'riligini tushunib, o'zlarini xayrli ishlarga yo'naltirishi mumkin deya umid qiladi.

Sipira Jirov «Qarshig'a qushning bolasi», «Oy bilan quyosh o'lgani» deb boshlanadigan qo'shiqlarida bolalar kelajagini, farzand tarbiyasida ota-onaning o'ni katta ekanligini, bola voyaga yetganda hayotida qiynalib xafa bo'lmasligi uchun kasb-hunar o'rgatish, har tomonlama rivojlantirish, shuningdek, yoshi kattalarga hurmat, xalqiga xizmat qilish zarurligini eslatadi. Shoir kelajak yoshlar qo'lida ekaniga e'tibor qaratib, har bir ota o'z farzandlariga yosh vaqtda ilm-bilim bermog'i, hunar o'rgatishi farz ekanligini, qarigan chog'da farzandlariga o'rgatgan kasb-hunari, bergan tarbiyasi o'ziga xizmat qilishini bayon qiladi. Sipira Jirov «Bir deganda ne yomon» deb boshlanadigan to'lg'ovida jamiyatdagi turmush sharoitiga ko'ra ta'lim-tarbiyada ikki masalaga diqqat qaratdi: o'g'il bolani aqli, bilimli, qiz bolani odob-axloqli, iboli qilib tarbiyalash. Jirov oiladagi tarbiyaviy an'analarning mazmuni yoshlarning kamol topishiga yaxshi ta'sir qilishi, otaga qarab o'g'il, onaga qarab qiz o'sishini, o'rnak, namuna olish katta tarbiya ekanligiga e'tibor qaratadi. Ya'ni qizlar odob-axloqi, o'g'il bolalar aqli, kasb-hunar egasi bo'lishi bilan ajralib turishini aytadi. U yoshlarning o'zaro hurmatda yashashi, yoshi kattalar oldida odob saqlab, ularga hurmat ko'rsatish lozimligini, bu iboli, tarbiyali yoshlarga oid fazilat ekanligi, sabrsiz bo'lmoq, yoshi ulug' insonlarni hurmat qilmaslik yomon odat, – deya bunday xulq-atvordan uzoq bo'lishni talab etadi. So'pbosli Sipira Jirov yoshlarni yaxshi xulq-atvorli etib tarbiyalash masalasida dastlab Vatanni sevishga, xalqiga halol xizmat qilishni, kattalarni hurmat qilishni, do'stlikda yashashni, mehnatga tarbiyalash zarurligini

tushuntirdi. Shoiming yoshlarga aytgan pand-nasihatga to'la she'rlarida ularning insoniylik fazilatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratganligini kuzatish mumkin. Inson hayotidagi asosiy maqsadi xalqiga xizmat qilish, fidoyi bo'lib yashashni o'qtiradi. Shu sababdan shoir yoshlarning sheryurak, botir bo'lib tarbiyalanishini guzlab: «Qirimning qirq botiri» degan to'lg'ovini yaratgan. U botir, qahramon, yoshlarning yaxshi tarbiya olib, kamol topishi el-xalqqa baxtli, yorug' kun kelishini eslatadi. Buni:

Elning nurlı bo'lgani,

Botirning to'g'ilishi [5, 239-b.], – deb tasvirlaydi.

**Xulosa.** Shuningdek, Sipira Jirovning yoshlarga aytgan pand-nasihatlarida odamlarning tirikchilik uchun kurashida mehnatning roli alohida ekanligiga urg'u beradi. Ijtimoiy hayotda insonlarning birdamlikda yashashining buyuk kuch bo'lishini tushuntiradi, yoshlarning o'zaro do'stlik, bir-biri bilan ahil-inoq bo'lib yashashga da'vat qiluvchi qarashlari o'rin olgan. Donishmandning bunday fikrlari hozirgi davrda ham yoshlar tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Mambetov K. Erte dawirdegi qaraqalpaq adabiyati. - Nokis: Qaraqalpaqstan, 2020.

2. Purxanov Y.E. Reflection of the development of pedagogical ideas in historical and pedagogical sources in Karakalpakstan // Las Palmas Spain, European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). Vol. 2 No. 10, October 2021. - 176 p.

3. Айтмуратов Ж., Айтмуратова Ж. Қарақалпақ музыка м?дениятыны? раҒажланыҒында жыраҒшылы? мектебини? орны // Бахши, жирова достон ижрочилик мактабларининг ривожланишининг тарихий-назарий ва амалий масалалари: Республика илмий-назарий, амалий конференция материаллари. - Нукус, 2022. - Б. 34-35.

4. Маргулан А.Х. О носителях древней поэтической культуры казахского народа // Ауэзов М.О. Сборник статей к его шестидесятилетию. - Алма-ата, 1959.

5. Алеуов У. ?ара?алпа?станда т?лим-т?рбиялы? ойларды? ??липlesiуи ??м раўажланыўы. - Н?кис: Билим, 1993.

---

**ABULHASAN MOVARDIYNING «DUNYO VA DIN ODOBI» ASARIDA AHLOQ MASALALARINI AKS ETISHI**

*Egamberganova Dilnoza Davronbekovna, UrDU tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abulhasan Movardiyning insoniyat taraqqiyotida eng muhim omil bo'lmish odob masalalari haqida fikr yuritilgan. Bu ilmiy ishni tayyorlashda uning asarlaridan namunalar keltirilib, bayoni esa, alohida tavsiflab berildi.

**Tayanch so'zlar:** *Movardiy, aqliy tarbiya, islom dini, odob masalasi, ta'lim, tarbiya, Qur'on.*

**ОТРАЖЕНИЕ ЭТИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ АБУЛХАСАНА МОВАРДИ В РАБОТЕ «ЭТИКА МИРА И РЕЛИГИИ»**

*Егамберганова Дильноза Давронбековна, научный сотрудник УрГУ*

**Аннотация.** В статье проанализированы взгляды Абулхасана Моварди о важнейшем факторе развития человечества - вопросах этикета.

**Ключевые слова:** *Моварди, умственное воспитание, религия ислам, этикет, образование, Коран.*

**ABULHASAN MOVARDI'S REFLECTION OF ETHICAL ISSUES IN THE WORK «THE ETHICS OF THE WORLD AND RELIGION»**

*Egamberganova Dilnoza Davronbekovna, researcher of UrSU*

**Abstract.** The article analyzes the opinions of Abulhasan Movardi about the most important factor in the development of mankind, the etiquette issues.

**Key words:** *Movardi, mental education, Islamic religion, etiquette, education, Quran.*

**Kirish.** Bunday kuchli xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar tomonidan tuzilgan jamiyatlar, qat'i nazar, kichik yoki katta bo'lishidan qat'i nazar, bir tartib bilan baxtli yashash uchun bu boshqaruv qanday ishlashini ko'rsatadigan hokimlar va qoidalarga muhtojligi gumanitar va siyosiy haqiqatdir. Ushbu tadqiqotda biz insoniyatning eng asosiy, siyosiy, ijtimoiy va axloqiy muammosi, ya'ni Abulhasan Movardiyning «Dunyo va din odobi» nomli asarida belgilab qo'ygan farzand tarbiyasiga doir novatorlik g'oyalari va innovatsion tamoyillarini muhokama qilamiz. Biz Abulhasan Movardiy farzand tarbiyasiga doir novatorlik g'oyalari va innovatsion tamoyillari sifatida dinni, kuchli rahbarni va jamiyatlar tartibi sifatida adolat tushunchasini ta'kidlaganini kuzatamiz. Movardiy, shuningdek, xavfsizlik, mo'l-ko'llik, boylik va dunyoqarash kengli va keng istiqbolli aqliy faoliyat va boshqa shu kabi qadriyatlarni alohida keltirib o'tgan [1].

**Asosiy qism.** Movardiy aqliy tarbiya haqida shunday yozadi: «Bilginki, har bir fazilatning o'z asosi va har bir odobning o'z manbasi bor. Bu asos va manba aql bo'lib, Alloh taolo shu aqlni din tayanchi va dunyo ustuni qilib yaratdi. Qarangki, shariatning amr-qaytariqlarini aqlning kamolot darajasiga qarab belgiladi va dunyo ishlarini shu aql yo'rigi va tadbiriga binoan boshqarishga yo'l ko'rsatdi, maqsad va qiziqishlar har xil bo'lishiga qaramay, qilinadigan ishlarni ikki qismga ajratdi. Birinchisi, aqlga binoan qilish vojib bo'lgan qismni shariat tasdiqlaydi. Aql ana shu ikki qismga ustun va tayanch vazifasini bajaradi» [2]. Darhaqiqat, inson o'z aqli tufayli doimo muammolarga duch keladigan

mavjudotdir. Shu nuqtai nazardan aytishimiz mumkinki, inson muammoning manbasiga ham, yechimning o'ziga ham ega. Insoniyat tarixi davomida ana shu haqiqatdan chiqqan mutafakkirlar shaxs va jamiyat tinchligi va baxt-saodatini ta'minlovchi qonun-qoidalarni o'zida mujassam etgan siyosiy va iqtisodiy maktablarni shakllantirganlar. Bu voqelik mavzui va maqsadi inson baxti bo'lgan ilm-fan sohalari va mutafakkir qarashlariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi va ularni yechim izlanishga turtki berdi. Ko'plab mutafakkir va tadqiqotchilar, xususan, islom faylasuflari va axloqshunoslari ezgu jamiyat va ezgulik asosida boshqaruv tamoyillari va qadriyatlarini ilgari sura boshladilar. Yaxshi va yomon amallarni belgilab, qanday yashashi kerakligini ko'rsatib o'tganlar. Ayni shu allomalar qatori Movardiy ham odob ilmini inson tarbiyasidagi o'mi haqida shunday xulosaga keladi: «Inson ulg'ayib borgani sari olishi lozim bo'lgan adab ikki qismdan iborat. Birinchisi, kelishuv va shartlashuv odobi, ikkinchisi riyozat va tuzatish odobi. Kelishuv va shartlashuv odobi aql egalariining bir fikrga kelib, odob beruvchilarning bir ovozdan ma'qullab, rozi bo'lishlaridan taqlidan olinadi. Ularning odobni istinbot etuvchi kelishuvlari va bir ovozdan rozi bo'lishlariga yaxshi deb ma'qullashni vojib etuvchi hujjat-dalil mavjud. Bunga muomala qoidalari va kiyinish odobi borasida ular ma'qullab, rozi bo'lganlari misol bo'ladi» [2].

Movardiy ham inson va jamiyatning dunyo va oxirat saodati uchun ideal tartib yaratish haqida g'oyalar ishlab chiqqan mutafakkirlardandir. X-XI, ayniqsa siyosat va axloq sohalarida yaratgan nazariyalari bilan mashhur. U asrning eng muhim mutafakkirlaridan biridir. Movardiy yashagan Abbosiylar davri ham til, ham adabiyot, ham islom o'ziga xos tarzda rivojlangan davrdir. Bu davr islom ilmlari nuqtai nazaridan yorqin davr bo'lgani bois, ma'muriy, harbiy va siyosiy jihatdan ham muhim o'zgarishlar yuz bergan bir davr edi. Ilmiy va fikriy oqimlar shiddatli bir davrda yashagan Movardiy ilmiy hayotini yoshligidan boshlagan. U o'z davri ulamolaridan arab, tafsir, hadis, fiqh va foydali fiqh kabi shar'iy ilmlarni o'rgangan. Basra va Bag'dodda o'qishni tamomlab, buyuk ustoz maqomiga erishdi. U bir muddat Ustuvaga mudir etib tayinlandi, keyin Bag'dodga ketdi.

Abulhasan Movardiyning «Dunyo va din odobi» kitobi bugungi kungacha yetib kelgan eng mashhur asarlaridan biridir. Asar dastlab shu nom bilan yozilgan bo'lsa kerak, keyinchalik ulamolar tomonidan qisqartirilib, shu nom bilan mashhur bo'lgan. Movardiy o'zining qisqa muqaddimasida insonning barcha faoliyati ichida eng muhimi diniy va dunyo ishlarini obod yetuvchi asarlar ekanini ta'kidlab, bu asarida hayotning o'lchov va qoidalarni (odob) diniy ta'limotdan tadqiq etishini ta'kidlaydi. U kitobini tayyorlashda Qur'on va Sunnatdan, donishmandlarning ixcham so'zlaridan, yozuvchilarning adabiy iboralari va shoirlar she'rlaridan manba sifatida foydalanganligini ta'kidlaydi. Besh qismdan (bob) iborat Movardiyning «Dunyo va din odobi» asarining birinchi qismi «Aqlning fazilati» va «havo»ning yomonligi deb nomlanib unda an'anaviy islom axloqining asosiy mavzularidan biri bo'lgan aql va nafs to'qnashuvi haqida muhim qarashlari ilgari surilgan. Shu munosabat bilan muallif tomonidan ongning ta'rifi va tabiati, aql-tajriba munosabatlari kabi mavzularga urg'u berildi.

«Ilm odobi» deb nomlangan ikkinchi bobda ilmning qadri, ilm va din o'rtasidagi munosabat, odamlarning ilm va olimlarga qarashi, ta'lim va tarbiya usullari, qoidalari, shogird-ustoz munosabatlari, fan-amal munosabatlari, olimlarning ma'naviy burch va majburiyatlari ko'rib chiqiladi. Bu tushuntirishlar orasida diqqatga sazovor jihatlardan biri shundaki, al-Movardiy ilm-fandagi erkinlikni qat'iy himoya qilib, aqliy va ilmiy asoslardan xoli bo'lgan da'volarga asoslangan ilmiy masalalarni qabul qilish yoki rad etish noto'g'ri ekanligini ta'kidlaydi. Movardiy har bir mavzuda taqlid va taqlidni rad etar ekan, ayniqsa,

biror fikrning to'g'ri yoki noto'g'riligini oshkor qilish uchun ma'lum bir hokimiyatga panoh topganlarni tanqid qiladi. Unga ko'ra, yetarlicha ma'rifatga ega bo'lmagan mavzu haqida savol berishni takabburlik deb hisoblamaslik kerak. Aql bilan tasdiqlangan bilimga ham taqlid sifatida qaramaslik kerak. Tug'ma aqlga ko'ra, bir narsani vujud va adaamdan, mavjudlik hudus va qidamdan xoli bo'lmasligini, yana u ikki zid narsa hech qachon bir-biriga birikmasligi va bir raqami ikkidandan kamligini ham bilishga o'xshaydi. Insondagi ana shu boshlang'ich bilimni idrok etishni tug'ma aql deyiladi [2].

Muktasab aql aslida g'ariziy (tug'ma) aqlning hosilasi, bilishning nihoyasi, tug'ma tabdir va fitrat yutug'idir. Muktasab aqlga had-chegara yo'q, chunki uni qancha ko'p ishlatsa, kamayish o'rniga ko'payib boradi. Mabodo uni o'z holiga qo'yib qo'yilsa, oldingi holatidan kamayadi. Muktasab aqlning ko'payishiga ikki narsa sabab bo'ladi. Birinchisi, ko'p foydalanish tufayli bo'lib, agar unga «havo» va shahvoniy to'siq bo'lmasa. Bu huddi keksa kishilarda ko'p tajriba, sog'lom fikr bo'lishiga o'xshaydi [2]. Endi ikkinchi yo'l muktasab aql o'tkir farosat va zakiylik bilan bo'ladi. Bu narsa to'satdan paydo bo'luvchi o'ta ziyraklik, deb ataladi. Agar u tug'ma aql bilan birlashsa, xuddi o'smirlardagi ziyraklik va aqli rasolik o'zaro birikishida kuzatilgandek, muktasab aqlning ko'payib borishini keltirib chiqaradi [2].

**Xulosa.** Asarning «Din odobi» deb nomlangan uchinchi qismida burch va farz muammolari umumiy tarzda ko'rib chiqiladi. Bu yerda «din» faqat Alloh va banda o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi institut bo'lishdan tashqari, odamlarning Alloh va boshqa mavjudotlarga nisbatan barcha majburiyatlari va munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar tizimi sifatida qaraladi. Bu majburiyatlarning asosi Qur'ondir. Payg'ambarimiz sunnatlari Qur'on belgilagan tamoyillarga zarur tafsirlarni keltirgan, ulamolar esa ijthod orqali farzlarni aniqlab berganlar. Bu bo'limda asosiy ibodatlarning hikmatlariga alohida to'xtalib, o'z-o'zini tarbiyalash mavzusiga to'xtalib o'tadi, inson o'zining dunyoga haddan tashqari bog'liqligini yengish uchun qanday yo'l tutishi kerakligi haqida ma'lumotlar va boshqa adabiy adabiyotlardan misollar keltiriladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ayub, Zulfiqar (2 May 2015). The biographies of the elite lives of the scholars, imams & hadith masters biographies of the Imams & Scholars. Zulfiqar Ayub Publications.
2. Абулхасан Мовардий. Дунё ва дин одоби. - Т.: Хилол-Нашр, 2021.

## TABIYIY FANLAR TA'LIMI

**BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING O'QUV-BILISH KOMPETENTLIGIGA  
TEGISHLI SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH**

*Qurbonazarov Ilxom To'xtayevich, TDPU o'qituvchisi*

**Rezume.** Ushbu maqolada bo'lajak fizika o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligiga tegishli sifatlar, ularning shakllanishi va rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** bo'lajak o'qituvchi, laboratoriya, kompetensiya, eksperiment, o'quv-bilish kompetentligi, motivatsiya, intellektual, hissiy va irodaviy talablar, refleksiya.

**РАЗВИТИЕ КАЧЕСТВ, СВЯЗАННЫХ С УЧЕБНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТЬЮ  
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИКИ**

*Курбоназаров Илхом Тухтаевич, преподаватель ТГПУ*

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о качествах будущих учителей физики, их становлении и развитии.

**Ключевые слова:** будущий учитель, лаборатория, компетентность, эксперимент, учебная компетентность, мотивация, интеллектуальная потребность, эмоционально-волевая потребность, рефлексия.

**DEVELOPMENT OF QUALITIES RELATED TO LEARNING COMPETENCE  
OF FUTURE PHYSICS TEACHERS**

*Kurbanazarov Ilkhom Tokhtaevich, teacher of TSPU*

**Abstract.** This article provides information about the qualities of future physics teachers, their formation and development.

**Key words:** future teacher, laboratory, competence, experiment, educational competence, motivation, intellectual need, emotional-volitional need, reflection.

**Kirish.** O'zbekistonda pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish – zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilishdan iboratdir.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib: tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash; o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish; yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish [1] kabi vazifalar belgilangan. Oliy ta'lim muassasalarida fizikadan laboratoriya praktikumi darslarni tashkil etish shakllaridan biri bo'lib, umumiy fizika kursining ajralmas qismidir. Universitet-

dagi o'quv eksperimenti maktabda bajariladigan eksperimentlar mazmunini o'z ichiga oladi, shuning bilan birga ularni sezilarli darajada to'ldiradi va kengaytiradi. Bo'lajak o'qituvchilarda o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirishni nafaqat ma'lum bir fanni o'rganishning zarur sharti, balki ta'lim tizimi asosiy vazifalarining muhim tarkibiy qismi sifatida ham qarash kerak. Talabalarning o'quv-bilish kompetentligi ularning bevosita laboratoriya eksperimenti va amaliy ishlarni bajarganida, eksperimental masalalarni yechganida, shuningdek, o'qituvchining namoyish tajribalarini bajarish davomidagi harakatlarini kuzatganda shakllanadi. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-bilish kompetentligining muhim tarkibini o'quv eksperimenti tashkil qiladi.

O'quv eksperimenti – bir vaqtning o'zida o'qitish metodi, bilim manbai va o'rganish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'quv eksperimenti ilmiy fizik eksperiment bilan bevosita bog'liq bo'lib, u laboratoriya sharoitida fizik hodisalarni maxsus asboblarni yordamida olingan eksperimental ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish orqali tabiatni maqsadli o'rganish tizimi sifatida tushuniladi. Eksperimentni sinfda uni o'rganish uchun eng qulay sharoitda amalga oshirish lozim. Shu nuqtai nazardan, eksperimentning ko'rgazmalilik xususiyati ham metodik ahamiyatga ega bo'ladi [2]. Har qanday darsning maqsadi talabalarda bilim, amaliy, tadqiqot, o'quv va axborot kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Bu kompetensiyalar talabalarning o'z faoliyati tajribasi va o'qitishning odatiy usullari va shakllari (frontal-individual so'rov; asosli suhbat; o'qituvchi tomonidan belgilangan topshiriqlar bo'yicha talabalarning darslik bilan mustaqil individual ishlashi; videlavhalar namoyish qilish, kino, ekskursiya, an'anaviy testlar va boshqalar) orqali shakllanadi [3]. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun bo'lajak fizika o'qituvchisi quyidagi muhim ta'lim kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak: fikrlash-baho berish, umumiy madaniy, o'quv-bilish, axborot, kommunikativ, ijtimoiy-mehnat, o'z shaxsini takomillashtirish.

Fan asoslarini o'rganish vaqtida shakllanadigan va ularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun kerak bo'ladigan kompetensiyalar o'quv kompetensiyalari deb ataladi. O'quv kompetensiyalari harakatlarning muayyan narsaga yo'naltirilganligiga qarab, shartli ravishda, bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan intellektual, umumo'quv umumiy va maxsus (xususiy) kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Umumiy o'quv kompetensiyalari – o'qish, yozish, javoblar rejasini tuzish, adabiyotlar bilan ishlash, mehnatni ilmiy tashkil qilishdir. Tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi predmetlar uchun umumiy kompetensiyalar esa, o'quv adabiyotlar bilan ishlash, o'lchash, hisoblash, grafiklar chizish, jadvallar tuzish, kuzatish va tajribalar o'tkazishdir [4].

R.I.Malafeev [5] laboratoriya ishini bajarish davomida talabalarning o'quv-bilish kompetentligini samarali oshirish metodikasining mohiyatini quyidagicha talqin qiladi: talabalar odatdagidek bitta emas, balki bir nechta vazifalarni olishadi. Birinchi vazifa qiyin emas, ulardan faqat asosiy materialni bilish va uni standart vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini talab qiladi. Ushbu vazifa talabalarning bazaviy bilim va ko'nikmalari darajasini tekshiradi. Agar vazifa mustaqil ravishda bajarilgan bo'lsa, shuning o'zi bilan ham talabani qoniqarli baholash mumkin; keyingi topshiriqlar soddadan murakkabga qarab borish tartibida joylashtirilgan bo'lib, ularni bajarish jarayonida talabalar yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydilar, o'rganilayotgan hodisaning yangi jihatlarini kashf qiladilar. Ko'pincha, bu topshiriqlar shunday ijodiy vazifalarni o'z ichiga oladiki, ular talabalardan nostandard, original yechim topishni talab qiladi; ishning mazmuniga qarab talabalarga topshiriqlarni erkin tanlash huquqi beriladi yoki birinchi topshiriq bajarilishi shart, qolganlari esa, tanlov yo'li bilan bajariladi; ishni baholashda uning hajmi, bajarilgan vazifalarning murakkabligi, talabalarning ishni qay darajada mustaqil bajarganligi, taklif etilgan yechimlarning to'g'riligi va asosliliigi, hisobotning sifati va rasmiylashtirilganligi e'tiborga olinadi; eng qiyin va ijodiy vazifalarni bajarishga doir taklif qilingan yechimlar uchun qo'shimcha baho berilishi mumkin; ba'zan eng original yechimlar uchun «rag'batlantiruvchi ball» deb nomlangan reyting tizimi ham qo'llaniladi. Bunday tizim besh balli tizim bilan taqqoslaganda yanada moslashuvchan va obyektivdir.

1. Motivatsion talab – fizikadan o'quv eksperimentiga nisbatan qiziqishning rivojlanganligi: eksperimentlar talabalarda fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni hosil qiladi, ularning o'quv-bilish faoliyatlarini rivojlantirishga sharoit yaratadi.

1.1. Namoyish tajribalarini kuzatish: talaba darsda va darsdan tashqari vaqtlarda kuzatilgan namoyish tajribalarining muhokamasida faol ishtirok etadi, ushbu tajribalarni eslab qoladi va o'zining yangi g'oyalarini ham taklif qilishi mumkin.

1.2. Laboratoriya eksperimentlarini bajarish: talaba eksperimentga puxta tayyorgarlik ko'radi, laboratoriya tajribalarini mustaqil ravishda bajaradi, ular haqidagi hisobotlarni mazmunli rasmiylashtiradi, tajribalarni va ularga tegishli fizik hodisalarni o'rganadi va eslab qoladi.

1.3. Eksperimentlarni mustaqil ravishda qo'yish: talaba o'quv tajribalari haqidagi ma'lumotlarni qog'oz va elektron ommaviy axborot vositalaridan qidirib topadi, tahlil qiladi va ularning ayrimlarini mustaqil ravishda amalga oshiradi.

2. Intellektual talab – o'quv-bilishda fizik eksperimentning rolini chuqur anglash: intellekt (lot. intellects – bilish, tushunish, idrok qilish) – insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi.

2.1. Nazariya va eksperimentning ajralmas birligi: talaba ilmiy bilish jarayonida nazariya va eksperimentning ajralmas, simmetrik va bir xil ahamiyatga ega ekanligini tushunadi. Nazariya murakkab tuzilishga ega bo'lib, u quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: a) tushunchalar, qonunlar, akseomalar, prinsiplar va hokazo; b) ideallashtirilgan obyekt – model; s) bilimlarni bayon etishga qaratilgan metodlar, usullar, qoidalar, isbotlar majmui; d) eksperiment; ye) umumlashtirish va asoslash. O'z navbatida, eksperiment ham quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: kuzatish, taqqoslash, o'lchash, natija, tahlil.

2.2. Faktlarni eksperimental asoslash: talaba nazariyaning asosida yotuvchi fizik hodisalarning mavjudligini eksperimental isbotlay oladi, fizik doimiyliklarni eksperimental aniqlash usullarini o'zlashtirgan.

2.3. Nazariy xulosalarni eksperimental tekshirish: talaba nazariyadan kelib chiqqan xulosalarni asoslay oladi, ya'ni fizik kattaliklar orasidagi funksional bog'liqliklarning haqqoniyligini eksperimental isbotlay oladi, fizik hodisalardan amaliy foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash muammosiga bag'ishlangan ishlarni tahlil qilish, shuningdek, oliy ta'limda kompetensiyaviy o'qitishni amalga oshirish tajribalarini o'rganish natijasida shunday xulosaga keldikki, bo'lajak o'qituvchining kompetensiyalarini rivojlantirishning asosida uning intellektual kompetentligi o'rin olar ekan. Intellektual kompetentlik aqliy faoliyatning tushunchalar va faktlarni tahlil qilish va sintez qilish, taqqoslash, tasniflash va tizimlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashtirish, umumiy, maxsus va alohida jihatlarni ajratib ko'rsatish kabi usullarini amalga oshirish qobiliyati hisoblanadi [6].

O'quv va kasbiy vazifalarni bo'lajak o'qituvchining intellektual kompetentligini bosqichli rivojlantirish jarayonining tarkibiy elementlari sifatida qaraymiz. O'quv va kasbiy vazifalarni hal qilish qobiliyatining asosini qaror qabul qilish jarayoni tashkil etadi. Qabul qilingan qarorlarning sifati ko'p jihatdan tashqi ta'sirlar qaytariladigan ichki sharoit sifatida harakat qiladigan faoliyat subyekting ko'nikmalari bilan belgilanadi. Ushbu ichki sharoitlar intellektual qobiliyatlardir.

3. Hissiy va irodaviy talab – fizikadan o'quv eksperimentning muhimligini va uning o'quv-bilishdagi salmog'ini his qilish: eksperimentning aniq chiqishi va unga tegishli bilimlar o'qituvchi tomonidan his-hayajonli tarzda berilishi talabalarda fizik qonuniyatga nisbatan ishonch hosil qiladi, e'tiqodni shakllantiradi. Talabalarning eksperimentdan foydalaniladigan hayotiy misollarni izlab topishiga yordam yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchining hissiy

sifatlari – qayg‘u, quvonchi, umidsizlik, nafrati, siqilish, sarosimaga tushish, ajablanish, qiziqish, ikkilanish, anglash, yumor tuyg‘usi kabi sifatlardir. Hissiy sifatlar ta‘lim-tarbiya jarayonida talabalarning o‘quv muassasasi, ko‘cha-kuy va oila muhitida tashkil etiladigan o‘zaro muloqot, munosabat jarayonlarida aks etadi. Talabalar tomonidan o‘quv fanlari asoslarini puxta o‘zlashtirilishi, ta‘lim muassasasida o‘rnatilgan tartib-intizom qoidalariga rioya qilinishida, shuningdek, ularda zarur axloqiy sifatlarning hosil bo‘lishida o‘qituvchining hissiy sifatlariga egaligi ham muhim ahamiyatga ega.

Talabalar eksperimentdan ko‘zlangan maqsadlarga to‘la erishish uchun bor imkoniyatlarni ishga soladi va unga erishadi. Bo‘lajak o‘qituvchining irodaviy kompetentligi shunda ko‘rinadiki, u oldindan biron-bir maqsadni ko‘zlab harakat qiladi, shu maqsadga erishish uchun yordam bera oladigan vositalar va usullarni oldindan qidirib topadi, to‘siqlar va qiyinchiliklarni yengish uchun ongli ravishda o‘z kuch-g‘ayratini ishlata oladi. Umuman olganda, iroda o‘qituvchi faolligining ko‘rinishi bo‘lib, u maqsadga erishish yo‘lida aniq bir fikrga keladi va qabul qilingan qarorni amalga oshirish uchun imkoniyatlarni topa oladi [2].

Refleksiya – bo‘lajak o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishi: shuni ta’kidlash kerakki, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatida refleksiya muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi kasbiy refleksiya jarayonida o‘zi tanlagan pedagogik kasbi talablari darajadagi imkoniyatlarini, u haqidagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan nisbatlaydi va shaxsiy pedagogik mahorat tizimini hosil qiladi. O‘qituvchi pedagogik mahoratning asosiy xususiyatlaridan biri uning rivojlanishida uzluksizlikning mavjudligidir. Demak, refleksiv jarayonda o‘qituvchining kasbiy mahorati, kasbiy sifatlarining rivojlanishini, kengayib-boyib borishini, kuchayishini rag‘batlantirish inobatga olinishi kerak. Bilimlar, ko‘nikma va malakalar, kompetensiyalar ongli ravishda o‘z-o‘zini kasbiy va ma’naviy takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilingandagina jarayon ishlanadi. O‘qituvchining «o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan har tomonlama mukammal takomillashtirishi» hamisha amalga oshadigan faoliyat emas. Shunga qaramay, o‘qituvchining o‘zi haqidagi deyarli har qanday fikr-mulohazasi, kasbiy refleksiyaning deyarli har bir jarayoni, kasbiy faoliyatni qiziqarli qilish uchun muhim ahamiyatga ega: chin ko‘ngildan bajariladigan og‘ir mehnat ham kasbiy faoliyatni osonlashtiradi, bu esa refleksiyaning mazmun mohiyati asoslaridan biridir.

4. Ijodiy talab – eksperimentning talabalami ijodiy ishlashga yo‘naltirishi: eksperimentni va unda aks etayotgan fizik jarayonni hamda qonuniyatni ilmiy va texnik jihatdan puxta o‘zlashtirgan talaba eksperimentning boshqa jihatlari to‘g‘risida ham bosh qotira boshlaydi, ya‘ni ijodiy ishlashga o‘tadi. Bo‘lajak o‘qituvchining faoliyati o‘z dunyoqarashi, e‘tiqodi, ongi va xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan, ya‘ni o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy xarakterga ega bo‘lishi lozim. Ijodiy ishlaydigan o‘qituvchi bolalami muvaffaqiyatli o‘qitish va tarbiyalash, ilg‘or pedagoglar tajribalarini o‘rganish bilangina cheklanib qolmasdan tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalariga ham ega bo‘lishi, o‘z ustida doimiy ishlab, zamonaviy bilimlarni egallab borishi, yangi fizik asboblarni va jihozlarni bilan tanishib borishi hamda ularni ishlata bilishi zarur. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o‘qituvchidan ijodkor bo‘lishni, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yuritishni hamda fan yutuqlarini o‘quvchilarga yetkaza olishni taqozo qiladi [3].

5. Amaliy faoliyatli – eksperimental ko‘nikma va malakalar, kompetensiyalarning rivojlanganligi:

5.1. Namoyish tajribalarini qo‘yish: bo‘lajak o‘qituvchi namoyish tajriba qurilmasini yig‘adi. Ro‘yxatda keltirilgan barcha nomdagi namoyish tajribalarini o‘tkaza oladi va tushuntiradi.

5.2. Laboratoriya tajribalarini bajarish: bo‘lajak o‘qituvchi mustaqil ravishda maktab dasturidagi barcha nomdagi laboratoriya ishlari uchun eksperimental qurilmani yig‘a oladi va tajribani to‘g‘ri bajarib, natijalar oladi.

5.3. Yangi o‘quv eksperimentini tadqiq qilish: bo‘lajak o‘qituvchi mustaqil ravishda internetda berilgan yoki biror bir ilmiy-uslubiy jurnalda nashr etirilgan yangi laboratoriya

ishi bilan tanishib, uning eksperimental qurilmasini yig'a oladi va tajribani o'tkaza oladi.

Laboratoriya ishlari o'quv faoliyatining shunday turiki, unda fanga doir bilimlar bilan birgalikda talabalarning o'quv eksperimental kompetensiyalari ham tizimli va maqsadli ravishda ishlab chiqiladi va takomillashtiriladi. Laboratoriya darslarida alohida talabalar emas, balki guruhning barcha talabalar qat'iy belgilangan dastur bo'yicha va dars davomida fizik tajribalarni mustaqil ravishda bajaradilar. Shu nuqtai nazardan, laboratoriya ishlari talabalarning o'quv-bilish kompetentligining rivojlanishida alohida, birlamchi rol o'ynaydi. Turli o'quv fanlarida o'qituvchilar kasbiy-pedagogik kompetentligining tarkibiy qismlari muayyan ustunlikka ega bo'lib, ular fanning o'ziga xos xususiyatlari va uni o'qitish metodikasi bilan belgilanadi. Jumladan, fizika fani bo'yicha: olamni ilmiy bilish usullarini egallash, kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'lchashlarni amalga oshirish, tajriba ishlari natijalarini qayta ishlash va tushuntirish; fizikaning asosiy tushuncha va qonunlarini egallash, tushuncha va kattaliklarning fizik ma'nosini tushunish, fizik hodisalar, qonunlar va nazariyalarni bilish; zamonaviy astronomiya va astrofizikaning asosiy g'oyalari, osmon jismlarining tabiati, koinotning tuzilishi va evolyusiyasi haqida tasavvurga ega bo'lishi.

**Xulosa.** Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, xulosa sifatida bo'lajak fizika o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligi tarkibiga kiruvchi quyidagi komponentlarni keltirishimiz mumkin: maqsadni qo'yish va unga erishish yo'llarini izlab topish, o'z maqsadini boshqalarga tushuntira olish; kuzatilayotgan faktlarga nisbatan savollar berish, hodisalarning sabablarini o'rganish, o'rganilayotgan muammoning mazmun-mohiyatini tushunganlik yoki tushunmaganligini bildirish; bilishga oid vazifalarni qo'yish va gipotezalarni ilgari surish; kompyuter vositalari va texnologiyalaridan foydalangan holda o'z tadqiqotlari natijalari haqida og'zaki va yozma ravishda taqdimot qilish; intellektual tayyorgarlik va ta'limni davom ettirish; ongli ravishda bilishga qiziqish va unga amalga oshirishga intilish; nazariy bilimlardan amaliyotda foydalanish; mehnatni oqilona tashkil etish, mustaqil ta'lim olish; ratsional ish usullarini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash; nostandart vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun bilimlarni qo'llash; fizik asboblarni tanish va bilish, ulardan foydalangan holda eksperimentlar o'tkazish hamda natijalarni tahlil qilish; ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish; bilim sohasida kompetentlik darajasiga erishish.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги ПҚ-4623-сон «Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори.

2. <https://azkurs.org/reja-15-iroda-aida-tushuncha-15-iroda-aidagi-nazariyalar-iroda.html>

3. Зармасов Ш.П. Ўқитувчиларнинг ўз-ўзини рефлексив такомиллаштириш шароитлари: file:///C:/Users/User/Downloads/1483-%D0%A2%D0%B5%

4. Искандаров К.А. Ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини такомиллаштиришга муносабат: изланишлар, муаммолар, ечимлар // Молодой ученый. - Чита, 2016. - № 29.3 (133.3). - С. 13-17.

5. Малафеев Р.И., Долганова Е.Л. Пути повышения уровня экспериментальной подготовки учащихся по физике. - Курган: КГПИ, 1995. -64 с.

6. Абдуллина Г.Т. Развитие интеллектуальных умений будущего учителя в компетентностно-ориентированном образовательном процессе вуза // Фундаментальные исследования. - М., 2011. - № 12. - Ч. 4. - С. 723-731.

---

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA  
KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MODULLI O'QITISH  
TEKNOLOGIYASINING O'RNI**

*Nazarov Ilhomjon Usmanalievich, TDPU dotsent v.b., PhD*

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faliyatga tayyorlashda zamonaviy ta'lim texnologiyalari (xususan, modulli o'qitish texnologiyasi) imkoniyatlaridan foydalanishning afzallik tomonlari bayon etilgan. Mamlakatimiz ta'lim tizimining barqaror rivojlanishida bo'lajak o'qituvchilarning o'rni beqiyosligi to'g'risida ham fikrlar yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** raqamli ta'lim, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, modulli o'qitish texnologiyasi, ta'limni individuallashtirish, o'quv element.

**РОЛЬ МОДУЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ  
В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*Назаров Илхомжон Усманиевич, и.о. доцент ТДПУ, PhD*

**Аннотация.** В статье описаны преимущества использования возможностей современных образовательных технологий (в частности, модульной технологии обучения) при подготовке будущих учителей к профессиональной деятельности в условиях цифрового образования. Кроме того, обсуждены мнения о несравненной роли будущих учителей в устойчивом развитии системы образования нашей страны.

**Ключевые слова:** цифровое образование, современные образовательные технологии, модульная технология обучения, индивидуализация образования, образовательный элемент.

**THE ROLE OF MODULAR EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN PREPARING  
FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES IN DIGITAL  
EDUCATION CONDITIONS**

*Nazarov Ilkhomjon Usmanalievich, associate professor of TDPU, PhD*

**Abstract.** The article describes the advantages of using the capabilities of modern educational technologies (in particular, modular teaching technology) in preparing future teachers for professional activities in the context of digital education. Opinions about the incomparable role of future teachers in the sustainable development of the education system of our country were also discussed.

**Key words:** digital education, modern educational technologies, modular learning technology, individualization of education, educational element.

**Kirish.** Raqamli ta'lim sharoitida bo'lg'uchi o'qituvchilar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir [1]. Raqamli ta'lim o'z vaqtida – ijodkor, ijtimoiy faol, ma'nan boy o'qituvchi shaxsini tarbiyalash va yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishlariga zarur shart-sharoitlar yaratadi.

**Asosiy qism.** Raqamli ta'lim deyilganda – ushbu ta'lim sharoitida pedagog va talaba o'rtasidagi ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda aniq natijalariga erishishni ko'zlovchi o'zaro munosabatlarni tashkil etish jarayoni tushuniladi, uning asosiy vositalari sifatida raqamli texnologiyalar, raqamli vositalar namoyon bo'lib, ular o'zida ta'lim va kasbiy faoliyat natijalarini aks etadi [2].

Raqamli ta'lim muhitini yaratishning zaruriy shartlaridan biri, «matematika» fanini o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanish hisoblanadi. AKTdan foydalangan holda bo'lg'usi o'qituvchining kognitiv qobiliyati va uning mustaqil faoliyat olib borishini rivojlantirishning nazariy va amaliy yondashuvlari D.I.Yunusova, M.E.Mamarajabov, R.X.Ayupov, M.S.Artyuxina, T.A.Voronko, T.S.Popova, R.A.Rupakova va boshqalar tomonidan keng o'rganilgan. Matematikani o'qitish samaradorligini oshirish, matematika o'qitishda modulli o'qitish texnologiyalarini qo'llash orqali bo'lg'usi o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish yo'lida esa, M.Barakaev, Yu.G.Guzun, S.G.Ivanova, T.S.Popova, E.I.Sanina, M.A.Shmonovalarning ishlarini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Aksariyat hollarda raqamli ta'lim – ta'lim sifat-samaradorligini ta'minlash sharti sifatida qaraladi va bunda – «umrbod ta'lim» g'oyasi alohida ahamiyat kasb etadi [3]. Shuningdek, raqamli ta'lim sharoitlarida uzluksiz ta'lim jarayonlarini to'g'ri tashkil etish va buning natijasida erishiluvchi ta'lim natijalarining sifat-samaradorligini ta'minlovchi asosiy talab va zaruriy shart sifatida e'tirof etiladi.

Raqamli ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar jumlasiga quyidagilarni keltirish mumkin: ta'limning moslashuvchanligi, o'zgaruvchanligi va standart talablarga mos kelishini ta'minlaydigan ta'lim dasturlarini modulli tamoyillar asosida qurishga o'tish; yangi ta'lim texnologiyalari, o'qitishning interfaol shakllari, loyiha va boshqa innovatsion usullar orqali bo'lg'usi o'qituvchilar faoliyatini rag'batlantirish, axborotni tahlil qilish va o'zini-o'zi o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning mustaqil ta'limi ahamiyatini oshirishga xizmat qiluvchi boshqa usullardan keng foydalanish; rag'batlantirish, jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim muassasalarini hamkorlikga ta'sis etish va moliyalashtirish, ta'limga byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim tizimini investisiyaviy jozibadorligi uchun shart-sharoitlar yaratish; ta'limning moddiy-texnik bazasi va infratuzilmasini yangilash, axborotlashtirishni yanada jadallashtirish; ta'lim, fan va davlat talablarini integratsiyalash asosida ta'limining innovatsion xarakterini ta'minlash; fundamental va amaliy fanlarni rivojlantirish, ta'lim mazmuni va texnologiyalarini uyg'unlashtirish orqali loyihalar ishlab chiqish; raqamli ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida, shu jumladan ta'limning barcha darajalari – boshlang'ich ta'limdan boshlab to oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarigacha zamonaviy, mobil va moslashuvchan raqamli ta'lim tizimini yaratish [4]. Uzluksiz ta'limda pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Pedagogik texnologiya – bu shakl, usul, uslub, o'qitish usullari, tarbiyaviy vositalarning maxsus majmui va tartibini belgilovchi psixologik-pedagogik munosabatlarning yig'indisi hamda pedagogik jarayonlarni amalga oshirishdagi tashkiliy-uslubiy vositasidir.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyalar bo'lg'usi o'quvchi shaxsini kamol toptirish vositasi bo'lib, pedagogik jarayonning muhim xususiyatlarini o'zida aks etadi. Modulli o'qitish texnologiyasini esa, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning innovatsion komponenti sifatida targ'ib qilinadi.

Modulli o'qitish texnologiyasi – mavzu, uni o'zlashtirish tezligi, mustaqillik darajasi, o'rganish uslublari, nazorat hamda o'zini-o'zi nazorat qilish orqali o'qitishni individuallashtirishni kafolatlaydi [5].

Modul tushunchasi – ta'lim mazmuni va uni o'zlashtirish texnologiyasini birlashtiruvchi maqsadli funktsional tugundir. Modul tarkibiga quyidagilar kiradi: maqsadli harakatlar rejasini; axborot banki; didaktik maqsadlarga erishish uchun uslubiy qo'llanma.

Modulli o'qitish texnologiyasi ta'limni individuallashtirish maqsadidagi keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Didaktikada ta'limga individual yondashuv tamoyili ta'lim oluvchining o'quv faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan va o'rganish natijalari bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarni hisobga olishni nazarda tutadi.

O'quv modullari bilan ishlash vaqtida bo'lg'usi o'qituvchilar ushbu modulning barcha ta'limiy o'quv elementlari (O'E) hamda ularning o'rganish yo'nalishlari orasidagi o'zaro aloqadorliklarni ko'ra olishlari va shu asosda ularni o'zlashtirishlari lozim: ma'ruza va amaliy yuklamalar, mustaqil ta'lim, kurs ishi, oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik, mustaqil ilmiy loyihalar ustida ishlash va boshqalar. Shu bilan birga, ushbu ta'lim dasturini o'rganishdan maqsad bo'lg'usi o'qituvchilar tomonidan ma'lum miqdordagi kasbiy kompetensiyalarga erishishdan iborat bo'lib, ularni rivojlantirish vositasi sifatida ta'lim tizimining mustaqil birligi sifatida namoyon bo'luvchi modul xizmat qiladi.

Modulli o'qitish – ta'limni tashkil etish faoliyatlarida qo'llanuvchi etarli darajadagi yangi va ilg'or yo'nalishlardan biridir. O'qitishning ushbu turi an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan bir qator afzalliklarga ega.

Ta'lim oluvchi, ya'ni bo'lg'usi o'qituvchilar tomonidan qaraydigan bo'lsak – bu minimal moliyaviy va vaqt xarajatlari bilan, qulay shaklda va qulay vaqt tezligida ta'lim olish, shuning bilan birga fan kursi maqsadi, mazmuni, tuzulishi va unda harakatlanish traektoriyasi hamda o'quv faoliyatini tashkil etishini osonlashtiradi.

Pedagog uchun to'liq yoki aniq modullar kesimida bo'lg'usi o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish, kuzatish, nazorat qilish va albatta baholash hamda ular bilan doimiy teskari aloqalarni o'rnatish uchun qulayliklar yaratadi. Tegishli ravishda modullardan foydalanish orqali o'qitishda, pedagogik tizim – tizimli o'zini-o'zi tashkil etish imkoniyatini oladi.

Oliy matematika fanini modulli o'qitish texnologiyasi asosida loyihalashning asosiy bosqichini modullarni ishlab chiqish tashkil etadi. Matematik bilimlarni tizimlashtirishga yo'naltirilgan modullarni loyihalash muallif tomonidan aniqlangan modulli o'qitishning quyidagi didaktik tamoyillariga asoslanadi: blokli tuzilma tamoyili; integrativlik tamoyili; mazmunni rivojlantirish komponentini yangilash tamoyili; ochiqlik tamoyili; ongli nuqtai nazar tamoyili; hamkorlik tamoyili.

Toshkent davlat pedagogika universitetining barcha ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan «Oliy matematika» fani misollaridan foydalangan holda, ushbu tamoyillarni amalga oshirishni ko'rib chiqaylik. Modul tarkibida qurilgan har bir blok o'zidan oldingi blok bilan mantiqiy bog'langan holda yangi bloklarni hosil qiladi, shuning bilan matematik kontentlar izohlanishining tartibli ketma-ketligi buzilmaydi va u matematik nazariyaning yagona bloki ostida quriladi (blokli tuzilma tamoyili). Oliy matematika faniga tegishli barcha modullarning o'zaro bog'liqligini ko'rsataylik, ma'lumki, birinchi navbatda, asosiy (bazaviy) hisoblanuvchi modullar, qolgan hollarda esa, chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik tahlil tushunchalari o'rganiladi. So'ngra hosila tushunchasi, integrallar, bir nechta o'zgaruvchilar funktsiyalari, kombinatorika elementlari, matematik modellashtirish tushunchalari ma'lum modullarda o'rganiladi va ular orasida muhim bo'lgan aloqalar o'rnatiladi. «Ehtimollar nazariyasi» va «Matematik statistika» modullari esa, oliy matematikaning asosiy tushunchalaridan keyin o'rganiladi. Yuqorida ta'kidlangan ma'lumotlarga ko'ra, oliy matematika fani kursining quyidagi blokli tuzilmasini ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldik.

Har bir modul o'z tarkibiga bir nechta bloklarni olishi mumkin, ular o'z vaqtida ma'lum bir mavzu bo'yicha bilimlarning to'liq mazmuni tizimini ifodalaydi (integrativlik tamoyil).

Har bir blokda turli masalalar taklif qilinadi, ushbu masalalar yechimi esa, bo'lg'usi

o'qituvchilarda o'z bilimlarini yangi vaziyatlarda namoyish qilish va ularning ko'nikmalarini mustahkamlash qobiliyatini rivojlantiradi (mazmunni rivojlantirish komponentini yangilash tamoyili).

Bo'lg'usi o'qituvchilar o'zlarining matematik bilimlar tizimini to'ldirish orqali har bir modulni nima maqsadda o'rganishlarini aniq bilishlari shart. Buning uchun motivatsiyani oshirish yo'lida ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi, shuningdek, har bir modulga ular uchun amaliy xarakterdagi masalalar qo'shilishi maqsadga muvofiqdir (ongli nuqtai nazar tamoyili).

Modulli o'qitishda professor-o'qituvchining roli – bo'lg'usi o'qituvchilar hamkorligini ta'minlashdan iborat, bu mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishlarda, shuningdek, tugallangan modul mavzulari bo'yicha hisobot berishlarda (hamkorlik tamoyili) namoyon bo'ladi. Bu modulli o'qitish tamoyillarini amalga oshirishning ba'zi bir ko'rinishlari xolos, ular yordamida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida «oliy matematika» fanini o'qitishning barcha bosqichlarida ushbu texnologiyaning ne chog'lik ahamiyati va muhimligini ta'riflashga so'z o'z o'z.

**Xulosa.** Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida modulli o'qitish texnologiyadan foydalanishda professor-o'qituvchi yangi kontentlarni yaxshi tarzda tushuntirishga emas, balki bo'lg'usi o'qituvchilarning ta'limdagi faoliyatini yaxshi boshqarishga erishadi. Modulli o'qitish tizimi professor-o'qituvchiga kasbiy o'sishni, talabaga esa, o'zini o'zi aniqlash va rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Shu bilan birga, ushbu o'qitish tizimi professor-o'qituvchidan dastlabki ko'p mehnatni bo'lg'usi o'qituvchilardan esa, doimiy mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Ular asta-sekinlik bilan modulli o'qitishga o'rganib borishadi va o'z faoliyatlarida yaxshi natijalarga erishishadi.

#### Adabiyotlar:

1. Акимова И.В., Губанова О.М., Титова Е.И. Возможности реализации модульного подхода при обучении бакалавров педагогических специальностей на примере темы «Введение в алгебру логики» // Современные проблемы науки и образования. - М., 2013. - № 5.
2. Антонова Д.А., Оспенникова Е.В., Спирин Е.В. Цифровая трансформация системы образования: проектирование ресурсов для современной цифровой учебной среды как одно из ее основных направлений // Вестник ПГГПУ.- П., 2018. - № 14. - С. 5-17.
3. Зайцева О.В. Непрерывное образование: основные понятия и определения // Вестник ТГПУ. - Т., 2009. - № 7. - 106 с.
4. Концепция непрерывного образования: <http://www.ido.tsu.ru>
5. Юцявичене П.А. Теория и практика модульного обучения. - Каунас, 1989.

---

## TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING DOLZARBLIGI

*Adasheva Mavludaxon Umatalieva, O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasi dotsent v.b.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-pedagogik masalalari, kompyuter telekommunikatsiyalarining qo'llanilish tajribalari, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashda talabalarni faqatgina ekrandagi axborotlarni ko'rishiga va ularni qabul qilishgagina emas, balki ularning o'zlari ham bu jarayonda ijodiy ishtirok etish masalalari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalar, ta'lim tizimi, shaxsiyatni rivojlantirish, axborot madaniyat, kompyuter savodxonligi, ta'limning ishonchliligi, multimedia vositalar.

## АКТУАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

*Адашева Мавлудaxon Уматалиевна, и.о.доцента Государственной академии хореографии Узбекистана*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены научно-педагогические вопросы использования информационных технологий в системе образования, опыт использования компьютерных телекоммуникаций, использования информационных технологий в образовательном процессе, которые помогают учащимся не только видеть и воспринимать информацию на экране, но также осветить вопросы творческого участия в этом процессе.

**Ключевые слова:** образовательный процесс, педагогические технологии, информационные технологии, образовательная система, развитие личности, информационная культура, компьютерная грамотность, надежность образования, мультимедийные средства.

## COST OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM

*Adasheva Mavludakhon Umatalieva, associate professor of State academy of choreography of Uzbekistan*

**Abstract.** This article discusses scientific and pedagogical issues of the use of information technology in the education system, experience in the use of computer telecommunications, the use of information technology in the educational process, which help students not only see and perceive information on the screen, but also highlights issues of creative participation in this process.

**Key words:** educational process, pedagogical technologies, information technologies, educational system, personal development, information culture, computer literacy, reliability of education, multimedia.

**Kirish.** Mamlakatning jahon hamjamiyatida egallagan o'mi uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bugungi kunda, inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirish, tobora takomillashib borayotgan texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni rivojlangan mamlakatlar tajribasi misolida yaqqol ko'rib turibmiz.

**Asosiy qism.** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy mamlakatlar hamkorligida zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan ishlab chiqarish korxonalari bunyod etilib, ularni kadrlar bilan ta'minlash ishlari mumkin qadar hal qilinmoqda. Shunday bo'lsada mamlakatimizda zamonaviy mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bu muammoni ijobiy hal qilmasdan turib, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirib bo'lmaydi. Respublikamizda barkamol shaxs va yetuk mutaxassislarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu sababdan ta'lim mazmunini takomillashtirishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlarini samarali qo'llashni, ta'lim muassasalarida kompyuterlashtirishni rivojlantirishni, elektron axborot-ta'lim resurslaridan to'laqonli foydalanishni taqozo etmoqda. Ta'lim bosqichlari orasida uzviylikni ta'minlash ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari, prinsiplari orasida uzviylikni ta'minlashni taqozo etadi. Shu sababli uzviylikni ta'minlashda elektron o'quv-metodik majmualardan foydalanish samarali hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim taraqqiyoti shunday imkoniyatlarga yaratilgan kompyuter paketlaridan tashkil topishi mumkin, uyda shaxsiy kompyuterlarda, mustaqil ishlash uchun jihozlangan oliygohlarda, kompyuter sinflarida, yotoqxonalarda, maxsuslashtirilgan malakaviy auditoriyalarda foydalanishimiz mumkin.

Hech kimga sir emaski, hozirgi kunda Internet va umuman axborot texnologiyalari hayotimizni keskin o'zgartirib yubormoqda. Amaliy tahlillar ta'lim jarayonida katta samaraga ega bo'lishi uchun o'quv jarayonida interfaol, didaktik o'yinlar va mashq qildirgichlardan foydalanish taqozo etiladi. Ular tahsil oluvchilarning jamoada yoki individual faoliyatini samarali yo'lga qo'yib, kasbiy malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Interfaol o'yinlar ma'lum bir kasbiy sifatlarga va malakaga ega bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish maqsadida kelajakda kasbiy faoliyati bilan bog'liq vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatini beradi. Aynan didaktik o'yinlar va mashq qildirgichlarni yaratish elektron o'quv-metodik majmualar yaratishda katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bu qiyinchilik dasturiy-texnik va metodik qiyinchiliklar bilan bog'liq.

Tadqiqotimiz tomonidan hal qilinadigan masalaning mohiyatidan qat'iy nazar, insonning o'qitishning elektron tizimida samarali faoliyat olib borishi uchun boshlang'ich ma'lumotlarni, ishlov berishning oraliq natijalarini vizuallashtirish uslubi muhim ahamiyat kasb etadi, ular amaldagi va yakuniy ma'lumotlarni odamning ko'rish orqali qabul qilishiga va olingan natijalarni bir qiymatli talqin qilishiga mos ravishda taqdim qilishning yaxlit formasini ta'minlaydi. Interfeysning muhim talabi – uning intuitivligidir. Shuni qayd qilish lozimki, interfeysning boshqaruvchi elementlari qulay va ko'zga tashlanuvchan bo'lishi lozim. Shu bilan birgalikda ular e'tiborni asosiy mazmundan chalg'itmasligi lozim, boshqarish elementlarining o'zlari asosiy mazmun bo'lib hisoblanadigan holatlar bundan mustasno qilinadi. Shu bilan birga, pedagogikada o'qitishning mazmuni, usullari va tashkiliy formalarini asoslab beruvchi hamda ochib beruvchi didaktikaga katta e'tibor qaratiladi. O'qitish jarayoni bilimlar, ko'nikmalar va uddalashlarni egallashning ko'rgazmalilik, tizimlilik, osonlik va mustahkamlilik didaktik prinsiplariga mos ravishda quriladi. O'qituvchining fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olish san'ati bilimlarni mustahkam egallashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, kompyuterli darsliklar – faqatgina o'qituvchining imkoniyatlarini kuchaytiruvchi vositalar bo'lib hisoblanadi, biroq uning o'rmini bosa olmaydi.

Ta'lim jarayoni rivojiga bir nazar tashlasak, bugungi kunda kompyuter telekommunikatsiyalari yordamida qanchalik muhim pedagogik masalalarning yechimi topilayotganligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Ta'limning turli sohalarida kompyuter

telekommunikatsiyalarining qo'llanilish tajribalaridan shuni ko'rish mumkinki, axborot texnologiyalari bizga bir qator ijobiy imkoniyatlarni yaratib berayapti, quyidagilar shular jumlasidandir: professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalarning har xil turdagi hamkorlik ilmiy tadqiqotlarini (har xil ilmiy-amaliy loyihalar yordamida chinakam ijodiy tadqiqot, mustaqil amaliy faoliyat, mustaqil bilim o'rttirish, amaliy ijodiy faoliyat va boshqa turdagi hamkorliklarni) tashkil etish; ilmiy-uslubiy markazda ta'lim olayotgan keng ommaga tezkor mutaxassis maslahatlarini tashkil etish va yetkazish; masofaviy ta'lim va pedagogik kadrlar malakasini oshirish tarmog'ini tashkil etish; tezkor axborot almashinuvi; ta'limdagi sheriklarning, bu talaba, o'quvchi, o'qituvchi, ilmiy xodim bo'lishidan qat'iy nazar, ularga o'zaro fikr almashinish ko'nikmalarini hosil qilishni, muomala madaniyatini va o'z fikr-mulohazalarini tez, lo'nda va aniq ifoda etishni o'rgatish; madaniy, etnik, insonparvarlikning keng qamrovli ijobiy axborotlari bilan fikr almashinish natijasida yoshlarning madaniy va ijtimoiy qobiliyati va layoqatini o'stirish va hokazo.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashda talabalarni faqatgina ekrandagi axborotlarni ko'rishiga va ularni qabul qilishgagina emas, balki ularning o'zlari ham bu jarayonda ijodiy ishtirok etishlariga o'rgatishimiz lozim. Ta'limning didaktik xossalari bilan bog'langan yashirin imkoniyatlar olamini bevosita kompyuter telekommunikatsiyalari bilan bog'lash bu ta'lim sohasida zamonaviy va istiqbolli maqsadlarga ega. Didaktik funktsiya sifatida biz o'quv-tarbiyaviy jarayonda ma'lum bir maqsadlarda qo'llanilayotgan ta'lim vositalarining tashqi xossalari namoyonini tushunamiz. Bu ularning o'quv jarayonidagi foydalanish vazifalari, tutgan o'rni va ahamiyatidan iborat. Keyingi yillarda integratsiya (o'zaro bog'langan holda ilmiy-pedagogik hamkorlik ijodiy muhitini yaratish) g'oyasi jadal rivojlanayotgan nazariy va amaliy tadqiqotlarning asosi bo'lib bormoqda. Integratsiya, bir tomondan, ta'lim oluvchiga «dunyoni tanish»ni va fanlarning ilmiy asoslarini bilishni o'rgatsa, ikkinchi tomondan, ta'lim vaqtini tabaqalashtirgan holda uni bo'sh vaqtdan unumli foydalanishga o'rgatadi. Shuning uchun ta'lim jarayonidagi ko'plab masalalar va ularning yechimlari talabaning fikrlash faoliyatini o'stirishga qaratilmog'i lozim. Ana shu jihatlarning yanada samarali bo'lishiga erishish uchun subyektiv faktorlar, masalan, ta'lim oluvchining o'zgaruvchanligi, qiziqishi, talabi, intellektual rivojidan juda mohirona foydalana bilish talab etiladi. Bunga erishishda biz pedagoglarga juda ham qo'l keladigan ta'lim texnologiyasining bir qancha usullari mavjud. Ana shulardan biri loyiha usulidir. Loyiha usulini aynan hamkorlik faoliyatiga qo'llash juda yaxshi samara beradi. Bundan ilmiy to'garaklarda, ilmiy-uslubiy seminarlarda, mustaqil ta'limni tashkil etishda, hamkorlikdagi ijodiy muhitni yaratishda samarali foydalanish mumkin. Bularni yanada mazmunli va keng qamrovli qilib o'tkazishda, ta'lim oluvchining kelgusi ilmiy faoliyatga zamin yaratishda kompyuter telekommunikatsiyalari va axborot texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir. Bu jarayonda kompyuter telekommunikatsiyalari va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishning pedagogik maqsadlariga to'xtalib o'taylik. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi – bu dunyo ta'lim jarayoni rivojining muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri. Hozirgi kunga kelib respublikamizda ta'lim jarayonining deyarli barcha bo'g'inlarida va fan sohaslarida kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari vositalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Axborotlashtirish ta'lim olish jarayoniga chuqur kirib bormoqda. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'zlashtirish tezligini oshirish, keng bilimlar omboridan axborotlarni qabul qilish, bu bilimlarni chuqur o'rganish va o'zlashtirish imkonini bermoqda.

Bizga ma'lumki, ta'limda axborot texnologiyalari – bu axborotni tayyorlash va uni

ta'lim oluvchiga kompyuter texnikasi va dasturiy vositalar yordamida uzatish jarayonidir. Ta'limda axborot texnologiyalarining qo'llanilish jarayonida o'quv axborotini uzatishda ishtirok etuvchi ikkita komponenta mavjud: texnik vositalar (kompyuter texnikasi va aloqa vositalari) va har xil maqsadlarda yaratilgan dasturiy vositalar. Darsga tayyorgarlik va dars jarayonida kompyuterdan unumli foydalanishi uchun o'qituvchi bu komponentalarning funksional imkoniyatlari va qo'llanilish shartlarini juda yaxshi bilishi lozim, chunki ham texnik va ham dasturiy vositalar o'ziga xos xususiyatlarga va o'quv jarayoniga ta'sirga ega. Buni tushunish uchun dars jarayonida kompyuter texnikasi nima uchun qo'llaniladi va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib qanday uslubiy masalalar yechiladi, degan savolga javob berishimiz lozim.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik maqsadlari quyidagilar: shaxsiyatni rivojlantirish (tafakkur; estetik tarbiya; tajriba-tadqiqot faoliyatini olib borishni rivojlantirish; axborot madaniyatini shakllantirish; aniq bir sohaning mutaxassislarini tayyorlashda foydalanuvchining umumiy axborot tayyorgarligi («kompyuter savodxonligi») dan iborat ijtimoiy buyurtmani bajarish; o'quv-tarbiya jarayoni unumdorligini, ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, bilish va o'rganish faoliyatining muhim jihlatlarini ta'minlash, axborot va fanning integratsiyasi hisobiga fanlararo bog'liqlikni chuqurlashtirish.

Axborot texnologiyalari vositalarining uslubiy imkoniyatlari quyidagilar: bilimlarni vizuallashtirish; ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirish; obyektning rivojlanishi, chizma va tasvirlarni qurish, operatsiyalar (kompyuterdagi namoyishlar)ning bajarilish ketma-ketliklari jarayonlarini kuzatish imkoniyatlari; obyekt, jarayon va hodisalarni modellashtirish; ma'lumotlar bazasini tashkil etish va ulardan foydalanish; multimedia vositalaridan foydalangan holda qiziqarli shaklda tasvirlangan katta hajmdagi axborotlar manbaiga kira bilish; kompyuter kataloglari va spravochniklari bilan ishlashda axborotni izlash, qayta ishlash va jo'natish ko'nikmalarini shakllantirish; o'z o'zini nazorat qila bilish; mashq qilish va mustaqil ravishda tayyorlanishni o'rganish; ta'limning ishonchligini oshirish (har xil o'yinlar, multimedia vositalari); murakkab vaziyatlarda optimal yechimni topish ko'nikmalarini shakllantirish; fikrlashning ma'lum bir ko'rinishlarini rivojlantirish (masalan, ko'rgazmali, namunali); o'quv faoliyati madaniyatini shakllantirish; axborot madaniyatini shakllantirish; o'quv vaqti va mustaqil faoliyat vaqtini ajrata bilishni o'rgatish va hokazo.

Endi yuqorida ta'kidlangan ikkinchi komponentaga, ya'ni pedagogik dasturiy vositalarning turlariga to'xtalib o'taylik. Ta'limda axborot texnologiyalarining qo'llanilish jarayonida texnik vositalar bilan bir qatorda maxsus dasturiy vositalardan ham foydalaniladi. O'quv jarayoniga yo'naltirilgan dasturiy vosita – bu biror fan sohasini o'rganishda o'z aksini topgan dasturiy vosita bo'lib, bunda shu fan sohasini o'rganish texnologiyasi va u bilan bog'lik har xil o'quv faoliyatlarini amalga oshirish shartlari ta'minlanadi. Har xil turdagi o'quv jarayonlarini bunday funksional ta'minlovchi dasturiy vositalar pedagogik dasturiy vositalar deb ataladi. Hozirgi kunda pedagogik dasturiy vositalarning har xil turlari va guruhlari mavjud.

Uslubiy vazifasiga qarab pedagogik dasturiy vositalar quyidagilardan iborat: kompyuter darsliklari (darslari); mashq qilish (repetitor) dasturlari; nazorat qiluvchi dasturlar (test qobiqlari); axborot-spravochnik (ensiklopediya) dasturlar; imitatsion dasturlar; modellashtiruvchi dasturlar; namoyish qiluvchi dasturlar (slaydlar, videofilmlar); o'quv-o'yin dasturlari; bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazishga yo'naltirilgan dasturlar (kompyuter o'yinlari: quvnoq o'yinlar, strategik o'yinlar, boshqariluvchi o'yinlar, mantiqiy o'yinlar, sport

o'yinlari va hokazo). Shunday qilib, kompyuter telekommunikatsiyalari va axborot texnologiyalari yordamida olingan bilim uzoq vaqt xotirada qoladi va keyinchalik ularni amaliyotda qo'llash uchun qisqa vaqt ichida takrorlash bilan uni tiklash mumkin.

**Xulosa** o'rinda aytish joizki, axborot kommunatsion texnologiyalari asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, undan o'quv jarayonida keng foydalanish ta'lim bosqichlari orasida uzviylikni ta'minlashda ta'limning maqsadi, mazmuni, usullari, shakllari vositalari va prinsiplari orasida uzviylikni ta'minlash lozim. Shu bilan birga zamonaviy elektron darsliklar yaratish bugunning eng dolzarb masalalari hisoblanadi. Shuni inobatga olib, zamonaviy elektron darslik va o'quv qo'llanmalarni talab darajasida va ularni raqobatbardosh etib yaratish lozim deb o'ylayman.

#### **Adabiyotlar:**

1. Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari: Ilmiy konferensiya materiallari. - Samarqand: SamDU, 2022.

2. Агеев В.Н. Электронная книга: новое средство коммуникации. - М.: 1997.

3. Tillaev A.I. Axborot texnologiyalari kurslari bo'yicha elektron darsliklar yaratish va ularni ta'limda qo'llash // Amaliy matematika va informatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari - Al-xorazmiy 2012: Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2012-yil 19-22 dekabr. - T., 2012. - B. 119-120.

4. Zakirova F. va boshq. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi: Metodik qo'llanma. - T.: OO'MTV, 2010. - 57 b.

---

**FIZIKA FANINI MASOFAVIY O'QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYALAR**

*Mirzayeva Gulmira Olimovna, TDPU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada virtual laboratoriyalarning masofaviy ta'limdagi roli o'rganilgan. Masofaviy ta'lim muhitida interaktiv virtual eksperimentlardan foydalangan holda, amaliy tushunish va ishtirok etishni osonlashtirish samaraliy usul ekanligini bildiradi. Ushbu virtual o'rnatishlarning ta'lim natijalariga ta'sirini baholaydi va ularning fizika ta'limidagi samaradorligi haqida tushuncha beradi.

**Tayanch so'zlar:** *virtual laboratoriyalar, masofaviy ta'lim, fizika ta'limi, onlayn ta'lim, interaktiv ta'lim, E-Learning, STEM ta'limi, amaliy ko'nikma, simulyatsiyaga asoslangan o'rganish.*

**ВИРТУАЛЬНЫЕ ЛАБОРАТОРИИ В ДИСТАНЦИОННОМ ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ**

*Мирзаева Гульмира Олимовна, преподаватель ТГПУ*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль виртуальных лабораторий в дистанционном образовании. Эффективным методом является содействие практическому пониманию и участию с использованием интерактивных виртуальных экспериментов в среде дистанционного обучения. Он оценивает влияние этих виртуальных установок на результаты обучения и дает представление об их эффективности в обучении физике.

**Ключевые слова:** *виртуальные лаборатории, дистанционное обучение, преподавание физики, онлайн-обучение, интерактивное обучение, электронное обучение, STEM, практические навыки, обучение на основе симуляции.*

**VIRTUAL LABORATORIES IN TEACHING PHYSICS DISTANTLY**

*Mirzaeva Gulmira Olimovna, teacher of TSPU*

**Abstract.** This article examines the role of virtual laboratories in distance education. Facilitating hands-on understanding and participation using interactive virtual experiments in a distance learning environment is an effective method. It evaluates the impact of these virtual installations on learning outcomes and provides insight into their effectiveness in physics education.

**Key words:** *virtual laboratories, distance learning, teaching physics, online learning, distance learning skills, interactive learning, E-Learning, STEM education, practical skills, simulation-based learning.*

**Kirish.** Bugungi kunga kelib dunyoda virtual ta'lim olish dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi, yani, sifatli ta'lim biz yashab turgan dunyoni turli muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynashi endi xech kimga sir emas. Xususan, axborot olish va foydalanish tezligi oshgan hozirgi davrda, fikrimizcha, ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni jalb etmasdan, virtual ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash mumkin emas. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan parlamentga yo'llangan Murojaatnomada ta'kidlanganidek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O'zbekiston uchun kelgusi yillarda eng dolzarb va ustuvor yo'nalishlardan biri. Yurtimizda 2020 yil «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon qilingani ham bejiz emas. 2020 yilda AKT sohasida bir qator yirik loyihalar amalga oshirildi.

**Asosiy qism.** Masofaviy ta'lim sohasida virtual laboratoriyalarning qo'shilishi innovatsiyada katta o'zgarishdir, ayniqsa fizika kabi aniq fanlarda amaliy tajribalar an'anaviy tarzda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Global voqealar tufayli tezlashtirilgan masofaviy ta'limga

o'tish laboratoriya tajribalarini raqamli sohaga olib kirish uchun ijodiy yechimlarni talab qildi. Ushbu maqola masofaviy ta'lim kontekstida fizika ta'limi sohasidagi virtual laboratoriyalarning dinamik dunyosini o'rganadi.

Fizika fanining rivojlanish va fizikani o'rganish turli xil fizik hodisalarning modellarini yaratish bilan uzviy bog'liq. Fizik qonunlarni soddalashtirilgan modellarini intellekt tomondan o'rganishda va asosiy yondashuvlarni yaratish dolzarb muammolardan biridir. Bugungi kunda o'quvchilar internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'lmoqdalar. Shuning uchun ham zarur bilimlarni olishda interfaol usullar, virtual muhit, xususan, turli masalalarni guruh bilan muhokama qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon o'qitish metodlarida «so'rovga asoslangan ta'lim» deb ataladi – o'qituvchilar oddiygina savol beradilar, o'quvchilar esa birgalikda to'g'ri javob izlaydilar. Virtual tajribalar olish talablarni har tomonlama kompyuter yordamida boshqariladigan tajribalar katta yordam beradi. Xususan, zamonaviy sharoitda ham o'lchovlar, ham vizualizatsiya amalga oshirilishi mumkin. Shubhasiz, jismoniy tajribalar va kompyuter dasturlarini amalga oshirish o'qituvchi oldiga yangi vazifalarni qo'yadi va an'anaviy maktab o'quv dasturlariga yangi metodologiyalarni kiritishni talab qiladi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalardan muvaffaqiyatli foydalanish pedagogik yondashuvni o'zgartirishni talab qiladi. Talabalar to'ldirish uchun barcha ko'rsatmalar va jadvallar mavjud bo'lgan an'anaviy laboratoriyalardan farqli o'laroq, kompyuterda boshqariladigan tajribalar virtual hamda real dunyoni o'z ichiga oladi.

Onlayn laboratoriyalar yoki masofaviy laboratoriyalar sifatida ham tanilgan virtual laboratoriyalar nazariy bilim va amaliy qo'llashning noyob aralashmasini taklif etadi. Ular haqiqiy tajribalarni taqlid qilib, talabalarga an'anaviy laboratoriya sharoitidagi kabi faoliyat bilan shug'ullanish imkonini beradi. Ko'p sonli interaktiv modullar orqali o'quvchilar virtual muhitda o'zgaruvchilarni manipulyatsiya qiladilar, natijalarni kuzatadilar va xulosalar chiqaradilar. Fizika darslarida laboratoriya mashg'ulotlarini virtual laboratoriyaga o'tishi fizika laboratoriyalaridagi cheklavlarni yengib o'tish yo'llarini ochib berdi va ilgari erishib bo'lmaydigan tajribalarga kirish imkonini berdi.

Virtual laboratoriyalar fizikani o'rganishda chuqur ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, amaliy bilimlarni yetkazish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va kontseptual tushunishni kuchaytiradi. Virtual laboratoriyalar raqamli resurslarning pedagogik salohiyatini oshirish va ularning samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Fizika virtual laboratoriyalarda tomonidan taqdim etilgan muammolar va imkoniyatlarni o'rganish va raqamli texnologiyalar asrida fizika ta'limining rivojlanayotgan manzarasini ko'rishimiz mumkin.

Virtual ta'limga chuqurroq kirib borar ekanmiz, maqsad nafaqat virtual laboratoriyalar mexanikasini tushunish, balki ularning fizika ta'limining kelajagini shakllantirishdagi o'zgaruvchan rolini tasavvur qilish, joylashuvidan qat'i nazar, amaliy o'rganishni uchun qulaylik yaratishni tushunamiz.

Biz fizika ta'limi uchun masofaviy o'qitish muhitida virtual laboratoriyalarning integratsiyasi bo'yicha tajribalar natijalarini ko'ramiz. Tahlil shuni ko'rsatadiki, virtual laboratoriyalarni amalga oshirish bilan bog'liq samaradorlik, talabalarning faolligi va ta'lim natijalarini baholash uchun o'tkaziladi.

#### 1. Virtual laboratoriyalarning samaradorligi:

Virtual laboratoriyalar real fizika tajribalarini onlayn muhitda takrorlash uchun yaratilgan. Ushbu virtual laboratoriyalarning samaradorligi talabalarning ishlash ko'rsatkichlari, tugatish stavkalari va so'rovlar orqali olingan sifatli fikr-mulohazalar kabi miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholandi.

Virtual laboratoriyalarda qatnashgan talabalar an'anaviy shaxsiy laboratoriya mashg'ulotlari bilan solishtirganda doimiy ravishda taqqoslanadigan yoki undan yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatdilar. Bu virtual laboratoriyalar samarali o'rganish uchun qulay ekanligini ko'rsatadi.

Virtual laboratoriyalar yuqori yakuniy ko'rsatkichlarni aks ettirdi, bu talabalar taqdim

etilgan tajribalar va topshiriqlar bilan faol qatnashishlarini ko'rsatdi.

Talabalarning fikriga qaraganda virtual laboratoriyalarning qulay interfeysi, interaktiv simulyatsiyalar va tajribalarni bir necha marta takrorlash qobiliyatini ta'kidladi, bu esa ularning murakkab fizika tushunchalarini tushunishini kuchaytirdi.

#### 2. Talabalarning faolligi va ishtiroki:

Talabalarning faolligi har qanday ta'lim tashabbusining hal qiluvchi jihati hisoblanadi. O'rganishlarimizda biz talabalarning virtual laboratoriya mashg'ulotlaridagi ishtiroki va ishtiroki darajasini baholashni ko'rdik.

Talabalar virtual laboratoriyalarda faol ishtirok etishdi, savollar berishdi, tajribalarni muhokama qilishdi va virtual muhitda tengdoshlari bilan hamkorlik qilishdi.

An'anaviy laboratoriyalar bilan taqqoslaganda, virtual format ko'proq talabalarni faol ishtirok etishga undadi. Bunda qulay onlayn muhit va simulyatsiyalarning interfaol tabiati tufaylidir.

#### 3. O'quv natijalari va tushunchani o'zlashtirish:

O'rganishlarimizning asosiy maqsadi virtual laboratoriyalarning talabalarning fizika tushunchalarini tushunishlari va o'zlashtirishlariga ta'sirini baholash edi. Virtual laboratoriyalar murakkab fizika tamoyillarini chuqurroq tushunishga yordam berdi. Baholashdan keyingi ballar virtual tajribalar bilan shug'ullangandan so'ng o'quvchilarning nazariy tushunchalarni tushunishlarida sezilarli yaxshilanishni ko'rsatdi.

Talabalar virtual laboratoriyalar orqali o'rganilgan tushunchalarni uzoq muddatli saqlashni namoyish etdilar, bu bilimlarni saqlash uchun ushbu usulning samaradorligini ko'rsatdi.

#### 4. Muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari:

Virtual laboratoriyalar juda foydali ekanligi isbotlangan bo'lsa-da, amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelindi.

Ba'zi talabalar texnik muammolarga duch kelishdi, masalan, sekin internet ulanishlari yoki qurilma mosligi muammolari, bu ularning tajribasiga to'sqinlik qildi.

Dastlab, talabalar va o'qituvchilar uchun virtual laboratoriya interfeysida harakatlanish va onlayn tajriba o'tkazishning nozik tomonlarini tushunishda muammolarga duch kelishdi.

**Xulosa.** Tahlillar shuni ko'rsatdiki, virtual laboratoriyalar fizika ta'limida masofaviy ta'limga qimmatli qo'shimcha hisoblanadi. Ba'zi qiyinchiliklarga qaramay, talabalarning ijobiy ishtiroki, ta'lim natijalarining yaxshilanishi va faol ishtirok etish virtual laboratoriyalarning onlayn muhitda fizika ta'limi sifatini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni.

2. Normatov Sh.B., Sherboboyeva G.B. Multimedia tizimlari va texnologiyalari: Ma'ruzalar matni. - Qarshi, 2010.

3. Lee, S., Martinez, C., Brown, K. (2020). Professional development for physics teachers in the digital age: a systematic review // Journal of Physics teacher education, 28(3), 189-205.

4. Mirzayeva, G. Fizika fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish // Андрияновские педагогические чтения: Материалы республиканской научно-практической конференции с международным участием. - Т., 2022. - 1(1). - С. 165-169.

5. Mirzayeva, G. (2023). The role of digital educational technologies in teaching Physics. Science and innovation, 2(B4), 211-216.

6. Mirzayeva, G. (2023). Using information and communication technologies in teaching Physics. Zamonaviy informatikaning dolzarb muammolari: o'tmish tajribasi, istiqbollari, 1(1), 466-469.

---

## PISA 2022 XALQARO TADQIQOTIDA MATEMATIK SAVODXONLIK QAMROV DOIRASI

*Karimov Nizomjon Abduqayumovich, TDPU mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada PISA 2022 xalqaro tadqiqotida matematik savodxonlik qamrov doirasi, matematik jarayonlar, matematik mazmun soha, kontekst va XXI asr ko'nikmalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** PISA tadqiqoti, qamrov doira, matematik mulohaza yuritish, vaziyatlarni matematik tarzda ifodalash, matematik tushunchalar, faktlar, protseduralardan foydalanish, matematik natijalarni talqin qilish, qo'llash, baholash, miqdor, noaniqlik, ma'lumotlar, o'zgarish, munosabatlar, fazo, shakl, shaxsiy kontekst, kasbiy kontekst, ijtimoiy kontekst, ilmiy kontekst.

## РАМКА МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ PISA 2022

*Каримов Низомжон Абдукаюмович, самостоятельный соискатель ТГПУ*

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о рамки математической грамотности, математических процессах, области математического содержания, контекст и навыков XXI века в международном исследовании PISA 2022.

**Ключевые слова:** исследование PISA, рамка, математическое рассуждение, математическое формулирование ситуаций, использование математических концепций, фактов, процедур, интерпретация, применение, оценка математических результатов, количество, неопределенность, данные, изменения, отношения, пространство, форма, личный контекст, профессиональный контекст, социальный контекст, научный контекст.

## PISA 2022 MATHEMATICS FRAMEWORK

*Karimov Nizomjon Abdukayumovich, researcher of TSPU*

**Abstract.** This article provides information on the mathematical literacy framework, mathematical processes, mathematical content and context as well as 21st century skills in the international PISA 2022 study.

**Key words:** PISA Research, framework, mathematical reasoning, formulating situations mathematically, employing mathematical concepts, facts, procedures, interpreting, applying, evaluating mathematical outcomes, quantity, uncertainty, data, change, relationships, space, shape, personal context, occupational context, societal context, scientific context.

**Kirish.** PISA 2022 baholash dasturida O'zbekiston ham ilk marotaba ishtirok etib, test sinovlari va so'rovnomalar kompyuterda o'tkazildi. Tadqiqotning tajriba-sinov bosqichi 2021-yilning aprel-may oylarida, asosiy sinov bosqichi esa 2022-yilning aprel-may oylarida o'tkazildi. Ushbu tadqiqotda mamlakatimizdan tasodifiylik tamoyili asosida tanlab olingan 202 ta maktabdan jami 7293 nafar o'quvchi ishtirok etdi. PISA 2022 da matematik savodxonlik ustuvor soha sifatida belgilangan. Tadqiqotning so'nggi davrlarida qo'shimcha innovatsion sohalar ham ishlab chiqilgan bo'lib, 2022-yil siklida «Kreativ fikrlash» (creative thinking) innovatsion soha sifatida kiritildi. PISA 2025 siklida esa, «Raqamli dunyoda o'rganish» (Learning in digital world) innovatsion yo'nalish sifatida baholanadi.

**Asosiy qism.** Matematika, o'qish va tabiiy fanlarni baholash uchun PISA yo'nalishlar

bo'yicha savodxon (malakali) bo'lish nimani anglatishini aniqlaydigan fanlarga oid qamrov doiralarni ishlab chiqadi. Ushbu qamrov doiralar fanni baholashda o'lchanadigan asosiy jarayonlar, mazmun va kontekstlarni tashkil qiladi. PISA 2022 uchun matematika qamrov doirasi yangilandi, o'qish va tabiiy fanlar qamrov doiralari esa 2018- yilda qo'llanilganlar bilan bir xil bo'lib qoldi. PISA 2022 tadqiqoti maqsadidan kelib chiqib, matematik savodxonlikka quyidagicha ta'rif beriladi: matematik savodxonlik shaxsning turli real hayotiy vaziyatlarda muammoni yechish uchun matematik tilda ifodalash, qo'llash va talqin qilish hamda matematik mulohaza yuritish qobiliyati hisoblanadi. U hodisalarni tasvirlash, tushuntirish va prognoz qilish uchun kerakli tushunchalar, tamoyillar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning hayotda tutgan o'rini anglash va XXI asrning mulohazali, konstruktiv, faol va teran fikrlovchi yoshlari uchun zarur bo'lgan asosli fikrlarni bildirish, xulosa chiqarish va aniq yechim-qarorlarni qabul qilishga imkoniyat yaratadi. Yangi PISA 2022 matematika qamrov doirasi raqamlilashdir va yangi texnologiyalar kabi keng ko'lamli ijtimoiy o'zgarishlarni; shaxsiy qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlarning hamma joyda mavjudligini va globallashayotgan iqtisodiyot XXI-asrda keng fikrlaydigan, faol va mulohaza yurituvchi fuqaro sifatida ishtirok etish uchun matematik jihatdan barkamol va mustahkam bilimga ega bo'lish nimani anglatishini ko'rib chiqadi. Ta'lim uchun ushbu o'zgarishlar shuni anglatadiki, matematik bilimga ega bo'lish oddiy amallarni (protseduralarni) takrorlash haqida emas, balki matematik mulohaza yuritishdan qanchalik ko'proq foydalanishga; ya'ni o'quvchilarga XXI asrning turli kontekstlarida murakkab real hayotiy masalalarni yechishga imkon beradigan tarzda matematik fikrlashga bog'liq.

Mulohaza yuritish oliy (ilg'or) matematikani qo'llashni talab qilmaydi, u asosiy (ya'ni asosli) matematik tushunchalarni aniq tushunishni talab qiladi. Bu oddiy «retseptlar» yordamida osonlikcha avtomatlashtirish yoki hal qilish mumkin bo'lmagan real vazifalarni hal qilish uchun mustaqil, mantiqiy va ijodiy fikrlashdir. Matematikani bilishning barcha darajalarida o'quvchilar matematik mulohaza yuritishni namoyish qilishlari mumkin. Matematik mulohaza yuritishning yuqori malaka darajasida o'quvchilar muammoning miqdoriy xususiyatga ega ekanligini tushunadilar va uni yechish uchun murakkab matematik modellarni ifodalashlari mumkin. Pastroq malaka darajalarida, rasmiy matematika haqida kam ma'lumotga ega bo'lgan, ammo muammoni intuitiv ravishda aniqlay oladigan va uni norasmiy usullarda, elementar matematikadan foydalangan holda hal qila oladigan o'quvchilar tomonidan matematik mulohaza yuritish namoyon bo'ladi. O'quvchilarning matematik mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantirish uchun maktablar va ta'lim tizimlari oddiy matematik amallarni (protseduralarni) o'rgatish va baholash doirasidan tashqariga chiqishlari kerak – o'quvchilar notanish real muammolarni hal qilishga tayyor bo'lishlari va mavjud matematik vositalarni yangi usullarda qo'llashlari kerak. PISA 2022 da ko'rib chiqilgan to'rtta matematik jarayonning har biri uchun matematika kichik sohasi ishlab chiqilgan. Matematika bo'yicha har bir PISA test topshirig'i jarayonlardan birini aks ettirish uchun mo'ljallangan va o'quvchilar har bir test topshirig'iga javob berish uchun to'rttasidan ham foydalanishlari talab qilinishi shart emas.

Matematik mulohaza yuritish: ya'ni «matematik fikrlash» – bu matematik tushunchalar, vositalar va mantiqdan konseptualizatsiya qilish va real hayotdagi muammolar va vaziyatlarga yechimlar yaratish uchun foydalanish qobiliyatidir. Bu muammoga xos bo'lgan matematik tabiatni tan olish va uni hal qilish uchun strategiyalarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bunga tegishli va ahamiyatsiz ma'lumotni ajratish, hisoblash usulida fikrlash,

mantiqiy xulosalar chiqarish va yechimlarni real dunyo kontekstida qanday qo'llash mumkinligini aniqlash kiradi. Matematik mulohaza yuritish, shuningdek, o'z javoblari, qarorlari va yechimlarini qo'llab-quvvatlash va tushuntirish uchun dalillarni yaratish va ularni taqdim etish, shuningdek, o'z fikrlash jarayonlari, shu jumladan, qaysi strategiyalarga rioya qilish to'g'risida qabul qilingan qarorlar haqida xabardorlikni rivojlantirish qobiliyatidir. Matematik mulohaza yuritish deduktiv va induktiv mulohaza yuritishni o'z ichiga oladi. Mulohaza yuritish quyida tavsiflangan boshqa uchta matematik jarayonning asosida joylashgan bo'lsa-da, shunga qaramay, u ulardan farq qiladi, chunki mulohaza yuritish muammoni hal qilish jarayonining ma'lum bir qismiga e'tibor qaratishni emas, balki butun jarayonni o'ylab ko'rishni talab qiladi.

Vaziyatlarni matematik tarzda ifodalash: matematik savodxon o'quvchilar real dunyoda duch keladigan muammolar asosidagi matematik tushunchalar va g'oyalarni taniy oladilar yoki aniqlay oladilar, so'ngra muammolarni matematik tuzilma bilan ta'minlaydilar (ya'ni, ularni matematik terminlarda ifodalash). Ushbu tarjima – kontekstli vaziyatdan aniq belgilangan matematik muammoga - haqiqiy muammolarni hal qilish uchun matematik vositalardan foydalanishga imkon beradi.

Matematik tushunchalar, faktlar va protseduralardan foydalanish: matematik savodxon o'quvchilar matematik tarzda ifodalangan muammolarni hal qilish uchun va matematik xulosalar chiqarish uchun tegishli matematik vositalarni qo'llashlari mumkin. Bu jarayon arifmetik hisob-kitoblarni bajarish, tenglamalarni yechish, matematik taxminlardan mantiqiy xulosalar chiqarish, ramziy manipulyatsiyalarni bajarish, jadval va grafiklardan matematik ma'lumotlarni ajratib olish, fazoda shakllarni tasvirlash va boshqarish, ma'lumotlarni tahlil qilish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Matematik natijalarni talqin qilish, qo'llash va baholash: matematik savodxon o'quvchilar matematik yechimlar, natijalar yoki xulosalar haqida fikr yurita oladilar va ularni jarayonni boshlagan real hayotiy muammo kontekstida talqin qila oladilar. Bu matematik yechimlarni yoki mulohazalarni muammo kontekstiga qaytarishni va natijalarning oqilona va muammo kontekstida mantiqiy ekanligini aniqlashni o'z ichiga oladi. O'quvchilar matematik savodxon bo'lishlari uchun ular, avvalo, matematik mazmun-dagi o'z bilimlaridan foydalanib, vaziyat (muammo)ning, ayniqsa, real dunyoda sodir bo'ladigan vaziyatlarning matematik mohiyatini tan olishlari va keyin uni matematik ko'rinishda ifodalashlari kerak. Ushbu transformatsiya – noaniq, tartibsiz, real vaziyatdan aniq belgilangan matematik muammoga o'tishni – matematik mulohaza yuritishni talab qiladi. Transformatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so'ng, natijada paydo bo'lgan matematik muammoni maktablarda o'qitiladigan matematik tushunchalar, algoritmlar va protseduralar yordamida hal qilish kerak. Biroq, bu vositalarni tanlash va ularni qo'llash tartibi bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishni talab qilishi mumkin – bu ham matematik mulohaza yuritishning namoyon bo'lishidir. Nihoyat, PISA ta'rifi bizga o'quvchiga natijalarni asl real vaziyatda talqin qilish orqali matematik yechimni baholash zarurligini eslatib turadi. Bundan tashqari, o'quvchilar muammoni hal qilish amaliyotining bir qismi sifatida hisoblash, fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari va namoyish eta olishlari kerak. Ifodalash, qo'llash, baholash va mulohaza yuritishda qo'llaniladigan ushbu hisoblash, fikrlash qobiliyatlari muammoni aniqlash, tahlil qilish yoki hal qilish uchun qaysi (agar mavjud bo'lsa) hisoblash vositalaridan foydalanish mumkinligini aniqlash va batafsil yechimning bir qismi sifatida algoritmlarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

Matematik mulohaza yuritish va real muammolarni hal qilish bir-biriga mos kelsa-da, matematik mulohaza yuritishning amaliy masalalarni hal qilishdan ko'ra kengroq

jihatlari bor. Matematik mulohaza yuritish, shuningdek, baholash va dalillar keltirish, bayonotlar (masalan, davlat siyosatiga oid munozaralarda va hokazo) bilan bog'liq talqin qilish va xulosalarni baholash va ularning miqdoriy tabiati bo'yicha matematik jihatdan eng yaxshi tushuniladigan muammolarni hal qilish usulidir. Matematik mazmunning ushbu toifalariga quyidagilar kiradi: miqdor, noaniqlik va ma'lumotlar, o'zgarish va munosabatlar, fazo va shakl. Aynan mana shu toifadagi matematika mazmuni bilimlari o'quvchilar aqlga tayanishi, muammoni ifodalashi (haqiqiy dunyodagi vaziyatni matematik muammoli vaziyatga aylantirish orqali), tuzilgan matematik masalani yechish va aniqlangan yechimni talqin qilish va baholashi kerak. PISA 2022 da ushbu to'rtta mazmun sohaning har biri uchun matematika bo'yicha kichik sohalar ishlab chiqildi:

Miqdor: sonni his qilish va baholash; dunyodagi atributlar, obyektlar, munosabatlar, vaziyatlar va obyektlarni miqdoriy jihatdan aniqlash; bu miqdorlarning turli ko'rinishlarini tushunish va miqdorga asoslangan talqin va dalillarni baholash.

Noaniqlik va ma'lumotlar: real dunyoda o'zgaruvchanlik o'mini tan olish, shu jumladan, ushbu o'zgarishning miqdorini tushunish va tegishli xulosalarda uning noaniqligi va xatosini tan olish. Shuningdek, u noaniqlik mavjud bo'lgan vaziyatlarda chiqarilgan xulosalarni shakllantirish, talqin qilish va baholashni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarning taqdim etish va talqin qilish, shuningdek, ehtimollik bo'yicha asosiy mavzular ham ushbu turkumga kiritilgan.

O'zgarish va munosabatlar: o'zgarishlarning asosiy turlarini tushunish va o'zgarishlarni tavsiflash va bashorat qilish uchun, ular qachon sodir bo'lishini aniqlash, shuning uchun mos matematik modellardan foydalanish. Tegishli funksiyalar va tenglamalar/tengsizliklar, shuningdek, munosabatlarning ramziy va grafik tasvirlarini yaratish, talqin qilish va tarjima qilishni o'z ichiga oladi.

Fazo va shakl: andozalar; obyektlarning xossalari; fazoda ko'rinish; joylashishlar va yo'nalishlar; obyektlarning aks ettirish; vizual ma'lumotni dekodlash va kodlash; navigatsiya va real shakllarni, shuningdek, tasvirlarni, harakatni, ko'chirishni va fazodagi harakatlarni oldindan ko'rish qobiliyati. Oldingi qamrov doiralarda bo'lgani kabi, PISA real vaziyatni aniqlashda foydalanishda davom etayotgan to'rtta kontekst sohasi shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy va ilmiydir. Kontekst shaxsiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin, u shaxs yoki uning oilasi yoki tengdoshlari guruhiga duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar yoki qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi. Buning o'rniga muammoni ijtimoiy kontekstda (o'z hamjamiyatiga e'tibor qaratish – mahalliy, milliy yoki global bo'ladimi), kasbiy kontekstda (mehnat dunyosiga qaratilgan) yoki ilmiy kontekstda (matematikani qo'llash bilan bog'liq qo'yilishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnologik dunyo). Matematik mulohaza yuritish va muammolarni yechish real dunyo kontekstlarida amalga oshiriladi. PISA 2022 da to'rt xil kontekstdan foydalanildi, ular avvalgi sikllarda ham qo'llanilgan:

Shaxsiy kontekst: shaxsning o'zi, oilasi yoki tengdoshlari bilan bog'liq. Masalan, ovqat tayyorlash, xarid qilish, o'yinlar, shaxsiy sog'liq, shaxsiy transport, dam olish, sport, sayohat, shaxsiy rejalashtirish va shaxsiy moliya va boshqalar.

Kasbiy kontekst: dunyo ishlari bilan bog'liq. Masalan, ish haqi / buxgalteriya hisobi, sifat nazorati, rejalashtirish / inventarizatsiya, dizayn / arxitektura va ish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish uchun tegishli texnologiya bilan yoki texnologiyasiz materiallarni o'lchash, narxlash va buyurtma qilish va hokazo.

Ijtimoiy kontekst: mahalliy, milliy yoki global hamjamiyat bilan bog'liq. Masalan, ovoz berish tizimlari, jamoat transporti, hukumat, davlat siyosati, demografiya, reklama,

---

sog'liqni saqlash, o'yin-kulgi, ko'ngilochar, milliy statistika va iqtisodiyot va boshqalar.

Ilmiy kontekst: matematikaning tabiiy dunyoga tatbiq etilishi, fan va texnikaga aloqador bo'lgan masalalar va mavzular bilan bog'liq. Masalan, ob-havo yoki iqlim, ekologiya, tibbiyot, kosmik fan, genetika, o'lchov va matematika olamining o'zi. Shunday qilib, matematik savodxonlik bir-biriga bog'liq bo'lgan ikkita jihatni o'z ichiga oladi: matematik mulohaza yuritish va muammolarni hal qilish. Matematik savodxonlik haqiqiy muammolarni hal qilishda matematikadan foydalana olishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, matematik mulohazalar (ham deduktiv, ham induktiv) haqiqiy muammolarni hal qilishdan tashqari, matematik tarzda hal qilinishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarning muhim oilasi haqida asosli xulosalar chiqarishni ham o'z ichiga oladi. Aynan shu yerda matematik mulohaza yuritish 21-asrning tanlangan ko'nikmalarini rivojlantirishga ham hissa qo'shadi (baholash doiraning boshqa joylarida muhokama qilinadi).

**Xulosa.** XXI-asr ko'nikmalari ushbu qamrov doiraning keyingi qismida batafsilroq muhokama qilinadi. Hozircha shuni ta'kidlash kerakki, kontekstlar (shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy va ilmiy) test topshiriqlarini ishlab chiqishga ta'sir qilsa-da, XXI-asr ko'nikmalarini o'z ichiga olish yoki ularga murojaat qilish uchun topshiriqlar ataylab ishlab chiqilishi kutilmaydi. Buning o'rniga, qamrov doiraning ruhiga javob berish orqali va matematik savodxonlik ta'rifi muvofiq, aniqlangan XXI asr ko'nikmalari test savollariga kiritilgan.

#### **Adabiyotlar:**

1. OECD (2023), PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education, PISA, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/53f23881-en>
2. Ismailov A.A., Karimov N.A. PISA 2022 tadqiqotida matematik savodxonlik qamrov doirasi. 2023 yil 16-18-betlar. - T., 2023.
3. <https://pisa2022-maths.oecd.org/ca/index.html>

---

## TALABALARDA DASTURLASH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

*Sa'dullayev Avaz Akmal o'g'li, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada talabalarni dasturlash texnologiyalari asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish shakllari, vositalari va usullari ko'rib chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** kompyuter, internet, dastur, kompetensiya, ta'lim texnologiyalari.

## РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОГРАММИРОВАНИЯ

*Sa'dullaev Avaz Akmalovich, преподаватель Экономико-педагогического университета*

**Аннотация.** В статье рассмотрены формы, средства и методы обучения, направленные на развитие профессиональной компетентности учащихся на основе технологий программирования.

**Ключевые слова:** компьютер, интернет, программное обеспечение, компетенции, образовательные технологии

## DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN STUDENTS ON THE BASIS OF PROGRAMMING TECHNOLOGIES

*Sadullaev Avaz Akmalovich, teacher of Economics and pedagogical university*

**Abstract.** The article examined the forms, tools and methods of training aimed at developing professional competence on the basis of programming technologies for students.

**Key words:** computer, internet, application, competence, educational technology.

**Kirish.** Hozirgi zamon inson faoliyatining biron bir sohasini hisoblash texnikasi (kompyuterlar) va axborot texnologiyalarisiz tassavur qilib bo'lmaydi. Ulardan oqilona va samarali foydalana olish bugungi kunda har bir o'qimishli va ziyoli inson uchun zarur bo'lib qolmoqda. Dasturlash texnologiyalari sohasini mamlakatimiz talabalariga tadbqiq etish va zamon talablari darajasida yetkazib berish shart va zarur hisoblanadi. Buning uchun talabalarni dasturlash fanidan bilimini va tafakkurini o'stirishimiz zarur hisoblanadi. Talaba-yoshlarni dasturlash texnologiyalari fanidan bilimli, tafakkurli qilib tayyorlashimiz uchun, dasturlash texnologiyalari fanining asosiy qismi hisoblangan zamonaviy dasturlash tillari yordamida amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Zamonaviy dasturlash tillarining foydali tomonlari shundan iboratki, talaba bu tillarni o'rganishda bir qancha kichkina dastur va amaliy paketlarni o'rganish zaruriyati tug'iladi va shu izlanishlar natijasida talabalarning tafakkuri oshishiga yordam beradi. Zamonaviy dasturlash tillarini o'rganishda va shu dasturlar yordamida dastur tuzish uchun talaba nafaqat dasturlash fanini balki boshqa fanlarni ham mukammal o'rganishiga to'g'ri keladi [1].

**Asosiy qism.** Dasturlashni o'rganish yo'llari haqida suhbatlashamiz. Kompyuter dunyosida ko'plab dasturlash tillari mavjud bo'lib, dasturlash va unga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Bir xil turdagi ishni bajaradigan dasturlarni Basic, Pascal, C va boshqa tillarda yozish mumkin. Pascal, Fortran va Kobol tillari universal tillar hisoblanadi, C va

Assembler tillari mashti tiliga ancha yaqin tillar bo'lib, quyi yoki o'rta darajali tillardir. Algoritmik til inson tillariga qanchalik yaqin bo'lsa, u tilga yuqori darajali til deyiladi. Mashina tili esa, eng pastki darajali tildir [2]. Mashina tili bu sonlardan iboratdir, Masalan: 010110100010101 Dasturlash tillari 2 ta katta guruhlarga bo'linadi, quyi va yuqori darajali dasturlash tili. Quyi darajali dasturlash tili ancha murakkab bo'lib ular juda maxsus sohalarda ishlatiladi va ularning mutaxassisleri ham juda kam. Chunki quyi dasturlash tillari (masalan: assembler) ko'pincha miktoprotsessorlar bilan ishlashda kerak bo'lishi mumkin. Odatda turli dasturlash ishlari uchun yuqori darajali dasturlash tilidan keng foydalaniladi. EHM (Elektron Hisoblash Mashinasi) endi yuzaga kelgan paytda programma tuzishda, faqat mashina tillarida ya'ni sonlar yordamida EHM bajarishi kerak bo'lgan amallarning kodlarida kiritilgan. Bu holda mashina uchun tushinarli sanoq, sistemasi sifatida 2 lik, 6 lik, 8 lik sanoq sistemalari bo'lgan [2]. Programma mazkur sanoq sistemasi-dagi sonlar vositasida kiritilgan. Yuqori darajali dasturlashda mashina tillariga qaraganda mashinaga moslashgan (yo'naltirilgan) belgili kodlardagi tillar hisoblanadi. Belgilar kodlashtirilgan tillarning asosiy tamoyillari shundaki, unda mashina kodlari ularga mos belgilar bilan belgilanadi hamda xotirani avtomatik taqsimlash va xatolarni tashhis qilish kiritilgan [3]. Bunday mashina moslashgan til – ASSEMBLER tili nomini oldi. Odatda dasturlash yuqori saviyali dasturlash tillari (Delphi, Java, C++, Python) vositasida amalga oshiriladi. Bu dasturlash tillarining semantikasi odam tiliga yaqinligi tufayli dastur tuzish jarayoni ancha oson kechadi. Ko'p ishlatiladigan dasturlash tillari. Biz hozir biladigan va ishlatadigan tillarning barchasi shu guruhga mansub. Ular insonga «tushunarli» tilda yoziladi. Ingliz tilini yaxshi biluvchilar programma kodini qiynalmasdan tushunishlari mumkin. Bu guruhga Fortran, Algol, C, Pascal, Cobol va boshqa tillar kiradi. Eng birinchi paydo bo'lgan tillardan to hozirgi zamonaviy tillargacha ishlatish mumkin. Lekin, hozirgi web texnologiya orqali ishlaydigan tillarda (PHP, ASP.NET, JSP) bunday dasturlar tuzilmaydi [3]. Chunki bunday dasturlarning ishlashi uchun yana bir amaliy dastur ishlab turishi kerak. Hozirda, amaliy dasturlar, asosan, Visual C++, C#, Borland Delphi, Borland C++, Java, Python kabi tillarda tuziladi [3].

O'zbekistonda ko'pchilik yoshlar Delphi dasturlash tilidan ta'lim olish jarayonida va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda foydalanadi. Buning asosiy sababi dasturlash tilidan foydalanishning soddaligi, komponentlarning ko'pligi, interfeysining tushunarligi va h.k. Delphida birinchi ishlagan odam ham qanaqadir dastur tuzishi oson kechadi. Lekin, foydalanuvchi Windows operatsion tizimida dasturning komponentlarning va funksiyalarning ko'pligini hamda asosiy ishlash mohiyatini ancha keyin tushinib yetadi. Yana bir tarafi, Delphi (Pascal) operativ xotirani tejashga kelganda ancha oqsaydi. Unda o'zgaruvchilarni oldindan e'lon qilib qo'yish evaziga ishlatilmaydigan o'zgaruvchilar va massivlar ham joy olib turadi [3]. Windows operatsion tizimida eng keng tarqalgan dasturlash tili bu Microsoft Visual C++ tili hisoblanadi. Ko'pchilik dasturlar hozirda shu tilda tuziladi. C dasturlash tiliga o'xshash tillar hozirda chiziqli, tarmoqlanuvchi, takrorlanuvchi va boshqa matematik masalalarni dasturlashda yetakchi hisoblanadi [3]. Deyarli hamma zamonaviy dasturlash tillarning asosida C dasturlash tili asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, turli komputer o'yinlari tuzishda yoki kichik hajmdagi dasturlar tayyorlashda LUA script yoki JavaScript tillari ham keng ishlatilmoqda. Biz hozirgi kunda keng tarqalgan desktop dasturlashda ishlatiladigan dasturlash tillaridan bazilari haqida aytib o'tamiz: Delphi – dasturlash tillaridan biri Borland firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan.

Delphi dasturlash tili ishlatiladi va avvaldan Borland Delphi paketi tarkibiga kiritilgan. Shu bilan bir qatorda 2003-yildan hozirgacha qoʻllanilayotgan shu nomga ega bulgan. Object Pascal – Pascal tilidan bir qancha kengaytirishlar va toʻldirishlar orqali kelib chiqqan boʻlib, u obyektga yoʻnaltirilgan dasturlash tili hisoblanadi. Avvaldan ushbu dasturlash muhiti faqatgina Microsoft Windows amaliyot tizimi uchun dasturlar yaratishga moʻljallangan, keyinchalik esa, GNU/Linux hamda Kylix tizimlari uchun moslashtirildi, lekin 2002-yilgi Kylix 3 sonidan soʻng ishlab chiqarish toʻxtatildi, koʻp oʻtmay esa, Microsoft.NET tizimini qoʻllab-quvvatlashi toʻgʻrisida eʼlon qilindi. Lazarus proekti amaliyotidagi (Free Pascal) dasturlash tili Delphi dasturlash muhitida GNU/Linux, Mac OS X va Windows CE platformalari uchun dasturlar yaratishga imkoniyat beradi. Visual Basic (talaffuzi: «Vijual Beysik») – Microsoft korporatsiydan dasturlash tili va uning uchun dasturlash muhitidir. U BASICdan koʻp tushunchalar oldi va tez rasmi interfeys bilan dasturlar taraqqiyot taʼminlaydi. Oxirgi versiya 6.0 1998 yilda reliz kelishdi. Microsoftdan voris Visual Basic.NET 2002 yilda paydo boʻldi. Java dasturlash tili – eng yaxshi dasturlash tillaridan biri boʻlib unda korporativ darajadagi mahsulotlarni yaratish mumkin. Bu dasturlash tili Oak dasturlash tili asosida paydo boʻldi. Oak dasturlash tili 90-yillarning boshida Sun Microsystems tomonidan platformaga bogʻliq boʻlmagan holda ishlovchi yangi avlod aqlli qurilmalarini yaratishni maqsad qilib harakat boshlagan edi.

Bunga erishish uchun Sun hodimlari C++ ni ishlatishni rejalashtirdilar, lekin baʼzi sabablarga koʻra, bu fikridan voz kechishdi. Java obyektga yoʻnaltirilgan dasturlash tili va u C++ga ancha oʻxshash. Eng koʻp yoʻl qoʻyildigan xatolarga sabab boʻluvchi qismlari olib tashlanib, Java dasturlash tili ancha soddalashtirildi. C++ dasturlash tili chiziqli, tarmoqlanuvchi, takrorlanuvchi va boshqa matematik masalalarni yechishga moʻljallangan dasturlash tili hisoblanadi. C++ dasturlash tili operatsion tizimlarga aloqador qismlarni, klient-server dasturlarni, EHM oʻyinlarini, kundalik ehtiyojda qoʻllaniladigan dasturlarni va shu kabi turli maqsadlarda ishlatiladigan dasturlarni ishlab chiqarishda qoʻllaniladi. Maʼlumki, web dasturlash tillari yuqori darajadagi dasturlash tillarida yozilgan dasturlarni kompyuterga tushuntirish uchun kompilyator degan qoʻshimcha dastur kerak boʻladi. Web dasturlashda ham huddi shunday jarayon sodir boʻladi. Internetdagi saytlarni koʻrishlik uchun ishlatadiganingiz. Brauzerlar – web dasturlash tillarining bazilarini kompilyatori hisoblanadi. Web dasturlashda yana shunday tillar ham borki ularni brouzer kompyuterga tarjima qilib tushuntirib bera olmaydi, lekin bunday tillar web saytni asosini tashkil etadi. Ana shunday tillarni brouzer tushunadigan qilib berish uchun ham web serverga oʻxshagan dasturlar kompilyator yoki interpretatorlar toʻplami kerak boʻladi. Bunday dasturlar esa, sayt joylashgan serverlarda turadi, qachonki unga soʻrov yuborganingizda shu sayt joylashgan serverdagi web server dasturlari sizning brauzeringizga saytni brauzer tushunmaydigan tillarda yozilgan joylarini tarjima qilib joʻnatadi. Shunday qilib klient - yani siz tomondagi web saytni kodlarini kompyuteringizga tushuntirib beradigan tarjimon bu - Brauzer, server tomondagi web saytni sizning brauzeringiz tushunmaydigan joylarini unga tarjima qilib joʻnatadigan tarjimon bu web server hisoblanadi.

**Xulosa.** Kasbiy kompetentsiya odatda qarorlar qabul qilish bilan bogʻliq boʻlgan muayyan faoliyat turini amalga oshirish uchun etarli bilim, koʻnikma va tajriba darajasini aks ettiruvchi mutaxassislarining ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarining ajralmas xususiyati sifatida tushuniladi. Oliy taʼlimning 60610200 – Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar boʻyicha) taʼlim yoʻnalishi talabalariga dasturlash texnologiyalari asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda «Algoritmik tillar va

dasturlash» fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga dasturlashning ilmiy nazariy asoslarini, informatika o'qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim bo'lgan bilimlar, amalda qo'llash uchun ko'nikma va makalalami shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarida ishlash, amaliy masalalarga dasturlar tuzishga oid nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish vazifalarini bajaradi. Talaba ushbu fanni o'qish jarayonida, obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarining nazariy asoslari, obyektlarni loyihalash, matematik va interfeys obyektlari, voqealar va xabarlar, obyektga yo'naltirilgan muhitlarda xabarlarini uzatish, ularga ishlov berish mexanizmlari, obyektlar iyerarxiyasi asosida dasturlarni loyihalash, muayyan obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi va obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarida chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi va modulli dasturlar tuza olishni, dasturlashning obyektga yo'naltirilgan paradigmasini, obyektga yo'naltirilgan muhitlarda dasturlarni loyihalashni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak bo'ladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Azamatov A.R., Boltayev B. Algoritmlik va dasturlash asoslari: O'quv qo'llanma. - T.: Cho'lpon, 2013.
2. Sa'dullayev A.A. (2023). Types of computer networks and their analysis // Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 13-16.

---

## TALABALARDA GPON TEXNOLOGIYASI ASOSIDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Asrorov Oybek Asror o'gli**, *«Iqtisodiyot va pedagogika universiteti» nodavlat ta'lim muassasasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'limda tahsil oladigan talaba yoshlarga kelgusida yuqori tezlikli internet texnologiyalaridan foydalanib axborot kompetentligini rivojlantirish va yangi avlod texnologiyalariga oid bilimlar yoritib o'tilgan.

**Tayanch so'zlar:** *passiv optik tarmoq, GPON, Triple Play, kompetentlik, axborot kompetentligi, optik kabel.*

## РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ GPON

**Асроров Ойбек Асрор угли**, *преподаватель негосударственного образовательного учреждения «Экономико-педагогический университет»*

**Аннотация.** В данной статье освещено развитие информационной компетентности студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, с использованием высокоскоростных интернет-технологий и знаний о технологиях нового поколения.

**Ключевые слова:** *пассивная оптическая сеть, GPON, Triple Play, компетентность, информационная компетентность, оптический кабель.*

## DEVELOPMENT OF STUDENTS' INFORMATION COMPETENCE BASED ON GPON TECHNOLOGY

**Asrorov Oybek Asror o'g'li**, *teacher of on-governmental educational institution «Economic and pedagogical university»*

**Abstract.** This article highlights the development of information competence of students studying in higher educational institutions using high-speed Internet technologies and knowledge about new generation technologies.

**Key words:** *passive optical network, GPON, Triple Play, competence, information competence, optical cable.*

**Kirish.** Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Xususan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab va bir qator xorijiy universitetlar filiallari faoliyati yo'lga qo'yilib, tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalarga o'qitish markazlari bosqichma – bosqich tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi axborot texnologiyalari sohasidagi o'quv dasturlari va uslublarini takomillashtirish, ta'lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda. Axborot texnologiyalarining o'qitilishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, mehnat bozorining malakali IT-mutaxassislariga bo'lgan talabini qoniqtirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash belgilangan.

**Asosiy qism.** Optik kabellarni yotqizish – bu qat’iy yondashishdir. Oldin u juda qimmat hisoblangan. Ammo hozirgi vaqtda optik komponentlarning narxini sezilarli darajada pasayishi tufayli bu yondoshish muhim bo’lib qoldi. Hozirgi kunda abonent tarmoqlarini tashkil qilish uchun optik kabelni yotqizish, yangi abonent tarmoqlarini qurish va eskilarini tiklashda ancha foydali hisoblanmoqda. Shunga ko’ra optik tolali texnologiyalarni ulashning ko’plab usullari mavjuddir. Optik modemlar optik Ethernet, Micro SDH texnologiyasi asosidagi bir qator an’anaviy yechimlar tufayli PON (Pasive Optic Network) passiv optik tarmoqlar arxitekturasidan foydalanish bilan yangi yechim yuzaga keldi. Agar so’ngi yillarda zamonaviy aloqa tarmoqlarining tolali optik kabellar orqali tashkil qilinayotganini, o’tkazuvchanlik qobiliyatining yuqoriligini hisobga olsak, abonent tarmoqlarida PON texnologiyasini qo’llash maqsadga muvofiqdir.

PON (ingl. passive optical network, passiv optik tarmoq) – optik tarmoq texnologiyasi [1]. PON-ga kirishni taqsimlash tarmog’i keng polosali ma’lumot uzatishni ta’minlashning iqtisodiy usulini ifodalovchi tugunlarida passiv optik ajratgichlar (splitter deb ataladigan) bilan daraxtga o’xshash tolali kabel arxitekturasiga asoslangan. Shu bilan birga, PON arxitekturasi abonentlarning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlariga qarab tarmoq tugunlari va tarmoqli kengligini kengaytirishning zarur samaradorligiga ega. Bunday texnologiya ko’proq paketli kommutasiya transport texnologiyasiga mos keladi. Chunki u ma’lumotlarni yuqori tezlikda uzatish hisobiga trafiklarni (ovoz, ma’lumot va video birlashtirish va lozim bo’lgan sifatli xizmatni ta’minlaydi va Xalqaro Telekommunikasiya Ittifoqi (ITU-T) tomonidan G.983. va G.983.2 tavsiyalari nomini olgan.

PON texnologiyasining quyidagi standartlari mavjud: ITU-TG.983 (APON (ATM Passive Optical Network), BPON (BroadbandPON)); ITU-T G.984 (GPON (Gigabit PON)); IEEE 802.3ah (EPON/GEAPON (Ethernet PON)); IEEE 802.3av (10GEAPON (10 Gigabit Ethernet PON)). APON va BPON yaralish paytida eskirgan, GPON (GEAPONga nisbatan) yuqori narx tufayli juda rivojlanmagan, shuningdek, ko’pchilik 2,5G tezlikda ishlashni istamasligi sababli, 10GEAPON hali ham ishlab chiqish va sinovdan o’tkazish bosqichida. Bundan tashqari, EPON ham mavjud (100Mbps hozirda o’nlab foydalanuvchilar uchun kifoya qiladi va uskunarlar narxi GEAPONdan unchalik farq qilmaydi). Natijada, bugungi kunda ko’pgina provayderlarning masofadan turib abonentlarni ulash talablariga javob beradigan faqat GEAPON (uzatish tezligi «to’g’ri» va «teskari» 1Gbit/s ni tashkil qiladi, shu bilan birga 64 ta tarmoq terminali qurilmalari bitta tolaga joylashishi mumkin) [2].

Rivojlanish jarayoni har bir texnologiyani yaratilish vaqtidan boshlab birga sodir bo’ladi. Passiv optik tarmoqlar uchun u bir qancha variantlarni yaratilishini ko’rsatadi, ulardan biri «gigabitli» nomini olgan. Bugungi kunda Internetga ulanishning bir necha xil usullari mavjud. Ular shartli ravishda simli va simsiz bo’linishi mumkin. GPON texnologiyasi Internetga ulanishning eng ilg’or texnologiyasidir. Statistik ma’lumotlariga ko’ra, dunyo bo’ylab keng polosali tarmoqqa ulangan abonentlar soni 100 milliondan oshdi. Internetga yuqori tezlikda ulanishni qabul qilgan mijozlar video uzatish va televizion eshittirish bilan bog’liq yangi xizmatlar uchun ovoz berishmoqda. O’z navbatida, telekommunikasiya operatorlari korporativ bozorni taqsimlashni yakunladilar va trafikni doimiy ravishda ishlab chiqaradigan va yangi daromad keltiradigan ommaviy xizmatlarni joriy etish imkoniyatlarini sinchkovlik bilan o’rganmoqdalar. Bu, bozor kon’yunkturasi tarmoq uskunarlarini ishlab chiqaruvchilarni keng polosali ommabop xizmatlari uchun yanada yaxshi platformalarni ishlab chiqishga undaydi. Aloqa operatorlarining barchasi «triple play» terminidan foydalanib, aloqa xizmatlari integrasiyasini amalga oshirishni mo’ljallashmoqda. U uch

xil xizmatni ko'rsatadi, ya'ni bir vaqtning o'zida yagona tarmoq orqali abonentga ovoz, video va ma'lumotlarni yetkazib beradi.

Triple Play texnologiyasining mohiyati: keng polosali ulanish kanali orqali bir marta ulanib, abonent uchta xizmatni oladi: yuqori tezlikdagi Internet; raqamli televideniya; telefoniya.

GPON texnologiyasi (Gigabit Passive Optical Network) – bu juda yuqori tezlikda (10 Gbit / s gacha) kam quvvat sarf qiladigan tarmoqqa abonentning yuqori sifatli va ishonchli ulanishini ta'minlashga qodir bo'lgan Internetga ulanish uchun eng istiqbolli texnologiyalardan biridir. Ushbu texnologiya qisqa va o'rta uzunlikdagi passiv optik tarmoq qurilishini nazarda tutadi, bu ma'lumotlarni qabul qilish va uzatishning kafolatlangan yuqori sifatini, shuningdek, televideniyani (IPTV) va telefoniyani (VoIP) o'z ichiga olgan bir qator muhim qo'shimcha xizmatlarni ta'minlaydi.

GPON (Gigabit PON) ulanish tarmog'i arxitekturasini APON texnologiyasining uzviy davomi sifatida qarash mumkin. Bunda PON tarmogining o'tkazish polosasini ham, ilovalarni uzatish unumdorligini ham o'sishi amalga oshadi. GPON XTI-T Rec. G.984.3 tavsiyasi 2003 yil oktyabrida qabul qilingan.

GPON 622 Mbit/s dan 2,5 Gbit/s gacha uzatish tezligida kadrlarni masshtablashgan strukturasi namoyish etadi, kiruvchi va chiquvchi oqimlar uchun PON daraxtida simmetrik kabi assimetrik bitli tezliklarni qo'llaydi.

GPONning afzalliklari: GPONGa ulanuvchi har qanday mijoz uchun «gigabit rejimida inkapsulyasiyalash»ni qo'llash; ma'lumotlarni simmetrik kabi assimetrik uzatish tezligida ham qo'llab quvvatlash (kirish va chiqish oqimlarida); bir to'lqin uzunligida 256 gacha mantiqiy ONTlarni qo'llab quvvatlash; kirish va chiqish oqimlarida ko'rsatkichlar yordamida o'tkazish polosasining tarqalish mexanizmi; ONTdagi himoyalangan bitlarning konfiguratsiyalangan soni; ONTni avtomatik va davriy aniqlash usuli; har bir ONTni himoyalash – AES algoritmi yordamida ulanish; (ONT) abonent tugunlaridan (OLT) markazga turli holatlar va hisobotlar soni; OAM ajratilgan kanallar.

GPON texnologiyasini asosiy kamchiliklaridan biri asosan optik tolali kabellarni loyihalash bilan bogliq. Kamchiliklari uning mo'rtligidir, shuning uchun o'rnatish vaqtida himoya qutilaridan foydalanish va uni bolalar yoki uy hayvonlari tega olmaydigan joylarga o'rnatish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, kabelni egmaslik kerak, bunday holat o'ralgan juft kabellar uchun xavfsizdir, ammo optika tolali kabellarda bu xavfli hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu texnologiya optik aloqa asoslari, Telekommunikatsiya uzatish tizimlari kabi fan va darsliklari kesimida talabalarga o'qitilib kelmoqda.

«Kompetentlik» (ingl. competence – qobiliyat) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish olish.

Axborot kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish. Axborot kompetentligini rivojlantirish deganda bilim, ko'nikmalar va axborot faoliyati turli ko'rinishlarini samarali amalga oshirish hamda kasbiy ta'limiy faoliyatda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga qadriyatli munosabatlar majmuini aks ettiruvchi, pedagogning kasbiy-shaxsiy sifati tariqasida tushuniladi. Hozirgi kunga kelib talabalar va umuman internet foydalanuvchilari duch keladigan muammolardan beri bu internet tezligi hisoblanadi. Internet xizmatini esa talabalar agar mobil qurilma ishlatsa mobil aloqa kompaniyalaridan foydalanib olishadi yoki statsionar uyda joylashgan router yoki

simli aloqa qurilmasi orqali internet xizmatini oladi. Bu ikkala holatda ham ba'zi sabablarga ko'ra, masalan mobil provayder tomonidan taqdim etiladigan xizmat narxining balandligi, yoki bazaviy stansiya foydalanuvchi joylashgan hududdan uzoqligi, tashqi halaqitlar yoki boshqa sabablarga ko'ra internet tezligi pastlik qilishi mumkin.

**Xulosa.** Yuqoridagi muommoning yechimi sifatida hozirda rivojlanib kelayotgan yangi GPON texnologiyasini joriy etish orqali yuqori tezlikli, past narxga ega internet xizmatini taklif etish mumkin. Ushbu texnologiya orqali talabalar o'zi yashaydigan hududda GPON texnologiyasi orqali taqdim etiladigan internet xizmatidan foydalanib kelgusida internet texnologiyalaridan orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishda yoki ma'lumotlarni almashishda foydalanishi mumkin. Mazkur texnologiya orqali talabalar kelgusida yuqori tezlikli internetga ega bo'lishadi. Bundan tashqari, raqamli televideniya va internet telefoniya xizmatidan ham bir vaqtning o'zida foydalanishi mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Isayev R.I., Atametov R.K., Radjabova R.N. Telekommunikasiya uzatish tizimlari. - T.: Fan va texnologiya, 2011. - 520 b.
2. Isayev R.I., Asrorov O.A. Abonent kirish optik tarmoqlarida qo'llaniladigan texnologiyalar tahlili: Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. - Urganch, 2021. - B. 56-58.

## SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT FANLAR TA'LIMI

## MUSIQA TA'LIMIDA YANGILIKLAR

*Lutfullaev Anvar Qudratovich, TDPU professori*

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Yangi O'zbekiston konsepsiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Shu jihatdan, Yangi O'zbekiston – bu ijtimoiy, dunyoviy, demokratik, huquqiy va do'stona davlat bo'lib, uning maqsad – muddaolarini bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish, xalq farovonligini ta'minlash va globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari bilan teng hamda strategik hamkorlik qilish tashkil qiladi. Mazkur o'rinda Yangi O'zbekistonda musiqa san'atini rivojlantirish tendensiyalari tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

**Tayanch so'zlar:** *musiqa va madaniyat, musiqa va san'at, Yangi O'zbekiston va taraqqiyot, manba va tahlil, o'zlashtirish va o'rganish, bilim va malaka, ko'nikma va mahorat, musiqa va ta'lim, ustoz va shogird, an'anaviylik va yangilik, cholg'u va san'at, o'qituvchi va o'quvchi, muallim va talaba.*

## НОВОСТИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Лутфуллаев Анвар Кудратович, профессор ТГПУ*

**Аннотация.** Концепция Нового Узбекистана разработана и реализована Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым. В этом плане Новый Узбекистан – социальное, светское, демократическое, правовое и дружественное государство, целями которого являются создание демократического гражданского общества, основанного на рыночной экономике, обеспечение благосостояния народа, равноправие и стратегическое сотрудничество со странами мира в условиях глобализации. Здесь мы обращаем внимание на анализ тенденций развития музыкального искусства Нового Узбекистана.

**Ключевые слова:** *музыка и культура, музыка и искусство, Новый Узбекистан и развитие, источник и анализ, приобретение и обучение, знания и компетентность, умение и мастерство, музыка и образование, наставник и ученик, традиции и инновации, инструмент и искусство, учитель и ученик, преподаватель и студент.*

## INNOVATIONS IN MUSIC EDUCATION

*Lutfullayev Anvar Qudratovich, professor of TSPU*

**Abstract.** The concept of New Uzbekistan was developed by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev and is being put into practice. In this regard, New Uzbekistan is a social, secular, democratic, legal and friendly state, the goals of which are to establish a democratic civil society based on the market economy, ensure people's well-being, and equal and strategic cooperation with the countries of the world in the context of globalization. Here we draw your attention to the analysis of trends in the development of musical art in New Uzbekistan.

**Key words:** *music and culture, music and art, New Uzbekistan and development, source and analysis, acquisition and learning, knowledge and competence, skill and experience, music and education, Master and student, tradition and innovation, instrument and art, teacher and pupils, teacher and student.*

**Kirish.** Mamlakatimizda 2022-2023 o'quv yilidan boshlab musiqa ta'limi tizimida bir qator yangiliklar joriy etildi. Bunday yangiliklar asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida belgilangan vazifalar tashkil etadi.

«Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi» asosida mamlakatimizda musiqa ta'limini innovatsion rivojlantirish va uning vositasida yosh avlodning madaniyatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu sababli mazkur ishlar jarayonida ta'kidlangan Qarorning ijrosini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Ushbu Qarorga asosan 2022-2023 o'quv yilidan boshlab mamlakatimiz musiqa ta'limi butunlay yangi tizim asosida yo'lga qo'yildi. Bunday yangi tizimning ikki shakli - umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa ta'limini yangicha tashkil etish va oliy ma'lumotli professional musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida bo'layotgan innovatsion o'zgarishlarga e'tiboringizni tortamiz.

**Asosiy qism.** Shu jihatdan bunday yangiliklarning eng muhimlarini quyidagilar tashkil etadi: birinchidan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Musiqa madaniyati» o'quv fani bo'yicha o'qitish jarayoni davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga asoslanib takomillashtirilib, unda «o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirish» musiqa ta'limining asosiy negizi sifatida belgilandi. Ushbu fan mashg'ulotlari «haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari» shaklida tashkil etildi. Bunda «Musiqa madaniyati» o'quv fani mashg'ulotlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida nazariy darslar, amaliy to'garaklar, fakultativ mashg'ulotlar shaklida tashkil etilishiga e'tibor berilmoqda. Bugungi kunga qadar mazkur fanning dars mashg'ulotlari ajratilgan soat hisobida ham nazariy, ham amaliy shakllarda o'tkazilini kelinar edi. Natijada bu fan bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoni talab darajasida bo'lmagan. Vaholanki, o'quv fanining asosiy vazifalaridan biri – o'quv reja va dasturlari asosida davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablariga binoan umumiy mashg'ulotlar o'tkazish, shuningdek, o'quvchilarning musiqiy layoqatini rivojlantirishdan iborat. Bu vazifaning ijrosini ta'minlashda faqat bir soatlik mashg'ulotning o'zi kamlik qilar edi. Shu sababli 2022-2023 o'quv yilidan boshlab ushbu fan uchun «haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda» ajratiladigan soatlar hisobidan amaliy to'garaklar va fakultativ darslari o'tkazilib kelinmoqda. Shu sababli mazkur o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Musiqa madaniyati» o'quv fani bo'yicha bosqichma-bosqich tashkil etiladigan amaliy to'garaklar va fakultativ darslar mashg'ulotlariga hududlarda faoliyat yuritayotgan mashhur hamda tajribali san'atkorlarning ishtiroki yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, mazkur Qarorga ko'ra, «amaliy to'garaklar rahbarlariga «Barkamol avlod» bolalar maktablari to'garak rahbari uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari qo'llaniladi», ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablarining «Musiqa madaniyati» o'quv fani o'qituvchilari musiqa amaliy to'garaklarini olib borganlarida, ularning maoshiga bazaviy tarif stavkalari qo'shiladi. Bunday mashg'ulotlarda faol ishtirok etgan ushbu toifa san'atkorlar ta'kidlangan Qaror asosida ish joyidan lavozim maoshi miqdorida qo'shimcha ustama bilan rag'batlatiriladi. Bu yangilik umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Musiqa madaniyati» o'quv fani nazariyasi va o'qitish metodikasini innovatsion rivojlantirish, o'quvchilarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini kutilgan darajada oshirish hamda ularning musiqiy layoqatini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

Ikkinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa ta'limini yangicha asosda tashkil etishining real shart-sharoitlari belgilangan. Unga ko'ra, Qarorda belgilanganidek, 2022-2023 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablari milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, nota to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan tizimli ravishda bosqichma-bosqich ta'minlanib borilmoqda. Bular «umumiy o'rta ta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tizimiga kiritildi». Shu jihatdan, har bir umumiy o'rta ta'lim maktablarini dutor, do'mbira, doyra, tanbur, rubob, g'ijjak, nay kabi milliy cholg'ular bilan ta'minlash yo'lga qo'yildi. Mazkur ishlarning natijasida mamlakatimizda 2022-2024 yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablari zaruriy cholg'ular bilan to'liq ta'minlanishi amalga oshiriladi.

Uchinchidan, mamlakatimiz musiqa ta'limida bo'layotgan bu yangilaklar umumiy o'rta ta'lim maktablarini professional musiqa o'qituvchilari bilan ta'minlash vazifasini qo'yadi. Shu sababli Qarorda ta'kidlanganidek, 2023-2024 o'quv yilidan boshlab amaliy faoliyatga

yo'llanma oladigan professional musiqa o'qituvchilarining kamida uchta cholg'uda kuy ijro eta olish mahoratiga ega bo'lishiga erishilmoqda. Buning uchun asoslar yetarli. Chunki musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar o'zlarining xususiy cholg'ularidan tashqari unga turdosh bo'lgan cholg'ularda ijro etish imkoniyatlariga ega. Misol uchun, urma-torli cholg'uda kuy ijro eta oladigan sozanda shu cholg'ularga turdosh bo'lgan cholg'ularda ham kuy ijro eta oladi. Ayni paytda, mamlakatimiz musiqa san'atida xalq cholg'ularining takomillashtirilgan oilaviy turlari mavjud. Misol uchun, takomillashtirilgan Chang cholg'usi ijrochisi uning barcha an'anaviy turlarida ham kuy ijro eta oladi. Shu sababli bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kamida uchta cholg'uda kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lishiga erishish imkoniyatlari mavjudligini ta'kidlash lozim.

E'tibor berilsa, mamlakatimizda musiqa ta'limini amalga oshirishning eng muhim ikki tayanchi – umumiy ta'lim maktablarida «Musiqqa madaniyati» o'quv fanini yangicha metodika asosida tashkil etish va oliy ma'lumotli professional musiqa o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha innovatsion asosdagi ta'lim jarayoni yo'lga qo'yilmoqda. Shu sababli bu jarayonning nazariy-metodik asoslarini yaratish ham taqozo etiladi. Buning uchun imkoniyatlar mavjud. Ularning eng asosiylari quyidagilardan iborat: birinchidan, mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa ta'limini o'qitishning o'ziga xos milliy tajribasi mavjud va amaliy faoliyatdagi musiqa o'qituvchilari individual uslublarga ega; ikkinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktablari va oliy musiqa ta'lim jarayonida o'zlashtiriladigan musiqa asarlari majmui mavjud; uchinchidan, musiqa ta'limini yangicha asosida tashkil etish uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy-metodik hamda didaktik-texnologik imkoniyatlar majmui shakllantirilgan [5]. Shu sababli bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

**Xulosa.** Ayni paytda, mamlakatimizda musiqa ta'limini yangicha asoslarda tashkil etish uchun bir qator tashkiliy masalalarni amalga oshirish kerak bo'ladi, bular: birinchidan, amaliy faoliyatdagi musiqa o'qituvchilarining yangicha asosdagi musiqa ta'limi bo'yicha malakalarini kuchaytirish; ikkinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa ta'limi repertuarini takomillashtirish va ularning oliy musiqa ta'limi dasturlari bilan uyg'unligini ta'minlash; uchinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan musiqa amaliy to'garaklari va fakultativ darslariga qo'yiladigan talablar hamda ularda o'rganiladigan musiqa asarlari repertuarini shakllantirish; to'rtinchidan, bo'lajak oliy ma'lumotli musiqa o'qituvchilarini haftalik amaliyot davrida maktablardagi amaliy to'garaklar va fakultativ darslarga jalb etish asoslarini ishlab chiqish; beshinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa amaliy to'garaklari va fakultativ darslari vositasida musiqa layoqatiga ega o'quvchilarni tarbiyalash hamda ularni musiqa san'atiga yo'naltirish metodika va mexanizmlarini ishlab chiqish [5]. Bularning yechimini topish mamlakatimizda musiqa ta'limini innovatsion jamiyat sharoiti va talablari asosida kutilgan darajada tashkil etish imkoniyatini beradi. Musiqa ta'limining mazkur eng ikki tizimida joriy etilayotgan yangiliklardan maqsad yosh avlodni musiqa san'ati hamda madaniyati vositasida munosib voyaga yetkazishdan iborat. Buning uchun musiqa ta'limining barcha ishtirokchilari yangilikka, yangicha yondashuvlarga hamda yangicha o'qitish jarayoniga tayyor bo'lishlari kerak va shu bilan birga zamon talablariga mos ravishda bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

#### Adabiyotlar:

1. 2024 йил «Ёшлар ва бизнесни қўллаб ўувватлаш йили»га бағишланган Давлат Дастури: [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz).
2. Абу Наср Фаробий. Китоб ал мусикий ал кабир. - Т., 2019.
3. Абдурахмон Жомий. Мусиқа ҳақида рисола. - Т., 2018.
4. Караматов Ф.М. Узбекская инструментальная музыка. - Т., 1967.
5. Лутфуллаев А.?. Халқ чолғуларида ижрочилик: Монография. - Т., 2017.

---

## BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHISINING MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

**Abdirasilov Sunatulla Fayzullayevich**, TDPU, pedagogika fanlari nomzodi,  
professor

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishning asosiy masalalari ko'rib chiqilgan. Mahorat iborasiga san'atshunoslik nuqtai nazardan, kasbiy va pedagogik tomonidan ta'riflar berilgan. Shuningdek, uning subyektiv va obyektiv xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining akvarel bo'yoqlari bilan ishlash mahoratini rivojlantirish darajasining ko'rsatkichlari va mezonlarini aniqlashi va uning mazmuni yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** mahorat, kasbiy mahorat, pedagogik mahorat, badiiy ta'lim, kompozitsion fikrlash, rangtasvir akvarel bilan ishlash usullari.

## РАЗВИТИЕ ЖИВОПИСНОГО МАСТЕРСТВА У БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич**, кандидат педагогических наук,  
профессор, ТДПУ

**Аннотация.** В статье рассмотрены основные вопросы формирования профессионального мастерства у будущих учителей изобразительного искусства. Дано определение термину «мастерство» с точки зрения искусствоведения, профессионального и педагогического обучения. Кроме того, рассмотрены его субъективные и объективные характеристики. Освещено определение показателей и критериев уровня развития живописного мастерства и показано его содержание работы с акварельными красками у будущего учителя изобразительного искусства.

**Ключевые слова:** мастерство, профессиональное мастерство, педагогическое мастерство, художественное образование, композиционное мышление, приемы работы с акварельной живописью.

## THE DEVELOPMENT OF PAINTING SKILLS OF A FUTURE ART TEACHER

**Abdirasilov Sunatulla Fayzullaevich**, candidate of pedagogical sciences,  
professor, TSPU

**Abstract.** The article discusses the main issues of developing the professional skills of future fine arts teachers. The term «mastery» is defined from the point of view of art history, professional and pedagogical training. Its subjective and objective characteristics are also considered. The definition of indicators and criteria for the level of development of painting skills and its content of work with watercolor paints for a future fine arts teacher are covered.

**Key words:** skill, professional skill, pedagogical skill, art education, compositional thinking, techniques for working with watercolor painting.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev «Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning

bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz» [1, 14-b.], – dedi. Bugungi kunda butun dunyoda ruy berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini, xususan, oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini qabul qildi. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya tizimini hozirgi davr talabi darajasiga ko'tarish kerak. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini barkamol shaxsni shakllantirishda, ularning nazariy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish kasbiy kompetentligini shakllantirishda xorijiy qator tajribalarni talabalarimiz ongiga milliyashtirib singdirish zarur. Bizning olib borayotgan tadqiqotlarimizda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kompetentligini nafaqat shakllantirish ularning turmush tarzida olingan bilimlarini kunlik bog'liqligini xis qilib borish yo'llarini o'rgatishimiz kerak deb o'ylaymiz. Insonning boshqa mavjudotlardan farqi – oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon xarakter qilishidir. Kishi maqsad sari qiladigan xarakati (faoliyati) jarayonida mo'ayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni engib o'tadi. Bu to'siqlarni engib o'tish uchun u bir qator tadbir va choralardan foydalanadi.

**Asosiy qism.** Tasviriy san'at o'qituvchisi ham har bir o'qituvchi kabi kasbiy darajada puxta tayyorgarlik ko'rish kerak va bu nafaqat tasviriy san'at o'qitish metodikasini bilish, balki maxsus fanlar: qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya va boshqalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni ham anglatadi. Tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy tayyorlashda, agar o'rganilayotgan fanlarning malakali maxsus atama va iboralari ishlab chiqilmagan bo'lsa, muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin emas. Shunday qilib, «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» bakalavriat yo'nalishi talabalar uchun yetakchi tushunchalardan biri tasviriy san'atda «mahorat» tushunchasidir. San'atshunoslik va ma'lumotnoma adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, «mahorat» tushunchasini talqin qilishda ikkita eng keng tarqalgan ma'noni ajratish mumkin: tor va keng ma'noda. «Mahorat» so'zning keng ma'nosida to'liq ijodiy amaliyotning barcha fazilatlarini o'z ichiga oladi; badiiy konsepsiyaning fazilatlarida, syujetning mohirlik va topqirlik bilan ishlab chiqilishida, kompozitsiyaning ta'sirchanligi va ifodaligida, plastik va koloristik ifoda vositalarining to'liqligida, shuningdek, san'atning bu turi texnikasini benuqson o'zlashtirishida namoyon bo'ladi». «Mahorat» tushunchasining tor ma'nosiga kelsak, u ko'pincha san'atning texnik tomonini egallash bilan bog'liq. Shunday qilib, «Estetika» lug'atida «mahorat» «san'atning bir (yoki bir necha) turlarida tasviriy va ifodali vositalar va ijro texnikasini yuqori darajada o'zlashtirishni...» ifodalaydi. Hunarmand deganimiz, bu hali usta degani emas. Agar ijodkoming intilish va ideallari atrofidagi odamlarning eng dolzarb intilishlari bilan to'g'ri kelsa, o'z ijodi bilan mavjud hayotga ta'sir eta olsa, haqiqiy mahorat haqida gapirish mumkin. Shunday ekan, chinakam ustoz – tinmay izlanuvchan, o'z ijodi orqali o'zi, zamon-doshlari va atrofidagi dunyoni o'rganuvchi insondir. Ustoz – voqelik hodisalarini ko'radigan, ularni ijodiy idrok etuvchi va o'zining individual obrazlarida aks ettiruvchi, o'rganuvchi, boshdan kechiruvchi, idrok etilgan hamma narsani ongi orqali o'tkazuvchi, hissiy jihatdan rang beruvchidir. Keng ma'noda «mahorat» so'zi san'atning barcha turlariga: tasviriy san'at, teatr, kino va boshqalarga tegishli tushunchadir. Shunday qilib, mashhur teatr arbobi K.Stanislavskiy aktyor mahorati haqida shunday degan, odatiy «tomosha ko'rsatuv» oddiy hunarmandchilik ekanligini ta'kidlaydi, XX asming buyuk kinorejssyori F.Shalyapin va S.Eyzenshteyn «mahorat» tushunchasiga yana bir muhim fikrni qo'shadi – bu barcha kuchlarning ulkan sa'y-harakatlari, ijodiy kuch-g'ayratni, u o'z shogirdlaridan ustaning asosiy fazilatlarini tarbiyalashning eng yuqori darajasini talab qilgan. Yuqoridagi barcha mahorat sifatleri tasviriy san'at sohasidagi mahoratda ham, shubhasiz, mavjuddir. Biz san'atshunoslikka oid ko'plab asarlar muallifi E.S.Gromov tomonidan berilgan «mahorat» ta'rifini keltirishni o'rinni deb hisoblaymiz: «Mahorat, bir tomondan, hayotda yangilikni ko'rish va uni badiiy san'at vositalari orqali chuqur tahlil

qilish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi; ikkinchi tomondan, bu tasviriy-ifodali vositalar va san'at texnikasini erkin egallashni nazarda tutadi, ularsiz badiiy asar vujudga kelmaydi». Biroq, usta so'ziga ijodkorlik kabi muhim fazilatni in'om qilish orqali biz hech qanday tarzda mahoratning hunarmandchilik tomonining o'rmini kamaytirmaymiz. Biz XX-asrning mashhur rassomi O.Renuarning quyidagi so'zlaridan yaxshi anglash mumkin: «Agar siz buyuk ustalarning asarlarini kuzatsangiz, o'zingizni aqlli yigit sifatida ko'rsatmasligingiz kerak. Avvalom, eng muhimi, bu odamlar qanday ajoyib mehnatsevarlar edi! Ular o'z hunarlarini bilishardi. Bunda – hammasini o'z ichiga olgan. Rangtasvir qandaydir orzu emas. Bu, birinchi navbatda, hunarmandchilik va siz buni yaxshi mehnatsevar kabi amalga oshirishingiz kerak». «Usta va pedagog o'rtasidagi farq shundaki, ijodkor etuk san'atga baho beradi, pedagog esa, rivojlanish jarayoniga baho beradi... Madaniyatli ijodkor iste'dodli odamga ko'p narsa berishi mumkin, lekin pedagog iste'dodlarni o'stiradi, hatto, qaerda ular yo'qdek tuyulishidan qat'iy nazar», – deydi mashhur rassom-pedagog, o'z hunarining ustasi V.S.Shcherbakov.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishlarida ko'plab maxsus atamalarni ilmiy asoslash, xususan, akvarel bo'yog'ida ishlashni o'rgatish bo'yicha mahorat borasida qanday ishlar amalga oshirildi? Mahoratning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni belgilaymiz: 1) bilimlarni shakllantirish; 2) idrok, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish; 3) «san'at va hayotga munosabatni tarbiyalash». «Chizish mahorati» tushunchasi, ba'zan «ijodkorlik» bilan bog'liq bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi va badiiy mahoratga bo'lgan bunday munosabatimiz oqlanishi mumkin, agarda u ijodi jarayonning murakkabligi va ko'ptarkibilligi kabi xususiyatini hisobga olgan holdagi sharoitda. Badiiy pedagogik mahoratini egallash uch yo'nalishdagi jarayondir: ta'lim, tarbiya va rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Rassom-pedagog B.G.Gagarin o'z tadqiqotida mahorat muammosiga to'xtalgan, u «mahorat»ning murakkab mohiyatini qayd etib, o'zlashtirish faqat shaxsga xos bo'lgan individual fazilatlar bilan bog'liq bo'lgan komponentni ham o'z ichiga olishi kerak, deb hisoblaydi. Ushbu tadqiqotchining fikricha, mahorat, albatta, materialda ma'lum bir badiiy obrazlarni ifodalash, turli ko'nikma va qobiliyatlardan eng samarali va ijodiy foydalanish qobiliyatini o'z ichiga olishi kerak. Bu rassomning o'ziga xos engilligi va aniqligi bo'lib, muallif asarlariga g'ayrioddiy go'zallik, ya'ni ishlash qobiliyatini beradi. Pedagogika nuqtai nazardan hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turticha izoh beradi. Jumladan, «Pedagogik ensiklopediya»da ta'rif quyidagicha izohlangan: «O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chukur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis» [2, 10-b.]. X.A.To'raqulov shunday deb yozadi: «pedagogik mahorat – bu o'qituvchining ustoz-murabbiylik fazilatlarini, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilari asosida undagi kasbiy bilim, tushuncha, tasavvur, ko'nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati mahsuli» [4, 523-b.]. Ko'zlangan maqsadi darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, o'qituvchining kasbiy-ijodiy faoliyatini tashkil etishdir. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv fanini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. I.P.Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: «Pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi» [3, 15-b.]. Rassom-pedagog mahoratining asoslarini shakllantirishda mahoratning subyektiv va obyektiv tomonlarini hisobga olish zarur. «Ikki oqim ijodiy individuallikni shakllantiradi, – deb ta'kidlaydi E.S.Gromov, «biri – voqeilikdan, ikkinchisi – rassom shaxsiyatidan. Ularning o'zaro ta'siri san'atda ko'plab uslublar va usullarni yaratadi».

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, «akvarel bilan ishlash ustasi mahorati» ham texnik, ham ma'naviy tomonlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, biz akvarel bilan ishlash mahoratini baholash mezonlarini obyektiv – hamma uchun umumiy va subyektivga ajratdik. Rangtasvir mashg'ulotlarida akvarel bilan ishlashni o'zlashtirish ko'rsatkichlari va mezonlarini ishlab chiqishda ko'p jihatdan T.G.Bezgolova, B.G.Gagarin, E.M.Beda va boshqalarning tadqiqotlaridagi yondashuv xulosalari mos keladi. Shunday qilib, E.M.Beda o'z tadqiqotida talabani ishini quyidagi mezonlarga ko'ra baholash kerakligini qayd etadi: 1) qalamtasvir, 2) akvarel bo'yoqlarining usullari, 3) umumiy tuslar holati, 4) shaklga batafsil ishlov berishi, 5) yaxlit ko'rish, 6) ranglarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro shartliliigi, 7) rangtasvirdagi iliqlik va sovuqlik, 8) umumiy rang va tuslar holati, 9) tasvirning ranglar birligi. Ushbu parametrlar akvarel ustasi mahorati asoslarining texnik tomonlariga tegishlidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, akvarel bilan ishlash mahoratini egallashning texnik tomoni uchun materiallar texnologiyasini mukammal bilgan holda akvarel bilan ishlashning texnik usullari, metodlari va uslublaridan mohirona foydalanishni o'z ichiga oladi, bu esa, quyidagilarni anglatadi: akvarel texnikasida ishlash uchun badiiy materiallarni tayyorlash va ishlatish tartibi: mo'yqalam, bo'yoqlar, qog'oz, planshetga qog'ozni to'g'ri tortish va boshqalarni tanlay olish; akvarel bo'yoqlarni aralashtirish usullarini bilish (optik, mexanik va qatlam usuli) talab qilinadi. Akvarel texnikasidan mohirona foydalanish usullarini o'zlashtirgan bo'lajak rassom-pedagoglar akvarelda nozik va shaffof bo'yash, ranglarning to'yinganligini saqlab, ishni rang-barang qatlamlar bilan ortiqcha yuklamalik zarurligini anglashlari; suv bilan bo'yash, etarli miqdorda suv va mo'yqalam ustiga bo'yoqni olish, surtmalar bilan «shaklni ifodalash»ni uddalash, bo'yoqlar bilan to'ldirish usulida ishlash, nam qog'oz yuzasida rangli aralashmani boshqarish, akvarelda tasviriy vositalarning ifodaliligini barcha imkoniyatlardan foydalanish zarurligini anglashi kerak.

Akvarel bilan ishlash texnikasini o'zlashtirishi o'quv va ijodiy vazifalarga, turli metodlar, uslublar, usullardan foydalangan holda ishlash qobiliyatini nazarda tutadi; qo'yilmaga ajratilgan vaqti, janri, asarning boshqa xususiyatlari va maqsadlariga qarab ma'lum bo'lgan akvarel texnikasini o'zgartira olish va uni uddalash. Amaliy bilish va ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq holda, talabalar uzoq muddatli va qisqa muddatli vazifalarni bajarish usullarining farqlarini bilishlari va bu vazifalarni bajarish maqsadiga ko'ra farqlashlari kerak. Shunday qilib, uzoq muddatli vazifalar odatda lessirovka texnikasi yordamida yoki yuvish yordamida amalga oshiriladi (bu grizayl uchun, obidalami tasvirlash uchun muvaffaqiyatli usul). Akvarel bo'yoqlari bilan ishlashning keng tarqalgan qisqa muddatli ishlar uchun juda maqbul bo'lgan bu «alla-prima» usuli, ammo «alla-prima» texnikasida siz ham «ho'l», ham «quruq» bo'yash usulida ishlash mumkin. Bo'lajak rassom-pedagoglarning «mozaika usuli», «quruq mo'yqalam», «sintetik usul» kabi akvarel texnikasi bilan tanishib, amalda qo'llay bilsa, badiiy tajribasi yanada boyib borishi shubhasiz. Bu tasviriy san'at o'qituvchi mahoratini texnik tomonining xususiyatlari tasviriy san'at vositalaridan malakali va ifodali foydalana olish darajasini tavsiflaydi. Shuning uchun talabalarning akvarel bilan ishlash texnikasini o'zlashtirish darajasini aniqlashda tasviriy savodxonlik asoslarini o'zlashtirishi va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'plab parametrlar bo'yicha ishni baholash qabul qilingan. Biz bu erda quyidagi belgilarga e'tiborni qaratamiz: o'zlashtirishning dastlabki bosqichida eng muhimi akvarelda chizish uchun tasvimi qalamda bajarish malakasini egallashdan iborat; bunday tasvir kartina tekisligida to'g'ri joylashtirilganligini, perspektiva qonunlarini asosida, kerakli o'lchamda, buyumlarning konstruksiyasi va fazoviy kenglikni etkazishni o'z ichiga oladi; akvarel bilan ishlash mahorati tusli va rangdor munosabatlarini to'g'ri etkazish malakasining zarurligini nazarda tutadi, bu akvarel ishining ranglar koloritini tashkil etish, «ranglar munosabatlarida tasvirlash», tasvining yaxlitligini anglatadi; hajm va fazoviy kenglikni etkazish malakasi; buyumlarning fakturasi va materialligini ifodalash usullarini bilish; ishda yaxlitiikka erishishga intilish; akvarel texnikasida ishlarni bajarish metodikasini (uslubiy ketma-ketligini)

bilish; akvarel bo'yoq materiallari texnologiyasi bo'yicha bilimlarni hisobga olgan holda akvarel bilan ishlashning amaliy usullari, metodlari va uslublarini qo'llash malakasi.

Bundan tashqari, agar talaba akvarel texnikasini o'rganish bilan jiddiy shug'ullansa, u erishgan ma'lum darajadagi mahorat haqida gapirish uchun u bilim, malaka va ko'nikmalar tajribasidan ijodiy va amaliy foydalana oladimi yoki yo'qligini aniqlash kerak, shuningdek, ma'lum bir mazmunli g'oyani ifodalash va berilgan maqsadga muvofiq, turli janrlarda akvarel bilan ishlay oladimi yoki yo'qmi. Shunday qilib, tasviriy san'at asoslarini egallash belgilari akvarel bo'yoqlarida mahoratning obyektiv mezonlari, ya'ni hamma uchun umumiy, birlashtiruvchi hisoblanadi. Mahoratning farqi va o'ziga xosligi atrofda hayot hodisalarini ko'rish, idrok etish, ularni qayta ko'rib chiqish va o'z ishida aks ettirish individual qobiliyatlarini tavsiflovchi «subyektiv xususiyatlar» tushunchasi bilan belgilanadi.

Talabalar ishini o'zlashtirish darajasini baholashda biz har bir aniq topshiriqning maqsadidan boshlashimiz va talabani individual fazilatlariga asoslanib, ishini umuman olganda, quyidagi parametrlarga ko'ra baholash kerakligini taklif qilamiz: 1) rangtasvir materiallarini imkoniyati; 2) rangtasvirda natura qonunlariga, tasviriy va ifodali vositalarga rioya qilish; 3) tasviriy vositalarning badiiy obrazga va ijrochining badiiy tafakkur xususiyatlariga bog'liqligi, ya'ni subyektiv jihatni ishtirok etish.

Yuqorida aytilganlar akvarel bilan ishlashda rassom-pedagogning subyektiv va obyektiv mahorati mavjudligi va mahorat hodisasining hal qiluvchi jihati sifatida akvarel ustasi mahoratining subyektiv belgilariga pedagogik ta'sir ko'rsatish imkoniyati to'g'risidagi xulosalarni tasdiqlaydi. O'quv va ijodiy ishlarda aks ettirilgan ma'lum bir o'quvchiga xos bo'lgan ko'plab individual xususiyatlardan biz mezon sifatida eng muhim, aniq namoyon bo'ladigan va ishning individualligini namoyon etuvchi, subyektiv mezonlarni ajratib ko'rsatishni taklif qilamiz: mutanosiblik hissining namoyon bo'lishi, tasvir obyektlarining xarakterini etkazish malakasi; kompozitsiyaning tasviriy va ifodaliligini ko'rish va yaratish malakasi; o'z ishida tus va rangdorlikning individualligini ko'rsatish qobiliyati; individual amaliy uslubidan malakali foydalanish qobiliyati; badiiy didga asoslanib tasvirlarga individual hissiy munosabatning namoyon bo'lishi; tasvirlanayotgan narsaga individual ijodiy munosabat, fantaziya, tasavvur, badiiy tafakkur, ko'rish xotiraning namoyon bo'lishi sifatida tavsiflanadi; individual kashfiyotlarga va «yangilikka» tayyorgarlik, albatta, ishga bo'lgan ijodiy, faol, mustaqil munosabatda ifodalanadi. Ya'ni, mahoratning subyektiv tomoni, birinchi navbatda, muallifning shaxsiyatini belgilaydigan eng chuqur va eng muhim narsaga – uning ichki dunyosi mazmuniga, borliqning mohiyatini individual tushunishga bog'liq. Garchi bugungi kunda, ko'pincha, akvarel texnikasida bajarilgan talabani ishi, birinchi navbatda, mahorat darajasining obyektiv mezonlari bo'yicha baholansa ham, bu ta'lim maqsadlari va vazifalari ijodiy maqsadlardan ustun ekanligi bilan bog'liq.

**Xulosa.** Yuqorida aytilganlardan, shuni ta'kidlash joizki, akvarelda ishlash bo'yicha rassom-pedagog mahoratining asoslarini shakllantirish, o'qitish masalasini hal etish bilan bir qatorda, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi o'quv jarayonida individualligi, ijodiy shaxsini shakllantirishga malakali ta'sir ko'rsatish uchun o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, uning individual sifatlarini chuqur o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ldi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016.

2. Safarova R.G'. Pedagogika. Ensiklopediya. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2015. - 321 b.

3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2010. - 312 b.

4. To'raqulov X.A., To'raqulov O.X., To'raqulova I.X., To'raqulov U.X. Ilmiy tadqiqot asoslari: 1000 savolga 1000 javob: Didaktik qo'llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2019. - 632 b.

---

## ТАНЕЦ НА МАНЕЖЕ ЦИРКА

**Зарипова Карима**, директор Республиканского эстрадно-циркового колледжа, заслуженная артистка Республики Узбекистан, доцент, кавалер ордена «Дустлик»

**Аннотация.** В статье подробно раскрыта история создания современного цирка в Узбекистане. Статья посвящена памяти первых основоположников Узбекского циркового искусства, которые успешно использовали хореографию, танцы в постановках цирковых номеров.

**Ключевые слова:** цирк, наставник, музыкальное искусство, молодёжь, актёрское искусство, танец, пантомимика, музыка.

## CIRK ARENADA RAQS

**Zaripova Karima**, Respublika estrada va sirk kolleji direktori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, dotsent, «Do'stlik» ordeni sohibi

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda zamonaviy sirkning yaratilish tarixi atroflicha ochib berilgan. Maqola sirk asarlarini yaratishda xoreografiya va raqsdan muvaffaqiyatli foydalangan o'zbek sirk san'atining ilk asoschilari xotirasiga bag'ishlangan.

**Tayanch so'zlar:** sirk, murabbiy, musiqa san'ati, yoshlar, aktyorlik san'ati, raqs, pantomima, musiqa.

## DANCE AT THE CIRCUS ARENA

**Zaripova Karima**, director of the Republican variety and circus college, Honored artist of the Republic of Uzbekistan, associate professor, holder of the «Dustlik» order

**Abstract.** The article reveals in detail the history of the creation of a modern circus in Uzbekistan. The article is dedicated to the memory of the first founders of the Uzbek circus art, who successfully used choreography and dance in the production of circus acts.

**Key words:** circus, mentor, musical art, youth, acting art, dance, pantomime, music.

**Введение.** Вряд ли есть на свете такой ребенок, который бы не любил цирк. Разве может оставить кого-нибудь равнодушным выступления воздушных гимнастов, головокружительные трюки наездников на бегущих лошадях, смешные репризы клоунов или, скажем, дрессированные собачки.

**Основная часть.** Цирк – это всегда новое, интересное выступление артистов, захватывающее дух исполнение трюков, это что-то особенное. А знаете ли вы, как зародился цирк в Узбекистане? Основателем первого профессионального цирка в Узбекистане, был мой прадедушка – Народный артист Узбекистана, Герой труда, основатель первой школы циркового, актерского и музыкального искусства, родоначальник династии джигитов наездников Карим Зарипов. В 1924 году Карим Зарипов создал первый цирк под названием «Кооператив», в котором работали артисты из регионов Узбекистана и даже России. В этом цирке долгое время проработал известный композитор Юнус Раджаби со своим оркестром, все номера исполнялись под аккомпанемент живой музыки. Далее этот музыкальный коллектив перешел в ведомство телерадиовещания. А в 1928 году, на базе предыдущего цирка, Карим Зарипов создает нового формата цирк – «Звезда Востока» – Кизил Шарк. В 1932 году он построил школу для обучения молодежи цирковому, актерско-

му и музыкальному искусству, сам он становится директором этой школы и преподавателем. В настоящее время это Республиканский эстрадно-цирковой колледж. В прошлом году, мы отмечали 125-летие со дня рождения выдающегося деятеля искусств, легенду Узбекского циркового искусства Карима Зарипова, а также 85-летие первой школы искусства – Республиканского эстрадно-циркового колледжа. В здании Узбекдавлатцирка прошло незабываемое представление-шоу, приехали гости со стран СНГ поздравить нас с днем рождения, выступали выпускники первой школы Карима Зарипова и сегодняшние звезды цирка и эстрады, выпускники колледжа. Состоялась выставка, посвященная Кариму Зарипову, его супруге – Заслуженной артистке Узбекистана, первой клоунессе – узбечке, дрессировщице и наезднице – Муборак Зариповой, всем представителям династии Зариповых и, конечно же, колледжу.

Если говорить о хореографии и ее связи с цирком, то это целая наука. Заслуженные артистки Узбекской Республики Муборакхон-ая Зарипова и её дочь Халидахон Зарипова свыше 50 лет проработали в цирке, и каждая из них имела хореографическое образование. Цирк - искусство многогранное и без навыков хореографии и пластики сложно исполнить трюк. Халидахон работала в номерах джигитовки и «Гротеск наездница», и каждый её выход и финал номеров завершался танцами, известные в Узбекистане «Занг», «Лязги», «Дилхироч», эти танцы в манеже смотрелись великолепно... На гастролях в Москве, при проведении дней культуры и искусства Узбекистана, Зариповы часто встречались с актерами театров и балеринами. Одной из таких запоминающихся встреч была с Галиной Улановой, которая пришла на представление в цирк. По окончании выступления артистов, она прошла за кулисы, чтобы познакомиться с моей мамой (Халидахон Зариповой), беседа была не долгой, но, тот восторг, который выразила Г.Уланова от выступления и танцев, остался в памяти мамы надолго. Уланова, отметила осанку, пластику движений и музыкальное сопровождение.

Народный артист Узбекистана, Герой труда, основатель первой Узбекской школы циркового, актерского и музыкального искусства Карим Зарипов всегда требовал от учащихся работы у станка. В первую очередь, обращал внимание на осанку спины, пластику рук и растяжку. Он говорил: «руки как крылья, должны показать грацию и воздушность исполнения того или иного трюка, гибкость спины – дополнит красоту гимнастики и акробатики, верчение даст возможность сохранять равновесие...». Выразительные средства классического танца позволяют балетмейстеру и педагогу ставить разнообразные постановки как классического, народного, современного, историко-бытового танца, а также пантомимические действия. В свою школу он приглашал Тамара ханум Петросову, Евгения Барановского и других артистов балета и ансамблей для обучения детей премудростям как национального, так и классического танца. Многие номера сопровождалась танцевальными постановками, в частности, номер «Джигиты солнечного Узбекистана» под руководством Карим Зарипова завершался искрометным национальным танцем. Номер, в котором мне удалось работать также заканчивался национальным танцем «Андижанская полька», второй номер, созданный в казахском коллективе «Акробаты на роликах» под руководством С.Ахметова, начинался и завершался танцами на роликах. Это был дуэтный танец на роликах. Мне посчастливилось проработать в этом коллективе 5 лет. Представление «Земля чудес» начиналось с национального танца, в котором участвовали практически все артистки цирка, у которых не было специального хореографического образования, но они танцевали и выходили на эпилог, который также сопровождался танцем.

Музыкальная тема всегда должна проявляться в исполнении артиста, как его художественное, эмоционально-волевое чувство танца, так и сознательная, живая характеристика движений. Немаловажный фактор в постановках номера или спек-

такля имеет правильно подобранное музыкальное сопровождение. Умение слышать музыку, ее ритм, интонации, конечно же, дано не всем, но этому необходимо учить и воспитывать последовательно. Хореографии сегодняшнего дня свойственна серьезность идейного содержания, глубина образов, разнообразие танцевального языка и сложность гармонии с исполнением цирковых трюков. Весьма очевидна взаимосвязь нескольких направлений гимнастики, акробатики и хореографии, которая в спорте и в цирке утвердилась давно. Существует целый комплекс упражнений, развивающих физические и природные данные артиста. Искусство вообще – это отражение действительности в образах, передача посредством движения мимики и правильность исполнения трюковой части.

В 90-годы прошлого века на территории Узбекистана создается труппа «Марьямхон», руководителем этой группы была Латифа Саримсакова, которая великолепно танцевала узбекские танцы. Демонстрация фокусов с Азизом, чередовалась с исполнением узбекских танцев. Марьямхон прекрасно пела и танцевала народные танцы, став популярной среди народа, у неё появились подражатели даже среди русских артисток-танцовщиц. В 1920-годы создаются предпосылки для зарождения профессиональной узбекской эстрады. В 1923 году Мухитдин Кари-Якубов - известный певец и танцовщик, создает концертную группу, а в 1926 году - передвижной государственно-этнографический ансамбль. В его состав вошли известные мастера искусства, среди которых следует отметить комика, танцора и музыканта Юсупджана Шакарджанова, который вел программу в качестве конферансье. Необходимо вспомнить и то, что на протяжении многих лет, Шакарджан Юсупов работал вместе с Народным артистом Республики, Героем труда, основоположником узбекского профессионального цирка Каримом Зариповым. Несмотря на трудности, связанные с гастролями по городам и отдельным кишлакам, ансамбль проделал огромную работу по пропаганде узбекского национального, танцевального и музыкального искусства. Особым успехом среди народа пользовались песни и танцы в исполнении Тамары Ханум, которая прекрасно владела узбекским языком и исполнением народных танцев. Лапар-так называется песня и направление, в котором работала Тамара Ханум, она была одной из первых создательниц, и что важно первой исполнительницей женского узбекского танца в сопровождении песни. В 1936 году на базе этого музыкально-этнографического ансамбля, по инициативе деятеля искусств Тухтасина Джалилова и балетмейстера Али Ардобуса, был создан новый ансамбль песни и танца, в состав которого вошли уже известные мастера сцены – Народные артисты Узбекистана, кизикчи Шакарджан Юсупов, Уста Алим Камиллов – дойрист, Тамара Ханум, Муккарама Тургунбаева, Исахар Акилов и другие не менее известные артисты. Этот ансамбль, получивший в 1956 году название «Шодлик», внес большой вклад в развитие узбекского классического танца. Следом в 1957 году создается ансамбль «Бахор», руководителем которого была назначена Народная артистка Республики Муккарама Тургунбаева. Основу репертуара ансамбля составили традиционные, сюжетные, сольные, массовые и национальные, а также разных народов мира танцы. Развивая традиции национального танцевального искусства, М.Тургунбаева обогатила их достижениями современной хореографии. В ансамбле танцевали 40 прекрасных девушек, которые были всегда украшением любого концерта. В 1958 году создается ансамбль «Лязги», в репертуар которого вошли хорезмские национальные танцы, постановки которых были основаны на событиях, связанных с животными, сбора хлопка, винограда и т.д.

Наш колледж существует с 1933 года, основатель Народный артист Узбекистана, Герой труда Карим Зарипов. Истоки циркового, эстрадного, театрального искусства ходят глубоко в древность. Свообразные эстрадные представления, включавшие в себя песни, пляски, пантомиму, комические сценки существовали во многих странах Древнего

Востока, Греции, в Древнем Риме. Они исполнялись в дни календарных и религиозных праздников, во время совершения культовых обрядов, а также на народных гуляниях. В средние века значительную роль в развитии эстрадного искусства (как составной части театрально-зрелищного искусства) сыграли актеры-гистрионы. В разных странах их называли по-разному: например, в России – скоморохами, в Италии – мимами, во Франции – жонглерами, в Германии – шпильманами, в Англии – менестрелями, в Польше – франтами, в Болгарии – кукерами, в Средней Азии – масхарабозами и кизикчи. Гистрионы были универсальными артистами, которые владели несколькими жанрами: играли на музыкальных инструментах, пели, танцевали, показывали пантомимические этюды, разыгрывали комические сценки, исполняли разнообразные цирковые номера. Элементы эстрадного жанра широко использовались и в средневековом театре, например, в фарсовых сценках, а также в спектаклях итальянской комедии масок «Дель арте», получившей широкое распространение в XV-XVI веках – в эпоху Возрождения. Однако современная эстрада зародилась и сформировалась на рубеже XIX-XX веков. По мере того, как представления имели успех, сценические площадки становились более усовершенствованными, залы приспособлялись для того, чтобы предоставить зрителю максимум удобств. Также залы появились при постоянных домах и отелях, они получили название «Мюзик-холл», то есть музыкальный зал и явились принципиально новой формой развлекательного досуга Англии. Путники и бизнесмены, останавливающиеся в отелях, получали развлечения вместе с ужином. Долгое время программа мюзик-холлов состояла из выступлений комических певцов и цирковых номеров, представлением руководил ведущий, который один имел право пользоваться креслом, в английском мюзик-холле такой ведущий существовал очень долго, сидя в углу сцены и представлял артистов публике и комментировал спектакль, играя роль в некотором роде конферансье (в переводе с французского - лектор, докладчик). Искусство конферансье сформировалось во Франции в 70-80 годы XIX века, когда большой успех имели и литературные вечера. . . Огромным успехом пользовались кордебалеты «Фридрихштатпаласт» и «Мулен Руж», появившиеся в середине XX века. Французские шансонье Морис Шевалье, Эдит Пиаф, Шарль Азнавур, Мирей Матье, Джо Дассен и др. В начале 50-х годов XX столетия возникает новый стиль популярной джазовой музыки, получившей название рок-н-ролл, что в переводе означает «качайся», «кружись». Значительным событием в культурной жизни Узбекистана стало создание в 1973 году на базе эстрадного оркестра «Ташкентского мюзик-холла». Его руководителем был назначен Народный артист Республики Батыр Закиров, немалую роль в создании нового творческого коллектива сыграл его художественный руководитель, Заслуженный артист Республики Юнус Тураев. Театрализованная программа мюзик-холла, получившая название «Седьмое путешествие Синдбада», была поставлена на основе арабских сказок «Тысяча и одна ночь». Постановку осуществили известные режиссеры Марк Захаров и Юнгвальд Хилькевич совместно с Батыром Закировым. В красочном шоу органично соединились музыкальные, вокальные, танцевальные и цирковые номера. В коллектив были приглашены Заслуженные артисты Узбекистана, солисты Луиза и Науфаль Закировы, Юнус Тураев, Эсон Кандов, дойрист профессор Адыл Камалходжаев, артист цирка Юрий Махарашвили, артист оригинального жанра Андрей Петровец и другие. Эстрадный спектакль был успешно показан во многих городах страны и за её пределами. В середине 70-годов при Ташкентском «Цирке на сцене» было создано варьете «Экспресс-ревю» под руководством Леона Петросова. Следует отметить, что это было первое в Узбекистане варьете европейского образца. Его программа представляла собой синтез вокальных, танцевальных и цирковых номеров. Знакомясь с песнями и танцами народов мира, зрители как бы совершали путешествие по странам и континентам. На протяжении многих лет «Экспресс-ревю» показывал свои спектакли на сцене ресторана «Зарафшан», два раза в год полностью обновляя программу. В коллективах танцевали выпускники Республиканского эстрадно-циркового колледжа.

Одним из приоритетных направлений государственной политики является воспитание гармонично развитой молодёжи, формирование в подрастающем поколении таких качеств, как преданность идеям национальной независимости, любовь к Родине, к своей профессии, причастность к судьбе народа, самоотверженность. В реализации этих добрых устремлений огромную роль играют традиции и национальное искусство. В связи с этим, в нашей стране создаются все условия для молодых дарований во всех сферах художественной деятельности, проявления их творческого потенциала, их всесторонней поддержки. За годы независимости республики, в эстрадном искусстве благодаря государственной поддержке произошли значительные перемены. Узбекская эстрада заняла достойное место на мировой арене. Яркому и самобытному искусству узбекских артистов сегодня аплодируют зрители во всех странах мира. Ведущие мастера и талантливые молодые артисты цирка и эстрады достойно представляют нашу страну на различных Международных конкурсах и фестивалях. Например, Заслуженный артист Республики Узбекистан Улугбек Зарипов с номером «Амазонки Узбекистана» на международном фестивале артистов цирка в Китае заняли первое место и вошли в книгу рекордов CHINNESS, в конце номера три девочки на галопирующей лошади одновременно исполнили три сложнейших трюка, которые до этого и по сегодняшней день никто не исполнял в мировой практике, в финале номера все участницы исполнили танец «Кантри», выпускники эстрадно-циркового колледжа Кристина Воробьёва и Рустэм Османов, являются 4-кратными обладателями Золотого льва во Франции на Международном конкурсе артистов цирка, студент колледжа Султанов Султан вошёл в первую десятку лидеров в городе Юрмала на конкурсе «Новая волна», выпускница колледжа Светлана Сайдиева заняла восьмое место и вошла в десятку лучших исполнителей эстрадной песни и таких примеров немало. Чтобы решить многие проблемы в эстрадном искусстве, на мой взгляд, необходимо создавать новые произведения, новые хореографические постановки, современные коллективы, соответствующие требованиям времени. Бережно сохранять и развивать традиции национальной эстрады, обогащая их достижениями мирового эстрадного искусства, помогать молодым талантам в раскрытии их творческих способностях, больше давать им самостоятельности, идеям, постановкам. Таковы основные задачи, стоящее сегодня перед деятелями эстрадного искусства Узбекистана.

**Вывод.** Многолетний опыт профессиональной деятельности показывает, что для постоянного контроля новых постановок сегодня необходимо создать совет балетмейстеров, в который должны войти лучшие педагоги, знатоки эстрадного и хореографического искусства, чтобы не были нарушены каноны хореографии, а также для воспитания и помощи молодым балетмейстерам. Искусство хореографии постоянно развивается и видоизменяется, ведь язык пластики, танца которым владеют ее исполнители, всегда будут привлекать внимания и вызывать восхищения у зрителей, обогащая внутренний и духовный мир человека. И до сих пор никто не мог в полной мере познать магию танца, но кто связан с хореографией не может представить дальнейшую жизнь без нее.

#### Литература:

1. Зарипова К. Танец на манеже цирка: Сборник материалов Республиканской научно-практической конференции о проблемах танцевального искусства. - Т., 2012.
2. Зарипова К. Неугасаемые лучи искусства. - Т., 2018.
3. Я жизнь свою Искусству посвятила: Сборник статей, посвященный 110-летию со дня рождения Заслуженной артистки Республики Узбекистан Мубаракхон Зариповой, первой Узбекской клоунессе, наезднице и дрессировщице лошадей. - Т., 2016.

---

## TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING DOLZARBLIGI

*Adasheva Mavludaxon Umatalievna, O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasi dotsent v.b.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-pedagogik masalalari, kompyuter telekommunikatsiyalarining qo'llanilish tajribalari, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashda talabalarni faqatgina ekrandagi axborotlarni ko'rishiga va ularni qabul qilishgagina emas, balki ularning o'zlari ham bu jarayonda ijodiy ishtirok etish masalalari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalar, ta'lim tizimi, shaxsiyatni rivojlantirish, axborot madaniyat, kompyuter savodxonligi, ta'limning ishonchligi, multimedia vositalar.

## АКТУАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

*Адашева Мавлудахон Уматалиевна, и.о.доцента Государственной академии хореографии Узбекистана*

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены научно-педагогические вопросы использования информационных технологий в системе образования, опыт использования компьютерных телекоммуникаций, использования информационных технологий в образовательном процессе, которые помогают учащимся не только видеть и воспринимать информацию на экране, но также осветить вопросы творческого участия в этом процессе.

**Ключевые слова:** образовательный процесс, педагогические технологии, информационные технологии, образовательная система, развитие личности, информационная культура, компьютерная грамотность, надежность образования, мультимедийные средства.

## COST OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM

*Adasheva Mavludakhon Umatalievna, associate professor of State academy of choreography of Uzbekistan*

**Abstract.** This article discusses scientific and pedagogical issues of the use of information technology in the education system, experience in the use of computer telecommunications, the use of information technology in the educational process, which help students not only see and perceive information on the screen, but also highlights issues of creative participation in this process.

**Key words:** educational process, pedagogical technologies, information technologies, educational system, personal development, information culture, computer literacy, reliability of education, multimedia.

**Kirish.** Mamlakatning jahon hamjamiyatida egallagan o'mi uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bugungi kunda, inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirish, tobora takomillashib borayotgan texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni rivojlangan mamlakatlar tajribasi misolida yaqqol ko'rib turibmiz.

**Asosiy qism.** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy mamlakatlar hamkorligida zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan ishlab chiqarish korxonalari bunyod etilib, ularni kadrlar bilan ta'minlash ishlari mumkin qadar hal qilinmoqda. Shunday

bo'lsada mamlakatimizda zamonaviy mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bu muammoni ijobiy hal qilmasdan turib, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirib bo'lmaydi. Respublikamizda barkamol shaxs va yetuk mutaxassislarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu sababdan ta'lim mazmunini takomillashtirishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlarini samarali qo'llashni, ta'lim muassasalarida kompyuterlashtirishni rivojlantirishni, elektron axborot-ta'lim resurslaridan to'laqonli foydalanishni taqozo etmoqda. Ta'lim bosqichlari orasida uzviylikni ta'minlash ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari, prinsiplari orasida uzviylikni ta'minlashni taqozo etadi. Shu sababli uzviylikni ta'minlashda elektron o'quv-metodik majmualardan foydalanish samarali hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim taraqqiyoti shunday imkoniyatlarga yaratilgan kompyuter paketlaridan tashkil topishi mumkin, uyda shaxsiy kompyuterlarda, mustaqil ishlash uchun jihozlangan oliygohlarda, kompyuter sinflarida, yotoqxonalarda, maxsuslashtirilgan malakaviy auditoriyalarda foydalanishimiz mumkin.

Hech kimga sir emaski, hozirgi kunda Internet va umuman axborot texnologiyalari hayotimizni keskin o'zgartirib yubormoqda. Amaliy tahlillar ta'lim jarayonida katta samaraga ega bo'lishi uchun o'quv jarayonida interfaol, didaktik o'yinlar va mashq qildirgichlardan foydalanish taqozo etiladi. Ular tahsil oluvchilarning jamoada yoki individual faoliyatini samarali yo'lga qo'yib, kasbiy malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Interfaol o'yinlar ma'lum bir kasbiy sifatlarga va malakaga ega bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish maqsadida kelajakda kasbiy faoliyati bilan bog'liq vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatini beradi. Aynan didaktik o'yinlar va mashq qildirgichlarni yaratish elektron o'quv-metodik majmualar yaratishda katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bu qiyinchilik dasturiy-texnik va metodik qiyinchiliklar bilan bog'liq.

Tadqiqotimiz tomonidan hal qilinadigan masalaning mohiyatidan qat'iy nazar, insonning o'qitishning elektron tizimida samarali faoliyat olib borishi uchun boshlang'ich ma'lumotlarni, ishlov berishning oraliq natijalarini vizuallashtirish uslubi muhim ahamiyat kasb etadi, ular amaldagi va yakuniy ma'lumotlarni odamning ko'rish orqali qabul qilishiga va olingan natijalarni bir qiymatli talqin qilishiga mos ravishda taqdim qilishning yaxlit formasini ta'minlaydi. Interfeysning muhim talabi – uning intuitivligidir. Shuni qayd qilish lozimki, interfeysning boshqaruvchi elementlari qulay va ko'zga tashlanuvchan bo'lishi lozim. Shu bilan birgalikda ular e'tiborni asosiy mazmundan chalg'itmasligi lozim, boshqarish elementlarining o'zlari asosiy mazmun bo'lib hisoblanadigan holatlar bundan mustasno qilinadi. Shu bilan birga, pedagogikada o'qitishning mazmuni, usullari va tashkiliy formalarini asoslab beruvchi hamda ochib beruvchi didaktikaga katta e'tibor qaratiladi. O'qitish jarayoni bilimlar, ko'nikmalar va uddalashlarni egallashning ko'rgazmalilik, tizimlilik, osonlik va mustahkamlilik didaktik prinsiplariga mos ravishda quriladi. O'qituvchining fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olish san'ati bilimlarni mustahkam egallashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, kompyuterli darsliklar – faqatgina o'qituvchining imkoniyatlarini kuchaytiruvchi vositalar bo'lib hisoblanadi, biroq uning o'rnini bosa olmaydi.

Ta'lim jarayoni rivojiga bir nazar tashlasak, bugungi kunda kompyuter telekommunikatsiyalari yordamida qanchalik muhim pedagogik masalalarning yechimi topilayotganligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Ta'limning turli sohalarida kompyuter telekommunikatsiyalarining qo'llanilish tajribalaridan shuni ko'rish mumkinki, axborot texnologiyalari bizga bir qator ijobiy imkoniyatlarni yaratib berayapti, quyidagilar shular

jumlasidandir: professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalarning har xil turdagi hamkorlik ilmiy tadqiqotlarini (har xil ilmiy-amaliy loyihalar yordamida chinakam ijodiy tadqiqot, mustaqil amaliy faoliyat, mustaqil bilim orttirish, amaliy ijodiy faoliyat va boshqa turdagi hamkorliklarni) tashkil etish; ilmiy-uslubiy markazda ta'lim olayotgan keng ommaga tezkor mutaxassis maslahatlarini tashkil etish va yetkazish; masofaviy ta'lim va pedagogik kadrlar malakasini oshirish tarmog'ini tashkil etish; tezkor axborot almashinuvi; ta'limdagi sheriklarning, bu talaba, o'quvchi, o'qituvchi, ilmiy xodim bo'lishidan qat'iy nazar, ularga o'zaro fikr almashinish ko'nikmalarini hosil qilishni, muomala madaniyatini va o'z fikr-mulohazalarini tez, lo'nda va aniq ifoda etishni o'rgatish; madaniy, etnik, insonparvarlikning keng qamrovli ijobiy axborotlari bilan fikr almashinish natijasida yoshlarning madaniy va ijtimoiy qobiliyati va layoqatini o'stirish va hokazo.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashda talabalarni faqatgina ekrandagi axborotlarni ko'rishiga va ularni qabul qilishgagina emas, balki ularning o'zlari ham bu jarayonda ijodiy ishtirok etishlariga o'rgatishimiz lozim. Ta'limning didaktik xossalari bilan bog'langan yashirin imkoniyatlar olamini bevosita kompyuter telekommunikatsiyalari bilan bog'lash bu ta'lim sohasida zamonaviy va istiqbolli maqsadlarga ega. Didaktik funktsiya sifatida biz o'quv-tarbiyaviy jarayonda ma'lum bir maqsadlarda qo'llanilayotgan ta'lim vositalarining tashqi xossalari namoyonini tushunamiz. Bu ularning o'quv jarayonidagi foydalanish vazifalari, tutgan o'rni va ahamiyatidan iborat. Keyingi yillarda integratsiya (o'zaro bog'langan holda ilmiy-pedagogik hamkorlik ijodiy muhitini yaratish) g'oyasi jadal rivojlanayotgan nazariy va amaliy tadqiqotlarning asosi bo'lib bormoqda. Integratsiya, bir tomondan, ta'lim oluvchiga «dunyoni tanish»ni va fanlarning ilmiy asoslarini bilishni o'rgatsa, ikkinchi tomondan, ta'lim vaqtini tabaqalashtirgan holda uni bo'sh vaqtdan unumli foydalanishga o'rgatadi. Shuning uchun ta'lim jarayonidagi ko'plab masalalar va ularning yechimlari talabaning fikrlash faoliyatini o'stirishga qaratilmog'i lozim. Ana shu jihatlarning yanada samarali bo'lishiga erishish uchun subyektiv faktorlar, masalan, ta'lim oluvchining o'zgaruvchanligi, qiziqishi, talabi, intellektual rivojidan juda mohirona foydalana bilish talab etiladi. Bunga erishishda biz pedagoglarga juda ham qo'l keladigan ta'lim texnologiyasining bir qancha usullari mavjud. Ana shulardan biri loyiha usulidir. Loyiha usulini aynan hamkorlik faoliyatiga qo'llash juda yaxshi samara beradi. Bundan ilmiy to'garaklarda, ilmiy-uslubiy seminarlarda, mustaqil ta'limni tashkil etishda, hamkorlikdagi ijodiy muhitni yaratishda samarali foydalanish mumkin. Bularni yanada mazmunli va keng qamrovli qilib o'tkazishda, ta'lim oluvchining kelgusi ilmiy faoliyatga zamin yaratishda kompyuter telekommunikatsiyalari va axborot texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir. Bu jarayonda kompyuter telekommunikatsiyalari va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishning pedagogik maqsadlariga to'xtalib o'taylik. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi - bu dunyo ta'lim jarayoni rivojining muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri. Hozirgi kunga kelib respublikamizda ta'lim jarayonining deyarli barcha bo'g'inlarida va fan sohaslarida kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari vositalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Axborotlashtirish ta'lim olish jarayoniga chuqur kirib bormoqda. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'zlashtirish tezligini oshirish, keng bilimlar omboridan axborotlarni qabul qilish, bu bilimlarni chuqur o'rganish va o'zlashtirish imkonini bermoqda.

Bizga ma'lumki, ta'limda axborot texnologiyalari – bu axborotni tayyorlash va uni ta'lim oluvchiga kompyuter texnikasi va dasturiy vositalar yordamida uzatish jarayonidir.

Ta'limda axborot texnologiyalarining qo'llanilish jarayonida o'quv axborotini uzatishda ishtirok etuvchi ikkita komponenta mavjud: texnik vositalar (kompyuter texnikasi va aloqa vositalari) va har xil maqsadlarda yaratilgan dasturiy vositalar. Darsga tayyorgarlik va dars jarayonida kompyuterdan unumli foydalanishi uchun o'qituvchi bu komponentalarning funksional imkoniyatlari va qo'llanilish shartlarini juda yaxshi bilishi lozim, chunki ham texnik va ham dasturiy vositalar o'ziga xos xususiyatlarga va o'quv jarayoniga ta'sirga ega. Buni tushunish uchun dars jarayonida kompyuter texnikasi nima uchun qo'llaniladi va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib qanday uslubiy masalalar yechiladi, degan savolga javob berishimiz lozim.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik maqsadlari quyidagilar: shaxsiyatni rivojlantirish (tafakkur; estetik tarbiya; tajriba-tadqiqot faoliyatini olib borishni rivojlantirish; axborot madaniyatini shakllantirish; aniq bir sohaning mutaxassislarini tayyorlashda foydalanuvchining umumiy axborot tayyorgarligi («kompyuter savodxonligi») dan iborat ijtimoiy buyurtmani bajarish; o'quv-tarbiya jarayoni unumdorligini, ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, bilish va o'rganish faoliyatining muhim jihatlari ta'minlash, axborot va fanning integratsiyasi hisobiga fanlararo bog'liqlikni chuqurlashtirish.

Axborot texnologiyalari vositalarining uslubiy imkoniyatlari quyidagilar: bilimlarni vizuallashtirish; ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirish; obyektning rivojlanishi, chizma va tasvirlarni qurish, operatsiyalar (kompyuterdagi namoyishlar)ning bajarilish ketma-ketliklari jarayonlarini kuzatish imkoniyatlari; obyekt, jarayon va hodisalarni modellashtirish; ma'lumotlar bazasini tashkil etish va ulardan foydalanish; multimedia vositalaridan foydalangan holda qiziqarli shaklda tasvirlangan katta hajmdagi axborotlar manbaiga kira bilish; kompyuter kataloglari va spravochniklari bilan ishlashda axborotni izlash, qayta ishlash va jo'natish ko'nikmalarini shakllantirish; o'z o'zini nazorat qila bilish; mashq qilish va mustaqil ravishda tayyorlanishni o'rganish; ta'limning ishonchligini oshirish (har xil o'yinlar, multimedia vositalari); murakkab vaziyatlarda optimal yechimni topish ko'nikmalarini shakllantirish; fikrlashning ma'lum bir ko'rinishlarini rivojlantirish (masalan, ko'rgazmali, namunali); o'quv faoliyati madaniyatini shakllantirish; axborot madaniyatini shakllantirish; o'quv vaqti va mustaqil faoliyat vaqtini ajrata bilishni o'rgatish va hokazo.

Endi yuqorida ta'kidlangan ikkinchi komponentaga, ya'ni pedagogik dasturiy vositalarning turlariga to'xtalib o'taylik. Ta'limda axborot texnologiyalarining qo'llanilish jarayonida texnik vositalar bilan bir qatorda maxsus dasturiy vositalardan ham foydalaniladi. O'quv jarayoniga yo'naltirilgan dasturiy vosita – bu biror fan sohasini o'rganishda o'z aksini topgan dasturiy vosita bo'lib, bunda shu fan sohasini o'rganish texnologiyasi va u bilan bog'lik har xil o'quv faoliyatlarini amalga oshirish shartlari ta'minlanadi. Har xil turdagi o'quv jarayonlarini bunday funksional ta'minlovchi dasturiy vositalar pedagogik dasturiy vositalar deb ataladi. Hozirgi kunda pedagogik dasturiy vositalarning har xil turlari va guruhlari mavjud.

Uslubiy vazifasiga qarab pedagogik dasturiy vositalar quyidagilardan iborat: kompyuter darsliklari (darslari); mashq qilish (repetitor) dasturlari; nazorat qiluvchi dasturlar (test qobiqlari); axborot-spravochnik (ensiklopediya) dasturlar; imitatsion dasturlar; modellashtiruvchi dasturlar; namoyish qiluvchi dasturlar (slaydlar, videofilmlar); o'quv-o'yin dasturlari; bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazishga yo'naltirilgan dasturlar (kompyuter o'yinlari: quvnoq o'yinlar, strategik o'yinlar, boshqariluvchi o'yinlar, mantiqiy o'yinlar, sport o'yinlari va hokazo). Shunday qilib, kompyuter telekommunikatsiyalari va axborot

texnologiyalari yordamida olingan bilim uzoq vaqt xotirada qoladi va keyinchalik ularni amaliyotda qo'llash uchun qisqa vaqt ichida takrorlash bilan uni tiklash mumkin.

**Xulosa.** Axborot kommunatsion texnologiyalari asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, undan o'quv jarayonida keng foydalanish ta'lim bosqichlari orasida uzviylikni ta'minlashda ta'limning maqsadi, mazmuni, usullari, shakllari vositalari va prinsiplari orasida uzviylikni ta'minlash lozim. Shu bilan birga zamonaviy elektron darsliklar yaratish bugunning eng dolzarb masalalari hisoblanadi. Shuni inobatga olib, zamonaviy elektron darslik va o'quv qo'llanmalarni talab darajasida va ularni raqobatbardosh etib yaratish lozim deb o'ylayman.

#### **Adabiyotlar:**

1. Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari: Ilmiy konferensiya materiallari. - Samarqand: SamDU, 2022.

2. Агеев В.Н. Электронная книга: новое средство коммуникации. - М.: 1997.

3. Tillaev A.I. Axborot texnologiyalari kurslari bo'yicha elektron darsliklar yaratish va ularni ta'limda qo'llash // Amaliy matematika va informatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari - Al-xorazmiy 2012: Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2012 yil 19-22 dekabr. - T., 2012. - B. 119-120.

4. Zakirova F. va boshq. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi: Metodik qo'llanma. - T.: OO'MTV, 2010. - 57 b.

---

## HARBIYLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASASI KURSANTLARINING JANGOVOR TAYYORGARLIK KOMPETENTLIGINI JISMONIY TARBIIYA MASHG'ULOTLARI ORQALI OSHIRISH USULLARI

*Mirzaxalilov Abror Xabirullaevich, IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari o'z oldiga nafaqat kursantlar o'rtasida kasbiy mahoratni shakllantirish, balki ularning jismoniy tayyorgarligi va jangovar tayyorgarligini rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Zamonaviy usullari va yondashuvlarini tahlil qiladilar, harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarining ushbu sohadagi tajribasini ta'kidlaydilar. Kursantlarning jangovar tayyorgarligini shakllantirish bo'yicha samarali ishlarning asosiy jihatlari aniqlashga imkon beradi va ushbu jarayonni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** jismoniy tarbiya, taktika, amaliy mashqlari, sport mashqlari, jang texnikasi, harbiy tayyorgarlik, chidamlilik, o'z-o'zini tarbiyalash, moslashuvchanlik, harbiylashtirilgan ta'lim muassasasi kursantlari, kompetentlik, rivojlantirish.

## МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ БОЕСПОСОБНОСТИ КУРСАНТОВ ВОЕННИЗИРОВАННОГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ

*Mirzaxalilov Abror Xabiruullaevich, старший преподаватель Академии МВД*

**Аннотация.** В данной статье показано, что современные военнизированные учебные заведения поставили перед собой задачу не только формирования профессиональных навыков у курсантов, но и развития их физической подготовки и боевого духа. Проанализированы современные методы и подходы, опыт военнизированных учебных заведений в этой области, что позволяет выявить основные аспекты эффективной работы по формированию боевой готовности курсантов и даны рекомендации по совершенствованию этого процесса.

**Ключевые слова:** физическая подготовка, тактика, практические упражнения, спортивные упражнения, техника боя, военная подготовка, выносливость, самообразование, гибкость, курсанты военнизированного учебного заведения, компетентность, развитие.

## METHODS OF INCREASING THE COMBAT CAPABILITY OF CADETS OF A PARAMILITARY EDUCATIONAL INSTITUTION THROUGH PHYSICAL TRAINING

*Mirzaxalilov Abror Khabibullayevich, senior lecturer Academy of the Ministry of internal affairs*

**Abstract.** In this article, modern paramilitary educational institutions have set themselves the task not only of forming professional skills among cadets, but also of developing their physical fitness and fighting spirit. They analyze modern methods and approaches, highlight the experience of paramilitary educational institutions in this area. It allows to identify the main aspects of effective work on the formation of combat readiness of cadets and provides recommendations for improving this process.

**Key words:** physical training, tactic, practical exercises, sports exercises, combat technique, military training, endurance, self-education, flexibility, cadets of a paramilitary educational institution, competence, development.

**Kirish.** Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari orqali harbiylashtirilgan ta'lim muassasasi kursantlarining jangovar tayyorgarlik kompetentligini rivojlantirishdan maqsadi – harbiy ta'lim muassasasi kursantlarining jangovar tayyorgarligini rivojlantirishga yordam beradigan samarali jismoniy tarbiya tizimini ishlab chiqish va joriy yetish.

**Asosiy qism.** Harbiy ta'lim muassasalaridagi mavjud usullar va jismoniy tayyorgarlik dasturlari tahlili, yig'ilgan ma'lumotlar tahlillari asosida harbiy kursantlarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi jismoniy tarbiya tizimi ishlab chiqiladi. U kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik va harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasini o'z ichiga oladi. Harbiy ta'lim muassasasi kursantlari ishtirokida amaliyotda sinovdan o'tkaziladi. Sinovlar davomida yangi tizimning samaradorligi va kursantlarning jangovar tayyorgarligini baholashdan iborat. I.A.Karimov «Xalqimizning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O'zbekiston xalqi avlodidan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi» [1] degan. O'rganish natijalari harbiy ta'lim muassasalarida jismoniy tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish va kursantlar tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maqsad harbiylashtirilgan ta'lim muassasasi kursantlarining jismoniy tayyorgarlik orqali jangovar tayyorgarlik bo'yicha malakasini oshirish, harbiy sohada jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan yuqori jismoniy va psixologik fazilatlarni shakllantirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an'analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o'zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat» [2].

Jismoniy tarbiya orqali kursantlarning jangovar tayyorgarlik bo'yicha malakasini oshirish maqsadining asosiy jihatlari quyidagilar: maqsad-qiyin sharoitlarda jangovar operatsiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan chidamlilik, kuch, tezlik va kuch fazilatlarni va boshqa jismoniy jihatlarni rivojlantirish; og'ir jismoniy mashqlar va jangovar vazifalarni bajarishda stressga qarshilik, o'zini tuta bilish, qat'iyat va qat'iyatlilikni rivojlantirish; guruh ichida o'zaro ta'sir o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirish, komandirlarning buyruqlariga adekvat (tenglashgan, o'xshash) javob berish va boshqa ishtirokchilar bilan kelishilgan holda vazifalarni samarali bajarish; kursantlarning jismoniy va psixologik farovonligi uchun sharoit yaratish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va jarohatlarning oldini olish.

